- **Negative correlation**: When one asset rises while another falls. A classic example is the relationship between the U.S. dollar index and gold prices.
- **Low or no correlation**: When two assets move independently of each other. Some emerging market currencies and cryptocurrencies have historically shown weak correlations with developed market equities.

From a methodological perspective, correlation analysis is widely used in portfolio theory, especially within the framework of modern portfolio theory. Investors seek to combine assets with low or negative correlations in order to maximize diversification and reduce overall risk. More advanced econometric techniques, such as rolling correlation, vector autoregression (VAR), and copula models, are often employed to capture dynamic relationships that change over time[2].

Empirical Analysis of Market Correlations (2015–2025)

Gold and the U.S. Dollar Index (DXY)

The relationship between gold and the U.S. dollar index remains one of the most studied examples of negative correlation in financial markets. Gold is priced in U.S. dollars, which creates an inverse dynamic: when the dollar strengthens, gold tends to lose value, as it becomes more expensive for non-dollar investors Empirical studies covering 2015–2025 confirm that this negative correlation persists, although its magnitude fluctuates across time. During periods of financial stress, such as the COVID-19 pandemic in 2020, the inverse relationship intensified, as investors fled towards safe-haven assets. Conversely, in times of economic stability, the strength of

[1] Bodie, Z., Kane, A., & Marcus, A. (2018). *Investments* (11th ed.). McGraw-Hill Education.

[2] Engle, R. (2002). Dynamic conditional correlation: A simple class of multivariate GARCH models. *Journal of Business & Economic Statistics*, 20(3), 339–350.

the correlation weakens, reflecting the impact of other macroeconomic factors such as inflation expectations and monetary policy.

Another important factor shaping this relationship is U.S. Federal Reserve policy. Periods of monetary tightening, such as the interest rate hikes in 2018 and again in 2022–2023, strengthened the dollar and put downward pressure on gold prices. In contrast, expansive monetary policy—characterized by near-zero interest rates and large-scale asset purchases during 2020–2021—supported gold's rally to historical highs above $2,000 per ounce. Furthermore, inflation expectations often act as a mediating variable: higher inflation reduces the real return on dollar-denominated assets, increasing the attractiveness of gold as a store of value.

Figure 1: Correlation of Gold with U.S. Dollar (2015-2025)[3]. Yellow line is Gold and Red line is U.S. Dollar.

Crude Oil and Stock Market Indices (S&P 500, Nasdaq)

Crude oil prices have a significant impact on stock markets, particularly in the United States, given the economy's dependence on energy consumption. The correlation between crude oil (WTI and Brent) and stock indices such as the S&P 500 and Nasdaq is generally positive, but it is highly sensitive to the macroeconomic context. However, during the oil price collapse in 2015–2016, stock markets showed resilience, leading to a temporary breakdown in the correlation. In 2020, when the oil market experienced an unprecedented crash with futures trading at negative prices, the correlation

[3] https://ru.tradingview.com/chart/0t3E75rF

temporarily turned negative, highlighting the exceptional conditions of that crisis. From 2021 to 2023, as the global economy recovered and energy demand surged, oil and stock indices again moved in tandem, reinforcing their positive relationship[4].

Figure 2: Correlation of S&P 500 with Brent Crude Oil(2015-2025)[5]

Bitcoin and Traditional Markets

Bitcoin has emerged as a unique asset class over the past decade, attracting increasing attention from both institutional and retail investors. Initially, Bitcoin was considered largely uncorrelated with traditional financial markets, which reinforced its reputation as a diversification tool. However, from 2018 onwards, and particularly during the pandemic years, Bitcoin's correlation with major stock indices such as the S&P 500 and Nasdaq began to increase significantly. From 2020 to 2022, Bitcoin demonstrated a strong positive correlation with technology stocks, particularly those represented in the Nasdaq index, as both asset classes became highly sensitive to monetary policy decisions and liquidity conditions[6]. While some periods suggested that Bitcoin might

[4] World Bank. (2023). *Global Economic Prospects*. Washington, D.C.

[5] https://ru.tradingview.com/chart

[6] Baur, D.G., Hong, K., & Lee, A.D. (2018). Bitcoin: Medium of exchange or speculative assets? *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*, 54, 177–189.

function as a “digital gold,” the data from 2015–2025 reveal that Bitcoin is far more volatile and less reliable as a safe haven compared to traditional gold markets.

Figure 3: Correlation of Nasdaq Index with Bitcoin (2020-2025)[7]

Summary of Findings

The empirical evidence from 2015–2025 highlights several key points. First, the gold–dollar relationship remains a textbook example of stable negative correlation, intensifying during times of crisis. Second, oil and stock markets generally move together, though the strength and direction of this correlation depend heavily on the macroeconomic context. Third, Bitcoin has transitioned from being largely uncorrelated to becoming more closely tied to equity markets, particularly technology-driven indices, reducing its value as a diversification instrument. These findings illustrate the dynamic nature of financial market correlations and their sensitivity to global events, monetary policy, and investor behavior.

Discussion

The findings of this study underscore the complexity and dynamism of financial market correlations. First, the negative correlation between gold and the U.S. dollar confirms gold’s status as a traditional hedge against currency fluctuations and macroeconomic uncertainty. However, the intensity of this correlation varies depending on global financial conditions. For example, during the COVID-19 pandemic in 2020, investors intensified their demand for gold as a safe haven, leading

[7] https://ru.tradingview.com/chart/0t3E75rF/?symbol=BINANCE%3ALTCUSDT.P

to stronger inverse movements relative to the dollar[8].

Second, the oil–equity relationship illustrates how correlations can shift depending on the balance between supply shocks and demand shocks. When oil prices rise due to stronger global demand, stock markets often rally simultaneously, reflecting higher expected corporate earnings. Conversely, when oil price volatility is driven by supply disruptions or geopolitical events, higher energy costs may depress equity performance, leading to weaker or even negative correlations.

Third, Bitcoin's evolution highlights how new asset classes gradually integrate into the broader financial system. Initially uncorrelated, Bitcoin's increasing alignment with equities—particularly technology stocks—suggests that it is increasingly perceived as a speculative risk asset rather than an independent store of value. This convergence reduces its diversification benefits, challenging the narrative of Bitcoin as "digital gold".

Overall, the results demonstrate that correlations are not static but context-dependent. Investors relying on historical relationships for risk management must consider how correlations evolve in response to crises, policy shifts, and innovations in financial markets.

Conclusion

This article has examined the correlations between major financial markets—gold and the U.S. dollar, crude oil and equity indices, and Bitcoin and traditional assets—over the period 2015–2025. The analysis confirms three central conclusions.

1. **Gold remains a consistent hedge against the dollar**, especially in times of financial instability, reaffirming its safe-haven role.
2. **Oil and equity correlations are highly sensitive to macroeconomic context**, with positive relationships during demand-driven booms and weaker or negative linkages during supply shocks.
3. **Bitcoin has transitioned from being an uncorrelated asset to one that increasingly mirrors equity markets**, particularly in periods of abundant liquidity, thereby reducing its effectiveness as a portfolio diversifier.

These findings have important implications for portfolio management. They suggest that diversification strategies must be dynamic, continuously adjusting to evolving

[8] Reboredo, J.C. (2013). Is gold a hedge or safe haven against oil price movements? *Energy Economics*, 40, 38–49.

market conditions. Moreover, they highlight the need for policymakers and institutional investors to monitor cross-market linkages as potential channels of systemic risk.

Future research should extend the analysis by applying advanced econometric models such as time-varying copulas and machine-learning–based predictive analytics. Such approaches would help capture nonlinearities and structural breaks in correlations, especially as new asset classes such as digital currencies and carbon credits gain prominence in global portfolios.

References

1. International Monetary Fund (IMF). (2023). *World Economic Outlook: Navigating Global Divergences*. Washington, D.C.
2. Bodie, Z., Kane, A., & Marcus, A. (2018). *Investments* (11th ed.). McGraw-Hill Education.
3. Engle, R. (2002). Dynamic conditional correlation: A simple class of multivariate GARCH models. *Journal of Business & Economic Statistics*, 20(3), 339–350.
4. World Bank. (2023). *Global Economic Prospects*. Washington, D.C.
5. Baur, D.G., Hong, K., & Lee, A.D. (2018). Bitcoin: Medium of exchange or speculative assets? *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*, 54, 177–189.
6. https://ru.tradingview.com/chart/0t3E75rF/?symbol=BINANCE%3ALTCUSDT.P

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH METODIKASI

Xamrayeva Zarina
Buxoro Xalqaro Universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalari tahlil qilinadi. Muallif innovatsion yondashuvlar orqali o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni faol, mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish usullarini taklif etadi.

Kalit so‘zlar:

Innovatsion texnologiyalar, mustaqil fikrlash, boshlang‘ich ta’lim, metodika, kreativlik.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение инновационных технологий в формировании самостоятельного мышления учащихся начальных классов. Автор анализирует современные образовательные технологии, способствующие развитию аналитического мышления, решения проблем и творческого подхода. В работе предложены методы стимулирования активности и самостоятельности учащихся в учебном процессе.

Ключевые слова:

Инновационные технологии, самостоятельное мышление, начальное образование, методика, креативность

Abstract

This article examines the role and importance of innovative technologies in developing independent thinking among primary school students. The author analyzes modern educational technologies that promote analytical thinking, problem-solving, and creative approaches. The paper proposes methods to encourage students’ activity, independence, and critical thinking in the learning process.

Keywords:

Innovative technologies, independent thinking, primary education, methodology, creativity.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonini zamon talablariga moslashtirish dolzarb masalalardan biridir. Dunyo imoratlari ichida eng ulug`i maktab bo`lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o`qituvchilik va murabbiylikdir. Har bir ustoz, har bir pedagog yosh avlodni ko`p asrlik milliy madaniyatimiz va tariximiz, shuningdek zamonaviy fan-texnika yutuqlari asosida tarbiyalash ishiga o`z hissasini qo`shishi, samarali maktab poydevorini qurishi, mustahkamlashi lozim. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituuvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayonigamohirona tadbiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatishda innovatsion ta’lim texnologiyasidan foydalanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash bugungi boshlang‘ich ta’lim oldiga qo‘yilgan muhim talablardan biridir. Chunki zamonaviy pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson va qiziqib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o‘sishiga, ham ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi.Ta`limning bugungi vazifasi o`quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot oqimidan oqilona foydalanishga o`rgatish, uzluksiz o`rganish uchun ma`qul muhit shart- sharoit, yaratishdan iborat. Boshlang‘ich sinf bosqichi shaxsning tafakkuri, dunyoqarashi va o‘qishga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi eng muhim davr hisoblanadi. Shu bois, bu bosqichda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratadi. Innovatsion texnologiyalar – bu jarayonda eng samarali vositalardan biri bo‘lib, ular ta’lim jarayonini interfaol, qiziqarli va o‘quvchiga yo‘naltirilgan shaklga keltiradi. Inovatsion texnologiya - ta`lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo`llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta`lim jarayonida o`qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritish bo`lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Boshlang’ich sinf darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish - bu o`quvchilarni faolligiga, erkin va mustaqil fiklashiga chorlaydi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg`ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo`llanilganda mustaqil ishlash ko`nikma va malakasi rivojlanadi.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: kuzatish, intervyu, pedagogik eksperiment, diagnostika, tahlil va sintez. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar asosida innovatsion texnologiyalarning ta’siri o‘rganildi. Eksperimental guruhda o‘qituvchilar darslarda raqamli vositalar – interaktiv doskalar, onlayn testlar, multimediali taqdimotlar va gamifikatsiya usullaridan foydalandilar. Nazorat guruhi esa an’anaviy o‘qitish usullarida tahsil oldi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilishda statistik va sifat tahlil usullaridan foydalanildi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi. Bunday darslarda o`qituvchi o`quvchilarni faoliyatini dars maqsadiga yo`naltiradi bu usullarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlikjarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, dars jarayonida fanga bo`lgan qiziqishlari doimiyligi ta`minlanishi, o`qituvchi va o`quvchilarning hamkorligidagi faoliyatining doimiy ravishda tashkil etilishini ta`minlaydi. O’qituvchi darsga tayyorgarlik ko`rish mobaynida o`quv vositalarini darsning rejadagi mavzusiga qarab tanlashi va asosiy e`tiborni qo`llaydigan metodlari va tanlagan o`quv vositalariga qaratishi lozim.

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi metodik asoslar va bosqichlar asosida olib borildi:

1. Nazariy tahlil metodi.

Mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, pedagogik manbalar, ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganilib, “mustaqil fikrlash”, “innovatsion ta’lim texnologiyalari”, “kritik tafakkur” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati tahlil qilindi. Bu bosqichda ilgari ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar o‘zaro solishtirilib, tadqiqot uchun nazariy asos yaratildi.

2. Diagnostik metodlar.

O‘quvchilarning boshlang‘ich bosqichdagi fikrlash darajasini aniqlash uchun maxsus so‘rovnomalar, psixologik testlar hamda o‘quv topshiriqlari asosida dastlabki diagnostika o‘tkazildi. Diagnostika jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari baholandi.

3. Eksperimental metod.

Tadqiqotning amaliy bosqichida innovatsion texnologiyalar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Baliq skeleti”, “Debat”, “Insert”, “Venn diagrammasi” kabi metodlar asosida dars jarayonlari tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari ikki bosqichda: tajriba guruhi va nazorat guruhida olib borildi. Tajriba guruhi o‘quvchilari bilan darslarda interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), elektron ta’lim platformalari va raqamli resurslardan foydalanildi.

4. Kuzatish va suhbat metodi.

O‘qituvchi faoliyati, o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtiroki, ularning fikrlash faolligi muntazam kuzatilib bordi. Shuningdek, o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan individual va guruhli suhbatlar o‘tkazilib, ularning innovatsion metodlarga nisbatan munosabati o‘rganildi.

5. Matematik-statistik tahlil.

Tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘rtasidagi farq matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar asosida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini oshirishga qanday ta’sir ko‘rsatgani aniqlab berildi.

6. Pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish.

Tajriba yakunida olingan natijalar tahlil qilinib, samarador metodlar ajratib olindi va ularning amaliyotda qo‘llanishi uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar qo‘llangan darslarda o‘quvchilarning faolligi 35% ga, mustaqil fikrlash darajasi esa 40% ga oshgan. O‘quvchilar yangi mavzularni tezroq o‘zlashtirgan, muammoli vaziyatlarda yechim topishga qiziqish bildirgan. Masalan, interfaol testlardan foydalanish o‘quvchilarni

javobgarlikka o‘rgatgan, elektron platformalar orqali berilgan topshiriqlar esa ularning ijodiy yondashuvini kuchaytirgan. Darslarda 'miya hujumi', 'klaster', 'aqliy hujum' kabi metodlar bilan birga raqamli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirgan.

Muhokama

Olingan natijalar innovatsion texnologiyalarning boshlang‘ich ta’limda samarali ekanligini tasdiqlaydi. Ular o‘quvchilarda bilim olish jarayonini shaxsiy tajriba bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar o‘qituvchidan yangi rolni – fasilitator, yo‘naltiruvchi va motivator rolini bajarishni talab etadi. Bu esa pedagogik jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatni demokratlashtiradi. Biroq, ba’zi muammolar ham mavjud: barcha o‘qituvchilar texnologik savodxonlikka ega emas, maktablarning texnik bazasi ham yetarli emas. Shuning uchun o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar, malaka oshirish dasturlari tashkil etish zarur.

O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. Muhimi, didaktik o'yinlar jarayonida bolada o'z kuchiga ishonch shakllanadi, erkin harakat qilishga, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga o'rganadi, mustaqil fikrlar bildira boshlaydi. Masalan, *"Suratdagi xatoni top"* o'yinida bola suratni mustaqil kuzatadi. Qish manzarasi tasvirlangan suratda daraxtning gullayotgani ham chizilgan bo'lsa, buni bola mustaqil topadi. Shu joyda uning tafakkuri ham ishga tushadi. Ya'ni o'rganganlari asosida har bir faslning o'ziga xosliklarini esga oladi va qishda daraxt gullamasligini asoslaydi. Xuddi shuningdek, *"Bo'lishi mumkin emas"*, *"Matndagi xatoni top"* o'yinlari, rebus, boshqotirma kabilar o quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Shuningdek, darslikdagi rasm ustida ishlashga doir mashqlar ham o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Bola rasmga o'z munosabatini bildiradi, savol-javoblarda faol ishtirok etadi, rasm asosida hikoya yozish topshirig'i berilsa, u o'z tasavvurlari asosida hikoya yozadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida bolani mustaqil fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari keng va undan oqilona foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchini matn ustida ishlashga yo'llash mustaqil fikrlashga o'rgatishning eng samarali usullaridan biridir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish – ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishidir. Bu metodika o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy

tafakkurini rivojlantiradi, ularni bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga o‘rgatadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda o‘qitish va zamonaviy raqamli resurslar bilan ta’minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev B. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2020.
2. Saidova M. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2021.
3. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
4. OECD Report: Innovation in Education. – Paris, 2023.
5. Vygotsky L. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
6. Papert S. The Children’s Machine: Rethinking School in the Age of the Computer. – New York: Basic Books, 1993.
7. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – Teachers College Press, 2024.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

BADIIY DISKURSDA LISONIY PORTRET

Xoliqulova Shoxista,
30-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Samarqand, O'zbekiston
E-mail: shohistaxoliqulova71@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy tilshunoslikda inson omili, xususan, «lisoniy shaxs» tushunchasi ilmiy tadqiqotlarning markazida turadi. Shu sababli, ushbu maqolada aynan shu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada badiiy matnda personajning ruhiy va emotsional holatini qanday ifodalashi, uning xarakteri va individual tomonlarini tasvirlashda aksiologik va baholovchi so'zlarning semantik, stilistik hamda pragmatik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Badiiy matn uchun muhim bo'lgan emotsional taassurot yoki kognitiv obrazni yaratishda yozuvchining atrofdagi odamlar, predmetlar va voqealarni qanday qabul qilishi katta ahamiyatga ega. Bu t esa badiiy asarda personajlarning his-tuyg'ulari orqali muallifning individual emotsiyalarini ifoda etishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, til shaxsi, baho, emotsional baho, ekspressiv baho, illokutiv nutqiy akt, perlokutiv akt, nutq vaziyati, ichki nutq, predikat, modus, eksperienser, patsiens.

Ma'lumki, kommunikatsiya jarayonida muloqotchilarning o'zaro munosabati muhim o'rin tutadi.Tilda mavjud bo'lgan leksik, frazeologik va grammatik birliklarning muomalaga kiritilishi to'g'ridan to'g'ri so'zlovchining kommunikativ maqsadi hamda nutq qaratilgan shaxsga bo'lgan munosabati bilan bog'liq bo'ladi. Nutqiy vaziyat uchun mos keladigan til birligining to'g'ri tanlanishi uni emotsional-ekspressiv vositaga aylantiradi. Tilshunos olim N.Mahmudov shunday fikrlarni bildiradi: «Estetik vazifa tilning asosiy kommunikativ vazifasini qulaylashtiradi, uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta'sir quvvatini namoyon etadi» [3]. Muomala jarayonida qo'llanilgan leksik va frazeologik birliklar qatori antroponimlar vositasida so'zlovchi mansub bo'lgan xalqning milliy-ma'naviy xususiyatlari, ijtimoiy turmush tarzi va dunyoqarashi, e'tiqodi, an'analari va urf-odatlari bilan bog'liq jihatlar ham aks etadi. «Antroponimiya makroko'lamiga kiradigan nomlar quyidagi atoqli otlardan tashkil topadi: 1) ismlar; 2) laqablar; 3) familiyalar; 4) otaismlar; 5) taxalluslar; 6) shaxsni nomlashning boshqa xil tarixiy

shakllari» [1].

Badiiy matnlarda antroponimlar asarning mazmuni, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.Yozuvchi obraz yaratar ekan, asardagi har bir voqea-hodisani unga bog‘lab talqin qiladi.Asarda yozuvchi tasvirlayotgan shaxsning nomi, lisoniy badiiy portreti, ichki kechinmalari, voqealar tizimida tutgan o‘rni o‘zaro aloqadorlikda badiiy obrazni hosil qiladi. Badiiy prozaik matnlar bo‘yicha kuzatishlar olib borgan O.A.Maltseva lisoniy badiiy portretni insonning tashqi qiyofasi personaj obrazini hosil qiluvchi vositalardan biri va tashqi ko‘rinish alohida qismlari – yuz tuzilishi, mimika, figura, gavdaning ko‘rinish holati, imo-ishora, harakatlar, kiyimlarning tavsifi sifatida belgilaydi [2].

Antroponimlar badiiy matnda qatnashgan personajni nomlashdan tashqari muallif munosabatini ham ifodalashga xizmat qiladi. Asardagi antroponim vositasida o‘quvchiga personaj to‘g‘risida berilgan dastlabki ma’lumotlar lisoniy badiiy portret tasviri bilan yanada to‘ldirilib, boyitib boriladi. Asarda personaj nomi va tashqi ko‘rinishining bir yoki bir necha tafsilotlarining aks ettirilishi o‘quvchida obraz haqida muayyan tasavvurning hosil bo‘lishiga imkon beradi. Aytish lozimki, “bugungi kunda «lisoniy shaxs» tushunchasi zamonaviy tilshunoslikning markaziy fenomen hodisasi sifatida kategorial maqomini egallamoqda. Ko‘pchilik tadqiqotchilar bu tushunchani tilshunoslikning yangi yo‘nalishi – antropolingvistika rivojlanishi uchun dastlabki bosqichiga xizmat qiluvchi obyekt sifatida baholamoqda”[4]. Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida Xudoyorxon va Musulmonqulning lisoniy badiiy portreti quyidagicha chizilgan:

Shu jallodlar orasida o‘tib uchunchi bo‘limga kirilsa, qarshida yarim gazlar yuksaklikda to‘rt oyog‘liq oq marmardan yasalg‘an taxt ustida oltin kamarga taqilg‘an oltin sopliq qilichini tizasi ustiga ko‘ndalang qo‘yib, qizil duxobadan tikilgan po‘stun kamzul ustidan adras to‘n kiygan, boshig‘a simobi shohi salla o‘rag‘an o‘n sakkiz yoshlar chamaliq, cho‘ziqqina yuzlik, bug‘doy ranglik xon o‘lturar edi.

Bu Xudoyor edi. Xonning so‘l tomonidag‘i oltin hallik kursi kishidan bo‘sh, o‘ngdagi — ichki saroyga kiradirgan eshikcha yonidag‘i kursi ustida O‘ratepa chakmani ustidan qayish kamar bog‘lab, soddag‘ina qilich taqing‘an, boshig‘a oq barra popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarlik tekis yaratilg‘an, o‘rtacha soqol, qisiq ko‘z, bug‘doy rang, o‘rta yoshliq bir qirg‘iz— Musulmonqul o‘lturar va hozirg‘ina hudaychi tarafidan o‘ziga topshirilg‘an ariza va maktublardan ochib o‘qur edi (Abdulla Qodiriy. O’tkan kunlar).

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, lisoniy portretni keng va tor ma’noda izohlash mumkin.Tor ma’noda lisoniy portretning bir jihati ta’riflansa, keng ma’noda

esa portret hosil qiluvchi vositalar jamlanmasi tushuniladi. Xudoyorning lisoniy badiiy portreti tashqi ko‘rinish alohida qismlari – yuz tuzilishi (*cho‘ziqqina yuzlik, bug‘doy ranglik)* yoshi (*o‘n sakkiz yoshlar chamaliq)*, kiyimlarning tavsifi (*qizil duxobadan tikilgan po‘stun kamzul ustidan adras to‘n kiygan, boshig‘a simobi shohi salla o‘rag‘an)* bilan xarakterlansa, Musulmonqulning lisoniy badiiy portreti shunday qismlardan tashkil topgan: yuz tuzilishi (*basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarlik tekis yaratilg‘an, o‘rtacha soqol, qisiq ko‘z, bug‘doy rang)*, yoshi (*o‘rta yoshliq*), millati (*qirg‘iz*) , harakatlari (*hozirg‘ina hudaychi tarafidan o‘ziga topshirilg‘an ariza va maktublardan ochib o‘qur edi)*, kiyimlarning tavsifi (*o‘ngdagi — ichki saroyga kiradirgan eshikcha yonidag‘i kursi ustida O‘ratepa chakmani ustidan qayish kamar bog‘lab, soddag‘ina qilich taqing‘an, boshig‘a oq barra popoq kiygan).*

Shuni qayd etish lozimki, muallif hikoya qilish jarayonida personaj tashqi ko‘rinishini tasvirlash orqali unga o‘z munosabatini ham ifodalaydi.Yuqorida muallifning Musulmonqulning yuz tuzilishiga bergan ta’rifi ham buni tasdiqlaydi.

Badiiy matnda obrazning lisoniy badiiy portretini yaratishda muallif munosabati doimo birinchi o‘rinda turadi.Bu avvalo, yozuvchining obrazni nomlashida ham seziladi.Abdulla Qodiriy romanning bosh obrazlaridan biri – Kumushning lisoniy portretini tasvirlashda poetik ta’sirchanlikni oshiruvchi vositalardan mohirlik bilan foydalangan.Tasvir quyidagicha:

Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib ayvonning chap tarafidagi daricha orqalik uyga kiramiz, ham uyning to‘riga soling‘an atlas ko‘rpa, par yostiq quchog‘ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg‘oq yotqan bir qizni ko‘ramiz.Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi...qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabi’atning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘lturdi. Sariq rupoh atlas ko‘ynakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi bir oz ko‘tarilib turmoqda edi. Turib o‘lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirg‘anib qo‘ydi.Silkinish orqasida uning yuzini to‘zg‘ig‘an soch tolalari o‘rab olib jonso‘z bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko‘ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibi edi.(24-bet)

Yozuvchi Kumush portretini tildagi mavjud lingvostilistik vositalar yordamida shunday bir mahorat bilan chizadiki, uni o‘qigan kishining ko‘zi o‘ngida bu obraz

butun borligi bilan namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari Kumushning ma’naviy-axloqiy qiyofasi ham ana shunday tashqi go‘zallikka mos va yuksak darajada ekanligini ko‘rsatishda tashqi ko‘rinish alohida qismlari ham muhim uslubiy vosita sifatida ishtirok etgan. Bu qismlarning har biri o‘ziga xos baholash vazifasini bajarganligi seziladi. Kumushning tashqi ko‘rinishi quyidagicha o‘z badiiy tasviriga ega bo‘lgan:

yuz tuzilishi: *Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi...qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi...)*, mimika *boshini bir silkitdi-da, ijirg‘anib qo‘ydi*);

gavdaning ko‘rinish holati: *Sariq rupoh atlas ko‘ynakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi bir oz ko‘tarilib turmoqda edi)*;

harakatlari: *uyning to‘riga soling‘an atlas ko‘rpa, par yostiq quchog‘ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg‘oq yotqan... , Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabi’atning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘lturdi)*.

Bu tasvirlar orqali lisoniy portretning xarakterlovchi, baholovchi ko‘rinishi yuzaga kelgan. Asarda Kumush obrazi yaratilishi uchun shart bo‘lgan shakl va mazmun birligining o‘z ifodasini topishi lisoniy birliklarning badiiy estetik imkoniyatlarini yanada kengaytirgan.

Xulosa qilib aytganda, lisoniy portret badiiy asar mazmunini ochishda, uning badiiy-estetik qimmatini oshirishda, shuningdek personajlar xarakter-xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1.Авлақулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи. Филол.фанлари номз….дисс. автореф. -Тошкент, 2012. -Б.9-10.

2.Мальцева О.А. Семантико-стилистическая интерпретация словесного портрета и повторной номинации в художественном прозаическом тексте. Л., 1986.С.5.

3.Маҳмудов Н.Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари.2006, N2(11). -Б.51.

4. Pardayev Z. Modal-Axiological Type of Evaluator of Linguistic Personal Thought /American Journal of Education and Evaluation Studies
https://semantjournals.org/index.php/ AJEES

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

BADIIY MATNDA FRAZEOLOGIZMLAR KONTAMINATSIYASI USLUBIY VOSITA SIFATIDA

Qilichboyeva Xurshida,
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Mustaqil izlanuvchi, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqola frazeologizmlar transformatsiyalanishi tahliliga bag‘ishlangan. Bu masala stilistika va lingvopragmatikaning o’rganish obyektiga kiradi. Frazeologizmlarni transformatsiyalashdan asosiy maqsad, ma’lum bir stilistik samara, yutuqqa erishishdir. Badiiy matnda obrazli-ekspressiv frazeologizmlarning namoyon bo‘lishi, so‘zlovchining adresat bilan emotsional munosabati kabi masalalarni o‘rganish uchun ham muhim va dolzarb hisoblanadi. O‘zbek badiiy matnida frazeologik birliklar kontaminatsiyalarning turli sharoitlarda, muayyan tamoyillar asosida, har xil vaziyatlarda turli maqsadlar bilan semantik, pragmatik tahlili amalga oshirildi.
Kalit so‘zlar: Kontaminatsiya, okkazionallik, frazeologizm, ekspressiv baho, nutq vaziyati, predikat, komparativ frazeologizm, denotativ ma’no, konnotativ ma’no.

Ma’lumki, frazeologiya tilshunoslikning muhim sohalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Chunki, frazeologik birliklarda har bir xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma’naviy qarashlari, xalqning donoligi, milliy kolorit o‘z aksini topgan, ya’ni frazeologizmlar xalqlarning urf-odatlari, an’analari, siyosat, din kabi barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga ibora yordamida o‘sha xalq haqida ko‘pgina ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Frazeologik birliklar so‘zlardan farqli holda obyektiv realiklikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Baho o‘z xususiyatiga ko‘ra insonga xos kategoriyalar qatoriga kiradi. U insonning jismoniy va ruhiy tabiatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Insonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlari va faoliyatini, san’at haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishi hamda real voqelikda insonlarga munosabatini ifodalaydi.

“lisoniy shaxs” masalasi ilmiy tahlil obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Lisoniy shaxs bu – “nutq egasi bo‘lib, nutqiy harakatni sodir etish, nutqni tuzish va qabul qilish uchun tayyorligi nuqtayi nazaridan qaraladigan kishi, u lisoniy tizimdan to‘lig‘icha foydalanish layoqatiga ega bo‘lgan shaxs”[2]. Lingvokreativlik orqali yangi so‘zlar, iboralar va butunlay yangi til birliklari yaratiladi. Shunday lingvokreativ

jarayonlardan biri – kontaminatsiya bo‘lib, u so‘z va frazalarning qisman birlashuvi natijasida yangi lingvistik birliklarning paydo bo‘lishini anglatadi.

Kontaminatsiya (lotincha contaminatio – tutashtirish, aralashtirish) biror assotsiaga ko‘ra funksional, semantik yoki tuzilishi jihatidan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan lisoniy birliklarni birlashtirish yo‘li bilan so‘zning semantik ma’nosi o‘zgarishi, yangi so‘z yoki iborani hosil bo‘lishi hodisasidir. “Bugungi kunda tilda okkazional transformatsiya hodisalaridan bo‘lgan kontaminatsiyaning uch xil: 1) ma'no jihatidan yaqin bo‘lgan ikki frazeologizmlarning birlashuvi; 2) struktura jihatidan teng bo‘lmagan, ma'nodosh bo‘lgan ikki frazeologizm komponentlarining birlashuvi; 3) ma'no jihatidan yaqin, struktura jihatidan turli xil frazeologizmlarning birlashuvi kabi tiplari misollar orqali kuzatdik”[1]. Ayrim paytlarda leksik birliklar yoki sintaktik qurilmalarning noto‘g‘ri joylashishi ham kontaminatsiyani vujudga keltirishi mumkin. Turli janrlarda, jumladan badiiy matnlarda frazeologizmlar transformatsiyasi – frazeologik kontaminatsiyaning qo‘llanilishi muhim uslubiy vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik kontaminatsiya hodisasining o‘rganilishi doimo tilshunoslar e’tiboridan chetda qolgan emas. Bu haqda jahon tilshunosligida L.I. Royzenzon, I.V. Abramets, A.I. Molotkov, A.M. Babkin, A.V. Kunin, N.M. Shanskiy kabi, turkologiyada Sh.Rahmatullaev, I.Qo‘chqortoyev, B. Yo‘ldoshev, A.Mamatov kabi ko‘plab frazeolog olimlar tadqiqotlar olib borgandilar. Bu ishlarida ko‘p hollarda frazeologik birliklarning o‘zgarishi, okkazional xususiyatlari haqida fikr bildirgan.

Ma’lumki, muloqot jarayonida ma'lum bir voqea hodisa yoki biror shaxs xarakter-xususiyatini obrazli tarzda ifodalashda noodatiy birikmalardan ham foydalaniladi[3]. Okkazional frazeologik birliklarning (OF) paydo bo‘lishi muallifning ijodiy fikrini amalga oshirishi bilan bog‘liq. OFning ma’nosini aniqlash, uni to‘g‘ri talqin qilish va anglash esa, asosan, kontekstga, ya’ni frazeologik birlikning kontekstual muhiti va u bilan kontekst elementlari o‘rtasidagi munosabatlarga bog‘liq. Kontekstual aktualizatorlar (ya’ni, ma’no ochilishini ta’minlovchi kontekst vositalari) okkazional frazeologik birlikning ma’nosini aniqlash, uning mazmunini aniqlashtirish, konnotatsiyasi, obrazliligi va boshqa jihatlarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnda har bir til birligi qatori frazeologizmlar ham muallif kommunikativ maqsadining amalga oshishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Shunga ko‘ra badiiy matnda qo‘llanilgan frazeologizmlarning voqelik faktlarini atash, tasvirlanayotgan shaxs bilan bog‘liq turli holatlar haqida o‘quvchiga ma’lumot berish, ta’sir etish kabi vazifalari o‘z aksini topadi. O‘zbek tilshunosligida kontaminatsiya

hodisasining leksik sathda namoyon bo‘lishi va kulgini yuzaga keltirishda ishtirok etishi ma’lum darajada o‘rganilgan [4].

Quyidagi matnda tilak mazmunini ifodalovchi frazeologizmlarning oddiy so‘z birikmasiga teng kelib qolishi frazeologik kontaminatsiyani yuzaga keltirgan:

Asqar ota shu so‘zlarni ko‘nglidan o‘tkazdi-yu, Bahriga nisbatan ko‘nglida mavj urgan mehrini ifodalaydigan biron kalima ham so‘z topolmay, faqat:

– Umring uzoq bo‘lsin, qizim! – dedi.

– Uy egasi dasturxon yozar ekan:

– Umridan shuncha uzoq bo‘lgandan keyin, Xudo xohlasa umri uzoq bo‘ladi, – deb so‘z o‘yini qildi. Kimdir “piq” etib kulib yubordi. Nima gap ekanini anglay olmagan Asqar ota o‘zidan-o‘zi qattiq xijolat tortdi. Oqsoqol buni fahmlab, tezroq uni xijolatdan chiqarishga shoshildi.

– Qishlog‘imizda Umri, Umriniso degan bir xotin bor edi, shuni aytayotibdi, – dedi. (A.Qahhor. Xotinlar)

Yuqoridagi parchada frazeologik kontaminatsiya, ya’ni “umring uzoq bo‘lsin” degan tilak ifodalovchi frazeologizmdan yangi so‘z o‘yini vositasida kulgili kontekst hosil qilinishiga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu yerda “Umring uzoq bo‘lsin” iborasi oddiy so‘z birikmasi sifatida aytilgan, ammo mehmonning “Umri” degan ismga nisbatan aytilgandek qabul qilinib, semantik chalkashlik (kontaminatsiya) yuzaga kelgan. Bu esa kulgili effektni va ayni paytda til o‘yini orqali obrazlilikni kuchaytirgan.

Frazeologik birliklarning okkazional o‘zgarishlari natijasida kontekst nafaqat tilga xos mavjud semalarni, balki frazeologizmlarning potensial (yashirin) semalarini ham kuchaytiradi, ya’ni frazeologizmning ichki imkoniyatlarini ochib beradi. Frazeologik birlikning boshqa matn birliklari bilan bo‘ladigan aloqalari orqali unga qo‘shimcha konnotatsiyalar, ya’ni “ma’nodagi kombinator qo‘shimchalar” (semantik kombinatsiyalar) yuklanadi. Agar frazeologizm strukturaviy va semantik jihatdan sezilarli darajada o‘zgarsa, kontekst uning okkazional shakl sifatidagi identifikator vazifasini ham bajaradi: bu holda kontekst tinglovchi yoki o‘quvchiga (nutq adresatiga) okkazional frazeologizm

(OF) ma’nosini anglash, uning motivatsion asosini aniqlash va uni uzual frazeologizm (UF) bilan semantik bog‘lash imkonini beradi.

Tilimizdagi homiladorlik holati bilan bog‘liq “boshi qorong‘u”, “oy ko‘rmoq” frazeologizmlari quyidagi matnda kontaminatsiya hosil qilishda ishtirok etgan:

Нурали тўқиган бу латифа янги бўлмаса-да, ҳамроҳлари кулишди. Турғунали эса «ҳе, эси йўқлар!» деб тескари ўгирилди.

– Ҳа, Турғунали ака, бу гапларга кулмайсиз ҳам? – деди Мирали тегишиб.

– Шунақа аҳмоқ гапга ҳам кулаверадими одам деган, – деди Турғунали унга қарамай.

– Бошқа сабаб ҳам бордир? – деди Нурали. – Бош оғриятгандир, а?

– Бу гапинг ҳам тўғри, бош ёрилай деб турганда кўнгилга кулгу сиғами?

– Яна «бошим қоронғу», денг? – деди Нурали унинг биқинига аста туртиб.

– Масхаралама, дедим сенга! Ҳамқишлоқларга пайров учун гап топилган эди. Шу боис Турғуналининг норозилигига эътибор бермай, Султонали гапни илиб кетди:

– Бошлари қоронғумасдир, кеча кечқурун довдираб юрган эканлар, бехос «ой кўрган»дирлар. Ой кўрганда ҳам бош оғирмиш, а?

– Бу туришларига қараганда ой эмас, нақ эналарини кўрганга ўхшайдилар, – деди Нурали.

Ko‘rinadiki, frazeologizm semantik ma’nosini o‘zgarishi badiiy matnda anglashilgan ironik, komik mazmunni kuchaytirib, kontaminatsiya hodisasini yuzaga keltirgan.

Badiiy matnlarda kontaminatsiyadan foydalanish yozuvchining til birliklaridan foydalanish mahoratiga bog‘liq. Bular yuzasidan kengroq kuzatishlar olib borish mazkur hodisa mohiyatini ochishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Носиров А., Назаров Ш. Фразеологик бирликларда контаминация ҳодисаси.ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021

2. Кубиц Г.В. Профессионализация языковой личности (на примере юридического дискурса): дис. … канд. филол. наук. – Челябинск, 2005. – 258 с.

3. Пардаев З. Баҳо муносабати ифодаланишида оксюморонларнинг ўрни //«Ажиниёз номидаги Нукус давлат институтининг илм, таълим ва тарбия масалаларини ривожлантиришдаги ўрни» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 1-қисм.-Нукус, 2010.

4. Юсупов К. Ўзбек адабий тилида контаминация. Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. №6.-Б.54.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

ДАВЛАТ ХАВФСИЗЛИК СТРАТЕГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ АСОСЛАРИ

Маматова Эъзоза Мусо қизи

Аннотация. Давлат хавфсизлик стратегияси – бу давлатнинг хавфсизлик соҳасидаги асосий устуворликлари ва мақсадларини белгилайдиган ҳужжат. Тарихий жиҳатдан бундай стратегиялар ўзгарувчан геосиёсий ва иқтисодий шароитларга, шунингдек, давлат дуч келган таҳдидларга жавобан ишлаб чиқилган. Ушбу мақолада биз давлат хавфсизлик стратегиясининг тарихини, унинг қадимги даврларда пайдо бўлишидан тортиб, бундай ҳужжатларни ишлаб чиқишнинг замонавий ёндашувлари, хавфсизлик стратегиясини ишлаб чиқишнинг асосий босқичларини ва уларнинг давлат сиёсатига таъсиригача кўриб чиқамиз. Шунингдек, ушбу мақолада хавфсизлик стратегиясини ишлаб чиқишнинг асосий таркибий қисмлари ва тамойилларини, шунингдек, замонавий дунёда бундай ҳужжатларнинг ролини муҳокама қиламиз.
Калит сўзлар: хавфсизлик стратегияси, таҳдидлар, “совуқ уруш”, миллий хавфсизлик, киберҳужум, ҳукмат ва халқ билан мулоқот.

Хавфсизлик стратегияси давлат хавфсизлигини таъминлаш ва унинг ҳудудий яхлитлигини сақлаш борасидаги асосий фаолиятини белгилаб берувчи муҳим ҳужжатдир. У мавжуд таҳдидларни таҳлил қилиш ва уларнинг олдини олиш, минималлаштиришга қаратилган стратегик чора-тадбирларни аниқлаш учун ишлаб чиқилган.

Хавфсизлик стратегиясининг тарихи XX асрнинг иккинчи ярмида, иккинчи жаҳон уруши тугагандан сўнг, мамлакатлар ўзларининг хавфсизлик стратегияларини ишлаб чиқиш зарурлигини тан олишни бошлаган пайтдан бошланади. Бу вақтда дунё икки қарама-қарши блокга бўлинган эди – АҚШ ва унинг иттифоқчилари, СССР ва “Варшава шартномаси”[1] мамлакатлари. Қуролланиш пойгаси, мафкуравий қарама-қаршилик ва бошқа омиллар халқлар тинчлиги ва хавфсизлигига таҳдид солди.

1950 йилда Президент Гарри Трумен томонидан тақдим этилган “Миллий хавфсизликни стратегик режалаштириш” (“Strategic Planning in the National

[1] Варшава шартномаси – 1955 йил АҚШ ва НАТОга қарши СССР бошчилигида социалистик лагерга кирувчи давлатлар (ГДР, Полша, Чехословакия, Венгрия, Болгария ва Руминия) томонидан тузилган ҳарбий блок.

Security”)[2] деб номланувчи ҳужжат АҚШ миллий хавфсизлик стратегиясини ишлаб чиқиш тарихида алоҳида ўрин тутади. Ушбу ҳужжат келажакдаги хавфсизлик стратегияларини ишлаб чиқиш учун бошланғич нуқта бўлди ва АҚШ миллий хавфсизлигининг асосий мақсад ва тамойилларини белгилаб берди[3].

СССРда миллий хавфсизлик стратегияси ҳам ҳукумат сиёсатининг ажралмас қисми эди. Бироқ, совет тизимининг ёпиқ табиати туфайли ривожланиш жараёни ва хавфсизлик стратегияси билан боғлиқ асосий ҳужжатлар ҳақида кам маълумот кенг жамоатчиликка мавжуд.

Давлат хавфсизлик стратегиясини ишлаб чиқишда муҳим босқич “совуқ уруш”нинг тугаши ва 1991 йилда Совет Иттифоқининг қулаши бўлди. Бу тарихий воқеа таҳдидларнинг ўзгаришига олиб келди ва кўплаб мамлакатларнинг хавфсизлик стратегияларини қайта кўриб чиқишни талаб қилди. Шу билан бирга, ахборот технологияларининг ривожланиши ва глобаллашув миллий хавфсизликка янги таҳдид ва хавфларни келтириб чиқарди. Давлат хавфсизлик стратегияси ҳозирда кўплаб давлатлар фаолиятининг ажралмас қисми ҳисобланади. У терроризм, киберҳужумлар, фуқаролик тўқнашувлари ва бошқалар каби ўзгарувчан таҳдидларни ҳисобга олган ҳолда ишлаб чиқилган. Давлат хавфсизлик стратегиясининг роли замонавий дунёнинг мураккаб ва ўзгарувчан шароитларида давлат ва фуқароларининг барқарорлиги, хавфсизлигини таъминлашдан иборат.

Давлат хавфсизлик стратегиясини ишлаб чиқиш кўплаб эксперт ва таҳлилчилар иштирокини талаб қилувчи мураккаб ва кўп қиррали жараёндир. Дастлаб стратегия, одатда, бир неча босқичлардан ўтади.

Биринчи қадам – мавжуд вазиятни таҳлил қилиш, мамлакат олдида турган таҳдид ва хавф-хатарларларни аниқлаш. Турли соҳа мутахассислари мамлакат хавфсизлигига таъсир этувчи асосий омилларни аниқлаш мақсадида тадқиқотлар олиб боради ва маълумотларни таҳлил қилади. Улар сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва ҳарбий муҳитни, шунингдек, халқаро муносабатларни ўрганадилар. Таҳлил қилиш учун статистик маълумотлар, эксперт баҳолашлари, моделлаштириш ва симуляция каби турли усуллар ва воситалар қўлланилади. Бу мутахассисларга мавжуд вазиятнинг объектив ҳолатини олиш, энг муҳим таҳдид

[2] Rudy de Leon. Harry Truman and the Politics of a National Security Strategy. Journal of American Progress, 2015. https://www.americanprogress.org/article/harry-truman-and-the-politics-of-a-national-security-strategy/

[3] Trager F.,Simone F. An Introduction to the Study of National Security // National Security and American Society: Theory, Process and Policy. Ed by Trager F., Kronenberg P. Lawence: University of Kansas Press. 1973. P. 32-33.

ва муаммоларни аниқлаш имконини беради[4].

Мавжуд вазиятни таҳлил қилгандан сўнг кейинги қадам **стратегик мақсад ва вазифаларни аниқлашдир**. Мутахассислар ва сиёсатчилар эришилиши керак бўлган давлат миллий хавфсизлик мақсадлари ва вазифаларини аниқлаш учун биргаликда ишлайди. Буларга давлат манфаатларини ҳимоя қилиш, ички барқарорликни таъминлаш, низолар ва терроризмнинг олдини олиш, ҳудудий яхлитликни сақлаш ва бошқалар киради. Стратегик мақсад ва вазифаларни белгилаш муҳим қадамдир, чунки улар келгусидаги ҳаракатлар йўналишини ва стратегияни амалга ошириш учун инвестиция қилинадиган ресурсларни белгилайди. Бу, шунингдек, саъй-ҳаракатларни хавфсизликнинг энг муҳим ва керакли соҳаларига қаратишга ёрдам беради[5]. Шу боис давлат хавфсизлик стратегиясини яратишнинг дастлабки қадамлари ҳозирги вазиятни таҳлил қилиш, стратегик мақсад ва вазифаларни белгилашдан иборат. Бу эса мамлакат хавфсизлигини таъминлаш бўйича фундаментал тамойиллар ва зарур қарорларни ишлаб чиқиш имконини беради.

Давлат хавфсизлик стратегияси миллий хавфсизликнинг асосий тамойиллари ва мақсадларини белгилаш учун давлат томонидан ишлаб чиқилган ҳужжатдир. Бундай стратегияга эҳтиёж мамлакат хавфсизлигига таъсир этувчи бир қатор омиллардан келиб чиқади. **Давлат хавфсизлик стратегиясига бўлган эҳтиёжни қўзғатувчи биринчи омил** замонавий глобал сиёсий вазиятнинг мураккаблиги ва ўзгарувчанлигидир. Глобаллашув, ахборот технологияларининг ривожланиши ва давлатлар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг тезлашиши давлатдан адекват жавоб беришни талаб қилувчи янги чақириқ ва таҳдидларни келтириб чиқаради. Давлат хавфсизлик стратегиясисиз давлат эҳтимолий таҳдидларга тайёр бўлмайди ва ўз манфаатларини самарали ҳимоя қила олмайди[6].

Иккинчи омил – устуворликларни ўзгартириш ва миллий хавфсизликка таҳдидлар. Доимий ижтимоий ва иқтисодий ривожланиш, шунингдек, янги таҳдидларнинг пайдо бўлиши шароитида миллий хавфсизлик стратегияси давлатга хавфсизликни таъминлаш бўйича фаолиятининг асосий йўналишлари ва устувор йўналишларини белгилаш имконини беради. Бу давлат ресурсларидан

[4] Барабин В. Военно-политическая деятельность государства в системе национальной безопасности. М., 1997; Безопасность России и армии. М., 1997. – С. 71.
[5] Антонов А. Б., Балашов В. Г. Основы обеспечения безопасности личности, общества и государства: Учебное пособие. М., 1996. – С. 43.
[6] Егоров А. Г. О национальной безопасности и военно-политической стратегии государства // Социологические исследования. М., 1994, №3.

самарали фойдаланиш, куч-ғайратни энг муҳим вазифаларга қаратиш имконини беради[7].

Учинчи омил – миллий хавфсизликни таъминлаш учун масъул бўлган турли органлар ва тузилмалар фаолиятини мувофиқлаштириш зарурати. Миллий хавфсизлик стратегияси ҳукумат, ҳарбий тузилмалар, ҳуқуқ-тартибот идоралари, разведка идоралари ва бошқалар каби хавфсизликнинг барча субъэктлари ўртасида ўзаро ҳамкорлик ва мувофиқлаштириш учун асос бўлиб хизмат қилади. Бу хавфсизлик масалаларини ҳал қилишда ягона ёндашувни ва барча органлар ва тузилмалар томонидан мувофиқлаштирилган ҳаракатни таъминлайди.

11. “CLUSTER SYSTEMS IN UZBEKISTAN: INNOVATION VECTOR”, Inlibrary.uz (2023).
12. Xitoy innovatsion siyosatining rivojlanish tamoyili – UZA. (2023).
13. O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi materiallari – https://mininnovation.uz

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

MINTAQAVIY IQTISODIY TENGSIZLIK: SABABLARI VA OQIBATLARI

Qarshi Davlat Universiteti o‘qituvchisi
U.E.Eshmaxmatov

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikning mohiyati, vujudga kelish sabablari hamda uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinadi. Mintaqalarning notekis rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan bandlik, infratuzilma, investitsiya va daromadlar bo‘yicha farqlar O‘zbekiston misolida ko‘rib chiqiladi. Maqolada statistik ma’lumotlar va amaliy misollar asosida iqtisodiy tengsizlikning asosiy omillari — tabiiy resurslarning notekis taqsimlanishi, investitsiyaviy muhitdagi farqlar, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, va hududiy boshqaruvdagi tafovutlar kabi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, ularni izchil va muvozanatli rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy siyosat yuritishda hududiy yondashuvni takomillashtirish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Mintaqaviy iqtisodiyot, Hududlararo tengsizlik, Iqtisodiy rivojlanish tafovutlari, Iqtisodiy tengsizlik sabablari, Ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar, Infratuzilma va investitsiyalar, Ichki migratsiya, Rivojlanayotgan mintaqalar, Davlat siyosati va hududiy rivojlanish, O‘zbekiston mintaqalari, Resurslar taqsimoti, Bandlik va daromadlar, Raqamli tafovut (digital divide), Barqaror hududiy rivojlanish, Makroiqtisodiy muvozanat

Abstract. This article analyzes the nature, causes, and socio-economic consequences of regional economic inequality. The disparities in employment, infrastructure, investment, and income levels resulting from uneven regional development are examined using the example of Uzbekistan. The study identifies the main factors contributing to economic inequality — such as unequal distribution of natural resources, differences in investment environments, infrastructure development, and disparities in regional governance. The article also offers recommendations for reducing economic disparities between regions and ensuring balanced and sustainable regional development. The findings of this research have practical significance for improving regional economic policy.

Keywords. Regional economy, Interregional inequality, Economic development disparities, Causes of economic inequality, Socio-economic consequences, Infrastructure and investments, Internal migration, Developing regions, State policy and territorial development, Regions of Uzbekistan, Resource allocation, Employment

and income, Digital divide, Sustainable territorial development, Macroeconomic balance

Аннотация. В данной статье анализируются сущность, причины и социально-экономические последствия регионального экономического неравенства. На примере Узбекистана рассматриваются различия в уровне занятости, инфраструктуры, инвестиций и доходов, вызванные неравномерным развитием регионов. В работе выделены основные факторы, способствующие экономическому неравенству, такие как неравномерное распределение природных ресурсов, различия в инвестиционном климате, уровень развития инфраструктуры и территориального управления. Также предложены рекомендации по сокращению экономических различий между регионами и обеспечению сбалансированного и устойчивого развития. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования региональной экономической политики.

Ключевые слова. Региональная экономика, Межрегиональное неравенство, Различия в экономическом развитии, Причины экономического неравенства, Социально-экономические последствия, Инфраструктура и инвестиции, Внутренняя миграция, Развивающиеся регионы, Государственная политика и территориальное развитие, Регионы Узбекистана, Распределение ресурсов, Занятость и доходы, Цифровой разрыв, Устойчивое территориальное развитие, Макроэкономическое равновесие

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot jarayonida mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik muammosi ko‘plab davlatlar, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Mintaqaviy tengsizlik deganda mamlakat ichidagi turli hududlar o‘rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish salohiyati, aholi bandligi, infratuzilma ta’minoti va yashash sifati kabi omillar bo‘yicha farqlar nazarda tutiladi. Bunday farqlar ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishi, ichki migratsiya kuchayishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.

O‘zbekiston misolida olib qaralganda, poytaxt va yirik sanoat markazlari iqtisodiy jihatdan tez sur’atlarda rivojlanayotgan bir paytda, ayrim chekka yoki qishloq hududlarida yashovchi aholi hali ham past daromad, ishsizlik va infratuzilmaning yetishmasligi muammolari bilan to‘qnash kelmoqda. Bu esa hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni yanada keskinlashtiradi va davlatning barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikning asosiy sabablari chuqur tahlil qilinadi, ushbu muammoning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari yoritiladi hamda bu tengsizlikni kamaytirish bo‘yicha samarali yo‘llar taklif etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston mintaqalari o‘rtasidagi mavjud farqlar statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi va mintaqaviy rivojlanishni muvozanatlashga doir tavsiyalar beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik muammosi iqtisodiyot fanida uzoq yillardan beri muhokama qilinib kelinayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Jahon miqyosida bu boradagi nazariy yondashuvlar, empirik tadqiqotlar va siyosiy takliflar turlicha yo‘nalishlarda shakllangan. Xususan, Paul Krugman o‘zining nazariyasi orqali mintaqaviy tafovutlarning shakllanishida iqtisodiy markazlashuv va aglomeratsiya effektlari muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, yirik shaharlar va markaziy hududlarda ishchi kuchi va infratuzilmaning to‘planishi iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradi. Jeffrey Sachs va William Easterly kabi olimlar esa mintaqaviy tengsizlikni institutsional rivojlanish, hukumat siyosati, va tarixiy omillar bilan bog‘laydi. Ular rivojlanayotgan davlatlarda tengsizlikning ko‘p hollarda siyosiy boshqaruvdagi nomutanosibliklardan kelib chiqishini ko‘rsatadi. World Bank, OECD va UNDP kabi xalqaro tashkilotlar o‘z hisobotlarida mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishda hududiy investitsiya siyosati, infratuzilmani modernizatsiya qilish, va mahalliy iqtisodiy salohiyatni rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ushbu muammoni O‘zbekiston ilmiy muhitida ham mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik masalasi turli aspektlarda o‘rganilmoqda. Xususan, T. Xudoyberganov va M. Yusupov kabi iqtisodchilar o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston mintaqalari o‘rtasida ishsizlik darajasi, daromadlar tafovuti va infratuzilmaviy rivojlanishda sezilarli farqlar mavjudligini ta’kidlaydi. Ular bu tafovutlarni kamaytirish uchun differensial soliq siyosati, mintaqaviy preferensiyalar va infratuzilma loyihalarini hududlar bo‘yicha adolatli taqsimlash zarurligini ilgari suradi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) tomonidan tayyorlangan so‘nggi hisobotlarda O‘zbekiston mintaqalari o‘rtasidagi iqtisodiy farqlar YIM (YAIM) hajmi, investitsiya jalb qilish, va aholi bandligi kabi ko‘rsatkichlar asosida chuqur tahlil qilingan. Bu ma’lumotlar tengsizlikni empirik asosda baholash uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti ham mintaqaviy rivojlanishni barqarorlashtirish bo‘yicha konseptual yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Ularning yondashuvida hududiy innovatsion salohiyat, ta’lim va kadrlar siyosati, hamda mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari muhim ahamiyatga ega sifatida ko‘rsatilmoqda.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy va taqqoslash usullari, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, tahlilning mantiqiy va taqqoslash usullari, kompleks yondashuv, ekspert baholash, ko‘p variantli prognoz kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mintaqaviy iqtisodiy tengsizlikni tahlil qilishda asosiy e’tibor O‘zbekiston hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar farqlariga qaratildi. Statistik ma’lumotlar va hududiy iqtisodiy tahlillar natijasida quyidagi asosiy tendensiyalar aniqlanmoqda:

1. Iqtisodiy salohiyatning notekis taqsimlanishi

Toshkent shahri va yirik sanoat markazlari (masalan, Navoiy, Farg‘ona) iqtisodiy faoliyatning markazlari sifatida ko‘p investitsiyalarni jalb qilmoqda. Bu hududlarda sanoat, xizmat ko‘rsatish sohasi va infratuzilma rivojlangan, natijada yuqori darajadagi ish o‘rinlari va daromadlar mavjud. Boshqa mintaqalarda, ayniqsa qishloq hududlarida, bu ko‘rsatkichlar ancha past.

2. Ishsizlik va bandlikdagi tafovutlar

Hududlararo farqlar ish o‘rinlari va bandlik darajasida ham o‘z aksini topmoqda. Rivojlangan hududlarda bandlik yuqori, ishsizlik esa past bo‘lsa, chekka va qishloq hududlarda aksincha — bandlik past va ishsizlik yuqori. Bu ichki migratsiyaning kuchayishiga, urbanizatsiyaning tezlashishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekistonning rivojlangan hududlarida, xususan, Toshkent va Farg‘onada ishsizlik darajasi 5% dan past bo‘lsa, chekka hududlarda bu ko‘rsatkich 12-15% gacha yetmoqda. Qishloq joylarda ish o‘rinlari kamligi, mehnat sharoitlarining qoniqarsizligi, va malakali kadrlarning yetishmasligi mintaqaviy ishsizlikni yanada chuqurlashtirmoqda. Bu esa ichki migratsiya oqimini kuchaytirib, shaharlarning aholi zichligini oshiradi, ijtimoiy va infratuzilma muammolarini yuzaga keltiradi.

3. Infratuzilma va investitsiyalar taqsimoti

Hududlarning infratuzilma holati ham mintaqaviy tengsizlikni chuqurlashtiradi. Asosan, transport, energetika, va kommunal xizmatlarda rivojlangan hududlar o‘z iqtisodiyotini samarali rivojlantira oladi. Boshqa tomondan, investitsiyalarning noto‘g‘ri taqsimlanishi ayrim hududlarda rivojlanishning orqada qolishiga olib keladi. O‘zbekiston hududlariga kiritilgan investitsiyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, umumiy investitsiyalarning 60-70% i Toshkent va atrofidagi viloyatlarga to‘g‘ri keladi. Chekka va qishloq hududlarda esa investitsiyalar kamligi sababli ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklangan. Transport, energetika va kommunikatsiya tarmoqlaridagi kamchiliklar iqtisodiy faollikni pasaytirib, mintaqaviy tengsizlikni kuchaytiradi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar

Mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Past daromadli hududlarda aholining yashash sharoitlari yomonlashadi, sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlariga kirish qiyinlashadi. Bu esa aholining sifatli bandlikka ega bo‘lish imkoniyatlarini yanada cheklaydi va ijtimoiy norozilikni kuchaytiradi. Mintaqaviy tengsizlik ijtimoiy jihatdan ham sezilarli oqibatlarga olib keladi: past daromadli hududlarda ta’lim va sog‘liqni saqlash sifatining pasayishi, yoshlarning ish bilan ta’minlanmasligi, kambag‘allik darajasining yuqoriligi kuzatiladi. Bu holat mamlakat bo‘ylab ijtimoiy norozilik va beqarorlik xavfini oshiradi.

5. Iqtisodiy salohiyat va YIM (YAIM) tafovutlari

O‘zbekiston Respublikasi hududlari o‘rtasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud. Masalan, 2025 yilning birinchi yarmida Toshkent shahri O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) taxminan 19,6 foizini tashkil etdi shuningdek 2024 yilgi YaIM hajmi 115 milliard AQSh dollariga teng bo‘lganini hisobga olsak oshkentning 2025 yil birinchi yarmidagi YaIM ulushi taxminan 22,54 milliard dollarni tashkil etadi, bu esa hududlararo iqtisodiy markazlashuv darajasining yuqoriligini ko‘rsatadi. Qashqadaryo, Namangan, Andijon kabi viloyatlar YAIM hajmi bo‘yicha Toshkentdan ancha orqada qolmoqda, bu esa iqtisodiy faoliyat markazining tor hududlarga to‘planganini anglatadi.

Bu tafovutlarning sababi sifatida quyidagi omillar ajralib turadi:

Investitsiyalarning asosan yirik sanoat va xizmat ko‘rsatish markazlariga yo‘naltirilishi;

Raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi;

Mehnat bozorining diversifikatsiyalanmaganligi va sanoat tarmoqlarining hududiy muvozanatining yo‘qligi.

Xulosa va takliflar. Mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror va izchil rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiy salohiyatning notekis taqsimlanishi, investitsiyalar va infratuzilmaning markazlashuvi, shuningdek, ish o‘rinlari va daromadlarning hududlar o‘rtasidagi keskin tafovutlari mintaqaviy tengsizlikning asosiy sabablaridan hisoblanadi. Bu holat o‘z navbatida ijtimoiy muammolarni – ishsizlik, kambag‘allik, ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarining sifatining pasayishini keltirib chiqaradi.

Mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish uchun hududlarga investitsiyalarni adolatli taqsimlash, infratuzilmani yaxshilash, bandlikni oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini

kengaytirish zarur. Ichki migratsiya oqimlarini boshqarish ham barqaror hududiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Natijada, mintaqaviy iqtisodiy tengsizlik muammosini hal etish mamlakat iqtisodiyotining barcha hududlarini rivojlantirishga, ijtimoiy adolatni ta'minlashga va umumiy iqtisodiy o'sishni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, hududiy siyosatni izchil amalga oshirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кругман П. «Geography and Trade». – MIT Press, 1991. – 142 с.
2. Sachs J.D., Warner A. «Economic Convergence and Economic Policies». – Brookings Papers on Economic Activity, 1995. – №1. – P. 1–47.
3. UNDP. «Human Development Report: Regional Inequality and Inclusive Growth». – New York: UNDP, 2022.
4. Всемирный банк. «Развитие регионов: вызовы и возможности». – Вашингтон, 2021.
5. OECD. «Regional Outlook 2020: Leveraging Megatrends for Cities and Rural Areas». – OECD Publishing, Paris, 2020.
6. Худойберганов Т.Ж., Юсупов М.Р. «Мамлакат ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш масалалари». – Т.: Iqtisodiyot, 2021. – 180 б.
7. CERR (Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi). «Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlik: tahlil va takliflar». – Tahliliy hisobot, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqaviy tadqiqotlar instituti. «Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari». – T.: 2022.
9. Davlat statistika qo'mitasi (stat.uz). «Hududlar kesimida YAIM va aholi bandligi ko'rsatkichlari». – 2023-yilgi ma'lumotlar.
10. Mahmudov B.X. «Iqtisodiyot va hududlar: rivojlanish omillari va muammolar». – T.: Fan va texnologiya, 2020. – 210 b.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

MINTAQAVIY SANOAT ZONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Qarshi Davlat Universiteti o‘qituvchisi
Eshmaxmatov Ulug‘bek Erkin o‘g‘li

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy sanoat zonalarining tashkil etilishi, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi roli va samaradorligi tahlil qilingan. Sanoat zonalarining mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi o‘rni, yangi ish o‘rinlari yaratish, hududiy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda eksport hajmini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston tajribasi asosida ayrim sanoat zonalarining faoliyati o‘rganilib, ularning ijobiy va salbiy jihatlari baholangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sanoat zonalarining samarali faoliyati uchun muvofiqlashtirilgan infratuzilma, qulay soliq rejimi va institutsional qo‘llab-quvvatlov zarurligi ta’kidlangan. Maqola yakunida mintaqaviy sanoat zonalari samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. mintaqaviy sanoat zonalari, iqtisodiy samaradorlik, investitsiyalar, ish o‘rinlari, ishlab chiqarish, eksport, infratuzilma, soliq rejimi, institutsional qo‘llab-quvvatlash, hududiy rivojlanish, investitsiya jalb qilish, iqtisodiy o‘sish, sanoat siyosati, innovatsiyalar, iqtisodiy ta’sir.

Abstract. This article analyzes the organization of regional industrial zones, their role and effectiveness in economic development. The role of industrial zones in attracting local and foreign investments, creating new jobs, increasing regional production capacity and expanding export volumes is highlighted. The article also studies the activities of some industrial zones based on the experience of Uzbekistan and assesses their positive and negative aspects. According to the results of the study, the need for coordinated infrastructure, a favorable tax regime and institutional support for the effective operation of industrial zones is emphasized. At the end of the article, proposals and recommendations are presented to improve the efficiency of regional industrial zones.

Keywords. regional industrial zones, economic efficiency, investments, jobs, production, exports, infrastructure, tax regime, institutional support, regional development, investment attraction, economic growth, industrial policy, innovation, economic impact.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Аннотация. В данной статье анализируется организация региональных промышленных зон, их роль и эффективность в экономическом развитии. Отмечается роль промышленных зон в привлечении местных и иностранных инвестиций, создании новых рабочих мест, увеличении регионального производственного потенциала и расширении объемов экспорта. В статье также рассматривается деятельность некоторых промышленных зон на примере Узбекистана и дается оценка их положительных и отрицательных сторон. По результатам исследования подчеркивается необходимость наличия скоординированной инфраструктуры, благоприятного налогового режима и институциональной поддержки для эффективного функционирования промышленных зон. В конце статьи представлены предложения и рекомендации по повышению эффективности деятельности региональных промышленных зон.

Ключевые слова. региональные промышленные зоны, экономическая эффективность, инвестиции, рабочие места, производство, экспорт, инфраструктура, налоговый режим, институциональная поддержка, региональное развитие, инвестиционная привлекательность, экономический рост, промышленная политика, инновации, экономическое воздействие.

Kirish. Mintaqaviy sanoat zonalari iqtisodiy rivojlanish va hududlararo farqlarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Global iqtisodiy raqobat sharoitida davlatlar o‘z sanoat salohiyatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda ish o‘rinlarini ko‘paytirish uchun maxsus hududlar yaratishga intilmoqda. Sanoat zonalari nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga, balki yangi texnologiyalarni joriy qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va mahalliy infratuzilmani rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayonlar hududlarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashda va barqaror o‘sishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Sanoat zonalarining samaradorligi ularning tashkiliy tuzilishi, infratuzilma imkoniyatlari, soliq va moliyaviy imtiyozlar, shuningdek, davlat siyosatining qo‘llab-quvvatlashi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, mintaqaviy sanoat zonalari mahalliy iqtisodiyotga yangi investitsiyalarni jalb etish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va innovatsion yechimlarni tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida hududlarda ish bilan bandlikni oshirish va yashash darajasini yaxshilashga yordam beradi.

O‘zbekiston sharoitida mintaqaviy sanoat zonalari so‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiy

siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ularning faoliyati hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, eksport salohiyatini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida olib borilmoqda. Shu bois, sanoat zonalarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish va ularni yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy masalaga aylangan.

Mavzuga oid ma’lumotlar tahlili. Mintaqaviy sanoat zonalari iqtisodiyotning turli sohalarida muhim rol o‘ynaydi va ularning samaradorligini aniqlash uchun bir qator ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Eng avvalo, investitsiya hajmi, ish o‘rinlari soni, ishlab chiqarish hajmi, eksport ko‘rsatkichlari va soliq tushumlari kabi iqtisodiy parametrlar asosiy mezon sifatida qo‘llaniladi. Jahon amaliyotida sanoat zonalarining iqtisodiy samaradorligi ularning eksport hajmining oshishi, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan o‘lchanadi.

Misol uchun, Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlarda sanoat zonalari iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda samarali vosita bo‘lgan. Ushbu zonalar mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga xizmat qilgan.

O‘zbekistonda sanoat zonalarining tashkil etilishi 2018-yildan boshlab faollashdi va bu jarayon hukumatning sanoat siyosatini modernizatsiyalash yo‘nalishida muhim qadam bo‘ldi. Masalan, Toshkent viloyatidagi “Angren” sanoat zonasida ishlab chiqarish hajmi va ish bilan bandlik ko‘rsatkichlari ortib bormoqda. 2023-yil ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu zonada faoliyat yuritayotgan korxonalar yalpi ichki mahsulotga sezilarli hissa qo‘shmoqda va eksport hajmi yil sayin oshmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar sanoat zonalarining samaradorligini oshirish uchun infratuzilmani yaxshilash, soliq imtiyozlarini kengaytirish va investitsiyalarni jalb qilishdagi to‘siqlarni bartaraf etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, institutsional qo‘llab-quvvatlash, jumladan, ma’muriy xizmatlarni soddalashtirish va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi.

2025-yilda O‘zbekistonda sanoat zonalarining rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligi yanada oshmoqda. Maxsus iqtisodiy zonalarda 2,3 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilish va ishlab chiqarish hajmini 4,3 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan bo‘lib, bu hududlarda 12 ming yangi doimiy ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan. Sanoat zonalarida esa 800 million dollarlik investitsiyalarni jalb qilish, 1,8 milliard dollarlik ishlab chiqarish hajmiga erishish va 17 ming yangi ish o‘rni ochish maqsad qilingan.

2025-yilning birinchi yarmida mamlakat sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymati 488,5 trillion so‘mga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,6 foizlik o‘sishni ko‘rsatdi. Ushbu o‘sish sanoat tarmoqlarining kengayishi va yangi korxonalar faoliyatining faollashuvi natijasidir. Shu bilan birga, sanoat va maxsus iqtisodiy zonalarda jami 29 mingdan ortiq yangi doimiy ish o‘rinlari yaratish rejalashtirilgan bo‘lib, bu hududlarda aholi bandligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, 2025-yilgi ma’lumotlar O‘zbekistonning sanoat zonalarini rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borayotgan strategik chora-tadbirlarining muvaffaqiyatli ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashiga, eksport salohiyatining oshishiga va hududiy rivojlanishga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Xulosa va takliflar. Mintaqaviy sanoat zonalari mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida sanoat zonalarining iqtisodiy samaradorligi ortib borayotgan investitsiyalar, ishlab chiqarish hajmi va ish bilan bandlik ko‘rsatkichlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. 2025-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, sanoat va maxsus iqtisodiy zonalarda sezilarli darajada yangi investitsiyalar jalb qilinishi, ishlab chiqarish hajmining oshishi va minglab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi mamlakatning sanoat sohasidagi salohiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, sanoat zonalarining samaradorligini yanada oshirish uchun infratuzilmani rivojlantirish, soliq va moliyaviy imtiyozlarni kengaytirish, kadrlar tayyorlash hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba va mamlakatimizning amaliyoti ko‘rsatadiki, sanoat zonalarining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yaxshilanishiga, balki hududiy ijtimoiy farovonlikning oshishiga ham olib keladi.

Shu bois, mintaqaviy sanoat zonalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli va kompleks siyosat mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda, shuningdek, barqaror va inklyuziv rivojlanishni ta’minlashda muhim omil bo‘lib qolaveradi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. (2023). Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalar faoliyati samaradorligi hisobotlari. Tashkent.
2. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF). (2022). Global Economic Outlook and Regional Industrial Zones Development. Washington, D.C.

3. Yunusobod tumani hokimligi rasmiy sayti. (2023). “Yunusobod kichik sanoat zonasi faoliyati va rivojlanish ko‘rsatkichlari.” https://yunusobodtumani.uz
4. O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarish statistikasi. (2025). “2025-yil birinchi yarim yillik sanoat ko‘rsatkichlari.” O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.
5. Mikond.uz. (2025). “O‘zbekiston Respublikasida sanoat zonalari va ularning iqtisodiy samaradorligi.” https://mikond.uz
6. O‘zbekistonda iqtisodiy rivojlanish va sanoat zonalari. (2024). Tashkent: O‘zbekiston Milliy Iqtisodiyot Universiteti nashriyoti.
7. World Bank. (2023). Enhancing Industrial Zones for Sustainable Economic Growth. Washington, D.C.
8. Daryo.uz. (2025). “O‘zbekistonda iqtisodiy va sanoat zonalarida yangi ish o‘rinlari yaratish.” https://daryo.uz

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Agrar sohada qo’llanilayotgan yashil yechimlarning ahamiyati

Tursinbayev Azizbek Nabijon o’g’li
Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi Namangan davlat universiteti Namangan, O’zbekiston
https://orcid.org/0009-0009-5300-9934

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo’jaligidagi asosiy muammolar va ularning muqobil yechimlari berilgan. Yashil va raqamli texnologiyalarni tadbiq etgan holda qishloq xo’jaligida yaratilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish shu bilan birgalikda iste’molchilarni organik mahsulotlar bilan ta’minlash haqida fikrlar yuritilgan. O’zbekiston qishloq xo’jaligida yashil texnologiyalarni tadbiq etish natijasida hosildorlikning oshishi, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan startegiyalar muhokama qilingan.
Kalit so’zlar: agrosanoat, agrobiznes, raqamli innovatsiyalar va texnologiyalar, yashil texnologiyalar, organik va anorganik mahsulotlar, oziq-ovqat xavfsizligi
Abstract: This article presents the main problems of agriculture and their alternative solutions. With the introduction of green and digital technologies, the idea arose to improve the quality of products created in agriculture, thus providing consumers with organic products, food safety. As a result of the introduction of green technologies in agriculture of Uzbekistan, strategies aimed at increasing productivity, effective use of Water Resources and ensuring environmental sustainability were discussed.
Keywords: Agroindustrial, agribusiness, digital innovation and technology, green technology, organic and inorganic products.
Аннотация: В этой статье представлены основные проблемы сельского хозяйства и их альтернативные решения. С внедрением зеленых и цифровых технологий возникла идея повышения качества продукции, созданной в сельском хозяйстве, тем самым обеспечивая потребителей органическими продуктами. Были обсуждены стратегии, направленные на повышение урожайности, эффективное использование водных ресурсов и обеспечение экологической устойчивости в результате внедрения зеленых технологий в сельское хозяйство Узбекистана.

Ключевые слова: Агропромышленность, агробизнес, цифровые инновации и технологии, зеленые технологии, органические и неорганические продукты, безопасность пищевых продуктов.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

KIRISH

Har bir mamlakatning iqtisodiyotida agrar sohaning o'ziga xos o'rni mavjud. Agrar soha hozirgi rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlar iqtisodiyotining asosini tashkil etmoqda, lekin rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatgich past darajani tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida yaratilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish uchun turli xil yangiliklar amalga oshirilmoqda. Yaratilayotgan mahsulotlarning miqdor jihatdan ko'pligi, sifat jihatdan esa bardoshliligini yaxshilash ya'ni yangi hosildor navlarni yaratish va aholining ehtiyojini maksimal darajada qondirish bu sohaning hozirgi kundagi asosiy vazifalaridan biri bo'lmoqda.

Jamiyatda iste'qomat qilayotgan insonlarni sifatli va tabiiy mahsulotlar bilan ta'minlash va anorganik qishloq xojaligini ulushini kamaytirgan holda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishga doir amaliy ishlar qilinmoqda. Rivojlanayotgan mamalakatlarda shu qatorda O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligi aholi ish bilan band bo'ladigan asosiy soha va kambabag'allar uchun yagona daromad manbai hisoblanmoqda. Yashil texnologiyalarni qishloq xo'jaligida foydalanish nafaqat ekologik degradatsiyalashuvni balki kambag'allik muammolarini oldin olishga ham yordam beradi.

Qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni qo'llagan holda yerning unumdorligini oshirish, ilmiy institutlarda o'simlarning yangi kasalliklarga chidamli hamda hosildor navlarini yaratish, mavjud kadrlarning bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish hozirdagi dolzarb muammolar bo'lib qolmoqda.
"O'zbekiston-2030" strategiyasida qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Meva-sabzovotlarning export hajmini intensiv va zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda 2.5 mlrd dollarga yetkazish va qishloq xo'jaligi sohasi uchun kadrlar tayyorlash jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilanib berilgan.[1]

METODOLOGIYA

Ilmiy yozuvchi John Carey o'z maqolasida qishloq xo'jaligining kelib chiqish tarixi va yovvoyi o'simlarning xonakilashtirish jarayonlari haqida ma'lumotlar berib o'tgan[2].[1] R. Rodale organik qishloq xo'jaligi bilan uzoq vaqtdan beri bog'langan qayta

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 21-fevraldagi PF-37-sonli "O'zbekiston-2030"strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi
[2] John Carey, Science writer, Unearthing the origins of agriculture// april 5, 2022. https://doi.org/10.1073/pnas.2304407120

tiklananadigan organik qishloq xo'jaligi tushunchasini birinchi bor 1980-yilda taklif etgan[3].[2] Ushbu tadqiqot metodida O'zbekiston va boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatdagi qishloq xo'jaligiga oid statistik ko'rsatkichlar hamda organik va anorganik qishloq xo'jaligi modellarining samaradorligi solishtirilgan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan qishloq xo'jaligiga doir islohotlari va ularning natijalari o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Texnologik rivojlanish davrida har bir soha tarkibida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Qishloq xo'jaligining ulushi rivojlanayotgan mamlakatlarning YaIMidagi ulushi pasayib bormoqda, lekin bu ko'rsatkich rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarda yuqori. Sanoatlashtirishdan so'ng an'anaviy qishloq xo'jaligi amaliyotlari gektariga ko'proq hosil olish uchun yerga tobora kuchayib bordi. Agrokimyoviy moddalar, monokulturali ekinlar tizimi va intensiv ishlov berish tuproqning degradatsiyalashuviga olib keldi, landshaftga zarar yetkazdi. Qishloq xo'jaligini takomillashtirishdagi eng asosiy maqsad mamlakatda oziq-ovqat xavsizligini ta'minlash hamda chet el mamlakatlariga jahon standartlariga javob beradigan sifatli va tabiiy mahsulotlarni export qilishdan iborat.

1-jadval[4]

Mamlakatlarning YaIM tarkibidagi qishloq xo'jaligining ulushi[5]

Mamlakatlar	YaIM(trln,mlrd$.2023)	Qishloq xo'jaligining ulushi(%)
Germaniya	4,525,703.90	0.84
Singapur	501,427.50	0.03
Finlandiya	295,532.34	2.31
Uzbekiston	101,591.77	20.57
Rossiya	2,021421.48	3.35
Turkiya	1,118,252.96	6.16

Yuqoridagi jadvalda, rivojlanayotgan mamlakatlarning YaIM tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi yuqori ekanligini ko'rsatib bermoqda. Mamlakat hududida

[3] Bobby Gill, how do you define regenerative agriculture // may15, 2023. https://savory.global/how-do-you-define-regenerative-agriculture
[4] muallif ishlanmasi
[5] Our World in Data sayt//share of GDP agriculture. https://ourworldindata.org

yaratilayotgan mahsulotlar ning ya'ni YaIM mahsulot tarkibining 20.57%ini qishloq xojaligida yaratilayotgan mahsulotlarning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qishloq xo'jaligi sektorida yuqori hosildor navlarni yaratish mamlakatning oziq ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda jahon bozorida sifat va foydalilik jihatdan yuqori bo'lgan ya'ni expertbop mahsulotlarni olib chiqish ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining intensiv yo'lini tanlamasdan oldin, asosiy qishloq xo'jaligidagi faoliyat extensiv usulda olib borilgan. Extensiv qishloq xo'jaligi davrida yangi yer maydonlarini ekin maydonlariga aylantirilishi va bu ekin maydonlarni suv bilan ta'minlash hamda sho'rxok yerlarni sho'rini yuvish jarayonlarida shu bilan birgalik yetarli infratuzilma mavjud emasligi suv sarfini ortishi natijasida mamlakat hududida suv tanqisligi muammolari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda mavjud suv resurslarining 80 % transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanmoqda. Mamlakatda suv resurslarini barqaror foydalanish uchun mintaqaviy hamkorlikning muhimligini anglatadi hamda irrigatsiya tarmoqlarining 70 %i filtiratsiyaga qarshi qoplamaga ega emasligi oqibatida suvning bir qismi dalagacha yetkazilish jarayonida yo'qotilmoqda[6]. Suv hajmidagi yo'qotishlarni oldini olish maqsadida 2025-yil davomida mamlakatizda 1 ming kilometr kanalllarni beton qoplamaga o'tkazib, suv tejovchi texnologiyalar qamrovini 1.6 million gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo'shimcha 2.5 milliard metr kub suvni tejashga doir amaliy ishlar olib borilmoqda[7].

O'zbekiston qishloq xo'jaligida ekin maydonlarining eng katta qismi bu g'o'za va bug'doy maydonlariga to'g'ri kelmoqda. 2005-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi jami ekin maydonlarining 2/3 qismidan ko'proq qismida g'o'za va bu'gdoy o'simliklari ekilgan. Mamlakat qishloq xo'jaligi faqat bitta turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvidan uzoqlashishi tufayli, qishloq xojaligida diversifikatsiya amalga oshirilmoqda. Shu sababli, paxta va bug'doy yetishtiriladigan yer maydonlarining hajmi qisqartirilib borilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2018-2022-yillarda umumiy ekin maydonlarida bug'doy va paxta maydonlarining ulushi 73.5 foizdan 69.5 foizga qisqardi, lekin paxta hosildorligi gektariga o'rtacha 21 senterdan 34.1 sentnerga yoki 62.4 %ga , bug'doy hosildorligi 41 sentnerdan 47.2 sentnergacha yoki 15,1 foizga oshdi[8]. Bu yerda qishloq xo'jaligidagi intensive yo'lning

[6] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030- yillarga mo'ljallangan strategiyasi.
[7] O'zbekiston Respublikasi Suv Xo'jaligi Vazirligi, davlat dasturida suv masalasi. https://gov.uz/oz/suvchi/news/view/35691
[8] O'zbekiston Milliy axborot agentligi. https://uza.uz

samarasi hamda ilmiy tadqiqotchilar tomonidan bu o'simliklarning yangi, kasallikka bardoshli, sifatli va hosildor navlarining yaratilishi natijasidir.

O'zbekiston kontinental mintaqada joylashgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bunday qulay geografik joylashuv mamlakatimizning qishloq xo'jaligida yetishtirayotgan meva-sabzavot va poliz ekinlarining tez yetilishiga ayniqsa ta'mining yaxshi bo'lishida ustunlik beradi. 2024-yilda O'zbekiston 1,2 mlrd dollorlik meva-sabzavot eksportini amalga oshirdi. O'zbekiston meva sabzavot mahsulotlarini MDH mamlakatlariga (asosan Rossiya va Qozog'iston) export qilmoqda shu bilan birgalikda qishloq xo'jalik mahsulotlarini exportini diversifikatsiya qilish maqsadida hozirda mahsulotlarni Norvegiya, Malayziya, Yaponiya, Vetnam, Braziliya, Kanada va Amerika kabi rivojalangan mamlakatlarning bozorlariga olib kirildi. Rossiya va Qozog'istonga eksport qilingan mahsulot qiymati mos ravishda 539.6 va 164.7 mln dollarni tashkil etdi. Hozirda anorganik qishloq xo'jaligidan organik qishloq xo'jaligiga o'tish davrida yetishtirilayotgan mahsulotlarning kasallikka chidamli turlarini yaratish, zararkunandalarga qarshi kurashishda turli xildagi zararli pestitsitlardan foydalanish darajasini pasaytirish, ekologik toza mahsulot yaratish hajmini oshirish va bu turdagi mahsulotlarni jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish qishloq xo'jaligida asosiy amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifa bo'lib qolmoqda.

Hozirgi davrda eng yangi turdagi yashil texnologiyalardan biri sug'orish tizimini sensor asosida boshqarish. Bunda sonsorlar tuproq, ob-havo va ekinlardan haqidagi o'lchov ma'lumotlarni to'playdi, dasturiy ta'minot to'plangan ma'lumotlarni tahlil qiladi va tavsiyalar beradi va suv tarmog'iga ulangan avtomatlashtirilgan tizim sug'orishrejalarini boshqaradi. Sensorlarning 3 ta asosiy turi mavjud:

1. Tuproqqa asoslangan sensorlar tuproq namligi, sho'rlanishini yig'ish orqali o'simlik stressini aniqlaydi.
2. Ob-havoga asoslangan sensorlar evopotranspiratsiyani yig'ish orqali mahalliy muhitdagi o'zgarishlar va ob-havo ma'lumotlari to'playdi.
3. O'simlikka o'rnatilgan sensorlar o'simlik ichidagi o'zgarishlar aniqlash uchun xizmat qiladi.

Aqilli sug'orish quvurning holatlari tekshirish orqali suv quvur orqali oqish yoki oqmasligini baholaydi. Aqlli sug'orish smartfon ilovasi orqali boshqarsa bo'ladi va tizim eng yaxshi sug'orish vaqti va davomiyligi va qancha suv sarflanishini belgilaydi. Yer ostidan qishloq xo'jaligiga kerak bo'lgan suvni shamol turbinalari yordamida nasoslash orqali chiqarish. Har bir hududning iqlim holatida kelib chiqqan holda foydalanish ya'ni hududda shamol ko'proq esishini han hisobga olgan holda o'rnatish kerak ekanligini bildiradi. Shamol turbinalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr

energiyasi qishloq joylarda yashovchilarning hayot sifatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, yog‘ingarchilik mavsumi qisqa bo‘lgan hududlarda suv nasoslashga bo‘lgan ehtiyoj yuqori bo‘lib, shamol turbinalari bu muammoni samarali hal qilishi mumkin.

Fermalarga shamol turbinali suv nasoslari o‘rnatilgandan so‘ng, yil davomida yuqori qiymatli ekinlarni yetishtirish va chorva mollarini muntazam suv bilan ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Hozirgi davrda fermer xojaliklarida qazilma yoqilg’ida ishlaydigan suv nasoslari qo’llanilmoqda. Biroq, nafaqat dunyo mamlakatlarida balki O;zbekistonda ham shamol energiyasida ishlaydigan suv nasoslarining soni juda kam.

2-jadval:

Yashil texnologiyalardan foydalanish aholiga va qishloq xo’jaligiga beradigan foyda, zararlari, imkoniyatlari va tahdidlarini SWOT tahlili:

Kuchli tomonlari	Kuchsiz tomonlari	Imkoniyatlar	Xatarlar
Sifatli mahsulotlar	Xarajatlarning ko’pligi	Ekologik toza mahsulotlar	Moliya va investitsiyalarning yetishmovchiligi
Katta hajmdagi mahsulotlar	Utilizatsiya qiluvchi korxonalarning kamligi	Atrof-muhitni ifloslanishi oldini oladi	Ananaviy texnologiyalarga bog’liqlik
Ko’proq foyda olish	Ekologiyaning ifloslanishi	ilmiy va texnologik taraqqiyot	
Resurslardan samarali foydalanish	Mahsulot narxlarining o’sishi	Mahalliy aholi salomatligi	
Uzoq muddatli iqtisodiy foyda	Uskuna va texnologiyalarni yetkazib berish muammolari	Eksport bozorlari	

Xulosa

Qishloq xo’jaligiga ta’sir etayotgan global muammolar yuzaga chiqayotgan bir paytda, yashil texnologiyalardan foydalanish eng samarali yo’llardan biri hisoblanmoqda. Qishloq xo’jaligida yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish mahsulotlarning

sifat jihatidan yaxshi va hajmining oshishiga olib kelmoqda. Yashil texnologiyalardan foydalanish suv tanqisligi oldini olishda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, yerlarning unumdorligini oshirishda samarali vosita hisoblanmoqda. Bunda aqlli sug'orish sensorlari, suv nasoslari va firmaning uskunalarining ishlashi uchun quyosh va shamol energiyasidan foydalanish hamda yangi turdagi qishloq xo'jaligi shakllari misol uchun, vertikal dehqonchilik, akvoponika yoki shahar dehqonchiligi va bog'dorchiligidan foydalanishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sirojiddinov K.I. Developing the food orientation of agricultural production and the need to develop agromarketing. ISJ Theoritical & Applied Science, 11(79), 268-272.
2. John Carey. Science writer. Unearthing the origins of agriculture// april 5, 2022.
3. Bobby Gill, how do you define regenerative agriculture // may15, 2023.
4. Chel, Kauchik. Renewable enegy for sustainable agriculture. Agronomy for Sustainable Development, yanvar 31, 2011.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 21-fevraldagi PF-37-sonli "O'zbekiston-2030"strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Suv xo'jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash to'g'risida" 2024- yil 7-maydagi PF-74-son farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 21-fevraldagi PF-37-sonli "O'zbekiston-2030"strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi.
9. O'zbekiston Milliy axborot agentligi. https://uza.uz
10. Our World in Data. share of GDP agriculture. https://ourworldindata.org

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

O’zbekistonda xizmat ko’rsatish sohalarining aholi faravonligi va iqtisodiy o’sishdagi roli

Tursinbayev Azizbek Nabijon o’g’li
Iqtisodiyot yo’nalishi talabasi Namangan davlat universiteti Namangan, O’zbekiston
https://orcid.org/0009-0009-5300-9934

Annotatsiya: Mazkur maqolada O’zbekistondagi xizmat ko’rsatish sohalarining iqtisodiy o’sishga, aholining bandligiga va ularning farovonlikka erishishidagi ahamiyati ko’rib chiqilgan. Mamlakatda xizmat ko’rsatish sohalarining rivojlanishi o’z navbatida aholining farovonligi va iqtisodiy rivojlanishga sabab bo’ladi. Hamda xizmatlar sohasini samarali rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.
Kalit so’zlar: Aholi bandligi, iqtisodiy o’sish, aholi daromadlari, turizm, xizmat ko’rsatish sohalari va aholi farovonligi.
Annotation: This article examines the importance of services in Uzbekistan in achieving economic growth, employment of the population and their well-being. The development of service sectors in the country in turn causes the well-being of the population and economic development. As well as the specifics of the effective development of the services sector are studied.
Keywords: Population employment, economic growth, population income, tourism, service industries and population welfare.
Аннотация: В данной статье рассматривается значение сфер услуг в Узбекистане для экономического роста, занятости населения и их достижения благосостояния. Развитие сферы услуг в стране, в свою очередь, способствует благосостоянию населения и экономическому развитию. Исследованы особенности эффективного развития сферы услуг.
Ключевые слова: занятость, экономический рост, доходы населения, туризм, секторы услуг и благосостояние населения.

Kirish

Hozirgi statistik ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo’lsak, O’zbekiston aholisi yiliga o’rtacha 2% dan o’sib kelmoqda. Bunday holat mamlakatda yaratilayotgan tovar va xizmatlarga nisbatan is’temolni oshishiga olib keladi. Aholining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish va hayot farovonligini oshirishda xizmatlar sohasi muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlashmiz darkor.

Hozirgi raqobatli muhit sharoitida xizmat ko’rsatuvchi korxona yoki firmalarning

barqaror rivojlanishi va ularning aholi is'temolini qondirish maqsadida yaratayotgan moddiy ko'rinishdagi xizmatlari ya'ni mahsulotlarini sifatini va miqdorini doimiy bir xil darajada ushlab qolishlik hozirda asosiy muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. Hozirgi vaqtda bu muammolarni hal etishga va aholining farovonligini oshishirish ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonlari faoliyatining samaradorligini oshirish, yaratilayotgan moddiy ne'matlar sifati, mehnat jarayonlari intensivligi va mehnat unumdorligini oshirish hamda iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini to'liqroq qondirish bilan bog'liq masalalar hozirda bu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga oid nazariy fikrlarni va sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini mahaliy va xorijiy olimlar: A. Marshall, F. Kotler Kostyukovskiy Y, Kotova L.R, M.Porter, J. Hampelman D.M.Keyns, Abdurahmanov K, S.S G'ulomovlarning o'z maqolalari va o'rganishlari natijasida chiqargargan xulosalarida ko'rishimiz mumkin.

TADQIQOT METODLARI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, sintez usullari shu bilan brigalikda qiyosiy va statistik tahlillardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda, mamlakatimizning iqtisodiyotini rivojlantirish uchun iqtisodiyotning har bir tarmoqlarida islohotlar olib borilmoqda shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohalarini yanada kuchaytirish uchun ko'plab chora va tadbirlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh . Mirziyoyev xizmat ko'rsatish sohalarining keng qamrovligi, u nafaqat iqtisodiyotda balki, aholi hayotida muhim o'rin tutish, bu sohada yangi ish o'rinlarini kam xarajatlar bilan va tez muddatda tashkil eta olish va aholi daromadlarining real o'sishiga erisha olishligimiz haqida ta'kidlab o'tdilar.

O'zbekistonda xizmatlar ko'rstatish sohasini 2021-2023-yillarga mo'ljallangan dastur asosida 2021-yilda xizmatlar ko'rsatish xajmini 20%ga oshirishga erishildi. Shu bilan birgalikda, 2022-yilda xizmat ko'rsatish sohalarini yaxshilagan va turli yangicha yondashuvlarni amalga oshirgan holda xizmatlar hajmini 1,5 baravarga oshirildi va 1.5 mln yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Xizmat ko'rsatish sohasi sohalar ichida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Buning asosiy sababi shundaki, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar va xizmat ko'rsatuvchi ishchi va xodimlar aholining moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini katta qismini qondiradi.

Xizmat ko’rsatish sohasiga aniq berilgan ta’rif mavjud bo’lmagani uchun iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta’riflar berilgan.

Amerikalik iqtisodchi olim Flipp Kotler “Xizmat- bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo’lgan va asosan nomoddiy bo’lgan har qanday tadbir yoki foyda va ular hech narsaga egalik qilishga olib kelmaydi. Xizmatlarni ishlab chiqarish tovar bilan moddiy shaklga bog’liq bo’lishi yoki bo’lmaslig mumkin”, - deb tarif bergan.

M. Porter va J. Happelmanning xizmat ko’rsatish sohalari hozirda yartilgan aqilli texnologiyalar ta’siri ostida “… yangi xizmatlar, yangi tarmoqlar va yangi vazifalar paydo bo’ladi va bu ko’proq insonlarga iqtisodiyotda o’z o’rnini topishga yordam beradi “,- deb o’z qarashlarini qayd etishgan[1].

Xizmat ko’rsatayotgan sanoat va korxonalar ilg’or fan-texnika yutuqlari asosida yaratilayotgan texnologiyalar ta’sirida ishlab chiqarayotgan tovar va xizmatlar miqdorini yanada oshirishga shu bilan bilan birgalikda korxonada mehnat unumdorligini oshirilishiga ham erishiladi. Buning natijasida ko’plab yangi ish o’rinlarini yaratish imkoniyatlari paydo bo’ladi.

Bizning fikrimizcha, “**Xizmat** bu jamiyat a’zolarining, ya’ni, xizmat ko’rsatuvchi xodimlar va iste’molchilar o’rtasidagi iqtisodiy munosabat tushuniladiki, bunda birinchi tomon ikkinchi tomonning ma’naviy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda iste’moli qondirish maqsadida amalga oshiradigan mehnat faoliyati asosida paydo bo’ladigan iqtisodiy munosabatdir”.

Xizmat ko’rsatish sohalari iste’molchilarning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida bajarilayotgan faoliyat turlarining majmuasidan iborat ekaligini ko’rishimiz mumkin.

1-rasm.

Xizmatlarning tasnifiy belgilari bo’yicha guruhlari[2]

[1] Портер М., Хаппелманн Дж. Указ. соч. – С. 93

[2] B.A. Ismailov, Xizmat ko’rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari.



Yuqorida aytib o'tilgan xizmatlarning belgilariga qo'shimcha ravishda AKT sohasini qo'shishimiz kerak. Hozirgi texnologik rivojlangan zamonda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar sohasiga bo'lgan talab hozirda keskinlik bilan o'sib bormoqda. Bu sohada ko'plab xizmatlar yaratilmoqda, shunga qaramay bu sohada yaratilayotgan xizmatlarga talab o'sib bormoqda. Hozirda millionlab yangi ish o'rinlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. 2015-yil O'zbekistonda AKT sohasida 33,4 ming kishi ishlagan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 53,8mingga yetdi. O'sish sur'ati 161%ni ko'rsatmoqda[3].

In summary, the comparative analysis supports a synthesis model wherein effective AI integration depends on three mutually reinforcing conditions: sustained digital pedagogy training, institutional policies safeguarding teacher agency, and a professional ethos grounded in human values. These findings align with global trends yet highlight regional variations particularly in the CIS where infrastructure and policy support determine the extent to which teachers can transition from technology users to reflective AI collaborators. Ultimately, the evolving teacher identity in the age of AI is best understood as an adaptive equilibrium between human creativity and computational precision a relationship defined less by substitution than by symbiosis.

CONCLUSION

The integration of artificial intelligence into education marks one of the most profound transformations in the modern history of teaching. It compels educators not only to master new technologies but also to reimagine the very essence of their professional identity. The comparative analysis undertaken in this study demonstrates that while AI can enhance efficiency, differentiation, and access to data-driven insights, its greatest promise lies in enabling teachers to reclaim what is uniquely human in education empathy, ethical reasoning, creativity, and the capacity to guide learners through uncertainty. Across global and regional scholarship, a shared consensus emerges: technology alone cannot humanize learning; it is the teacher, equipped with digital wisdom and critical agency, who ensures that AI serves education rather than subverts it.

Findings from international scholars such as Luckin (2017), Holmes et al. (2021), and Selwyn (2019), together with contributions from CIS educators including Jalolov (2015) and Niyozov (2023), converge on a vital insight: effective AI integration requires equilibrium between innovation and introspection. Teachers must evolve into reflective practitioners capable of co-designing with machines while safeguarding human values in learning design. The challenges of automation, ethical accountability, and professional adaptation are not temporary disruptions but signposts of a new pedagogical era in which human and artificial intelligences operate in dialogue rather than competition.

This study ultimately reaffirms that the future of education will not be defined by

technological sophistication alone, but by the moral and intellectual resilience of those who teach within it. The teacher of the AI age is neither displaced nor diminished; rather, they emerge as a new kind of professional an interpreter between data and humanity, a curator of wisdom in an age of information abundance. Embracing this role requires courage, continuous learning, and institutional commitment to ethical, human-centered innovation. In this balance lies the enduring relevance of teachers and the promise of an education system enriched, not eclipsed, by artificial intelligence.

REFERENCES

1. Azamatova, A. (2023). The effect of using artificial intelligence and digital tools in project-based foreign language teaching. ERIC. https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1407202.pdf
2. Holmes, W. (2022). Artificial intelligence in education: Promise and implications for teaching and learning. Routledge.
3. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2021). Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning. Center for Curriculum Redesign. https://curriculumredesign.org/our-work/artificial-intelligence-in-education/
4. Jalolov, J. J. (2015). English language teaching methodology. Samarkand State University. https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2023/01/J.-Jalolov-English-language-teaching.pdf
5. Knox, J. (2020). Artificial intelligence and education in China: Imaginary futures and institutional realities. Learning, Media and Technology, 45(3), 298–310. https://doi.org/10.1080/17439884.2020.1754236
6. Luckin, R. (2017). Towards artificial intelligence-based assessment systems. Nature, 550(S7676), 518–520. https://doi.org/10.1038/550518a
7. Niyozov, N. (2023). AI-powered learning: Revolutionizing technical higher education in Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 410, 01092. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/98/e3sconf_rses23_01092/e3sconf_rses23_01092.html
8. Selwyn, N. (2019). Should robots replace teachers? AI and the future of education. Polity Press.
9. Williamson, B., & Eynon, R. (2020). Historical threads, missing links, and future directions in AI in education. Learning, Media and Technology, 45(3), 223–235. https://doi.org/10.1080/17439884.2020.1798995
10. Zhao, Y., & Watterston, J. (2021). The changes we need: Education post-COVID-19. Journal of Educational Change, 22(1), 3–12. https://doi.org/10.1007/s10833-021-09417-3

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Микроциркуляторное русло и ишемическое повреждения тканей

Солиев Содикбек Шерзодович
Каримов Улугбек Рустамович
студенты Ташкентского государственного медицинского университета
2-лечебного факультета
Люция Анваровна (PhD)
научный руководитель ассистент кафедры гистологии и медицинской биологии

Аннотация: Микроциркуляция является ключевым звеном в поддержании гомеостаза и обмена веществ между кровью и тканями. Нарушения микроциркуляторного русла играют критическую роль в развитии *сердечно-сосудистых заболеваний, ишемии, диабетических микроангиопатий, онкологического ангиогенеза и осложнений COVID-19*. В статье подробно рассматриваются строение и функции микроциркуляции, механизмы ишемии и реперфузионного повреждения, морфологические изменения при различных патологиях, а также роль эндотелия как центрального регулятора сосудистого тонуса, свёртываемости и воспалительных реакций. Особое внимание уделено клиническим примерам и статистическим данным, подчёркивающим актуальность темы.

Annotation: Microcirculation plays a crucial role in maintaining homeostasis and ensuring the exchange of substances between blood and tissues. Disorders of the microcirculatory system are critical in the development of cardiovascular diseases, ischemia, diabetic microangiopathies, oncological angiogenesis, and COVID-19 complications. This article provides a detailed analysis of the structure and functions of microcirculation, mechanisms of ischemia and reperfusion injury, morphological changes in various pathologies, and highlights the role of the endothelium as a central regulator of vascular tone, coagulation, and inflammatory processes.

Annotatsiya: Mikrotsirkulyatsiya — bu to‘qimalar va qon o‘rtasida moddalar almashinuvini ta’minlaydigan hamda gomeostazni qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy tizim hisoblanadi. Mikrotsirkulyatsiya buzilishlari yurak-qon tomir kasalliklari, ishemiya, diabetik mikroangiopatiyalar, onkologik angiogenez va COVID-19 asoratlari rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolada mikrosirkulyatsiyaning tuzilishi va funksiyalari, ishemiya va reperfuziya shikastlanishi mexanizmlari, turli patologiyalarda morfologik o‘zgarishlar hamda endoteliyning tomir tonusi, qon ivishi va yallig‘lanish jarayonlaridagi markaziy roli atroflicha

yoritilgan.

Ключевые слова: Микроциркуляция; эндотелий; ишемия; реперфузионное повреждение; диабетическая микроангиопатия; ангиогенез; COVID-19; морфология; гистология сосудов..

Keywords: Microcirculation; endothelium; ischemia; reperfusion injury; diabetic microangiopathy; angiogenesis; COVID-19; morphology; vascular histology**.**

Kalit so‘zlar: Mikrotsirkulyatsiya; endoteliy; ishemiya; reperfuziya shikastlanishi; diabetik mikroangiopatiya; angiogenez; COVID-19; morfologiya; qon tomir gistologiyasi.

Введение:

По данным Всемирной организации здравоохранения, ежегодно болезни сердца и сосудов уносят жизни более *17,9 млн* человек, что составляет треть всех смертей в мире. В Узбекистане доля смертности от сердечно-сосудистых заболеваний превышает *50%*. Ключевым механизмом этих патологий выступают нарушения микроциркуляции, затрагивающие мельчайшие сосуды — *артериолы, капилляры и венулы*.

Микроциркуляторное русло обеспечивает ткани кислородом и питательными веществами, регулирует обмен жидкостей и поддерживает гомеостаз. Любые нарушения этого уровня кровообращения приводят к *ишемии, отёкам, тромбозам и полиорганной недостаточности.*

Актуальность темы обусловлена высокой распространённостью сердечно-сосудистых заболеваний, диабета, инсультов, онкологии и COVID-19, в патогенезе которых ведущая роль принадлежит микроциркуляторным нарушениям.

Строение микроциркуляторного русла

Микроциркуляция начинается с ***артериол***. Эти сосуды имеют диаметр всего десятки микрометров, но именно они определяют, сколько крови попадёт в капилляры. Их стенка состоит из *эндотелия, базальной мембраны и слоя гладкомышечных клеток*, которые способны быстро менять просвет. Когда артериола спазмируется, капилляры остаются пустыми, и ткань начинает страдать от нехватки кислорода.

На границе с капиллярами находятся прекапиллярные сфинктеры — своеобразные «краны», которые открывают или закрывают доступ крови в микроциркуляцию. В обычных условиях значительная часть капилляров закрыта, но при физической нагрузке или в условиях повышенной потребности

они открываются, обеспечивая ткань энергией.

Капилляры — самые тонкие сосуды. Их стенка образована всего одним слоем эндотелиальных клеток и базальной мембраной. Здесь эритроцит буквально «скользит боком», отдавая кислород и забирая продукты обмена.
Существует три типа капилляров:
Сплошные (характерные для мозга и мышц)
Фенестрированные (почки, эндокринные железы)
Синусоидные (печень, костный мозг, селезёнка).
Именно тип капилляра определяет, насколько быстро идёт обмен веществ и насколько орган устойчив к ишемии.
После капилляров кровь собирается в **венулы**. Эти сосуды отличаются высокой проницаемостью, особенно во время воспаления: именно здесь через стенку выходят лейкоциты и плазма. Венулы легко растягиваются, что делает их важной точкой развития отёка и застойных явлений.

Особое место в микроциркуляции занимает **эндотелий** — тонкий слой клеток, выстилающий сосуды. На первый взгляд он пассивный, но на самом деле это «орган в органе». Эндотелий регулирует свёртывание крови, синтезирует вещества, расширяющие и сужающие сосуды, контролирует миграцию иммунных клеток. Повреждение эндотелия запускает каскад тромбообразования и воспаления, что играет ключевую роль в ишемии. Важным компонентом являются и перициты — клетки, прилежащие к капиллярам, которые поддерживают их структуру, регулируют просвет и участвуют в регенерации. Потеря перицитов, например при сахарном диабете, приводит к микроангиопатии и хроническим ишемическим изменениям

Физиологическая роль микроциркуляции
Микроциркуляция — это не просто транспорт крови, а система тонкой настройки обмена. Именно здесь осуществляется газообмен: кислород выходит из крови в ткани, а углекислый газ идёт в обратную сторону. Перемещение основано на разнице парциального давления газов: чем выше потребление кислорода клетками, тем быстрее он уходит из капилляров.
Через эндотелий активно проходят питательные вещества — глюкоза, аминокислоты, гормоны. В одних органах этот процесс идёт строго выборочно, например: в *мозге*, в других — очень быстро и свободно: *печени и костном мозге.*

Отдельное значение имеет движение жидкости через капилляры.

В артериальном конце давление толкает плазму наружу *фильтрация*, а в венозном — часть жидкости возвращается *реабсорбция*. Этот баланс описан законом Старлинга. Нарушение равновесия приводит к отёкам, которые усугубляют ишемические повреждения.

Регуляция осуществляется на нескольких уровнях:

- **симпатическая нервная система вызывает вазоспазм**
- **метаболиты (аденозин, молочная кислота, CO_2) обеспечивают вазодилатацию;**
- **эндотелий выделяет NO (расширение) и эндотелин (сужение)**

Ишемия и её механизмы

Ишемия — это снижение или прекращение кровотока в ткани. Причинами могут быть тромбоз, эмболия, спазм сосудов, атеросклероз или внешнее сдавление опухолью. На гистологическом уровне ишемия запускает цепочку событий. Сначала клетка испытывает дефицит кислорода, падает синтез АТФ. Нарушается работа ионных насосов, в клетку устремляются ионы натрия и вода, развивается отёк. Митохондрии разрушаются, в цитоплазме появляются вакуоли. Если ишемия длительная — происходит необратимое повреждение: разрушение мембран, активация ферментов, гибель клетки.

В ткани это проявляется *дистрофией*, а затем *некрозом*. Если поражение массивное — формируется *инфаркт*. Характер некроза зависит от органа: в *сердце и почках* развивается **коагуляционный некроз,** в *мозге* — **колликвационный.**

Особое явление — *реперфузионное* повреждение. Если кровоток восстановить слишком резко, избыток кислорода приводит к образованию свободных радикалов. Они разрушают мембраны и ДНК, что усугубляет гибель клеток. Поэтому в клинике важно не только восстановить кровоток, но и контролировать реперфузию.

Ишемия в разных органах

Сердце чрезвычайно чувствительно к недостатку кислорода. Уже через несколько минут прекращения кровотока миокард начинает гибнуть. В гистологических препаратах через несколько часов видны изменения: *потеря поперечной исчерченности, эозинофилия цитоплазмы, затем распад ядер.*

Мозг ещё более уязвим. Его нейроны не могут запасать гликоген, а капилляры имеют плотный барьер. Поэтому даже 5 минут ишемии вызывают необратимую гибель клеток. Гистологически наблюдается *отёк, сморщивание и пикноз нейронов, демиелинизация*.

Почки страдают особенно в области *канальцевого эпителия*. Клубочковые капилляры фенестрированы и позволяют крови быстро фильтроваться, но при ишемии эпителий канальцев гибнет, развивается острый *некроз* и *почечная недостаточность*.

Печень более устойчива благодаря синусоидным капиллярам, но при длительном кислородном голодании возникает *центролобулярный некроз* — клетки вокруг центральных вен погибают первыми, так как они получают меньше всего кислорода.

Морфологические изменения при патологиях

• При **диабете** стенки капилляров становятся «двойными» за счёт утолщённой базальной мембраны. Это приводит к *ретинопатии*, *нефропатии*.

• При **гипертонии** сосуды сужаются, развивается *гиалиноз*, просвет капилляров уменьшается, из-за чего ткани постоянно живут в «микроишемии».

• При **сепсисе** эндотелий становится дырявым, плазма выходит в ткани → *отёк, микротромбы, полиорганная недостаточность*.

• При **инфаркте миокарда** капилляры забиваются эритроцитами и тромбами — это объясняет зону некроза.

Микроциркуляция и онкология

Для нормального роста тканей необходимо поступление кислорода и питательных веществ. В здоровом организме сеть капилляров формируется строго контролируемо: новые сосуды появляются только там, где они нужны — например, при заживлении ран.

Опухолевые клетки, напротив, ведут себя иначе. Чтобы расти, они должны получить собственную сеть сосудов. Для этого они начинают выделять особые молекулы — факторы ангиогенеза, главным из которых является **VEGF** (*Vascular Endothelial Growth Factor — сосудистый эндотелиальный фактор роста*). Этот белок заставляет эндотелиальные клетки активно делиться и образовывать новые капилляры.

Однако сосуды, образующиеся при опухолевом ангиогенезе, имеют ряд

особенностей:

• *они хаотично расположены, не формируют правильной сети;*

• *обладают повышенной проницаемостью, что способствует отёкам и выходу опухолевых клеток за пределы первичного узла;*

• *отличаются хрупкостью и склонностью к разрывам, из-за чего в опухолевой ткани часто бывают кровоизлияния;*

• *создают «коридоры» для метастазов — через такие сосуды клетки опухоли легко попадают в общий кровоток и расселяются по организму.* Современные исследования показывают, что именно патологическая микроциркуляция делает опухоль агрессивной. Она не только снабжает её кислородом, но и помогает обходить защитные механизмы организма.

Микроциркуляция при COVID-19

COVID-19 стал примером того, насколько критическую роль играет микроциркуляция в здоровье человека. Сначала считалось, что болезнь поражает только дыхательную систему, однако вскоре было доказано, что основной мишенью является эндотелий сосудов.

Как вирус повреждает микрососуды?

Вирус **SARS-CoV-2** проникает в клетки через рецептор **ACE2**, который в большом количестве находится на поверхности эндотелиальных клеток. В результате:

1. *Прямое поражение эндотелия* — вирус вызывает гибель эндотелиальных клеток, что нарушает барьерную функцию сосудов.
2. *Эндотелиит* — воспаление сосудистой стенки, при котором сосуды становятся отёчными и проницаемыми.
3. *Активация свёртывающей системы* — на повреждённом эндотелии начинают формироваться микротромбы.

Основные последствия

• *Тромбоз мелких сосудов*: из-за образования микросгустков нарушается кровоток в лёгких, почках, сердце и мозге.

• *Повреждение лёгочных капилляров*: именно поэтому развивается тяжёлая дыхательная недостаточность и синдром острого респираторного дистресса

(ОРДС).

• *Мультиорганное поражение*: нарушенный микроциркуляторный кровоток приводит к недостаточному снабжению органов кислородом → страдают почки, печень, сердце, головной мозг.

Гистологические находки

При аутопсии пациентов с тяжёлым COVID-19 в лёгких выявляли:

• *выраженный тромбоз капилляров и мелких сосудов;*

• *неоангиогенез — попытку организма формировать новые сосуды в ответ на повреждение;*

• *повреждение альвеолярно-капиллярного барьера.*

Статистика заболеваний

Сердечно-сосудистые заболевания (ССЗ):

• По данным ВОЗ, ежегодно в мире умирает *17,9* млн человек от ССЗ, что составляет *32%* всех смертей.

• В Узбекистане смертность от ССЗ превышает *50%* всех случаев смерти.

2. **Ишемический инсульт и инфаркт миокарда**:

• Инсульт — одна из ведущих причин инвалидности в мире. Каждый год его переносят более *12 млн* человек.

• Инфаркт миокарда ежегодно диагностируется у *8–9 млн* пациентов в мире.

3**. Сахарный диабет и микроангиопатии**:

• В мире более *540* млн человек страдают диабетом (IDF, 2023).

• До *80%* пациентов с диабетом имеют микроангиопатии (*ретинопатия, нефропатия, невропатия).*

4. ***Онкология и ангиогенез***:

• Рак остаётся второй причиной смертности в мире: более *10* млн смертей в 2022 году.

• Около 90% смертей от рака связаны с метастазами, в которых ключевую роль играет патологическая микроциркуляция.

5. **COVID-19 и сосудистые осложнения**:

• По данным ВОЗ, с начала пандемии зафиксировано более *770* млн случаев COVID-19 и около *7* млн смертей (2024).

• В тяжёлых случаях до 80% пациентов в реанимации имели признаки тромбозов микрососудов.

Клиническое значение

На основании анализа литературы и гистологических данных можно выделить несколько ключевых клинических аспектов:

1. *Эндотелий как терапевтическая мишень.* Поддержание его функций снижает риск тромбозов, воспалительных реакций и ишемических повреждений.
2. *Ранняя диагностика микроангиопатий*. У пациентов с сахарным диабетом и гипертонией морфологические изменения капилляров возникают задолго до клинических симптомов.
3. *Онкология.* Таргетная терапия факторов ангиогенеза (VEGF) позволяет замедлить рост опухоли и распространение метастазов.
4. *COVID-19.* Лечение должно включать антикоагулянтную терапию и защиту эндотелия, чтобы предотвратить микротромбозы.
5. *Ишемия и реперфузия*. Необходимы методы контролируемого восстановления кровотока для предотвращения оксидативного стресса.

Таким образом, понимание механизмов микроциркуляции имеет прямое значение для клинической практики и поиска новых методов терапии.

Заключение

Микроциркуляция представляет собой основу жизнедеятельности организма. Она обеспечивает обмен веществ на уровне тканей, регулирует сосудистый тонус, участвует в иммунных и воспалительных реакциях. Нарушения микроциркуляции лежат в основе большинства социально значимых заболеваний — от ишемической болезни сердца и инсульта до диабета, сепсиса, онкологии и COVID-19.

Гистологическое изучение микроциркуляторного русла позволяет выявить ранние признаки патологий и обосновать современные подходы к терапии. Перспективным направлением остаётся защита эндотелия, коррекция микроангиопатий и разработка препаратов, регулирующих ангиогенез.

Список литературы

1. Гистология: учебник / под ред. Ю.И. Афанасьева, Н.А. Юрина. – М.: Медицина, 2020.
2. Кузнецов С.Л., Шевченко В.П. Микроциркуляция и её роль в патологии. – СПб.: СпецЛит, 2019.

3. Braunwald E. Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine. – Philadelphia: Elsevier, 2022.
4. Колесников Л.Л., Кетлинский С.А. Патофизиология. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2021.
5. World Health Organization (WHO). Cardiovascular diseases. Fact sheet, 2023.
6. International Diabetes Federation (IDF). Diabetes Atlas, 10th edition. – Brussels, 2023.
7. Sung H. et al. Global Cancer Statistics 2022. CA: A Cancer Journal for Clinicians, 2023.
8. Varga Z. et al. Endothelial cell infection and endotheliitis in COVID-19. The Lancet, 2020.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

TARIXIY SHAXSLARNING TASVIRLANISHI

Erkaboyeva Nargiza
33- umumta'lim maktabi Namangan viloyati Davlatobod tumani

Annotatsiya
Mazkur maqolada tarixiy shaxslarning adabiyot, tarix va xalq og'zaki ijodidagi tasvirlanish uslublari tahlil qilinadi. Ayniqsa, tarixiy shaxslarning badiiy obrazga aylanishi jarayonida ularga berilgan baho, yondashuvlar, milliy va madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi o'rganilgan. Maqolada o'quvchilarga tarixiy shaxslar haqida chuqurroq tasavvur berish, ularning obrazlarini to'g'ri anglash va mustaqil fikrlashga undash maqsad qilingan.

Kalit so'zlar:
Tarixiy shaxs, badiiy obraz, tarix, adabiyot, yodgorlik, milliy o'zlik, xalq qahramoni, qiyosiy tahlil

Kirish

Tarixiy shaxslar – o'z faoliyati, jasorati, ilm-fani yoki ijtimoiy-siyosiy ishlari orqali xalq, jamiyat va davlat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan insonlardir. Ular haqida ma'lumotlar tarixiy manbalarda, badiiy asarlarda, xalq og'zaki ijodida va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda uchraydi.

Bugungi kunda maktab o'quvchilari orasida tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ammo ularni tasvirlashda faqat bir tomonlama yondashuv emas, balki ilmiy, tahliliy, madaniy va estetik qarashlar asosida baholash zarur.

Ushbu maqolada tarixiy shaxslarning adabiyot va tarixiy manbalarda tasvirlanishi, ularning obrazining shakllanish jarayoni va bu tasvirlarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni tahlil qilinadi.

Metodlar

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Tarixiy-tahliliy metod – tarixiy shaxslarning hayoti haqida yozilgan manbalarni o'rganish.

Qiyosiy tahlil – bir shaxs haqida yozilgan turli asarlar, yondashuvlar va manbalarni solishtirish.

Adabiy tahlil – tarixiy shaxslarning badiiy asarlardagi obrazlarini tahlil qilish.

Sotsiologik yondashuv – maktab o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan mini-so‘rovnoma orqali ularning tarixiy shaxslarga munosabati o‘rganildi.

Didaktik yondashuv – o‘quvchilarni mustaqil tahlil qilishga undovchi metodik materiallardan foydalanildi.

Badiiy obraz borliqdagi inson, narsa, hodisaning san’atkor ko’zi bilan ko’rilgan va ideali asosida ijodiy qayta ishlagan aksi demakdir. Badiiy obraz yordamida ijodkor o’zini qiynagan muammolarni badiiy idrok etadi, Yozuvchi o’z asariga hayotiy hodisa va kishilarni material qilib oladi. Shu jumladan, agar asar tarixiy material asosida yozilgan bo’lsa, ma’lum tarixiy shaxslar ham badiiy asarning qahramoni etib tasvirlanishi mumkin.

Shahodat Isaxonovaning “Turon malikasi” tarixiy romanidagi Amir Temur, Bibixonim, Xalil Sulton, Shod Mulk, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug’bek, Tuman Og’o, Gavharshodbegim, Xoja Yusuf, Shayx Nuriddin, Burunduq Barlos kabi bir qator shaxslar haqiqatan tarixda yashab o’tgan shaxlar bo’lib, ayni paytda ular tarixiy romanning badiiy obrazlaridir. “Yozuvchi badiiy obrazlar vositasida o’sha davrdagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy muammolarni badiiy tadqiq etadi, obrazlar tizimi vositasida bu boradagi fikr-qarashlarini shakllantiradi va o’zi anglagan haqiqatni tugal bir qarash, tizim holidagi badiiy xulosa tarzida ifoda etadi”.

1. Tarixiy va badiiy manbalar

- **Asosiy tarixiy asarlar**:
  - *“Temur tuzuklari”* – Amir Temur tomonidan yozilgan asar bo‘lib, unda siyosiy qarashlari, hukmronlik asoslari va shaxsiy fazilatlari ifodalangan.
  - *“Boburnoma”* – Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub memuar asar, unda tarixiy shaxs sifatidagi faoliyati va dunyoqarashi yoritilgan.
- **Badiiy asarlar**:
  - Abdulla Qodiriy – *“O‘tkan kunlar”* (tarixiy davr va ijtimoiy shaxslar tasviri).
  - Pirimqul Qodirov – *“Avlodlar dovoni”* (Bobur obrazining badiiy talqini).
  - Xalq rivoyatlari va dostonlaridan Jaloliddin Manguberdi, Alp Er To‘nga, Shayboniyxon haqidagi og‘zaki ijod namunalaridan foydalanildi.

2. Darsliklar va metodik qo‘llanmalar

- Umumta’lim maktablarining 7–9-sinflari uchun mo‘ljallangan **O‘zbekiston tarixi**, **Adabiyot** va **Ma’naviyat asoslari** darsliklari asosiy tahlil materiallari sifatida xizmat qildi.
- Shuningdek, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar, tarix va adabiyot fanlari bo‘yicha ish rejalari ham tahlil qilindi.

3. Ilmiy-ommabop va ensiklopedik manbalar

- O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (Amir Temur, Bobur, Jaloliddin Manguberdi haqidagi maqolalar).
- “Tarixiy shaxslar” mavzusiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar, tezislar va internetdagi ochiq manbalar (respublika va xalqaro nashrlar).

4. Empirik ma’lumotlar

- **Namangan viloyati Davlatobod tumanidagi 33-umumiy o‘rta ta’lim maktabi** 7–9-sinf o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan mini-so‘rovnoma natijalari.
  - So‘rovnoma savollari: Qaysi tarixiy shaxslarni bilasiz? Ular haqida qayerdan ma’lumot olgansiz? Siz uchun eng qiziqarli tarixiy shaxs kim?
  - So‘rovnoma natijalari statistik jadval shaklida umumlashtirildi va maqola **natijalar** qismida tahlil qilindi.

5. Texnik vositalar va dasturlar

- Matnlarni qayta ishlash uchun **Microsoft Word**, **Excel**, va grafik ko‘rinishda tahlil qilish uchun oddiy vizualizatsiya dasturlari (diagramma va grafiklar uchun).
- Elektron kutubxonalar va raqamli ma’lumotlar bazalari: **ziyonet.uz**, **lex.uz**, **n.ziyouz.com**, **kitob.uz** va boshqalar.

Asardagi obrazlarda adibning hissiy munosabati ham o’z aksini topgan. Hissiy munosabat badiiy konsepsiyani shakllantirishda, asar mazmunini o’quvchiga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Turon malikasi” romanida yozuvchi Bibixonim obraziga alohida mehr, iliqlik, samimiylik bilan yondashadi. Ayni paytda, ijodkor qahramonining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy zarbalardan iztirobga

tushayotganidan qayg'uradi*:"... Yo, tangrim! Bu ne yozuq, bu ne qismat bo'ldi? Yoki avvalim ham oxirim ham obod bo'lur deb ko'p ishonib yubordimmu? Tangrim, bul ne sir, bul ne sinov?! Yo o'zingga takabburlik qildimmu? Yoxud umrim shominda peshonamg'a bitilg'ani shul achchiq qismatmu? Eng achchiq qismat sharobini ichdimku! Bundin ortiq yana ne bo'lishi mumkun?"*

Mo'jaz san'at asarlari turli mamlakatlarda shu jumladan O'zbekiston hududida juda ham qadim zamondan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo'la oladi. o'zbek portret san'ati ham boy tarixga ega. Bu san'at namunalari qad. va o'rta asrlar san'atida uchraydi (Yunon- Baqtriya, Xorazm, Kushan podsholarining haykal va tanga yuzalariga ishlangan bo'rtma tasvirlari), Amir Temur va temuriylar, Shayboniylar hamda Boburiylar davri san'ati (Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va b.)dagi miniatyuralarda ma'lum darajada taraqqiy etgan. Nafis (mo'jaz rasm) miniatyura taraqqiyoti davomida bir asar ustida bir necha san'atkorlar ijodiy hamkorlik qilgan, kishilar qiyofasi, yuzini tasvirlovchi musavvir nomiga *chehrakushoy (yuzni ochuvchi)* yoki chehra so'zi qo'shilgan.

Natijalar

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Tarixiy shaxslarning tasviri ikki asosiy manba orqali ifodalanadi:

Tarixiy hujjatlar va ilmiy manbalar

Badiiy asarlar, dostonlar, xalq rivoyatlari

O'rganilgan misollar:

Amir Temur – tarixda buyuk sarkarda sifatida; badiiy asarlarda dono, adolatli va qudratli shaxs sifatida gavdalantirilgan.

Jaloliddin Manguberdi – vatanparvarlik ramzi sifatida ko'rsatiladi; xalq orasida "oxirgi qahramon" sifatida yodga olinadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur – tarixda shoh va olim; adabiyotda lirik shoir, donishmand hukmdor sifatida tasvirlanadi.

Maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan mini-so'rovnoma (33-maktab):

7–9-sinf o'quvchilarining 96% Amir Temur obrazini biladi.

65% o'quvchi Boburnoma haqida eshitgan.

72% o'quvchi tarixiy shaxslar haqida ko'proq badiiy asarlar orqali ma'lumot oladi.

Muhokama

Tarixiy shaxslarning tasvirlanishi ularning jamiyatdagi o‘rnini belgilash, tarixiy xotirani saqlash va yosh avlodni tarbiyalashda muhim vositadir. Ayniqsa, badiiy asarlarda ularning jasorati, donoligi va insoniy fazilatlari yoritilishi orqali o‘quvchilarda faxr tuyg‘usi shakllanadi. Biroq, ayrim holatlarda badiiy yondashuvlarda mubolag‘a yoki afsonalashtirish holatlari uchraydi. Shu bois o‘quvchilar tarixiy shaxslar haqida ilmiy asoslangan, manbaviy jihatdan tasdiqlangan ma’lumotlarni olishlari lozim.

Shuningdek, maktab darsliklari va qo‘shimcha adabiyotlarda tarixiy shaxslarning hayoti nafaqat voqea-hodisalar ketma-ketligi, balki ularning shaxsiyati, qarashlari, qarorlari ham yoritilishi kerak.

Shunday qilib, tarixiy romanda ijobiy obraz haqida yangicha tushuncha shakllandi. Tarixning eklektik falsafasi tarixiy shaxsda umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni, u bajargan tarixiy vazifani va insonniyatga xos bo‘lgan insoniy kamchiliklarni ajratib turardi. Demak - har bir tarixiy qahramonda, qolaversa, tarixiy romanning har bir tarixiy qahramonida yuksaklik va tubanlik o‘rtasidagi ziddiyat bo`lgan. Ilgarigi romanlar uchun zaruriy bo‘lgan jismoniy va axloqiy barkamollikka ega beg‘ubor yigit tarixiy romanlarda urfdan qolgan edi. Stendal ayol yozuvchilarning nozik romanlarida to‘lib yotgan bunday go‘zal, barkamol yigitlar obrazlari ustidan kulgan edi. O‘sha davr faylasuflari tarixiy roman bunday kamchiliklarni to‘g‘rilashini hamda tarixiy qahramonlar butun yutuq va kamchiliklari bilan gavdalanishi kerakligini bildirishgan.

Xulosa

Tarixiy shaxslarning tasvirlanishi – bu nafaqat tarixni o‘rganish, balki milliy ong, madaniyat va tarbiyani shakllantirish vositasi hamdir.

Quyidagi takliflar asosida mazkur yo‘nalishni yanada samarali qilish mumkin:

Maktablarda tarixiy shaxslar haqida ko‘proq badiiy matnlar va tarixiy hujjatlar asosida integratsiyalashgan darslar o‘tkazish.

O‘quvchilarga mustaqil ravishda tarixiy shaxslarning obrazini tahlil qilish imkonini beruvchi topshiriqlar berish.

O‘quvchilar ishtirokida "Tarixiy shaxslar" mavzusida insholar, prezentatsiyalar va bahs-munozaralar tashkil qilish.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, tarixiy romanning yana bir, muhim xususiyati ideal qahramonni inkor etish va tarixiy jarayonni umumiy tushunishi bilan bog‘liq masala: ozmi ko‘pmi salbiy, biroz rangpar bo‘lgan boshqa qahramonlar uning soyasida qolib ketgan bosh qahramonni rad etadi. Tarixdagi kabi, tarixiy romanda omma, jamoa harakat qiladi.Volter Scott «qahramonlar jamoasi»dan iborat romanlar yaratdi. Demak, tarixiy sharoitlar ta’siri ostida va navbatdagi ijtimoiy vazifalarga muvofiq rivojlangan haqiqat tushunchasi, tarixiy roman estetikasini zamonaviy hayot estetikasiga aylantirmaguncha uni doimiy ravishda shakllantirgan va o‘zgartirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z. M. *Boburnoma*. Toshkent, G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2015.
2. Temur tuzuklari. Toshkent, Sharq nashriyoti, 2022.
3. Abdurauf Fitrat. *Tarixiy shaxslar haqida maqolalar*. Toshkent, 2023.
4. O‘zbekiston tarix darsligi (7–9-sinflar). Toshkent, 2022.
5. Xalq rivoyatlari va dostonlari to‘plami. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, 2019.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

SHAXSNING O‘Z-O‘ZINI BAHOLASHI VA O‘ZINI ANGLASH JARAYONI.

Amirova Nodira Shamshiyevna
Alfraganus Universiteti Psihalogiya PS-23-1 guruh talabasi**.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsning o‘z-o‘zini baholashi va o‘zini anglash jarayoni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Insonning o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, ijobiy o‘zini anglash tuyg‘usiga ega bo‘lishi uning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faoliyati va muvaffaqiyatga erishishida muhim omil hisoblanadi. Maqolada shaxs rivojlanishida o‘z-o‘zini baholashning ijobiy va salbiy shakllari, ularning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar, shuningdek, o‘zini anglashning yosh davrlariga ko‘ra o‘zgarishi haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot jarayonida mavjud psixologik manbalar tahlil qilinib, o‘z-o‘zini baholashni rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: shaxs, o‘z-o‘zini baholash, o‘zini anglash, psixologiya, ruhiy holat, shaxs rivojlanishi, ijtimoiy muhit, motivatsiya, o‘zini qadrlash, emotsional barqarorlik, o‘zini tanish, shaxsiy ong, o‘zini anglash jarayoni.

Kirishi: nson shaxs sifatida kamol topish jarayonida o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash muhim psixologik jarayonlardan biri hisoblanadi. Har bir inson o‘z imkoniyatlari, qobiliyati va shaxsiy fazilatlarini anglab borar ekan, u o‘z hayotiga nisbatan ongli yondashishni shakllantiradi. O‘zini baholash – bu shaxsning o‘ziga, faoliyatiga va atrofdagi munosabatlarga nisbatan beradigan ichki bahosidir. Mazkur jarayon insonning ruhiy holatini, o‘ziga bo‘lgan ishonchini hamda motivatsiyasini belgilab beradi. Psixologiya fanida o‘zini anglash tushunchasi shaxsning “Men” obrazi, ya’ni o‘z shaxsiyligini idrok etish bilan bog‘liq. Inson o‘zini qanday ko‘rsa, atrofdagi voqealarga ham shunday munosabatda bo‘ladi. Shu bois, o‘z-o‘zini baholash darajasi past bo‘lgan shaxslar ko‘pincha o‘z kuchiga ishonmaydi, ijtimoiy faoliyatda sustlik namoyon etadi. Aksincha, yetarli darajadagi ijobiy baholash esa insonni maqsad sari harakat qilishga, o‘zini rivojlantirishga undaydi. Shaxsning o‘zini anglash jarayoni bolalik davridan boshlab shakllanadi va hayot davomida takomillashib boradi. Oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, ta’lim tizimi hamda shaxsning hayotiy tajribasi bu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, shaxsning o‘zini to‘g‘ri anglash va baholashini o‘rganish psixologik rivojlanishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metod: Shaxsning o‘z-o‘zini baholashi va o‘zini anglash jarayoni psixologiya fanida keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Ko‘plab mahalliy

va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida bu jarayonning inson ruhiyati va ijtimoiy xulq-atvoriga ta’siri batafsil yoritilgan. Masalan, rus psixologi L.S. Vygotskiy o‘zini anglashni shaxsning ongli rivojlanish bosqichlari bilan bog‘lab o‘rganadi. Unga ko‘ra, inson o‘zini anglay boshlaganida, uning tafakkuri va o‘ziga bo‘lgan ishonchi shakllanadi. A.N. Leontyev esa o‘z-o‘zini baholashni faoliyat nazariyasi asosida tahlil qilib, inson o‘z harakatlarini natija bilan solishtirish orqali o‘zini baholashini ta’kidlaydi. O‘zbek psixologlari ham bu borada bir qator tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan, S. Karimova, M. Hasanov, Sh. Yusupova kabi olimlar o‘z ishlarida o‘zini anglashni shaxs tarbiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatgan. Ularning fikricha, o‘zini anglash nafaqat individual, balki ijtimoiy jarayondir. Chunki inson o‘zini atrof-muhitdagi munosabatlar, boshqalarning bahosi orqali anglaydi. Tadqiqot metodlari sifatida psixologik tahlil, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma va tajriba usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Ayniqsa, yosh davr psixologiyasida o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholashni o‘rganish uchun so‘rovnomalar orqali olingan ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar yordamida shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabati, o‘z kuchiga ishonchi va o‘zini qadrlash darajasi aniqlanadi. Shu tarzda, mavjud ilmiy manbalar va tahlillar asosida shaxsning o‘z-o‘zini baholash jarayoni insonning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faolligi va hayotiy maqsadlariga erishishida asosiy omil ekanligi aniqlangan.

Muhokama: Shaxsning o‘z-o‘zini baholashi va o‘zini anglash jarayoni inson hayotidagi eng muhim psixologik mexanizmlardan biridir. Inson o‘zini qanday qabul qilishi, o‘zini qanday baholashi uning hayotga bo‘lgan qarashlarini, xatti-harakatlarini va ijtimoiy munosabatlarini belgilaydi. O‘z-o‘zini baholash insonning ruhiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar inson o‘zini ijobiy baholasa, u o‘ziga nisbatan ishonch bilan qaraydi, faol, maqsadga yo‘naltirilgan hayot kechiradi. Aks holda, o‘ziga ishonchsizlik, qo‘rquv va passivlik paydo bo‘lishi mumkin. O‘zini anglash jarayoni yosh davrlar bilan chambarchas bog‘liq. Bolalik davrida bu jarayon asosan ota-ona, o‘qituvchi va tengdoshlarning fikri orqali shakllanadi. O‘smirlik davrida esa inson o‘z “Men” obrazini mustaqil shakllantirishga intiladi, bu esa o‘zini baholashda keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Kattalik davriga kelib, shaxs o‘z hayotiy tajribasi, muvaffaqiyat va xatolarini tahlil qilish orqali o‘zini anglaydi va baholaydi. Muhim jihatlardan biri shundaki, o‘z-o‘zini baholash har doim real bo‘lishi kerak. Haddan tashqari yuqori yoki past baholash shaxs ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘ta yuqori o‘zini baholash insonda mag‘rurlik, tanqidni qabul qilmaslik holatini yuzaga keltirsa, past o‘zini baholash o‘z kuchiga ishonchsizlik, ijtimoiy faollikning pasayishiga olib

keladi. Shu bois, muvozanatni saqlash o‘z-o‘zini anglashning asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy muhit ham bu jarayonga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs atrofidagi insonlar, ularning fikri va munosabati o‘zini baholashga bevosita ta’sir etadi. Shu sababli, ijobiy ijtimoiy aloqalar va sog‘lom muhit shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlaydi. O‘zini to‘g‘ri anglash va baholash insonning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga, shaxsiy hamda ijtimoiy hayotda muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Natijalar: O‘tkazilgan tahlillar va mavjud ilmiy manbalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, shaxsning o‘z-o‘zini baholashi va o‘zini anglash jarayoni insonning ruhiy holati hamda ijtimoiy faoliyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini ijobiy baholaydigan shaxslar hayotda faolroq, maqsad sari qat’iyroq intiladilar va turli vaziyatlarda o‘zini boshqara olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bunda oila muhiti, tarbiya uslubi, ta’lim muassasalaridagi psixologik yondashuv hamda atrof-muhitdagi ijtimoiy munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, bolalik davrida ota-onaning ijobiy munosabati, farzandga ishonch bildirilishi va uni qo‘llab-quvvatlash holatlari o‘zini anglashning sog‘lom shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, o‘zini baholashda shaxsning individual xususiyatlari, emotsional barqarorligi va motivatsiya darajasi ham katta ahamiyatga ega. O‘zini past baholovchi shaxslar odatda o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydilar, o‘z kuchiga ishonchsizlik ularning shaxsiy rivojlanishini cheklaydi. Aksincha, real va ijobiy o‘zini baholash insonni o‘z ustida ishlashga, o‘zini rivojlantirishga undaydi. Shaxsning o‘z-o‘zini baholashini to‘g‘ri shakllantirish, uni psixologik va ijtimoiy tomondan qo‘llab-quvvatlash, insonning o‘zini anglashini mustahkamlash jamiyatda barkamol, ma’naviy yetuk shaxslar shakllanishiga zamin yaratadi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, shaxsning o‘z-o‘zini baholashi va o‘zini anglash jarayoni inson ruhiy hayotining ajralmas qismi bo‘lib, uning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zini to‘g‘ri baholaydigan inson hayotdagi qarorlarini ishonch bilan qabul qiladi, o‘z imkoniyatlarini to‘liq anglay oladi va maqsad sari qat’iy intiladi. O‘zini anglash jarayoni esa insonning o‘z “Men”ini tan olishi, o‘zini boshqalardan farqlay olishi hamda o‘z hayotiga nisbatan mas’uliyatni his qilishi orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayon oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit va ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, insonning ruhiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shaxsning o‘zini qadrlashi va o‘ziga ishonchi qanchalik yuqori bo‘lsa, u jamiyatda shunchalik faol, mustaqil va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanadi. Shu bois, o‘zini anglash va o‘z-

o‘zini baholash madaniyatini yoshligidan shakllantirish, bu borada oilalar va ta’lim muassasalarining roli katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova S. *Umumiy psixologiya asoslari.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
2. Leontyev A.N. *Faoliyat, ong va shaxs.* – Moskva: Nauka, 1977.
3. Maslou A. *Motivatsiya va shaxsiyat.* – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015.
4. Rogers K. *Shaxsni anglash va o‘zini ro‘yobga chiqarish psixologiyasi.* – Toshkent: “Istiqlol”, 2019.
5. Vygotskiy L.S. *Inson psixikasining rivojlanishi.* – Moskva: Pedagogika, 1984.
6. Yusupova Sh. *Shaxs psixologiyasi.* – Toshkent: “Sharq”, 2020.
7. Hasanov M. *Ruhiy barqarorlik va o‘zini baholashning psixologik asoslari.* – Toshkent: Oliy ta’lim, 2021.
8. Bandura A. *O‘z-o‘zini boshqarish nazariyasi.* – New York: Freeman Press, 1986.
9. G‘aniyeva N. *Insonning o‘zini anglash jarayoni va shaxsiy rivojlanish.* – Toshkent: TDPU, 2017.
10. Yusupov R. *Psixologik madaniyat va shaxsiy o‘sish.* – Toshkent: “Ziyo”, 2016.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

O‘ZBEK TILI KORPUSIDA SO‘Z YASALISH MODELLARI: NAZARIY TAMOYILLAR VA AVTOMATIK MODELLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Babayeva Gulchexra Tashpulatovna
Termiz shahar 16-sonli informatika va axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili korpusida so‘z yasalish modellari nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularning avtomatik modellashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. So‘z yasalishining morfologik va derivatsion tamoyillari, ularning kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan formal modellari tavsiflanadi. Korpus asosida avtomatik tahlil qilishda affiksatsiya, konversiya, qo‘shma so‘z yasash kabi jarayonlarni aniqlovchi algoritmlar ishlab chiqish zarurligi ta’kidlanadi. Tadqiqotda o‘zbek tili agglutinativ tuzilishining korpus tahliliga ta’siri, morfologik analizatorlardan foydalanish samaradorligi hamda sun’iy intellekt asosida derivatsion modellarni yaratish istiqbollari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: o‘zbek tili korpusi, so‘z yasalishi, derivatsiya, morfologik analizator, avtomatik modellashtirish, lingvistik algoritm.

Annotation: This article analyzes the theoretical principles of word formation models in the Uzbek language corpus and explores their potential for automatic modeling. The morphological and derivational mechanisms of word formation are described from the perspective of computational linguistics. The study emphasizes the necessity of developing algorithms that can automatically identify affixation, conversion, and compounding processes within the corpus. It also highlights the impact of Uzbek’s agglutinative structure on corpus analysis, the effectiveness of morphological analyzers, and the prospects for building derivational models based on artificial intelligence.
Keywords: Uzbek language corpus, word formation, derivation, morphological analyzer, automatic modeling, linguistic algorithm.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы моделей словообразования в национальном корпусе узбекского языка и анализируются возможности их автоматического моделирования. Описаны морфологические и

деривационные принципы словообразования с точки зрения компьютерной лингвистики. Отмечается необходимость разработки алгоритмов, позволяющих автоматически выявлять процессы аффиксации, конверсии и сложения слов. В статье также обсуждается влияние агглютинативного строя узбекского языка на корпусный анализ, эффективность морфологических анализаторов и перспективы создания деривационных моделей на основе искусственного интеллекта.

Ключевые слова: корпус узбекского языка, словообразование, деривация, морфологический анализатор, автоматическое моделирование, лингвистический алгоритм.

O‘zbek tili korpusi — bu til tizimining barcha qatlamlarini raqamli shaklda ifodalovchi va avtomatik tahlil imkonini beruvchi lingvistik platformadir. Korpus asosida so‘z yasalish jarayonlarini o‘rganish, o‘zbek tilining derivatsion tizimini formal modellashtirish va bu modellarni avtomatik tarzda qayd etish imkonini beradi. Korpus lingvistikasi doirasida so‘z yasalish modellari tahlili, bir tomondan, morfologik tuzilmani aniqlashga, ikkinchi tomondan esa, semantik o‘zgarishlarni kuzatishga xizmat qiladi [4, 174].

So‘z yasalish nazariyasida derivatsion jarayonlar asosan **affiksatsiya, konversiya, kompozitsiya va reduplikatsiya** kabi mexanizmlar orqali yuzaga keladi. O‘zbek tilida bu jarayonlar, ayniqsa, affiksatsiya orqali faol kechadi. Sh. Rahmatullayevning fikricha, “affikslar semantik yuklamasi bilan so‘zning grammatik rolini belgilaydi va derivatsion munosabatni shakllantiradi” [5, 46]. Ushbu yondashuv korpus asosida morfologik modellarni shakllantirishda nazariy asos sifatida muhimdir.

Korpus tahlilida so‘z yasalish birliklarini avtomatik qayd etish uchun **morfologik analizator** va **lemmatizator** texnologiyalari keng qo‘llaniladi. Ergasheva M. o‘z tadqiqotida o‘zbek tili morfologik analizatorini so‘z yasalish jarayonlarini tahlil qilishda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatib, “analizator yordamida yasovchi affikslarning formal strukturasini avtomatik aniqlash mumkin” deydi [3, 41–42].

Shuningdek, o‘zbek tilida **semantik tarmoq va ontologik model**lar yordamida so‘z yasalish ma’nolarini avtomatik tasniflash bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Toshpo‘latova G. ta’kidlashicha, “leksik-semantik maydon nazariyasi asosida yasalgan so‘zlarning o‘zaro paradigmatik bog‘liqligini aniqlash, ularning ma’nodosh va antonimik qatorlarini tarmoqlashtirish imkonini beradi” [9, 62].

So‘z yasalish modellari avtomatik modellashtirishda **sun’iy neyron tarmoqlar**, **statistik modellash** va **ta’limli algoritmlar** asosida qayta ishlanmoqda. Xususan,

xorijiy tadqiqotlarda BERT, Word2Vec va GPT modellarining morfologik tahlil uchun moslashtirilgan versiyalari ishlab chiqilgan [10, 6]. Ushbu yondashuv o‘zbek tiliga ham tatbiq etilmoqda, ammo agglutinativ tuzilish algoritmik tanib olishda qo‘shimcha murakkablik tug‘diradi.

Tojiboeva M. o‘z maqolasida o‘zbek tili milliy korpusida derivatsion jarayonlarni modellashtirishda **so‘z shakllarining variantliligi** va **morfemalarning birikish chastotasi**ni hisobga olish lozimligini ta’kidlaydi [8, 69–70].

Tilshunos A. Abduazizov esa avtomatik tahlilda **antroposentrik yondashuv**ning ahamiyatini qayd etadi. Unga ko‘ra, “so‘z yasalish jarayonlari faqat grammatik struktura emas, balki inson tafakkuri va nutq faoliyati bilan bog‘liq psixolinguistik mexanizmdir” [1, 114–115].

Mualliflik mulohazasi: o‘zbek tili korpusida so‘z yasalish jarayonlarini avtomatik tahlil qilish bo‘yicha ilg‘or xorijiy modellardan foydalanish, lekin ularni o‘zbek tili morfologiyasi va semantikasiga moslashtirish zarur. Chunki o‘zbek tilining agglutinativ xususiyati, shuningdek, semantik polisemiyaga boyligi modellarni o‘zgartirishni talab etadi. Shu bois, milliy korpus uchun **gibrid modellashtirish** — ya’ni, morfologik, statistik va semantik tahlilni birlashtirgan yondashuv eng maqbul variant sifatida qaraladi.

Korpus tahlilining yana bir muhim jihati — **so‘z yasalish paradigmasining avtomatik aniqlanishi**dir. Bu borada Biber so‘z yasalish turlari va ularning matndagi pragmatik funksiyasini ajratish uchun korpus asosidagi statistik ko‘rsatkichlarni qo‘llashni taklif etadi [2, 86]. Shu yondashuv asosida o‘zbek tilida ham derivatsion modellarni avtomatik shakllantirishda statistik chastotani semantik qiymat bilan uyg‘unlashtirish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Umuman olganda, o‘zbek tili korpusida so‘z yasalish modellari nafaqat morfologik birliklarni, balki ularning semantik va funksional o‘zgaruvchanligini ham ifodalashi lozim. Korpus asosida avtomatik modellashtirish tizimlari tilshunoslikda yangi bosqichni boshlab beradi, chunki bu tizimlar orqali tilning dinamik rivojlanish qonuniyatlarini kompyuter modeli shaklida ifodalash imkoniyati yaratiladi.

O‘zbek tili korpusida so‘z yasalish jarayonlarini avtomatik modellashtirishda leksik-semantik tarmoqlar va kognitiv modellarning qo‘llanilishi ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Kognitiv lingvistika yondashuvi asosida yaratilgan korpus modellarida so‘zlarning ma’no maydoni, konseptual tuzilishi va semantik ierarxiyasi formal algoritmlar yordamida ifodalanadi. Sh. Safarovning ta’kidlashicha, “so‘z yasalish jarayonida inson tafakkuri, konseptual asos va semantik motivatsiya o‘zaro bog‘liq jarayonlardir” [6, 77–78]. Bu qarash korpusda avtomatik derivatsion modellashtirishda

ham asosiy tamoyillardan biri sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda o‘zbek tili korpusida yasovchi affikslar bazasi, so‘z yasalish daraxtlari (derivatsion trees) va morfemik belgilash tizimlari yaratilmoqda. Bu tizimlar so‘zlarning morfemal tarkibini avtomatik tahlil qilish, yasama so‘zlarni tanib olish va yangi so‘z yasalish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Tojiboeva M. o‘z tadqiqotida korpusga asoslangan so‘z yasalish tahlilini “o‘zbek tilidagi innovatsion birliklar, yangi terminlar va texnolektlarning shakllanish jarayonlarini kuzatishda samarali vosita” deb baholaydi [7, 52].

So‘z yasalish modellari korpusda faqat til tizimini emas, balki jamiyatdagi yangi ijtimoiy, ilmiy va texnologik o‘zgarishlarni aks ettiruvchi leksik yangilanishni ham ifodalaydi. Chunki korpus orqali “raqamlashtirish”, “mobilografiya”, “onlaynlashtirish” kabi yangi hosilalar qanday morfologik shaklda va qanday semantik o‘zgarishlar bilan yuzaga kelgani aniqlanishi mumkin. Bunday tahlil milliy til rivojining tabiiy dinamikasini ilmiy asosda o‘rganish imkonini beradi.

Avtomatik modellashtirish tizimlarida data-driven yondashuvlar (ma’lumotga asoslangan modellar) va rule-based (qoidalarga asoslangan) tizimlarning integratsiyasi yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Bunday gibrid tizimlar o‘zbek tili uchun ham istiqbolli, chunki u grammatik qoidalarni formal tarzda ifodalab, bir vaqtning o‘zida statistik tahlil asosida real til qo‘llanilishini ham hisobga oladi [2, 89].

Mualliflik mulohazasi: o‘zbek tili korpusida so‘z yasalish modellarini ishlab chiqishda faqat morfologik mexanizmlarni emas, balki semantik motivatsiya, konseptual bog‘liqlik va tilning milliy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Chunki derivatsion tizim — bu nafaqat grammatik mexanizm, balki milliy tafakkur va dunyoqarashning lingvistik ifodasidir.

Xulosa

O‘zbek tili korpusida so‘z yasalish modellari lingvistik tizimning eng faol va murakkab qatlamini tashkil etadi. Ushbu jarayonni avtomatik modellashtirish nafaqat texnik yechim, balki o‘zbek tili morfologiyasining nazariy asoslarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, korpus asosida so‘z yasalish modellari: derivatsion tizimning formal ifodasini yaratadi; affiks va morfemalarning semantik yuklamasini aniqlash imkonini beradi; yangi so‘z yasash tendensiyalarini avtomatik qayd etadi; tilni kompyuter modeli sifatida ifodalashga zamin yaratadi; korpus lingvistikasini milliy tilshunoslik bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, o‘zbek tili korpusida so‘z yasalish modellari bo‘yicha yaratilayotgan tizimlar milliy tilni raqamli tahlil qilish, o‘qitish, tarjima va sun’iy

intellekt asosida qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, bu yo‘nalishda nazariy, metodologik va texnologik integratsiyani yanada rivojlantirish, korpus asosida avtomatik derivatsion analizator yaratish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduazizov, A. *Tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari.* — Toshkent: Ziyo nashriyoti, 2022. — 168 b.
2. Biber, D. *Corpus Linguistics and the Study of Meaning.* — Cambridge: Cambridge University Press, 2015. — 198 p.
3. Ergasheva, M. *O‘zbek tilining morfologik analizatori va uni korpus lingvistikasida qo‘llash masalalari.* — “Tilshunoslikda kompyuter texnologiyalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. — Toshkent: TDPU, 2020. — B. 41–42.
4. McEnery, T., & Hardie, A. *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice.* — Cambridge: Cambridge University Press, 2012. — 274 p. — ISBN 978-0-521-89543-0.
5. Rahmatullayev, Sh. *O‘zbek tilining so‘z yasalish tizimi.* — Toshkent: Fan nashriyoti, 1982. — 120 b.
6. Safarov, Sh. *Kognitiv lingvistika asoslari.* — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2015. — 188 b.
7. Tojiboeva, M. *O‘zbek tili milliy korpusi va innovatsion leksika.* — “Zamonaviy filologik tadqiqotlar” ilmiy to‘plami. — Toshkent: TDSHU, 2023. — B. 52..
8. Tojiboeva, M. *O‘zbek tili milliy korpusi va uning lingvistik imkoniyatlari.* — “Filologiya masalalari” ilmiy jurnali. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2021. — B. 69–70..
9. Toshpo‘latova, G. *Leksik-semantik maydon va uning korpus tahlilidagi roli.* — “Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: nazariya va amaliyot” ilmiy to‘plami. — Toshkent: TDSHU, 2021. — B. 62..
10. Vaswani, A. et al. *Attention Is All You Need.* — In: *Advances in Neural Information Processing Systems (NIPS).* — 2017. — P. 1–11.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

STRESS VA MOTIVATSIYA O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK.

Amirova Nodira Shamshiyevna
Alfraganus Universiteti Psihalogiya PS-23-1 guruh talabasi**.**
Ilmiy rahbar: **Talipova Feruza Tairovna**
Alfraganus universti Psixalogiya kafedrasi v.b Dotsenti psixalogiya fanlari boyicha (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada stress va motivatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Inson hayotida stress holatlari ko‘pincha motivatsiya darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi hollarda stress insonni yanada faol harakat qilishga undasa, ortiqcha stress motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Maqolada psixologik manbalar, tadqiqot natijalari hamda kundalik hayotdagi misollar asosida stressning ijobiy va salbiy tomonlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, motivatsiyani saqlab qolish va stressni boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.
Kalit so‘zlar: stress, motivatsiya, psixologiya, inson omili, ruhiy holat, ijobiy stress, salbiy stress, o‘zini boshqarish, rag‘bat.

Kirish: Inson hayotida stress va motivatsiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ikki muhim psixologik holat hisoblanadi. Har bir inson turli vaziyatlarda stressni boshdan kechiradi va aynan shu holat uning ichki motivatsiyasiga, ya’ni harakatga undovchi kuchiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zan stress insonni maqsad sari qat’iyat bilan intilishga majbur qilsa, ba’zan esa ortiqcha bosim motivatsiyani pasaytirib, ruhiy tushkunlikka olib keladi. Zamonaviy hayot sur’ati, o‘qish, ish, ijtimoiy munosabatlar va kundalik muammolar inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli stressni to‘g‘ri boshqarish va uni motivatsiyaga aylantirish muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolada stress va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik, ularning inson faoliyatidagi o‘rni hamda muvozanatni saqlash yo‘llari yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Stress va motivatsiya masalalari psixologiya fanida eng ko‘p o‘rganilgan mavzulardan biridir. Ilmiy manbalarda stressga turlicha ta’riflar berilgan. Gans Selye (Hans Selye) stressni “inson organizmining tashqi va ichki bosimlarga javob reaksiyasi” sifatida talqin etadi. Unga ko‘ra, stress har doim salbiy hodisa emas, balki ba’zi hollarda insonni faol harakatga undovchi ijobiy kuch — **eustress** bo‘lishi mumkin. Motivatsiya esa insonning maqsad sari intilishini ta’minlovchi ichki yoki tashqi omillar yig‘indisi sifatida talqin qilinadi. A. Maslou (A. Maslow) o‘zining “Ehtiyojlar ierarxiyasi” nazariyasida inson faoliyatini aynan

motivatsiya boshqarishini ta’kidlagan. Ushbu nazariyada stress va motivatsiya o‘rtasidagi muvozanat insonning o‘zini anglash va rivojlantirish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘rta darajadagi stress insonning diqqatini jamlash, mas’uliyat hissini oshirish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Aksincha, haddan tashqari stress motivatsiyani pasaytiradi, charchoq, xavotir va ruhiy bosimga sabab bo‘ladi. Shu bois, stressni boshqarishning samarali metodlari — nafas mashqlari, dam olish texnikalari, rejalashtirish va ijobiy fikrlash usullari orqali motivatsiya darajasini barqaror saqlash mumkin. Tadqiqot metodikasi sifatida maqolada tahliliy, taqqoslama va kuzatuv usullaridan foydalanilgan. Psixologik adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda kundalik hayotdagi real misollar tahlil qilinib, stress va motivatsiya o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir darajasi aniqlangan. Shuningdek, o‘quvchi va ishchi yoshlar orasida olib borilgan suhbatlar natijalari ham umumlashtirilib, mavzuga doir xulosalar chiqarilgan.

Muhokama: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, stress va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab, ammo juda muhim psixologik jarayondir. Inson har doim turli holatlarda stressni boshdan kechiradi, lekin har kim bunga turlicha munosabat bildiradi. Ba’zi insonlar uchun stress yangi imkoniyatlar sari undovchi kuch bo‘lsa, boshqalar uchun u to‘siq va charchoqqa sabab bo‘ladi. Motivatsiyaning barqaror bo‘lishi ko‘p jihatdan stressni boshqarish darajasiga bog‘liq. Agar inson o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila olsa, stressni ijobiy yo‘nalishga burib, undan ilhom sifatida foydalanadi. Aks holda, ortiqcha tashvish va xavotir motivatsiyani susaytiradi va ish samaradorligini pasaytiradi. Psixologlar fikricha, stressdan butunlay qochish emas, balki uni to‘g‘ri yo‘naltirish muhimdir. Chunki oz miqdordagi stress insonni yanada faol, mas’uliyatli va ijodiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Ayniqsa, o‘qish yoki ish jarayonida stressni ijobiy energiya sifatida qabul qilish, maqsad sari qat’iy intilish imkonini beradi. Shu bilan birga, motivatsiyani kuchaytiruvchi omillar — maqsadni aniq belgilash, o‘zini rag‘batlantirish, dam olishni to‘g‘ri tashkil etish va sog‘lom turmush tarziga amal qilish stressning salbiy ta’sirini kamaytiradi. Shunday qilib, stressni boshqarish va motivatsiyani uyg‘unlashtirish insonning shaxsiy rivojlanishi va ruhiy barqarorligini ta’minlaydi.

Natijalar: Biroq haddan tashqari stress teskari ta’sir ko‘rsatadi — motivatsiyani pasaytiradi, ishga bo‘lgan qiziqishni kamaytiradi va ruhiy toliqishga olib keladi. Shuningdek, uzoq davom etuvchi stress inson salomatligiga ham salbiy ta’sir etib, hissiy muvozanatni buzadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, stressni boshqarishning samarali usullari — vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, muntazam dam olish, ijobiy fikrlash va sog‘lom turmush tarziga amal qilish motivatsiyani barqaror saqlashda

muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, inson o‘zini yaxshi tanib, kuchli va zaif tomonlarini bilganida stressni engish osonlashadi. Umuman olganda, stress va motivatsiya o‘rtasida muvozanatni topa olgan insonlar hayotda yanada muvaffaqiyatli, bardoshli va ruhiy jihatdan mustahkam bo‘lishadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, stress inson motivatsiyasiga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘rta darajadagi stress insonni faol harakat qilishga undaydi, diqqatni jamlaydi va maqsad sari intilish kuchini oshiradi. Bu holat ko‘pincha o‘qish, ish yoki sport faoliyatida yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Xulosa: Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, stress va motivatsiya inson hayotida bir-birini to‘ldiruvchi, lekin qarama-qarshi ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillardir. Stressdan butunlay qochish mumkin emas, ammo uni to‘g‘ri boshqarish orqali motivatsiyani kuchaytirish mumkin. O‘rta darajadagi stress insonni yanada mas’uliyatli, faol va maqsadga yo‘naltirilgan shaxsga aylantiradi. Motivatsiyani saqlab qolish uchun inson o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olishi, vaqtini to‘g‘ri taqsimlashi va o‘ziga ijobiy munosabatda bo‘lishi zarur. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzi, ijobiy fikrlash va maqsadni aniq belgilash stressning salbiy ta’sirini kamaytiradi. Shunday qilib, stressni to‘g‘ri yo‘naltirish va motivatsiyani doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlash insonning ruhiy barqarorligi, o‘zini rivojlantirishi va hayotda muvaffaqiyat qozonishida asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, O. (2020). *Psixologiya asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. G‘ofurova, D. (2019). *Inson ruhiyati va stress omillari*. – Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Maslow, A. (1954). *Motivation and Personality*. – New York: Harper & Row.
4. Selye, H. (1976). *The Stress of Life*. – New York: McGraw-Hill.
5. Shermuhamedova, N. (2021). *Shaxs motivatsiyasi va uning shakllanish omillari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. To‘xtayev, B. (2022). *Psixologiyada motivatsiya nazariyalari*. – Samarqand: SamDU nashriyoti.
7. Yusupova, M. (2023). *Stressni boshqarish va ruhiy barqarorlikni ta’minlash usullari*. – Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Профессор экономики и сервиса Самаркандского института
Зайналов Жаҳонгир Расулович
dz50@mail.ru
Магистр экономики и сервиса Самаркандского института
Саматов Далерхон Носиржонович
samatovdaler760@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются современные методы оценки финансовой эффективности предприятий в условиях цифровой экономики. Особое внимание уделено комплексному анализу финансовых показателей, включая рентабельность, ликвидность, оборачиваемость активов и структуру капитала. Проанализированы традиционные и инновационные подходы к измерению эффективности, такие как система сбалансированных показателей (BSC), EVA (Economic Value Added), ROI (Return on Investment) и использование технологий Big Data для финансового анализа. Показано, что внедрение цифровых инструментов позволяет повысить точность прогнозирования и объективность оценки финансовых результатов. Результаты исследования могут быть использованы при разработке стратегий финансового управления и повышении конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова. финансовая эффективность, методы оценки, рентабельность, ликвидность, экономическая добавленная стоимость (EVA), инвестиционная отдача (ROI), цифровая экономика, анализ данных, финансовый менеджмент.

Введение

В условиях стремительного развития цифровой экономики и глобальной конкуренции оценка финансовой эффективности предприятий приобретает особое значение. Финансовая эффективность отражает способность организации рационально использовать имеющиеся ресурсы для достижения стратегических целей, обеспечения устойчивого роста и повышения конкурентоспособности. От того, насколько точно и своевременно осуществляется анализ финансового состояния, зависит принятие управленческих решений, направленных на оптимизацию затрат, увеличение доходности и улучшение структуры капитала.

Традиционные методы оценки, основанные на анализе бухгалтерской отчетности и расчете классических коэффициентов рентабельности, ликвидности и оборачиваемости, в современных условиях уже не позволяют в полной мере учитывать динамику внешней среды и внутренние особенности предприятия. Поэтому в последние годы активно развиваются инновационные подходы к оценке финансовой эффективности, включающие использование показателя экономической добавленной стоимости (EVA), системы сбалансированных показателей (BSC), инвестиционной отдачи (ROI), а также интеллектуальных технологий обработки больших данных (Big Data) и машинного обучения.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью интеграции цифровых инструментов в систему финансового анализа для повышения точности прогнозирования и объективности оценки результатов деятельности. Изучение и внедрение современных методов позволяет предприятиям не только повысить прозрачность финансовых процессов, но и сформировать устойчивую стратегию развития в условиях цифровой трансформации экономики.

Основная часть

Современная экономика характеризуется высокой динамичностью и неопределённостью внешней среды, что требует от предприятий постоянного совершенствования системы управления финансовыми ресурсами. Одним из ключевых инструментов такого управления является оценка финансовой эффективности, которая позволяет определить, насколько рационально используются ресурсы и достигаются ли стратегические цели организации.

1. Традиционные подходы к оценке финансовой эффективности

Традиционно оценка финансовой эффективности основывается на системе коэффициентов, отражающих различные аспекты деятельности предприятия:

коэффициенты рентабельности (рентабельность продаж, активов, собственного капитала);

коэффициенты ликвидности (текущая, быстрая, абсолютная ликвидность);

показатели оборачиваемости (оборачиваемость запасов, дебиторской задолженности, активов).

Эти показатели дают общую картину финансового состояния предприятия, однако их использование ограничено из-за статичности данных и отсутствия стратегического измерения.

2. Метод экономической добавленной стоимости (EVA)

Одним из наиболее распространённых инновационных инструментов является

метод экономической добавленной стоимости (EVA — Economic Value Added). Он основывается на идее, что предприятие создаёт стоимость только в том случае, если доход превышает издержки на привлечение капитала. Формула расчёта имеет вид:

$$EVA = NOPAT - (WACC \times IC)$$

где NOPAT — чистая операционная прибыль после налогообложения, WACC — средневзвешенная стоимость капитала, IC — инвестированный капитал.

Преимущество метода EVA заключается в его ориентации на создание акционерной стоимости и долгосрочную перспективу, что делает его эффективным инструментом стратегического анализа.

3. Система сбалансированных показателей (BSC)

Другим современным подходом является система сбалансированных показателей (Balanced Scorecard, BSC), предложенная Р. Капланом и Д. Нортоном. Она позволяет оценивать эффективность предприятия не только по финансовым критериям, но и с точки зрения:

внутренних бизнес-процессов;

обучения и развития персонала;

клиентской удовлетворённости;

инновационной активности.

Использование BSC способствует комплексной оценке деятельности и увязке финансовых результатов с нефинансовыми факторами, влияющими на устойчивое развитие предприятия.

4. Показатель инвестиционной отдачи (ROI)

ROI (Return on Investment) — показатель, характеризующий прибыльность вложенных средств. Он используется для оценки эффективности отдельных проектов и направлений деятельности. Расчёт ROI осуществляется по формуле:

$$ROI = \frac{\text{Прибыль}}{\text{Инвестиции}} \times 100\%$$

Преимуществом этого метода является простота вычисления и универсальность, что делает его удобным инструментом при принятии инвестиционных решений. Однако ROI не учитывает временной фактор и риски, что требует его дополнения другими методами анализа.

5. Использование цифровых технологий и Big Data

В условиях цифровизации экономики особое внимание уделяется применению Big Data и искусственного интеллекта в оценке финансовой эффективности. Современные аналитические платформы позволяют обрабатывать большие массивы данных в режиме реального времени, выявлять скрытые закономерности и прогнозировать будущие финансовые результаты.

Применение цифровых инструментов обеспечивает:

повышение точности анализа;

ускорение принятия решений;

снижение влияния человеческого фактора;

формирование стратегических рекомендаций на основе предиктивной аналитики.

Таким образом, интеграция интеллектуальных технологий в систему финансового анализа значительно повышает качество управления и адаптивность предприятия к изменениям внешней среды.



Современные методы оценки финансовой эффективности

Заключение

Проведённое исследование показало, что повышение финансовой эффективности предприятий невозможно без внедрения современных методов оценки и анализа. Традиционные подходы, основанные исключительно на бухгалтерских данных, не позволяют в полной мере учитывать стратегические и инновационные аспекты развития бизнеса. Использование таких инструментов, как EVA, BSC и ROI, обеспечивает более глубокое понимание процессов создания стоимости, рациональности инвестиций и эффективности управления ресурсами. Внедрение цифровых технологий, включая Big Data и искусственный интеллект, открывает новые возможности для повышения точности финансового анализа, оперативности управленческих решений и формирования стратегий устойчивого роста. Комплексное применение классических и инновационных методов оценки финансовой эффективности является необходимым условием укрепления конкурентоспособности предприятий в условиях цифровой трансформации экономики.

Список использованной литературы

1. Каплан Р., Нортон Д. Сбалансированная система показателей: от стратегии к действию. — М.: Олимп-Бизнес, 2004.
2. Стюарт Г. Б. Погоня за экономической прибылью (The Quest for Value). — М.: Инфра-М, 1999.
3. Бригхэм Ю., Эрхардт М. Финансовый менеджмент: теория и практика. — СПб.: Питер, 2020.
4. Дамодаран А. Инвестиционная оценка: инструменты и методы оценки любых активов. — М.: Альпина Паблишер, 2018.
5. Савицкая Г. В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. — Минск: Новое знание, 2019.
6. Ковалев В. В. Финансовый анализ: управление капиталом. Выбор инвестиций. Анализ отчетности. — М.: Финансы и статистика, 2021.
7. Хорнгрен Ч., Фостер Дж., Датар С. Бухгалтерский учет: управленческий аспект. — М.: Вильямс, 2016.
8. Бланк И. А. Финансовый менеджмент. — Киев: Ника-Центр, 2015.
9. OECD. Measuring Productivity: Measurement of Aggregate and Industry-Level Productivity Growth. — OECD Publishing, 2020.
10. World Bank. Digital Transformation and Financial Performance: Analytical Report. — Washington, D.C., 2021.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori
Zaynalov Jahongir Rasulovich
dz50@mail.ru
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti
Malikov Elbek Abdurayim o‘g‘li
elbekmalikov2001@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari va ularning iqtisodiy barqarorlikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Bank kreditlari, mikromoliyaviy tashkilotlar, lizing va faktoring xizmatlari, davlat dasturlari hamda xalqaro moliyaviy institutlarning roli yoritilgan. Shuningdek, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalar asosida kreditlash tizimini takomillashtirish va FinTech, crowdfunding, venchur kapital kabi innovatsion mexanizmlarning afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijasida tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Tadbirkorlik subyekti, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, bank krediti, mikromoliyalash, investitsiya, lizing, faktoring, FinTech, venchur kapital, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy barqarorlik.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishi, aholi bandligi va ijtimoiy farovonlikni oshirishda tadbirkorlik subyektlarining roli ortib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratish, ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq tadbirkorlikni kengaytirish uchun zarur moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kredit shartlarining murakkabligi, garov talablari va yuqori foiz stavkalari ko‘plab subyektlar faoliyatini cheklamoqda. Shu bois, imtiyozli kreditlar, grantlar, subsidiyalar va investitsiya manbalarini kengaytirish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan.

Prezident qarorlari va “Yoshlar – kelajagimiz”, “Har bir oila – tadbirkor”, “Biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” kabi dasturlar doirasida tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilmoqda. Shuningdek, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan kichik biznes uchun kredit liniyalari ochilgan. Biroq amaliyotda moliyaviy savodxonlik pastligi, kafolat tizimining cheklanganligi va elektron kreditlash infratuzilmasining to‘liq shakllanmagani tufayli tizim samaradorligi yetarli emas. Shu sababli, raqamli bank xizmatlari, FinTech, crowdfunding va venchur kapital kabi innovatsion mexanizmlarni joriy etish zarur. Maqolada aynan shu zamonaviy moliyaviy mexanizmlar tahlil qilinib, xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston sharoitida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va tadbirkorlikning iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni aniqlashdir.

Nazariy asos

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlik, kapital aylanishi va investitsion muhitni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy mexanizmlar innovatsiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishning asosiy omilidir. Iqtisodiy adabiyotlarda “moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” turlicha talqin qilinadi: ayrimlar uni davlat tomonidan kredit, subsidiya va grantlar shaklida moliyalashtirish deb bilsa, boshqalar xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar va investitsiya fondlari ishtirokidagi ko‘p manbali tizim sifatida qaraydi. D. Beg, S. Fisher va R. Dornbush moliyaviy resurslarni iqtisodiy barqarorlikning tayanch elementi deb hisoblab, samarali moliyaviy tizim bo‘lmasa, tadbirkorlik faolligi pasayishini ta’kidlagan.

O‘zbekiston olimlari (G‘. Qo‘ziyev, M. Xodiev, N. Jo‘rayev) tadbirkorlikni faqat bank kreditlari bilan emas, balki lizing, faktoring, mikromoliyalash va investitsiya fondlari orqali ham qo‘llab-quvvatlash zarurligini asoslaganlar. Zamonaviy yondashuvlarda esa moliyaviy tizim raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, FinTech, onlayn kreditlash, blokcheyn va crowdfunding kabi innovatsion mexanizmlar keng qo‘llanmoqda. Davlatning bu jarayondagi roli ham alohida ahamiyatga ega. J. Schumpeter ta’kidlaganidek, davlat to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruvchi emas, balki “moliyaviy katalizator” sifatida infratuzilmani yaratishi lozim. O‘zbekistonda “Biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” va “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar aynan shu modelga asoslanadi. Xalqaro amaliyotda venchur kapital, inkubatsiya

markazlari va davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari muhim o‘rin tutadi. Bunday yondashuv Xitoy, Janubiy Koreya va AQSh tajribasida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali natija bergan.

Shunday qilib, tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari uch yo‘nalishda shakllanadi:

1. **Davlat dasturlari** – imtiyozli kredit, grant va subsidiyalar;
2. **Bozor mexanizmlari** – bank, lizing, faktoring va investitsion fondlar;
3. **Innovatsion vositalar** – FinTech, crowdfunding va venchur kapital.

Bu yo‘nalishlar O‘zbekiston sharoitida milliy iqtisodiyot xususiyatlariga mos holda takomillashtirilishi zarur.

Amaliy tahlil

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik YAIMning qariyb yarmi va bandlikning 75 foizini ta’minlab, iqtisodiy barqarorlikda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bois ularni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash iqtisodiy o‘sishning asosiy omilidir. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2022–2024-yillar davomida kichik biznes subyektlariga ajratilgan kredit hajmi 68,3 trillion so‘mdan 102,4 trillion so‘mgacha oshgan. Kreditlarning 58 foizi ishlab chiqarishga, 27 foizi xizmat ko‘rsatishga va 15 foizi qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan. Imtiyozli kreditlar “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” va “Ayollar daftari” dasturlari orqali amalga oshirilmoqda, 2023-yilda ular doirasida 1,2 milliondan ortiq tadbirkor 14 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ olgan.

Biroq tizimda ayrim muammolar ham mavjud: garov talablari yuqoriligi, kredit foiz stavkalari 20–24% atrofida ekanligi, mikromoliyaviy tashkilotlarning hududiy qamrovi pastligi va moliyaviy savodxonlik yetishmasligi resurslardan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, “Raqamli bank” konsepsiyasi asosida elektron arizalar, onlayn kafolat tizimi va avtomatik kredit reytingi mexanizmlari joriy etilib, 2024-yilda yangi kreditlarning 22 foizi to‘liq raqamli shaklda ajratilgan. Xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda kichik biznesni moliyalashtirish uchun 1 milliard dollardan ortiq kredit liniyalari ochilgan bo‘lib,

ularning bir qismi “yashil iqtisodiyot” loyihalariga yo‘naltirilgan. Shu bilan birga, lizing va faktoring xizmatlari tizimi rivojlanmoqda, hozirda 100 dan ortiq lizing kompaniyasi faoliyat yuritmoqda.

Innovatsion yo‘nalishlar ham shakllanmoqda: “Startup Uzbekistan” platformasi orqali 2023-yilda 70 dan ortiq startap 10 milliard so‘mga yaqin mablag‘ jalb qilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda kompleks yondashuv zarur:

1. **Davlat dasturlarini modernizatsiya qilish** – imtiyozli kreditlarni raqamlashtirish va natijadorlik mezonlarini joriy etish;
2. **Bozor mexanizmlarini rivojlantirish** – mikromoliyaviy tashkilotlar va kafolat fondlari salohiyatini oshirish;
3. **Innovatsion texnologiyalarni kengaytirish** – FinTech, blokcheyn, crowdfunding va venchur kapital tizimlarini rivojlantirish.

Umuman olganda, O‘zbekistonda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ijobiy natija bermoqda, biroq barqaror tizim yaratish uchun moliyaviy vositachilik infratuzilmasini kengaytirish, bank xizmatlarini soddalashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy mexanizmlar va takliflar

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va moliyaviy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Global moliya tizimining raqamlashtirilishi sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotida ham zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni joriy etish zarur.

Birinchidan, **raqamli moliya va FinTech texnologiyalarini** keng qo‘llash tadbirkorlikni moliyalashtirish samaradorligini oshiradi. Elektron kreditlash, mobil bank tizimlari va onlayn to‘lovlar orqali vaqt va xarajatlar qisqaradi, shaffoflik ortadi. Kreditlarni “raqamli garov” tizimi asosida baholash taklifi, ya’ni moliyaviy faoliyat natijalarini garov sifatida qabul qilish mexanizmi, amaliy ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, **crowdfunding va P2P moliyalashtirish** platformalarini rivojlantirish kichik biznes va startaplar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular aholining ommaviy mablag‘larini jalb etish orqali loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiladi. Shu yo‘nalishda mahalliy platformalarni yaratish va ularni qonuniy tartibga solish dolzarbdir.

Uchinchidan, **venchur kapital tizimi** innovatsion tadbirkorlikning o‘sishida muhim rol o‘ynaydi. Xususiy investorlar, texnoparklar va inkubatsiya markazlari ishtirokida yuqori daromadli startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus qonun va soliq imtiyozlarini joriy etish zarur.

To‘rtinchidan, **davlat-xususiy sheriklik (PPP)** mexanizmlarini kengaytirish orqali infratuzilma loyihalariga xususiy sarmoyalarni jalb etish mumkin. Bu davlat budjetiga tushadigan yukni kamaytiradi va iqtisodiyotning turli sohalarida biznes faolligini oshiradi.

Beshinchidan, **mikromoliyalash va kafolat fondlari**ni rivojlantirish, ayniqsa ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish muhimdir. Shu bilan birga, “Biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” faoliyatiga raqamli monitoring tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Oltinchidan, **moliyaviy savodxonlikni oshirish** tadbirkorlikning barqarorligini mustahkamlaydi. Banklar, ta’lim muassasalari va mahalliy hokimliklar hamkorligida “Biznes maktablari” yoki “Moliyaviy savodxonlik markazlari”ni tashkil etish lozim.

Yettinchidan, **“yashil moliya” (green finance)** yo‘nalishini rivojlantirish ekologik toza texnologiyalarni moliyalashtirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantirilishi zarur:

– raqamli texnologiyalar asosida moliyalashtirishni soddalashtirish;
– innovatsion moliyaviy platformalarni yaratish;
– venchur kapital va PPP mexanizmlarini kengaytirish;
– mikromoliyaviy infratuzilmani mustahkamlash;

– moliyaviy savodxonlik va “yashil moliya”ni joriy etish.

Bu yo‘nalishlar tadbirkorlikni samarali moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Ushbu takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay biznes muhitini yaratadi. Bu esa nafaqat ichki ishlab chiqarish hajmining oshishiga, balki eksport salohiyati va xalqaro raqobatbardoshlikning yuksalishiga xizmat qiladi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy o‘sish, bandlik va aholi daromadlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda kichik biznesni rivojlantirish maqsadida imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari, mikromoliyaviy dasturlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik asosida keng islohotlar amalga oshirildi. Bu chora-tadbirlar tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligini oshirib, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirdi. Biroq mavjud moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi hali to‘liq samaradorlikka erishgani yo‘q. Kredit olishdagi byurokratik to‘siqlar, garov talablari, moliyaviy savodxonlikning pastligi va raqamli texnologiyalarning yetarli joriy etilmaganligi

Tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash manbalari (2024-yil)



tizim samaradorligini cheklamoqda. Shu bois, moliyaviy infratuzilmani modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalar asosida yangi mexanizmlarni joriy etish dolzarb vazifadir.

Raqamli moliya, FinTech, crowdfunding va venchur kapital kabi innovatsion mexanizmlar kreditlash jarayonlarini soddalashtirib, shaffoflikni ta’minlaydi va yangi moliyaviy manbalarga kirish imkonini kengaytiradi. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosidagi loyihalar esa xususiy sarmoyalarni iqtisodiyotning strategik sohalariga jalb etish imkonini beradi, mikromoliyalash va kafolat fondlarini rivojlantirish esa yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, zamonaviy moliyaviy mexanizmlarni joriy etish O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasida muhim bosqich bo‘lib, moliyaviy xizmatlar sifatini oshiradi, kreditlash jarayonlarini soddalashtiradi va tadbirkorlik sektorining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Natijada, mamlakat iqtisodiy barqarorligi yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — *Prezident.uz* rasmiy sayti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va biznes muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3775-son qarori. — Toshkent, 2018-yil 5-iyun.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risidagi qarori. — PQ–3839-son, 2018-yil 27-iyun.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi. — *“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobot”, 2024.*
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. — *“Bank sektorining rivojlanish ko‘rsatkichlari” statistik byulleteni, 2024-yil.*
6. Jahon banki. — *World Development Report 2023: Financing for Sustainable Development.* Washington, 2023.
7. Karimov D. “Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.” — *Innovatsion rivojlanish jurnali*, №3, 2024.
8. OECD. *Entrepreneurship at a Glance 2023.* — Paris: OECD Publishing, 2023.
9. IMF. *Financial Access Survey (FAS): Global Database 2024.* — Washington D.C., 2024.
10. United Nations Development Programme (UNDP). — *Sustainable Finance for SMEs in Central Asia.* New York, 2023.

11. “Biznesni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” rasmiy hisobotlari. — Toshkent, 2024-yil.
12. “O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish agentligi” ochiq ma’lumotlar portali. — *business.gov.uz*, 2024.
13. Qobilov S. “Mikromoliyalash tizimi va uni innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari.” — *Iqtisodiy tahlil va prognozlash* jurnali, №1, 2023.
14. Z Malikov, G Rabbimov. Dinamik obyektlarni aniqlashda K-means klasterlash algoritmini qo ‘llash. Современные проблемы интеллектуальных систем 1 (2), 239-241.
15. KS Abdiyeva, OR Yusupov, Z Malikov. Breast cancer classification from mammographic images using Inception V4 model. Artificial Intelligence and Information Technologies, 505-510
16. SK Fazilov, KS Abdiyeva, OR Yusupov, E Eshonqulov, Z Malikov Construction of a Quasi-Linear Ensemble of Algorithms for Diagnosing Tumors Detected from Mammography Images. 2024 IEEE East-West Design & Test Symposium (EWDTS), 1-5
17. Malikov Ziyodullo Aburayim o‘g‘li, Shodiyev Usmon Ramazonovich Efficient parallel data analysis: integrating mapreduce with hadoop distributed file system. Educational Research in Universal Sciences 2 (4), 840-842.
18. S Fazilov, K Abdieva, O Yusupov, E Eshonqulov, Z Malikov. Re-parameterized Gompertz algorithm for the fuzzy ranks of deep CNN models in the identification of breast cancer using mammography images. AIP Conference Proceedings 3244 (1), 030083
19. National Bank of Uzbekistan. — *Annual Report 2023*. Toshkent, 2024.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

AHOLINI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori
Zaynalov Jahongir Rasulovich
dz50@mail.ru
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti
Xamrayev Oybek
oybekxamrayev514@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada aholini moliyaviy savodxonligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari hamda uning iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikka ta’siri tahlil qilinadi. Moliyaviy savodxonlik aholining shaxsiy moliyasini boshqarish, jamg‘arma va qarz madaniyatini shakllantirish hamda ongli iqtisodiy qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi. Tadqiqotda moliyaviy savodxonlikning hozirgi holati, muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari o‘rganilgan. Xususan, ta’lim tizimiga moliyaviy fanlarni kiritish, raqamli o‘quv platformalar yaratish, moliya institutlari hamkorligida treninglar tashkil etish va aholining zaif qatlamlari uchun dasturlar ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba (OECD, Jahon banki, ADB) asosida O‘zbekiston uchun samarali mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar. *Moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy barqarorlik, shaxsiy moliya, moliyaviy madaniyat, ta’lim tizimi, raqamli iqtisodiyot, bank tizimi, ijtimoiy farovonlik, moliyaviy ta’lim, innovatsion yondashuvlar.*

Kirish

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi va shaxsiy moliya boshqaruvi mexanizmlarining murakkablashuvi aholining moliyaviy savodxonligini oshirishni dolzarb masalaga aylantirdi. Moliyaviy savodxonlik fuqarolarning mablag‘larini samarali boshqarish, ortiqcha qarzdorlikdan saqlanish va jamg‘arma madaniyatini shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, u nafaqat shaxsiy farovonlik, balki milliy iqtisodiyot barqarorligining ham muhim omilidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Markaziy bank, Moliya vazirligi va xalqaro moliyaviy institutlar hamkorligida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Aholining moliyaviy savodxonligini

oshirish bo‘yicha milliy strategiya” loyihasi, ta’lim tizimida moliyaviy fanlarni joriy etish va raqamli o‘quv platformalarini yaratish bu sohadagi islohotlarning muhim bosqichlaridir. Biroq xalqaro ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi orasida moliyaviy savodxonlik indeksi atigi 40 foizni tashkil etadi, bu esa rivojlangan davlatlardan ancha past. Aholi orasida moliyaviy qarorlar qabul qilishda xatoliklar, kredit madaniyatining sustligi va onlayn firibgarliklardan himoya darajasining pastligi kuzatilmoqda.

Shu sababli, tadqiqotning maqsadi – aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash va samarali mexanizmlar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot tahliliy, taqqoslovchi va statistik metodlarga asoslangan bo‘lib, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va milliy me’yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Maqolada moliyaviy savodxonlikning nazariy asoslari, mavjud holat va muammolar, shuningdek, bu yo‘nalishdagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari tahlil etiladi.

Nazariy asos

Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilish, mablag‘larini rejalashtirish, jamg‘arish va qarz majburiyatlarini oqilona boshqarish qobiliyatidir. Jahon banki va OECD ta’riflariga ko‘ra, u insonning moliyaviy bilim, ko‘nikma va xulq-atvorini o‘z ichiga olgan kompleks tushuncha bo‘lib, shaxsiy farovonlikning muhim omili hisoblanadi. Moliyaviy savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari — bilim, ko‘nikma va xulq-atvor. Bilim moliyaviy mahsulotlar, kredit, jamg‘arma va soliqlar haqidagi tushunchalarni; ko‘nikma esa ularni amaliyotda qo‘llash, masalan, byudjet tuzish yoki xarajatlarni nazorat qilishni bildiradi. Xulq-atvor esa mas’uliyatli, uzoq muddatli rejalashtirishga asoslangan moliyaviy odatlar tizimidir.

Moliyaviy savodxonlikning oshishi moliyaviy inklyuziya, jamg‘arma hajmi va iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi. Shaxsiy darajada esa u qarz madaniyatini shakllantirib, resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlaydi. Xalqaro tajriba ko‘rsatishicha, moliyaviy ta’limni ta’lim tizimiga integratsiya qilish, raqamli o‘quv platformalar va ommaviy axborot vositalari orqali aholining xabardorligini oshirish eng samarali yondashuvlardir. OECD va Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, moliyaviy ta’lim dasturlari muntazam amalga oshirilgan mamlakatlarda jamg‘arma hajmi 20–25 foizga, moliyaviy barqarorlik esa 15 foizga oshgan. Demak, moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish shaxsiy farovonlik bilan birga iqtisodiy tizimning barqaror va inkluziv rivojlanishiga xizmat qiladi.

Amaliy tahlil

Aholining moliyaviy savodxonligi darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, ta’lim tizimi, moliya institutlarining ochiqligi va aholining raqamli

imkoniyatlardan foydalanish qobiliyatiga bevosita bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda aholining moliyaviy madaniyatini oshirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Markaziy bank, Moliya vazirligi hamda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan “Moliyaviy savodxonlik haftaliklari”, “Moliyaviy bilimlar kuni” kabi tashabbuslar natijasida aholining bu boradagi xabardorligi sezilarli oshdi.

Shunga qaramay, o‘tkazilgan so‘rovlar va xalqaro indekslar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston aholisi orasida moliyaviy savodxonlik darajasi hali ham yetarli emas. Jahon banki va OECD-INFE (International Network on Financial Education) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi orasida moliyaviy savodxonlik indeksi 2023-yil holatiga ko‘ra 38 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich global o‘rtacha darajadan (62%) pastdir.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston aholisi moliyaviy savodxonligi darajasi yosh guruhlari, yashash joyi va ijtimoiy toifalar kesimida tahlil qilinadi:

Toifa / guruhlar	**Moliyaviy bilim (foizda)**	**Amaliy ko‘nikma (foizda)**	**Xulq-atvor (foizda)**	**Umumiy savodxonlik indeksi (%)**
Yoshlar (18–30 yosh)	47	39	35	**40**
O‘rta yosh (31–50 yosh)	54	45	42	**47**
Keksalar (50 yoshdan yuqori)	36	28	31	**32**
Shahar aholisi	56	49	44	**50**
Qishloq aholisi	38	30	29	**33**
Oliy ma’lumotlilar	62	55	49	**55**
Umumta’lim maktab bitiruvchilari	41	33	32	**35**

Jadval tahlilidan ko‘rinadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi yoshlar va shahar aholisi orasida nisbatan yuqoriroq bo‘lsa-da, qishloq aholisi hamda keksalar orasida sezilarli farq mavjud. Xususan, qishloq joylarda yashovchilarning atigi 33 foizi moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish ko‘nikmasiga ega, bu esa raqamli moliyaviy

xizmatlardan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi va o‘quv dasturlarining yetarli darajada emasligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, so‘rov natijalari aholining moliyaviy mahsulotlar haqida bilimga ega bo‘lishi bilan ularni amalda qo‘llay olish o‘rtasida tafovut borligini ko‘rsatadi. Masalan, respondentlarning 54 foizi bank kartalari, kredit va jamg‘arma xizmatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lsa-da, ularning atigi 42 foizi ularni samarali ishlatishni biladi. Bu esa moliyaviy ta’limda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar va simulyatsion treninglar o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shuningdek, aholining moliyaviy xulq-atvori hali yetarli darajada shakllanmaganini ko‘rsatmoqda. Jamg‘arma madaniyatining pastligi, qisqa muddatli qarz olishga moyillik, foiz stavkalarini solishtirmasdan qaror qabul qilish holatlari keng tarqalgan. Xalqaro moliya tashkilotlarining tadqiqotlariga ko‘ra, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarda (masalan, Germaniya, Janubiy Koreya, Kanada) aholining 70 foizdan ortig‘i jamg‘arma hisobvaraqlariga ega va qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida bajaradi.

O‘zbekiston sharoitida esa 2024-yil holatiga ko‘ra aholining 48 foizi bank tizimida faol hisobga ega, biroq ularning faqat 28 foizi muntazam jamg‘arma shakllantiradi. Bu esa aholining moliyaviy xulq-atvori va uzoq muddatli rejalashtirish madaniyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, amaliy tahlil natijalari aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarurligini, xususan, qishloq joylarida raqamli moliyaviy ta’limni joriy etish, ayollar va yoshlar uchun maxsus treninglar o‘tkazish hamda ta’lim tizimiga moliyaviy fanlarni integratsiya qilish dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ustuvor yo‘nalishlar

O‘zbekiston Respublikasida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish jarayonida davlat siyosati, ta’lim tizimi, moliyaviy institutlar va raqamli texnologiyalar o‘zaro integratsiyalashgan holda harakat qilishi zarur. Moliyaviy savodxonlikning past darajasi nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki milliy iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu sohada tizimli yondashuv asosida ustuvor yo‘nalishlarni belgilash strategik ahamiyat kasb etadi.

Birinchi ustuvor yo‘nalish — **ta’lim tizimiga moliyaviy savodxonlikni integratsiya qilish**. Maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida “Shaxsiy moliya asoslari”, “Oilaviy byudjetni boshqarish”, “Moliyaviy rejalashtirish” kabi fanlarni o‘qitish orqali yoshlarda moliyaviy mas’uliyatni erta bosqichdan shakllantirish zarur. Bunda amaliy o‘yinlar, simulyatsiyalar, interfaol darslar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish — **raqamli moliyaviy ta’lim platformalarini rivojlantirish**. Internet va mobil ilovalar orqali interaktiv kurslar, onlayn testlar, moliyaviy maslahatchi chat-botlari hamda virtual treninglar tashkil etish aholining keng qatlamlariga qulay sharoit yaratadi. Bu, ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchi fuqarolarga moliyaviy bilimlarni tezkor yetkazish imkonini beradi.

Uchinchi yo‘nalish — **moliyaviy institutlar hamkorligini kuchaytirish**. Banklar, sug‘urta kompaniyalari, mikromoliyaviy tashkilotlar aholiga nafaqat xizmat ko‘rsatish, balki ularni o‘qitish va maslahat berish funksiyasini ham bajarishi lozim. Misol uchun, Markaziy bank tashabbusi bilan 2024-yilda 50 mingdan ortiq fuqaro uchun “Moliyaviy maslahatchi kuni” o‘tkazilgan bo‘lib, bu moliyaviy savodxonlik darajasini 5–7 foizga oshirishga xizmat qilgan.

To‘rtinchi yo‘nalish — **aholining zaif toifalari (ayollar, qishloq aholisi, talaba yoshlar)** uchun maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish. Moliyaviy qarorlar qabul qilishda ayollarning faolligini oshirish, ularning oila byudjeti va jamg‘arma rejalashtirishdagi rolini kuchaytirish uzoq muddatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Beshinchi yo‘nalish — **raqamli xavfsizlik va moliyaviy firibgarliklardan himoya madaniyatini shakllantirish**. Aholining onlayn kreditlash, internet-banking, kripto-aktivlar bilan ishlashdagi ehtiyotkorligi va huquqiy xabardorligi oshirilishi kerak.

Quyidagi jadvalda moliyaviy savodxonlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlari va ularning kutilayotgan natijalari tizimli tarzda keltirilgan.

Jadval 2. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari va kutilayotgan natijalari

№	Ustuvor yo‘nalishlar	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
1	Ta’lim tizimiga moliyaviy fanlarni kiritish	Maktab va OTM o‘quv dasturlarini yangilash, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash	Yoshlar moliyaviy qarorlar qabul qilishda mustaqil bo‘ladi, qarz madaniyati shakllanadi
2	Raqamli o‘quv platformalarini rivojlantirish	Mobil ilovalar, onlayn testlar, vebinarlar yaratish	Aholining 70% dan ortig‘i onlayn moliyaviy ta’limdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi

3	Moliyaviy institutlar hamkorligi	Banklar va sug‘urta tashkilotlari bilan o‘quv loyihalar	Aholining amaliy moliyaviy ko‘nikmalari oshadi, bank xizmatlariga ishonch ortadi
4	Ayollar va yoshlar uchun maxsus dasturlar	Grantlar, treninglar, mikromoliyaviy loyihalar	Ayollar va yoshlar orasida jamg‘arma darajasi 20% ga oshadi
5	Raqamli xavfsizlikni oshirish	Kiberxavfsizlik bo‘yicha o‘quv modullarini joriy etish	Onlayn moliyaviy firibgarlik holatlari kamayadi, fuqarolarning ishonchi ortadi

Ushbu yo‘nalishlarni amalga oshirish natijasida aholining moliyaviy madaniyati, iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi ongli yondashuvi va shaxsiy byudjetni boshqarish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasining 10 foizga oshishi milliy jamg‘armalarning 5–7 foizga ko‘payishiga, iste’mol kreditlari sifatining yaxshilanishiga va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib keladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari aholining moliyaviy savodxonligi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va shaxsiy farovonlikning muhim omili ekanini ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda ijobiy o‘sish kuzatilgan bo‘lsa-da, xalqaro standartlar bilan solishtirganda, aholining moliyaviy bilimlari, ayniqsa, qishloq aholisi, ayollar va keksalar orasida yetarli darajada emas. Moliyaviy savodxonlikni oshirish nafaqat bilim berish, balki iqtisodiy qarorlar qabul qilish madaniyatini shakllantirish va mas’uliyatli xulq-atvorni rivojlantirish jarayonidir.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi: ta’lim tizimida moliyaviy fanlarni joriy etish, raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish, moliyaviy institutlar hamkorligini kuchaytirish, aholining zaif qatlamlari uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, raqamli xavfsizlikni oshirish va moliyaviy savodxonlik indeksini muntazam baholab borish.

Mazkur choralarni izchil amalga oshirish aholining iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi ongli yondashuvini kuchaytiradi, oilaviy byudjetni boshqarish madaniyatini shakllantiradi va jamg‘arma faolligini oshiradi. Natijada fuqarolarning moliyaviy

Maqolada “tez o‘sish” motivining qadimgi mifologik ildizlari va ularning epos taraqqiyotidagi o‘zgarishlari, ya’ni arxaik davrdagi jismoniy kuch ifodasidan boshlab qahramonlik va ma’naviy yuksalish ramziga aylanishi jarayoni yoritilgan. Tadqiqotda “Jang‘ar” eposining turli milliy versiyalarida bu motivning qanday shakllangani va qahramon obrazining qanday rivojlanganiga e’tibor qaratilgan.

Barcha milliy “Jang‘ar” eposi versiyalarining qahramoni tug‘ilgan paytdan boshlab sehrli kuch va qobiliyatlarga ega bo‘ladi. Uning tug‘ilishi muqaddas sirli holatlar bilan o‘ralgan: “u osmondan tushgan dagina ayoldan tug‘iladi; shunchalik kuchliki, hatto tug‘ilganida o‘rab qo‘yilgan buqaning terisini burab yuboradi; u yagona o‘g‘il farzand; u vositachilik (mediativ) qobiliyatiga ega (mo‘g‘ulcha versiya); u olam yaralish davrida, kuchli baxt yulduzi ostida, ota-onasining yagona o‘g‘li sifatida tug‘iladi (Shinjon-Oyrat versiyasi); u osmon tomonidan in’om etilgan, qo‘lida po‘lat temir bilan, qotgan qon holatida tug‘iladi, baxt yulduzi ostida, oy boshida tug‘iladi va yig‘isi bilan o‘zining kelganini bildiradi (qalmoqcha versiya)” (Xabunova, 2007).

Buryat afsonalari, asosan, “Jang‘ar”ning qalmoqcha versiyasidagi bahodir Xongorning uylanishi haqidagi prozaik rivoyatlarga o‘xshaydi. Unda “Zhagar Bogdo-xon kamtarin kelib chiqishli, baxtsiz Dari-xatandan tug‘ilgan” (Neklyudov, 1992) deyiladi; “go‘zal Dari-xatan aslzoda yetim Zhagarga hayot baxsh etgan” (Neklyudov, 1992); “u ota-onasiga lama tomonidan berilgan urila tufayli tug‘ilgan” (Neklyudov, 1992).

Epos qahramoni — bahodirning mo‘jizaviy kelib chiqishi uning kelgusidagi harakatlarining shiddatli bo‘lishini oldindan belgilaydi. U yoshligidan tez ulg‘ayadi,

[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Epos

kuch-qudratga ega bo‘ladi. Bu holat uning tanlangan va o‘ziga xos qahramon ekanini, ov qilish, sevgi yo‘lida kurashish, dushman bilan jang qilish, xalqni himoya etish kabi qahramonlik ishlari uchun tayyorligini ko‘rsatadi.

“Tez o‘sish” motivining tabiati milliy eposlarda motiv evolyutsiyasini, epik rivoyatning bosqichli va boshqa xususiyatlarini yoritadi. Tadqiq etilgan versiyalar bir xil shakldagi tez o‘sish formulasiga ega:

mo‘g‘ulcha versiyada — ikki yoshli bola uch qavatli temir beshikni sindirib chiqadi;
buryatcha versiyada — bola bir kunda qo‘y terisiga sig‘maydi, ikki kunda uch qo‘yning terisiga sig‘maydi;
Shinjon-Oyrat versiyasida — u bir kunda bir qo‘y jasadini yeydi, ikki kunda ikki qo‘yning terisiga sig‘maydi, o‘n kunda o‘n qo‘y jasadini yeydi.

Qalmoq xalq ertaklarida ham bu motiv uchraydi: u har kuni beshik va o‘ralayotgan qo‘y terisiga sig‘may boradi — bir kundan yetti kungacha bu miqdor ketma-ket ortib boradi.

Epos taraqqiyoti davomida bu arxaik “tez o‘sish” motivi asta-sekin kengayib, qahramonning faqat jismoniy o‘sishi emas, balki ijtimoiy va ma’naviy yuksalishini ham ifodalay boshlaydi. Endi bahodirning “diaper va beshikdan chiqishi” uning cheksiz imkoniyatlari va dunyoviy faoliyatga kirishishini anglatadi. Masalan, “Ayana aldart ayalgan Xongor” (“Harbiy yurishlarda shuhrat qozongan Xongor”) mo‘g‘ul afsonasida qahramon tug‘ilganidan so‘ng uchinchi kuni uch mamlakatning shaytonlarini yo‘q qiladi, yettinchi kuni esa barcha yovuz kuchlarni tor-mor etib, taxtga o‘tiradi (Zagdsuren, 1978). Bu yerda “tez o‘sish” motivi bahodirning yovuz kuchlarga qarshi kurashish qudrati bilan bog‘lanadi.

Keyingi variantlarda bu motiv mifologik dushmanlardan real insoniy raqiblarga qarshi g‘alabalarga aylanadi: mo‘g‘ulcha versiyada uch yoshida uchta mulkni, yetti yoshida yettita mulkni zabt etadi (Zhangaryn tuuls, 1968).

Demak, “tez o‘sish” motivi arxaik davrda jismoniy kuchning timsoli bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik u ma’naviy, ijtimoiy va davlatparvarlik g‘oyalarini ifodalay boshlaydi. Kalmoq “Jang‘ar” eposida esa bu motiv yakuniy bosqichga yetadi — qahramon endi faqat kuch emas, balki jamiyatni quruvchi va tartib o‘rnatuvchi ideal bahodir sifatida tasvirlanadi. Qalmoq “Jang‘ar” eposidagi bahodir o‘zining kuch-qudrati va g‘ayritabiiy imkoniyatlari bilan barcha raqiblarini yengishga muvaffaq bo‘ladi. U hali ikki yoshga to‘lmasidanoq yolg‘iz yetim bo‘lib qoladi. Uch yoshida u uchta yirik qal’aning darvozalarini sindirib, qudratli Guljxing mangas-xonni bo‘ysundiradi. To‘rt yoshida esa to‘rtta yirik qal’aning darvozasini buzib, kuchli Derdeng Sphara mangas-xonni taslim qiladi. Besh yoshida u besh nafar yovuz shayton xonlarni yengib, o‘ziga

bo‘ysundiradi. Oltinchi yoshida olti qal’a darvozasini vayron qilib, bashoratgo‘y Altan Chedjini yengadi. Yettinchi yoshida esa u etti pastki mamlakatni zabt etib, o‘zini “Jang‘ar” deb e’lon qiladi va Nomo Tegyus xonining qiziga uylanadi (Jang‘ar, 1978).[4]

A.Qodiriy jahon folklori, uning epik janrlar tizimida juda qadimdan mavjud bo‘lgan tasvirlash usullarini ijodiy-badiiy o‘zlashtirib, salbiy personajlarning ichki va tashqi tomonlarini bir-biriga mutanosib tasvir etgan. “Jahon tarixiy romanchiligi va ‘O‘tkan kunlar’” faslida birinchi o‘zbek romanining poetikasi, tarixiy-estetik manbalari, badiiy olami jahon tarixiy romanchiligi bilan aloqadorlikda ko‘rib chiqilgan. A.Qodiriy jahon tarixiy romanchiligi yutuqlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan. Ayniqsa, ulkan san’atkor L.Tolstoyning “Urush va tinchlik” roman-epopeyasining badiiy olami, tasvir prinsiplari “O‘tkan kunlar” muallifiga moziyni – “O‘tkan kunlar”ni badiiy in’ikos ettirishda ma’lum darajada mahorat va namuna maktabi bo‘lib xizmat qilgan. Tarixiy davrni va insonni tasvirlashda “Urush va tinchlik” hamda “O‘tkan kunlar” o‘rtasida muayyan aloqadorlik, mushtaraklik mavjud. L.Tolstoy va A.Qodiriy epik ijodlari orasidagi tipologik, genetik-shajaraviy aloqadorlik – ijodiy-badiiy mushtaraklik ko‘p qirrali bo‘lib, bir qancha alomat va belgilarni o‘z ichiga oladi.

Bu hayot, moziy tasviridagi epik ko‘lamdorlik, insoniyat, koinot miqyosidagi badiiy mushohada, xalq, millat tarixi, taqdiri, kelajagining ustuvor masalalari, tamoyillari, qonuniyatlarini qahramon, personajlar timsolida mujassamlashtirish, psixologik tahlilning izchilligi, teranligi, o‘tishga, uning burilish nuqtalariga, tarixiy shaxslar va ulkan hodisalarga umuminsoniy qarash va ideallar asosida yondashish, ijtimoiy (davlat qurilmasi), individual (ayrim shaxsdagi) yovuzlikni inkor etish kabilarda ko‘rinadi.

A.Qodiriy va atoqli shotland adibi Valter Skott epik ijodlariaro mushtaraklik ko‘p qirrali va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. A.Qodiriy V.Skott tomonidan jahon adabiyotiga olib kirilgan tarixiy romaning badiiy shaklini rivojlantirdi, unga islohotchilik nuqtai nazaridan munosabatda bo‘lib, uning badiiy tasvir mezonlari, prinsiplari yangi davr talab va ehtiyojlariga muvofiq yangiladi, o‘zgartirdi. Shu bilan bir qatorda, jahon epik san’atida ommalashgan bu yirik badiiy shaklning yutuq va tajribalari, imkoniyatlaridan samarali foydalandi. “O‘tkan kunlar”, “Mehrabdan chayon”da “V.Skott romani”ga xos tarixiy davr va muhit tasviri, tarixiy ma’lumot, dalillarga asoslangan holda badiiy to‘qimadan samarali foydalanish, tarixiy shaxslarga nisbatan to‘qima obrazlarning ustuvorligi, syujet dinamizmi kabi poetik-badiiy

[4] RAPID GROWTH OF BOGATYR IN DZHANGAR EPOS: MOTIVE FROM ANTIQUITY TO HEROICS
Evdokia Khabunova (a), Lubmila Dampilova (b), Natalia Nikolaeva (c), Bamba Ubushieva (d), Balzira Elbikova (e)
Corresponding author

xususiyatlar mavjud. Arab adibi J.Zaydon va A.Qodiriy romanlari o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘ziga xosliklarni o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki bu nazariy muammoni qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan o‘rganish adabiyotlararo, asarlararo munosabat, yaqinliklarni aniqlash bilan A.Qodiriy badiiy ijodining novatorona mohiyatini chuqurroq aniqlashga ko‘maklashadi.

Epos va marosimni o‘rganishda birinchi navbatda qiyosiy tipologik metodning ustuvorligini inkor etmagan holda, struktural, lingvo-poetik va ruhiy tahlil kabi ko‘plab metodlarga ham suyanish lozim bo‘ladi. Qiyosiy tipologik tahlilda birinchidan, marosimlarni o‘zaro qiyosiy o‘rganish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan uni epos va eposdagi motivlar bilan muqoyasalash imkoniyati tug‘iladi. Lingvo-poetik va ruhiy tahlil metodlari epos va marosim semantikasini chuqurroq yoritib berishda asosiy omil bo‘ladi. Struktural metod esa epos va marosim tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki arxaik epos bilan marosim strukturasi o‘zaro uyg‘un kelishini ko‘ramiz.

Shomonning shajarasi, uning tanlanishi, homiy ruhlar ko‘magida bo‘lishi, o‘zga dunyoga safar, yovuz ruhlar bilan jangi, o‘zga qiyofaga ega bo‘lishi — bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir. Arxaik, jumladan, «Alpomish» eposida ham shajaraga alohida urg‘u berilishi, Hakimbekning tug‘ilishi va doimo pirlar ko‘magida bo‘lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga otlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, yetti yillik zindon, ya’ni ramziy o‘liklik holatidan so‘ng, qayta tirilib chiqib, qo‘ltoy qiyofasiga kirishi, struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko‘ramiz. Qolaversa, eposning genetik xususiyati uning janr strukturasini o‘rganish orqali ochiladi.

Marosimning eposda aks etishi haqida so‘z ketar ekan, uning asosan ikki: a) maishiy turmushda o‘z ijro o‘rniga ega bo‘lib, eposda ham badiiy aks etgan (farzandning tug‘ilishi, ism qo‘yish, beshikkerti qilish, atashtirib ro‘mol o‘ramoq, sovchi qo‘ymoq, qalliq o‘ynamoq va hokazo); b) maishiy turmushda ijro o‘rni unutilib, badiiy holatga ko‘chgan (farzand tug‘ilishidan oldin ovga chiqish, kuyovga kelin tomonidan shartlar qo‘yilishi va h.k.) jihatlarini tadqiq etish lozim bo‘ladi.

«Alpomish» dostonida farzandning tug‘ilishi ilohiy xususiyat kashf etadi. Ilohiy tug‘ilish esa folklorda yetakchi motivlardan biri bo‘lib, u bir necha bosqichlardan iborat. Birinchisi, ota-onaning farzandsizlik holati. Bu bir tomondan ona urug‘chilik bilan bog‘liq tasavvurlarning marosim va dostonlarimiz qatlamida saqlanib qolganligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan doston ramziy ma’no kashf etib, parokanda elni birlashtiradigan, hokimiyatni mustahkamlovchi yangi avlod, yangi

alpning tug‘ilishini anglatadi.
Qahramonga ism berilishi bilan bog‘liq o‘rinlar qisqa satrlarda aytilib ketgan bo‘lsa-da, u doston syujetida muhim ahamiyatga ega. Doston qahramoni Hakimbek yetti yoshga to‘lganda Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon parli yoyni otgani uchun tug‘ilish “Alpomish” deb ataladi: “Shunda barcha xaloyiqlar yig‘ilib kelib aytdi: ...bu Alpomish alp bo‘lsin. To‘qson alpning biri bo‘lib sanaga o‘tdi.”
Qadim marosimlarda, xususan, shomonlikda marosimdan so‘ng qahramonga ikkinchi ism berilgan. Bu, birinchidan, shomonning e’ronlar tomonidan tanlanganligini va ruhiy kamolotga yetganligini bildirsa, ikkinchi tomondan, uning boshqa qiyofaga kirganligini, magik qudratga ega bo‘lganligini ham ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham respublikamizning janubiy viloyatlarida ba’zan oilada o‘g‘il farzand tug‘ilsa, uni “orqalik” ekan deb hamda ins-jins, har xil yomon ruhlardan asrash maqsadida bolaga dastlab yolg‘on ism beriladi. Agar shunday qilinmasa, u xastalikka chalinishi mumkin, degan qarash mavjud. Ma’lum bir muddatdan so‘ng kichik bir marosim o‘tkazilib, bolaga haqiqiy ism qo‘yilgan.
Tabiat faslini keksa kampir qiyofasida tasavvur qilish «Choy momo», «Sust xotin» marosimlarida o‘zining yanada yorqinroq ifodasini topgan.
Ma’lumki, o‘lib tiriluvchi ma’budlar haqidagi ko‘plab miflar mavjud. Bunday miflarga xos bo‘lgan eng muhim xususiyat ularning tabiat va hosildorlik kultini o‘zida mujassam etgani va ularning ko‘pchiligi albatta ayol qiyofasida bo‘lganidir. Har fasl almashganda esa ularga qurbonliklar qilinib, maxsus marosimlar o‘tkazilgan. Qadim Misrda Osirisning o‘lib-tirilishi bahor marosimlarida tomosha tariqasida ko‘rsatilgan.

Germaniyada yangi nikoh qurgan kelinchaklarga o‘limni ifodalovchi somondan qilingan qo‘g‘irchoq ko‘rsatilgan. Qari kampir ko‘rinishidagi “o‘lim” kelinchakning ko‘p farzandli bo‘lishiga yordam beradi, degan tasavvur bo‘lgan.
Ko‘pgina tadqiqotchilar o‘limning hosildorlik va serfarzandlik bo‘lishida ko‘rsatadigan ta’siri haqida tasavvurlar nikoh marosimlarida juda barqaror ekanligini ta’kidlashadi. Shuning uchun ham, oila va mavsum marosimlarini bir-biri bilan o‘zviy bog‘liq ravishda o‘rganilishi zarur. Zero, oila marosimlarining barcha qirralari mavsumiy marosimlarni o‘rganish orqali ochiladi.
Epos va marosim bir-biri bilan chambarchas bog‘liq jarayon. Marosimlarning tarixiy ildizlarini yoritishda eposga murojaat etish tabiiy. Eposdagi motivlarni esa marosimlar bilan qiyosiy o‘rganganimizdagina ularning mazmun mohiyati yanada to‘laroq ochilishi mumkin.

Xulosa: *Epos insoniyat tafakkurining eng qadimiy va barqaror badiiy shakllaridan biridir. U xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy dunyosi va estetik qadriyatlarini mujassamlashtiradi.*

Adabiyotlar

1. Khabunova, E., Dampilova, L., Nikolaeva, N., Ubushieva, B., & Elbikova, B. (2020). Rapid Growth of Bogatyr in Dzhangar Epos: Motive from Antiquity to Heroics. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, Vol. 92, pp. 835–843.
2. Аникин В. Теория фол кл о ра. - М.: Наука, 2012, 80 с.
3. M.Joiayev. Navro‘z qo‘shiqlari. -T. 2007. 163 b.
4. M.Jo‘rayev, 0 ‘. Tohirov. Ostonasi tillodan. -T. 2003, 78. b.
5. K.Imomov. 0 ‘zbek xalq nasri poetikasi. -T. “Fan” 2008,252 b.
6. M.Inoyatov. 0 ‘zbek xalq ijodiyoti an’analari. -T. 2010,132 b.
7. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Darslik. -T. 2006,216 b.
8. U. Abborov. O‘zbek xalq etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 312 b.
9. S.Davlatov. An’ana va marosim. 0 ‘quv-uslubiy qoilanma.-T. “Fan” 2009, 120 b.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Sanoat zonalari faoliyatini raqamli transformatsiya qilishning raqobatbardoshlikni oshirishga ta'siri

Zaripov Shoxboz,
Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat zonalarini raqamli transformatsiya qilish jarayonlari, ularning iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikka ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar (IoT, Big Data, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash) asosida boshqaruv samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda xalqaro tajribalar, xususan Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoyning "raqamli sanoat zonalari" modeli o'rganilgan. Natijalar sanoat hududlarini raqamli ekotizimga moslashtirish O'zbekiston raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.
Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, sanoat zonalari, raqobatbardoshlik, IoT, sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, innovatsion infratuzilma.

Kirish

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot global rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Sanoat zonalari esa ishlab chiqarish, texnologik klasterlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois, raqamli texnologiyalarni sanoat hududlari boshqaruv tizimiga integratsiya qilish, ularning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, xalqaro bozorlar bilan raqobatlashish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Raqamli transformatsiya sanoat zonalarida ishlab chiqarish zanjirlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va innovatsion ekotizimni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekiston uchun bu jarayon sanoat siyosatini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Komparativ tahlil: Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur sanoat zonalaridagi raqamli yechimlar taqqoslandi.
2. Empirik yondashuv: Toshkent viloyatidagi "Angren" va "Jizzax" erkin iqtisodiy zonalarida raqamli texnologiyalar joriy etish holati, shuningdek, Toshkent shahridagi

kichik sanoat zonalari ishtirokchilaridan kelib tushgan murojaatlar o‘rganildi.
3. SWOT-tahlil: raqamli transformatsiyaning kuchli, zaif, imkoniyat va tahdid jihatlari baholandi.
4. Ekspert so‘rovi: iqtisodchi va sanoat boshqaruvchilari o‘rtasida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri bo‘yicha fikrlar tahlil qilindi.
Tadqiqot davomida mazkur yo‘nalishdagi muhim ilmiy paradigmalar ham o‘rganildi. Jumladan:
- Maykl Porter (1985) — “Raqobat ustunligi” nazariyasida texnologik innovatsiyalar raqobatni belgilovchi asosiy omil ekanligi;
- Klaus Shvab (2016) — To‘rtinchi sanoat inqilobi konsepsiyasi orqali raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish tizimlarini tubdan o‘zgartirayotganini ko‘rsatganligi;
- Erik Brinolfsson va Endryu Makafi (2014) — raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt mehnat unumdorligini keskin oshirishi.
- Jozef Yujin Stiglits (2018) — raqamli asrda davlatning raqobatbardoshlik siyosatini qayta ko‘rib chiqish zarurligi haqidagi paradigmalari hamda tendensiyalarini ilgari surgan.

Tahlil va muammolar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sanoat zonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda quyidagi muammolar mavjud:
- Texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi;
- Kadrlar malakasining pastligi va IT-mutaxassislar yetishmasligi;
- Raqamli yechimlarning yuqori xarajatlari;
- Ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha normativ-huquqiy bazaning zaifligi.

Shu bilan birga sanoat zonalarini raqamlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan ““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi”da va sanoat zonalari faoliyatini isloh etish yuzasidan joriy qilingan Farmon va qarorlarida sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya qilish, direksiyalar boshqaruvini raqamlashtirish yuzasidan vazifalar belgilangan bo‘lsa ham sanoat zonalari, xususan kichik sanoat zonalari direksiyalari aksariyati raqamli boshqaruv va raqamli hisobot tayyorlash tizimiga o‘tkazilmagan.

Takliflar

1. Har bir sanoat zonasida “Raqamli boshqaruv markazi” tashkil etish;
2. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqamli subsidiyalar mexanizmini joriy etish;
3. Sanoat zonalari direksiyalari faoliyatini raqamlashtirishga o‘tkazish bo‘yicha subsidiya berish;
3. Sanoat zonalarida “IoT” va “raqamli twins” texnologiyalarini tatbiq etish;

4. Xalqaro raqamli sherikliklar orqali tajriba almashish;
5. Oliy ta’lim tizimida “Raqamli sanoat menejmenti” yo‘nalishini yaratish.

Xulosa

Sanoat zonalarini raqamli transformatsiya qilish raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish zanjirini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish iqtisodiy modernizatsiya va xalqaro integratsiya jarayonida strategik ahamiyatga ega. Natijada, sanoat zonalari “raqamli ekotizimlar”ga aylanishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son Farmoni;
- Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press.
- Shvab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
- Brinolfsson, E., Makafi, A. (2014). The Second Machine Age. MIT Press.
- Stiglis, J. E. (2018). People, Power, and Profits. W.W. Norton & Company.
- Kagermann, H. (2015). Industry 4.0: Europe’s Strategy for the Digital Transformation. Acatech.
- Xu, L. D., Xu, E. L., & Li, L. (2018). Industry 4.0: State of the Art and Future Trends. International Journal of Production Research, 56(8).
- OECD (2020). Digital Transformation in Industry and SMEs. OECD Publishing.
- UNIDO (2021). Industrial Development Report 2021: Digitalization, Productive Transformation and Sustainable Industrialization.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

СИНТАКСИЧЕСКИЕ КОНСТРУКЦИИ РУССКОГО ЯЗЫКА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Студентка института СамДПИ
Қалқонова Мухаббат
Научный руководитель:
Жураева Фарахбону

Аннотация: Статья посвящена анализу синтаксических конструкций русского языка с точки зрения их структуры, функций и роли в языковой системе. Рассматриваются основные типы синтаксических конструкций, их классификация, а также особенности их функционирования в коммуникативном, когнитивном и экспрессивном аспектах. Особое внимание уделяется свободе порядка слов, предикативности, а также влиянию современных языковых процессов на синтаксис. В статье применён междисциплинарный подход, включающий структурный, функциональный и когнитивный анализ, что позволяет глубже осветить природу синтаксических конструкций. Исследование подчёркивает значимость синтаксиса для понимания языковой системы и её эволюции, а также указывает на перспективы дальнейших исследований в условиях цифровизации и глобализации.

Ключевые слова: синтаксические конструкции, русский язык, синтаксис, предикативность, порядок слов, коммуникативная функция, когнитивная лингвистика, структурный анализ, экспрессивность, языковая эволюция.

Русский язык, как один из наиболее развитых и богатых языков мира, обладает сложной и многоуровневой синтаксической системой, которая обеспечивает его выразительность, гибкость и функциональность. Синтаксис, как раздел грамматики, изучающий правила построения предложений и словосочетаний, играет ключевую роль в организации языковой коммуникации. Синтаксические конструкции русского языка представляют собой совокупность структурных моделей, которые обеспечивают связность текста, передачу смысла и реализацию коммуникативных намерений говорящего. Настоящая статья посвящена анализу синтаксических конструкций русского языка с точки зрения их структуры, функций и роли в языковой системе, с акцентом на их теоретическое осмысление и практическое применение.

Синтаксическая конструкция — это упорядоченная совокупность языковых единиц (слов, словосочетаний, предложений), объединённых грамматическими и смысловыми связями, которые образуют целостную единицу коммуникации. Основной единицей синтаксиса традиционно считается предложение, однако в более широком смысле к синтаксическим конструкциям относятся и словосочетания, и сложные синтаксические целые, и даже тексты. В русском языке синтаксические конструкции отличаются высокой степенью вариативности, что обусловлено богатством грамматических средств, таких как падежная система, развитая морфология глагола, а также гибкость порядка слов. Синтаксические конструкции можно классифицировать по различным критериям: по структуре (простые и сложные), по функции (коммуникативные, экспрессивные, номинативные), по степени формализации (фиксированные и свободные). Например, простое предложение типа «Книга лежит на столе» представляет собой минимальную синтаксическую конструкцию, тогда как сложноподчинённое предложение с несколькими придаточными или текст, включающий цепочку предложений, относится к более сложным конструкциям. Русский язык характеризуется высокой степенью синтаксической свободы, что проявляется в относительно свободном порядке слов. Например, предложение «Мальчик читает книгу» может быть перестроено в «Книгу читает мальчик» или «Читает мальчик книгу» без потери основного смысла, хотя интонационные и коммуникативные акценты изменятся. Эта особенность связана с развитой системой падежей и согласования, которые позволяют сохранять грамматическую связь между компонентами предложения независимо от их позиции.

Основными элементами синтаксических конструкций являются подлежащее и сказуемое, образующие предикативную основу предложения. В русском языке предикативность — это ключевая характеристика предложения, отличающая его от словосочетания. Например, в предложении «Солнце светит ярко» подлежащее («солнце») и сказуемое («светит») формируют ядро конструкции, а обстоятельство («ярко») дополняет её. Однако русский синтаксис допускает и односоставные предложения, такие как «Светает» или «Морозно», где предикативность выражается одним главным членом. Сложные синтаксические конструкции, такие как сложносочинённые и сложноподчинённые предложения, демонстрируют богатство связей между частями. Например, в предложении «Я пришёл домой, потому что устал» придаточное причины («потому что устал») связано с главным предложением с помощью подчинительного союза. Такие

конструкции позволяют выражать сложные логические и причинно-следственные отношения, что делает русский язык инструментом точной и многогранной передачи мысли. Синтаксические конструкции выполняют ряд функций, среди которых выделяются коммуникативная, когнитивная и экспрессивная. Коммуникативная функция заключается в передаче информации и организации диалога. Например, вопросительные конструкции («Где ты был?») или побудительные («Иди домой!») непосредственно ориентированы на взаимодействие с собеседником. Когнитивная функция связана с отражением картины мира: синтаксические конструкции позволяют структурировать информацию, выделять главное и второстепенное, устанавливать причинно-следственные связи. Экспрессивная функция проявляется в способности синтаксиса выражать эмоции, оценки и субъективное отношение говорящего. Например, инверсия в предложении «Как прекрасен этот мир!» усиливает эмоциональную окраску. Особое место в русском синтаксисе занимают конструкции с модальными и экспрессивными элементами. Например, использование частиц («ведь», «же», «ли») или вводных слов («кажется», «по-видимому») позволяет уточнять модальность высказывания, выражать уверенность, сомнение или предположение. Такие конструкции, как «Кажется, дождь начнётся» или «Ну и холод же сегодня!», обогащают текст дополнительными оттенками смысла.

Русский язык обладает богатым арсеналом синтаксических конструкций, которые можно систематизировать по различным признакам. По составу выделяются простые и сложные конструкции. Простые конструкции включают одно предложение с одной предикативной основой, например: «Дети играют во дворе». Сложные конструкции могут быть сложносочинёнными («Солнце село, и наступила ночь») или сложноподчинёнными («Я знаю, что ты придёшь»).

По коммуникативной цели синтаксические конструкции делятся на повествовательные, вопросительные, побудительные и восклицательные. Каждая из этих групп имеет свои структурные и интонационные особенности. Например, вопросительные конструкции часто характеризуются инверсией или использованием вопросительных слов («Кто пришёл?»), а побудительные — императивной формой глагола («Сядь!»).

Особое внимание в русском синтаксисе уделяется конструкциям с обособленными членами, которые обогащают предложение дополнительной информацией. Например, в предложении «Увлечённый книгой, он не заметил,

как стемнело» обособленное определение («увлечённый книгой») придаёт высказыванию большую выразительность и информативность.

Синтаксические конструкции русского языка изучаются в рамках различных лингвистических теорий. Структурный подход, основанный на идеях Ф. де Соссюра и Н. Хомского, акцентирует внимание на формальных характеристиках конструкций, таких как порядок слов, типы связей и иерархия компонентов. Например, в рамках генеративной грамматики предложение рассматривается как результат применения определённых синтаксических правил, порождающих бесконечное множество конструкций из конечного набора элементов.

Функциональный подход, напротив, подчёркивает роль синтаксических конструкций в коммуникации. В рамках этого подхода анализируются такие аспекты, как коммуникативная организация предложения, актуальное членение (тема и рема) и прагматические функции. Например, в предложении «Книгу я вчера прочитал» тема («книгу») выносится в начало, чтобы подчеркнуть её значимость, а рема («вчера прочитал») несёт новую информацию.

Когнитивная лингвистика, развиваемая в работах Дж. Лакоффа и Р. Лангакера, рассматривает синтаксические конструкции как отражение ментальных процессов. Например, выбор между активной и пассивной конструкцией («Мальчик разбил окно» vs. «Окно разбито мальчиком») связан с тем, как говорящий концептуализирует событие и какую перспективу он выбирает. Современные исследования синтаксических конструкций русского языка сталкиваются с рядом вызовов. Во-первых, это необходимость учёта динамики языка: под влиянием глобализации и цифровых технологий в русском языке появляются новые синтаксические модели, заимствованные из других языков, особенно английского. Например, конструкции типа «Это так круто!» становятся всё более распространёнными в молодёжном дискурсе.

Во-вторых, развитие компьютерной лингвистики и искусственного интеллекта ставит задачу формализации синтаксических конструкций для их обработки в системах автоматического анализа текста. Это требует создания точных моделей, учитывающих как структурные, так и семантические особенности.

В-третьих, изучение синтаксиса в диахронической перспективе позволяет понять, как исторические изменения в языке влияли на формирование современных конструкций. Например, упрощение некоторых сложных конструкций в разговорной речи («Я пошёл домой» вместо «Я отправился домой») отражает общую тенденцию к экономии языковых средств.

Заключение

Синтаксические конструкции русского языка представляют собой сложную и многогранную систему, которая обеспечивает языку его уникальную выразительность и функциональность. Они являются результатом взаимодействия структурных, семантических и прагматических факторов, что делает их объектом изучения различных лингвистических дисциплин. Анализ синтаксических конструкций позволяет глубже понять природу языка, его связь с мышлением и культурой, а также его роль в коммуникации. Дальнейшие исследования в этой области, особенно с учётом современных технологий и междисциплинарных подходов, обещают раскрыть новые аспекты синтаксической системы русского языка, способствуя её сохранению и развитию.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Виноградов В.В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. — М.: Высшая школа, 1972.
2. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. — М.: Учпедгиз, 1956.
3. Золотова Г.А., Онипенко Н.К., Сидорова М.Ю. Коммуникативная грамматика русского языка. — М.: Наука, 1998.
4. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. — М.: Прогресс, 1990.
5. Хомский Н. Синтаксические структуры. — М.: URSS, 2005.
6. Лангакер Р. Когнитивная грамматика: Введение. — М.: Гнозис, 2010.
7. Бондарко А.В. Теория функциональной грамматики: Темпоральность. Модальность. — СПб.: Наука, 1990.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Metaforaning personifikatsiya xususiyatlari va ularning chet tilini òqitishda metodik qo‘lanilishi(ingliz tili materiallari asosida)

Muallif: Yusupova Arofatxon Abdumalik qizi
Ilmiy rahbar: Gavharoy Isroiljon qizi
51-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda metafora va personifikatsiya kabi badiiy ifoda vositalarining ingliz tilidagi lingvistik xususiyatlari hamda ularning chet tilini o‘qitish jarayonida metodik qo‘llanilishi o‘rganiladi. Metafora va personifikatsiya o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, obrazli tafakkur va madaniy idrokni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ishda ingliz tilidagi dars materiallari asosida ushbu vositalarni samarali o‘rgatish usullari tahlil qilinadi va amaliy tavsiyalar beriladi.
Kalit so‘zlar metafora, personifikatsiya, badiiy ifoda vositalari, stilistika, chet tilini o‘qitish, ingliz tili, metodik qo‘llanilish, ijodiy fikrlash, ta’lim jarayoni

Аннотация. В данной научной работе рассматриваются лингвистические особенности метафоры и олицетворения как художественных выразительных средств в английском языке, а также их методическое применение в процессе обучения иностранному языку. Метафора и олицетворение способствуют развитию у учащихся креативного мышления, образного восприятия и культурного сознания. На основе материалов по английскому языку проанализированы эффективные способы обучения этим средствам и даны практические рекомендации.
Ключевые слова метафора, олицетворение, художественные средства выразительности, стилистика, обучение иностранному языку, английский язык, методическое применение, творческое мышление, образовательный процесс
Annotation. This research paper explores the linguistic features of metaphor and personification as stylistic devices in the English language, as well as their methodological application in foreign language teaching. Metaphor and personification play a significant role in developing students' creative thinking, figurative understanding, and cultural awareness. The study analyzes effective teaching methods using English language materials and provides practical recommendations for classroom use.
Keywords metafora, personifikatsiya, badiiy ifoda vositalari, stilistika, chet tilini o‘qitish, ingliz tili, metodik qo‘llanilish, ijodiy fikrlash, ta’lim jarayoni

Hozirgi globallashuv jarayonida ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatishning samarali uslublarini topish o‘quvchilarning lingvistik va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Metafora va personifikatsiya kabi badiiy-stilistik vositalar orqali tilni chuqurroq anglash, o‘quvchilarda tasavvur, emotsional idrok va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyati tug‘iladi. Ushbu mavzu dolzarbligi shundaki, ingliz tilini o‘rgatishda stilistik vositalarni o‘rganish orqali nafaqat til bilimlari, balki madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalarini ham shakllantirish mumkin.

Tadqiqot maqsadi. Metafora va personifikatsiyaning ingliz tilidagi lingvistik va stilistik xususiyatlarini o‘rganish.

ingliz tili darslarida metafora va personifikatsiya kabi badiiy-stilistik vositalarni o‘quvchilarga samarali o‘rgatish usullarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu vositalar orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, obrazli tafakkuri va madaniy-estetik dunyoqarashini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Til o‘rganish jarayonida bu kabi stilistik birliklardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki badiiy idrokini, emotsional sezgirligini va matnga nisbatan chuqur yondashuvini rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, **tahliliy usul** yordamida ingliz tilidagi badiiy matnlar — jumladan she’rlar, hikoyalar, maqolalar — o‘rganilib, ularda uchraydigan metafora va personifikatsiya namunalari tahlil qilindi. Bu jarayon o‘quv materiallarining mazmuniy va stilistik boyligini ochib berish imkonini berdi.

Shuningdek, **tajriba-sinov usuli** asosida ingliz tili darslarida ushbu stilistik vositalardan foydalanildi va o‘quvchilarning tushunish, anglash va qo‘llash darajalari baholandi. Darslarda faol ishtirok etish, savollarga mustaqil javob berish va yozma topshiriqlarda obrazli ifodalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim darajasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Bundan tashqari, so‘rovnoma va kuzatuv metodlari yordamida o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan munosabati, qiziqishi va anglash darajasi aniqlab borildi. Olingan natijalar asosida o‘quvchilarning stilistik vositalarni qanday qabul qilishi va ulardan qanday foydalanishga urinishi baholandi.

Tadqiqot yakunida olingan tajribalar asosida ingliz tili o‘qituvchilari uchun **metodik tavsiyalar** ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar orqali dars jarayonini yanada jonli, obrazli va o‘quvchiga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish mumkin bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, ingliz tili darslarining samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning tilga

nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. O‘quvchilar metafora va personifikatsiyani farqlash va qo‘llashni o‘rgandilar.

O‘quvchilarda ingliz tilidagi badiiy ifoda vositalarini tushunish darajasi ortdi.

She’rlar va badiiy matnlar bilan ishlash orqali tilga bo‘lgan qiziqish kuchaydi.

Interaktiv metodlar (klaster, rol o‘ynash, kontekstual tahlil) yordamida ijodiy fikrlash faollashdi.

Tadqiqot muhokamasi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘quvchilar dastlab stilistik vositalarni tushunishda qiynaldilar. Biroq darslarda metafora va personifikatsiyani vizual, kontekstual, dramatik usullar orqali o‘rganish ularning e’tiborini tortdi va o‘zlashtirishni osonlashtirdi. Bu metodik yondashuv til o‘rganishda emotsional va obrazli fikrlashga turtki berdi. O‘quvchilar matnlardagi noan’anaviy mazmunlarni tahlil qilishni o‘rgandilar va o‘z fikrlarini ingliz tilida ifodalashga urinib ko‘rishdi.

Metafora va personifikatsiya ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarning madaniy va badiiy tafakkurini shakllantiruvchi kuchli vositadir.

Metafora — bu biror narsa yoki hodisani boshqa narsa bilan bevosita taqqoslamasdan, unga xos bo‘lmagan tushuncha orqali ifodalash vositasidir. Masalan:

Time is a thief – vaqt o‘g‘ri kabi, u bizdan sezdirmasdan vaqtni olib ketadi.

Ingliz tilida metafora ko‘plab idiomlarda, maqollarda, she’riy misralarda va hatto kundalik nutqda keng uchraydi. Bu vosita o‘quvchilarga murakkab yoki abstrakt tushunchalarni obrazli shaklda tushunishga yordam beradi.

1.2 Personifikatsiya

2024-yil bahor semestrida 51-maktabning 7–8-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar asosida quyidagi natijalar kuzatildi:

Metafora va personifikatsiyadan foydalangan holda o‘tkazilgan darslarda o‘quvchilarning ishtiroki va faolligi sezilarli darajada oshdi.

Yozma va og‘zaki nutqlarda badiiy ifodalar ko‘proq qo‘llanila boshlandi.

O‘quvchilarning ingliz tilidagi badiiy matnlarga bo‘lgan qiziqishi ortdi.

Interfaol metodlar — xususan, dramatizatsiya va klaster usuli — orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajasi oshdi.

Tadqiqot muhokamasi. Tajriba shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilini o‘rganishda nafaqat grammatik mashqlar, balki badiiy ifoda vositalari ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarga metafora va personifikatsiyani o‘rgatish ularning tilga bo‘lgan

qiziqishini oshiradi, o‘z fikrini obrazli va emotsional tarzda ifodalashga yordam beradi. Ba’zi o‘qituvchilar bu vositalarni ortiqcha deb hisoblashadi, biroq to‘g‘ri metodik yondashuv orqali ular dars jarayonini yanada jonli va mazmunli qiladi.

XULOSA

Metafora va personifikatsiya ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchilarning obrazli va madaniy tafakkurini rivojlantiradi.
Bu vositalarni o‘rgatish orqali o‘quvchilar badiiy matnlarni chuqurroq tahlil qilish, tushunish va undan zavqlanishga o‘rganadi.
Darslarda stilistik vositalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarni til o‘rganishga yanada jalb qiladi.
Kelgusida bu boradagi tadqiqotlar va metodik tajribalar davom ettirilishi, turli yosh guruhlari va darajalari uchun mos dars ishlanmalar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abrams, M. H. (1999). A Glossary of Literary terms. (7th ed.). Ithaca, NY: Cornell University Press.
2. Anggiamurni, A. N. (2020). An Analysis of Figurative Language in Poetry by Maya Angelou. PANYONARA: Journal of English Education. https://ejournal.iainmadura.ac.id/index.php/panyonara/article/view/3669.
3. Antari, N. K. D. (2022). An analysis of the interpersonal meaning of lyric and video “zombie” by day6. Journal of Language and Pragmatics Studies, 1(1), 16–24. https://doi.org/10.58881/jlps.v1i1.3
4. Blake, William. (n.d). Poetry Foundation. London by William Blake. https://www.poetryfoundation.org/poems/43673/london-56d222777e969
5. Chaer, Abdul. (2009). Pengantar Semantik Bahasa Indonesia. Jakarta: PT Rineka Cipta.
6. Назарова, З.Р. (2018). Stilistik vositalarning o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni. Toshkent.
7. Safarova, M. (2021). Ingliz tili o‘qitishda badiiy vositalardan foydalanish metodikasi. Andijon davlat universiteti.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

УДК 631.89

MONOKALSIYFOSFAT DONADORLIGINI O‘RGANISH

Xoshimov Ilhomjon Erkin o‘g‘li.
Saidazimov Shuxratbek G‘ulomovich.
[1] Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institute katta o‘qituvchisi,
email: emmim1991@mail.ru
[2]Farg‘*ona davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya. Bugungi kunga kelib dunyo miqyosida oziq-ovqat tanqisligi tufayli bir qancha davlatlar qiyinchilikka uchramoqda. Muammoning bir qismi shundaki, ko‘plab mamlakatlar yillar davomida oziq-ovqat xavfsizligini boshdan kechirmoqda va COVID-19 pandemiyasi ularning ahvolini yanada kuchaytirdi. Ushbu muammoni hal qilish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘proq va qisqa vaqt ichida yetishtirishni talab qilmoqda. Buning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish maqsadida mineral va organik o‘g‘itlardan hamda hayvon mahsulotlarini yetishtirish uchun esa fosforli ozuqaviy o‘g‘itlardan foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda.
Asosan ozuqaviy fosfatlardan foydalish orqali aholini yetarlicha oziq-ovqat bilan ta’minlash bir necha o‘n yillikdan beri rivojlanib kelmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarida esa albatta bunday o‘g‘itlarning fizik-kimyoviy xossalari asosiy o‘rinni egallaydi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonida tashish ishlarini amalga oshirish uchun donador xolatdagi o‘g‘itlarning mustahkamlik darajasi asosiy faktorlardan hisoblanadi. Ushbu maqola orqali monokalsiyfosfatni donador holatda ishlab chiqarishda uning mustahkamlik darajalari qanday bo’lishi o‘rganilgan.
Tayanch so‘zlar: *Ozuqaviy fosfat, monokalsiyfosfat, fosfat kislota, donador, mustahkamlik, ohak.*

O‘zbekistonda chorvachilik qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatining yetakchi sohalaridan biri. Bugungi kunda O‘zbekistonda 2021 yilning 9 oyida 1,9 mln tonna go‘sht yetishtirilgan. 2021-yilning yanvar-noyabr oylarida O‘zbekiston 27,6 ming tonna go‘sht import qildi, deyiladi Davlat statistika qo‘mitasining hisobotida. Ma’lumotlarga ko‘ra, go‘sht importi 2020 yilning shu davriga nisbatan 8,4 ming tonnaga oshgan. Go‘shtning asosiy qismi Belarus (18,7 ming tonna), Qozog‘iston (4,2 ming tonna), Ukraina (2,6 ming tonna), Rossiya (629 tonna) va Moldova (660 tonna) kabi davlatlardan xarid qilingan. [1] Aholining umumiy soniga nisbatan go‘sht iste’moli yiliga 2,5 mln tonnadan ham ortiqni tashkil qiladi. Demak, aholini go’sht

mahsulotlari bilan ta’minlash mamlakat miqyosida yetarlis darajada emas. Ammo chorva hayvonlari va parrandachilik mahsuldorligini ozuqaviy o’g’itlar berish orqali oshirish mumkin. Bunda asosan mahalliy xom ashyolardan olinadigan va hayvonlar ozuqasiga qo‘shiladigan fosforli ozuqaviy o‘g‘itlar katta ahamiyatga ega. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son qaroriga asosan “Ammofos-Maksam” AJ negizida 2019-2024 yillar davomida fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmlarini kamida 100 ming tonnaga oshirish chora-tadbirlarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini II bosqichda (1-bosqichda - 20 ming tonna, 2-bosqichda - 80 ming tonna) modernizatsiya qilish orqali amalga oshirilishi belgilandi. Bazi mamlakatlarda, masalan Rossiya Federatsiyasida mineral qo‘shimchalar sifatida kalsiy fosfatlari - suyak uni, ftorsiz fosfat, ozuqa monokalsiy fosfat, shuningdek, mono- va dinatriy fosfatlar, mono va diammoniy fosfatlar, karbamid fosfat ko'pincha ishlatiladi [1].

Monokalsiyfosfat chorvachilik, parrandachilik va akvakulturadagi hayvonlarni kalsiy va fosfor bilan oziqlantirish uchun ishlatiladigan ozuqa qo'shimchasidir. U yuqori suvda eruvchanligi va yuqori assimilyatsiya tezligi xususiyatlariga ega. Hayvonlar, chorva va parrandalar uchun ozuqa qo‘shimchasi sifatida foydalanilganda, ozuqaga qo‘shilgan miqdor odatda 1% dan 2% gacha, fosfordan foydalanish darajasi 94-98% gachani tashkil etadi. Hamda monokalsiy fosfatning chorva ozuqasiga kiritilishi parranda va chorva mollarining tirik vaznini oshirish imkonini beradi. Boshqa ozuqa fosfat turlariga nisbatan tirik vaznning 5-12% ga oshishi monokalsiy fosfat bozori uchun muhim o'sish sur'ati bo'lib xizmat qilishi mumkin [2, 3]. Dikalsiy fosfat ham chorvachilik uchun yordamchi ozuqa va ayniqsa qatlamli ozuqa va promiks ozuqa sifatida parranda va suv hayvonlarini parvarishlashda ishlatiladi. U hazm jarayonini tezlashishiga, hayvonlarning vaznini ortishiga, tuxum qo‘yish yoki sut ishlab chiqarish unumini ortishiga sabab bo‘lishi va raxit, osteomalasiya, kamqonlik kabi kasalliklarni davolashi mumkin. Trikalsiy fosfat ozuqaning so‘rilishiga yordam beradi, vazn ortishini oshiradi, hayvonlarning kasallanishini kamaytiradi, uzoq muddatli saqlashdan keyin ham hayvonlar uchun zararsizdir. Kalsiy ham, fosfor ham organizm hayotida katta rol o‘ynaydi.

Natijada, hayvonlarning oziqlanishida ozuqa fosfatlarining kundalik foydalanishi quyidagilarga yordam beradi:

- mineral moddalar almashinuvini normallashtirish;
- semizlik davrini qisqartirish;
- sog'lom nasl olish (hayvonlarning kasallanishini kamaytiradi);

- yosh hayvonlarni saqlash va raxitning oldini olish;
- go‘shtning ozuqaviy qiymatini oshirish;
- ozuqa iste'molini kamaytirish va pirovardida fermer xo‘jaligining rentabelligini oshirish (va chorvachilik mahsulotlari tannarxini pasaytirish) [4].

Natijalar va ularning muhokamasi. Tajriba ishlari O‘zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi umumiy va noorganik kimyo institutining “Fosforli o‘g‘itlar” laboratoriyasida olib borildi.

Ushbu tajribada sanoat mahsulotlari bo‘lgan oxak ($CaCO_3$) va termik fosfat kislotasidan (TFK) turli nisbatlarda aralashma tayyorlanib monokalsiyfosfat (MKF) olindi va uning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlandi. Bunda asosan donador holatdagi monokalsiyfosfatning donalar mustahkamligi o‘rganildi. Tajribada tarkibi 99,5% $CaCO_3$ va maydalik darajasi 0.25 mm bo’lgan ohak hamda parchalash uchun tarkibi 83,21% li (60.30% P_2O_5), 69,81% li (50.58% P_2O_5), 54,87% li (39,75% P_2O_5) uch xil konsentratsiyali termik fosfat kislotasi va “retur” sifatida kimyoviy tahlil uchun toza (чда) bo‘lgan MKF dan foydalanildi.

Laboratoriya tajribalari quyidagicha olib borildi:

Buning uchun parchalash jarayoni TFKning $CaCO_3$ ga nisbatan MKF olish uchun 90%, 95%, 100% stexiometrik me’yorlarda va retur soni 1:0.3, 1:0,5 hamda 1:0,7 nisbatda olib borildi. Jarayonni boshlashdan oldin kerakli mqdordagi TFK termostatda joylashgan shisha idishda oldindan 80°C da 10-15 min davomida ushlab turildi. Keyin esa termostatda chinni reaktorga ohakning 1:0.3 retur nisbatdagi kukun ustiga kerakli miqdori solib qo‘yildi. Reaktsiya jarayoni 10 min davom ettirildi. Hosil bo‘layotgan massa g‘ovakli holatda bo‘lgani uchun aralashtirish jarayoni oson kechdi va shu vaqtning o‘zida donadorlash jarayoni ham olib borildi. Hosil bo‘lgan hom monokalsiy fosfat donalari 75-80°C haroratda 4-6 soat davomida quritish pechida quritildi. Olingan quruq mahsulot tarkibidagi ozuqa komponentlari standart usullar yordamida tahlil qilindi. P_2O_5 fotokalorimetrik usulda [5], *CaO* esa kompleksometrik titrlash usulida o‘rganildi [6]. O‘zlashuvshan P_2O_5 xlorid kislotasining 0.4% li eritmasida eritib aniqlandi. Namunalarning 10% li *pH* muhiti ko‘rsatkichlari METTLER TOLEDO FE20/EL20 *pH* meter quick guide uskunasida aniqlandi.

Bu yerda asosiy e’tibor donalar mustahkamligini o‘rganishga qaratildi. Olingan uch xil norm ava uch xil retur ko‘rsatkichli monokalsiy fosfat donalari mustahkamligi NIIUIF da ishlab chiqilgan usulda MIP-1 uskunasida aniqlandi [7].

Keltirilgan tajriba natijalari shuni ko’rsatadiki, termik fosfat kislota (TFK) ning $CaCO_3$ ga nisbatan MKF olish uchun 90%, 95%, 100% stexiometrik me’yorlari ortishi bilan

ozuqaviy fosfat tarkibidagi o'zlashuvchan P_2O_5 miqdori 52-56% ga ortishini kuzatish mumkin. Shu bilan birga P_2O_5ning 0.4% li xlorid kislotadagi nisbiy o'zlashuvchan shakli 99.99-100% tashkil qildi. Ozuqaviy fosfatdagi o'zlashuvchan P_2O_5 ning bunday yuqori ko'rsatkichi qoramol, parranda va baliqlar uchun nihoyatda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari ozuqa fosfatlar tarkibida o'zlashuvchan CaO mavjud bo'lib bu komponent ham tirik organizmning suyak to'qimalari uchun nihoyatda zarurdir.

Biroq keltirilgan tadqiqot natijalaridan eng maqbul me'yor 95% bo'lib, bundagi ko'rsatkichlar (og'ir.%): $P_2O_{5o'zl.}$ – 53,16 – 55,17% gacha ; $P_2O_{5suv.}$ – 50,03 – 54,16% gacha; $CaO_{umum.}$ – 21,87 – 23,90% gacha; $CaO_{o'zl.}$ – 21,84 – 23,47% gacha; $CaO_{suv.}$ - 20,59 – 21,16% gacha, pH – 2.56 – 2,71% gacha oraliqda bo'ldi. Donalar mustahkamligi 1,63 – 3,23 MPa oralig'ida bo'lganligi aniqlandi. Ushbu tarkib va hossaga ega ozuqaviy monokalsiy fosfat halqaro standart GOST10516-75 bo'yicha talabga to'la javob beradi [8].

1-jadval

Ozuqaviy monokalsiy fosfat donalarining statistik mustahkamligi ko'rsatkichlari
(Fosfor kislotasi tarkibida 60.30% P_2O_5 mavjud)

TFKning MKF ga nisbatan stexiometrik me'yori, %	Granula mustahkamligi (2-3 mm diametrdagi granulalar uchun)		
	kg/granula	Kg s/sm^2	MPa
Fosfat kislota konsentratsiyasi - 60,3% P_2O_5, retur nisbati = 1:0,3			
100	0,82	17,14	1,68
95	0,85	23,86	2,34
90	0,87	29,47	2,89
Fosfat kislota konsentratsiyasi - 60,3% P_2O_5, retur nisbati = 1:0,5			
100	0,79	24,79	2,43
95	0,89	32,95	3,23
90	0,91	35,19	3,45
Fosfat kislota konsentratsiyasi - 60,3% P_2O_5, retur nisbati = 1:0,7			
100	0,72	22,14	2,17
95	0,77	30,91	3,03

90	0,79	39,37	3,86

2-jadval

Ozuqaviy monokalsiy fosfat donalarining statistik mustahkamligi ko‘rsatkichlari
(Fosfor kislotasi tarkibida 50.58% P_2O_5 mavjud)

TFKning MKF ga nisbatan stexiometrik me’yori, %	Granula mustahkamligi (2-3 mm diametrdagi granulalar uchun)		
	kg/granula		kg/granula
Fosfat kislota konsentratsiyasi – 50,58% P_2O_5, retur nisbati = 1:0,3			
100	0,62	16,53	1,62
95	0,65	17,14	1,68
90	0,66	17,54	1,72
Fosfat kislota konsentratsiyasi – 50,58% P_2O_5, retur nisbati = 1:0,5			
100	0,73	19,18	1,88
95	0,75	27,54	2,70
90	0,76	28,46	2,79
Fosfat kislota konsentratsiyasi – 50,58% P_2O_5, retur nisbati = 1:0,7			
100	0,75	19,89	1,95
95	0,77	28,15	2,76
90	0,83	29,17	2,86

3-jadval

Ozuqaviy monokalsiy fosfat donalarining statistik mustahkamligi ko‘rsatkichlari
(Fosfor kislotasi tarkibida 39.75% P_2O_5 mavjud)

Nizomiddin Shomiyning yozishicha, Temur o‘z o‘g‘illarini davlatning muhim qismida hokim etib tayinlash orqali davlatni boshqarish tizimini mustahkamlagan. Masalan, Shohruh Xurosonda hokim bo‘lib, u yerda barqarorlikni ta’minlagan va madaniyat rivojiga hissa qo‘shgan. Mironshoh esa Iroq va Movarounnahrning ayrim qismlarini nazorat qilgan. Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asarida Jahongir Mirzo va Qamariddin bilan bo‘lgan urushini shunday yozadi. Shavvol oyining avvalida Sohibqiron yana lashkar hozirlashni buyurdi va lashkarga Jahongir Mirzoni sarkarda qilib tayinlaydi.Shahzodaga qo‘shib Shayx Muhammad va Odilshohni jo‘natadi. Aynan Jahongir Mirzo shu jangdan g‘alaba qozonib, Samarqandga qaytib kelgandan keyin og‘ir kasallikka chalinib vafot etadi Mirxondning "Ravzat us-safo" asari Temuriylar sulolasining tarixi va ularning faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Ushbu asar Temuriy shahzodalarining hayoti, siyosiy faoliyati, oila va sulola munosabatlari, hamda madaniy va ilmiy rivojlanishga qo'shgan hissasi haqida muhim ma'lumotlarni beradi.

Temuriy shahzodalarning tarbiyalanishi

Mirxond "Ravzat us-safo"da Temuriy shahzodalar yoshlikdan ma'naviy, harbiy va siyosiy jihatdan puxta tarbiyalanganini ta'kidlaydi. Amir Temur ularga qat'iy ta'lim berib, davlat boshqaruvini va urush san'atini o'rgatgan. Asarda Temuriy shahzodalar o'rtasidagi o'zaro siyosiy raqobat va hokimiyat uchun kurash ko'p tilga olinadi. Bu raqobatlar Temuriylar davlati parchalanishiga sabab bo'lgan muhim omillardan biri sifatida ko'rsatiladi. Ayniqsa, Mironshoh va Shohrux Mirzo o'rtasidagi nizolar batafsil yoritilgan. Shohrux Mirzo va uning hukmronligi."Ravzat us-safo"da Shohrux Mirzo

Temuriylar davlatining kuchli rahbari sifatida tasvirlangan. U ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Uning davrida Hirot ilmiy va madaniy markazga aylangan.

Ulug‘bek va ilmiy faoliyat

Mirxond Ulug‘bekning ilmiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan. Ulug‘bekning Samarqanddagi rasadxonasi, uning astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari, shuningdek, ilm-fanga homiylik qilgani haqida batafsil ma'lumot berilgan. Mirxond Amir Temur shahzodalarni davlatning turli hududlariga noib sifatida tayinlab, ularga mustaqil boshqaruv mas’uliyatini yuklaganini yozadi. Bu davlatni kengaytirish va boshqaruvni samarali tashkil etishga yordam bergan, biroq keyinchalik o'zaro nizolarni keltirib chiqargan. Temuriy shahzodalar orasida san’at va madaniyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratganlar haqida ma’lumotlar mavjud. Xususan, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy bilan bog‘liq tafsilotlar keltirilgan. Xondamirning "Habib us-siyar" asari Temuriylar sulolasining tarixini batafsil yorituvchi muhim tarixiy manbalardan biri bo‘lib, unda Temuriy shahzodalar haqida keng ma'lumotlar berilgan. Asarda Temuriylar sulolasining harbiy, siyosiy va madaniy yutuqlari bilan birga, shahzodalar o‘rtasidagi munosabatlar va hokimiyat kurashlari ham yoritilgan.Amir Temur va uning vorislik tizimi: Xondamir Amir Temurning vorislarini tarbiyalashda muhim o‘rin tutganini ta’kidlaydi. Temur davlat boshqaruvini farzandlari va nabiralariga taqsimlagan, ularning har biri ma'lum bir viloyatni boshqarib, mustaqil hukmronlik qilishga mas’ul bo‘lgan. "Habib us-siyar"da Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. U davlat boshqaruvida muhim o‘rin tutgan bo‘lsa-da, uning boshqaruvdagi ayrim kamchiliklari ham tanqid qilingan. Mironshohning siyosiy faoliyati va shaxsiy hayoti haqida qimmatli tafsilotlar keltirilgan. Xondamir Shohrux Mirzoni Temuriylar sulolasining eng muvaffaqiyatli hukmdorlaridan biri sifatida tasvirlaydi. Uning davrida davlat boshqaruvi barqaror bo‘lgan va ilm-fan hamda madaniyat jadal rivojlangan. Hirot poytaxtga aylangan va Temuriylar saroyi ilmiy markaz sifatida mashhur bo‘lgan.

Ulug‘bek va uning ilmiy merosi:

Ulug‘bekning astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari, shuningdek, Samarqandda barpo etilgan rasadxona haqida batafsil ma'lumot berilgan. Xondamir, shuningdek, Ulug‘bekning davlat boshqaruvidagi faoliyati va uning shahzodaligi davridagi ishlari haqida ham hikoya qiladi. Temuriy shahzodalar o‘rtasidagi hokimiyat kurashlari.Asarda Temuriy shahzodalar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar va hokimiyat uchun kurash batafsil yoritilgan. Bu kurashlar sulolaning zaiflashishiga olib kelgani

ta’kidlanadi. Masalan, Ulug‘bek va o‘g‘li Abdulatif Mirzo o‘rtasidagi nizolar misol sifatida keltiriladi.

Madaniyat va ilm-fan rivojida shahzodalar roli.Xondamir Temuriy shahzodalarining san’at, adabiyot va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasini alohida ta’kidlaydi. Masalan, Husayn Boyqaro va uning davrida Alisher Navoiy kabi buyuk adiblarning faoliyati yoritilgan."Habib us-siyar"da Husayn Boyqaroning siyosiy va madaniy faoliyati, uning madaniyat va san’at homiysi sifatidagi roli batafsil yoritilgan. Bu davrda Temuriylar davlati madaniyatining eng yuqori cho‘qqilaridan biriga erishgani ta'kidlanadi.

Xulosa.

Temuriy shahzodalar haqida manbalarda kurishimiz mumkinki ular toj-u taxt va hokimiyat uchun kurashish bilan birgalikda ko‘plab islohotlar ham olib borganligini kurishimiz mumkin.Shahzodalar qo‘shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yib savdo-sotiqni ham ancha jonlantirgan shu bilan birgalikda ilm-fan va madaniyatni yuqori cho‘qqilarga olib chiqgan.Islom dini va huquqshunosligini chuqur egallagan Shohrux Mirzo va uning farzandlari marhum aziz avliyolar va ulamolarning qabrlari atrofini obodonlashtirdi, maqbaralar qurdirdi. Temuriylar davrida ilm-fanga ham e’tibor katta bo‘lgan bo‘lib shaharlarda ko‘plab madrasalar qurdirgan.Samarqandda Mirzo Ulug‘bek akademiyasi tashkil qilingan bo‘lib bu akademiya aniq va tabiiy fanlarga asoslangan edi. Hirotda Boysung‘ur Mirzo san’at akademiyasi ham bo‘lgan. Boshqa temuriy shahzodalar ham ilm fan taraqqiyotiga hissa qo‘shishgan.Bular Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muxammad Boburlar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмад, Ҳайдарбек Бобобеков. –Тошкент: Шарқ, 1997.
2. Низомиддин Шомий. Зафарнома. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996.
3. Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). –Тошкент: “Меҳнат”, 1992.
4. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. –Тошкент, 2010.
5. Komil o‘g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O ‘RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).

6. Komil o‘g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O ‘RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).

7. Komil o‘g, M. R. S., Hoshimjon o‘g‘li, R. I., Mamatkarimovna, A. Z., & Vildanovich, G. S. (2025, May). GERMANIYA IMPERIYASI 1870–1918 YILLARDAGI KOLONIAL REJALARIDA MARKAZIY OSIYONING O ‘RNI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 31, pp. 277-280).

8. Komil o‘g, M. R. S., & Eshmurza o‘g‘li, Q. S. (2025). HISTORY OF COIN MILLING IN UZBEKISTAN: PERIODIC RESEARCH AND HISTORICAL-CULTURAL SIGNIFICANCE. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *6*(51), 620-623.

9. Komil o‘g, M. R. S., & G‘ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *8*(4), 172-181.

10. Komil o‘g, M. R. S., & G‘ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *8*(4), 172-181.

11. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA’RUFOV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 160-165.

12. MA’RUFOV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O ‘RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *ACTA NUUz*, *1*(1.2), 1.

13. Ma’rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O’RTA OSIYODA MUSIQA SAN’ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(1).

14. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, *4*(11).

15. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, *6*(01), 4-7.

16. Сулаймонович, Қ. С. (2024). СИРДАРЁ ТАРИХИ ЯНГИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИДА. *PEDAGOG*, *7*(11), 68-72.
17. Sherzod, M. R. (2024). NEW VIEWS ON ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS LOCATED IN SIRDARYA REGION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, *4*(2), 1-6.
18. Ma'rufov, S., & Bekmurodov, S. (2024). XONLIKLAR DAVRIDA MUSIQA ILMIGA ILMIGA QARATILGAN E'TIBOR. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(1).
19. Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).
20. Gulchehra, A., Alisher, A., & Sherzod, M. R. (2025). G'ARBIY TURK XOQONLIGI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 477-487.
21. Sherzod, M. R., Gulchehra, A., & Alisher, A. (2025). ARXEOLOGIYA FANINING YO'NALISHLARI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 467-476.
22. Alisher, A., Gulchehra, A., & Sherzod, M. R. (2025). SUV OSTI ARXEOLOGIYASI TADQIQOTINING ISTIQBOLLARI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 456-466.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

BUXORO AMIRLIGI MADRASALARDA TA‘LIM TIZIMI

Ma’rufov Sherzod Komil o‘g‘li
GulDU “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi
sherzodmarufov1@gmail.com
Keldiyorova Sarvar Ochil qizi
GulDU tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligi davrida madrasalarda olib borilgan ta’lim jarayoni, uning mazmuni va o‘qitish uslublari tahlil qilinadi. Buxoro madrasalari o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning eng yirik ilm maskanlaridan biri bo‘lib, bu yerda diniy hamda dunyoviy fanlar birgalikda o‘qitilgan. Qur’on, hadis, fiqh, mantiq, falsafa, tibbiyot, matematika, falakiyot kabi fanlar chuqur o‘rganilgan. Dars jarayonlari asosan mudarris tomonidan kitob o‘qish va tushuntirish, talabalarning yodlash hamda munozara asosida bilim olish shaklida olib borilgan. Madrasalar nafaqat diniy ta’lim markazi, balki ma’naviy va ilmiy tafakkur rivojining o‘chog‘i sifatida ham xizmat qilgan. Tadqiqotda Buxoro madrasalarining o‘sha davr ta’lim tizimidagi o‘rni, ahamiyati va bugungi ta’lim jarayoniga ko‘rsatgan tarixiy ta’siri yoritib beriladi.
Kalit so’zlar: Buxoro madrasalari, arab tili grammatikasi, ashtarxoniylar, Meyendorf, Xanikov, Kunits, Madrasa, Zayd ibn Arkam, dunyoviy fanlar.
Abstract: This study examines the educational system of madrasas during the Bukhara Emirate period, focusing on their structure, curriculum, and teaching methods. The Bukhara madrasas were among the most prominent centers of knowledge in medieval Central Asia, where both religious and secular sciences were taught simultaneously. Subjects such as the Qur’an, Hadith, Fiqh, Logic, Philosophy, Medicine, Mathematics, and Astronomy were deeply studied. The teaching process mainly involved teachers reading and interpreting classical texts, while students learned through memorization, repetition, and scholarly discussion. These institutions played a crucial role not only in providing religious education but also in shaping moral values and intellectual thought. The research highlights the significance of Bukhara madrasas in the historical development of education and their lasting influence on modern educational traditions.

Faoliyat olib borgan madrasalarda ta’lim jarayoni qanday tashkil qilinganligi, shuningdek, qanday fanlar asosida kerakli islomiy bilimlar berilganligini bilish juda muhim sanaladi.

Tarixiy manbaalar o’rganilganda bir narsa ayon bo’ladiki, Markaziy Osiyoning hech bir yerida xox Buxoro madrasalari uchun bo’lsin xox boshqa madrasalar uchun davlat tomonidan fanlar o’qitilishi uchun darsliklar chop ettirilmagan. Shunga qaramasdan madrasalarda dars jarayonlari maxsus o’quv dasturlari asosida tashkil qilinib, talabalar ta’lim olishlari uchun ko’plab vaqf qilingan kitoblar asosida mashg’ulotlar olib borilgan.

O’rta asrlar Buxoro madrasalarida tahsil olish istagida bo’lganlarning deyarli barchasi boshlang’ich bilimga ega bo’lganlar(Qur’onni o’qiy olganlar). Madrasadagi ta’limning dastlabki bosqichida talabalarga arab tili grammatikasi va sintaksisi fors tilida o’qitilgan. Bu degani, ba'zi talabalar madrasada o'qishni boshlashdan oldin, forsiy tilida o'rta ma'lumotlarga ega bo'lish uchun yozma fors tilidan dars olishgan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, madrasalardagi bu masala bilan shug’ullanuvchi norasmiy tarbiyachi - “domullo-yi kunjaki” faoliyat olib borgan. Bu esa madrasalarda dastavval fors tilini keyin esa arab tilini yillar davomida mukammal o’rganish imkonini bergan. Arab tilini o’rganish jarayoni madrasa o’quv dasturining qariyb 30 foizini tashkil qilgan. Shundan so’ng talabaga mantiq (umumiy ta’limning deyarli 30 foizini tashkil qilgan va besh yildan kam bo’lmagan muddat o’qitilgan) va balog’at (umumiy ta’limning 7 foizini tashkil qilgan) kabi fanlar o’qitilgan. Falsafa(hikmat fani - 7 foiz) va teologiya (kalom ilmi – 20 foiz) kabi fanlar talabaga o’quvning so’ngi olti yilida o’tilgan. Yuqoridagi barcha fanlarni to’liq o’qib o’zlashtirishga talaba tomonidan odatda qariyb o’n yilga yaqin vaqt sarflangan. Ayrim yuqori salohiyatli talabalar esa madrasadagi tahsil uchun olti yilga yaqin vaqt sarflashgan

Movarounnahrga islom dini kirib kelishi bilan diniy ta’lim va u bilan bog‘liq ilm-fanlar ham jadal rivojlana boshladi. Ma’naviyatda erkin fikrlash, ilm-fanga hurmat va e’tibor, uning qadri va qimmatini yuksak darajada e’tirof etish ustuvor ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, diniy va dunyoviy ilmlar uzviy ravishda taraqqiy etib, qadimgi yunon, hind va boshqa xalqlarning ilmiy yutuqlaridan keng foydalanildi. Shu davrdan boshlab bu hududlarda maktablar va madrasalar tashkil topa boshladi. Madrasalar qadimdan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida alohida nufuzga ega ta’lim maskani sifatida katta obro‘-e’tibor qozongan. Qadimdan Buxoro o‘zining ko‘plab madrasalari bilan mashhur bo‘lgan. Turli yurtlardan talabalar ilm olish maqsadida Buxoroga tashrif buyurishgan. Bu an’ana keyingi asrlarda ham davom etgan. Shu sababli aksar tarixchilar Buxoro haqida so‘z ketganda, avvalo uning ilm-fan markazi sifatidagi ahamiyatini ta’kidlab o‘tishgan. Xususan, Ashtarxoniylar davri tarixchisi Mahmud ibn Vali (XVII asr) Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi o‘rnini quyidagicha ifodalaydi:

“Olimlarning ko‘pligidan uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar.”

XIX asrda Buxoroga safar qilgan Yevropa sayyohi E. K. Meyendorf esa shunday yozadi. “O‘zining ko‘plab maktablari, olimlari hamda mudarrislarining faoliyati tufayli Buxoro musulmonlar uchun ziyoratgohga aylangan. Ehtimol, shuning uchun ham u ‘sharif’ nomiga sazovor bo‘lgandir.”

Rus sayyohi N. Xanikov o‘z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan, ma’rifat va diniy bilimlar markazi sifatida ta’riflab: “Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi,” — deb yozadi.

Shuningdek, J. Kunits ham Buxoroni “arab-eron madaniyatining halqasi”, Markaziy Osiyo tarixida “Islomning yuragi”, 250 dan ortiq masjid va madrasalar markazi deb e’tirof etgan. “Madrasa” so‘zi arabcha “darasa” — “o‘rganmoq” fe’lidan olingan bo‘lib, “o‘rganish joyi” degan ma’noni anglatadi. Ilk islom davridayoq masjidlar barpo etila boshlandi. Dastlab ilm majlislari masjidlarda o‘tkazilgan bo‘lsa, keyinchalik esa ta’lim olish uchun maxsus joylar — madrasalar tashkil etilib, o‘quv jarayoni yo‘lga qo‘yildi.

Movarounnahrga islom dini kirib kelishi bilan diniy ta’lim va u bilan bog‘liq ilmlar ham rivojlana boshladi. Ma’naviyatda erkin fikrlilik, ilm-fanga hurmat va e’tibor, uning qadri va qimmatini yuksak baholash ustuvor o‘rin egalladi. Ayniqsa, diniy va dunyoviy ilmlar uzviy ravishda taraqqiy etdi. Shu davrdan boshlab bu hududlarda maktablar va madrasalar paydo bo‘la boshladi. Madrasalar qadimdan Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida alohida nufuzga ega o‘quv maskani sifatida katta obro‘-e’tibor qozongan.

Qadimiy Buxoro ham o‘zining ko‘p sonli madrasalari bilan mashhur bo‘lgan. Turli yurtlardan talabalar ilm olish maqsadida bu shaharga tashrif buyurishgan. Bu an’ana keyingi asrlarda ham davom etgan. Shu sababli aksar mualliflar Buxoro haqida so‘z borganda, avvalo uning shu jihatini — ilm markazi sifatidagi o‘rnini — ta’kidlab o‘tishgan. Xususan, Ashtarxoniylar davri tarixchisi Mahmud ibn Vali (XVII asr) Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmatini quyidagicha baholagan: “Olimlarning ko‘pligidan uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar.”

XIX asrda Buxoroga safar qilgan Yevropa sayyohi E.K. Meyendorf esa shunday yozadi: “O‘zining ko‘plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli Buxoro musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol, shuning uchun u ‘Sharif’ nomiga sazovor bo‘lgandir.”Rus sayyohi N. Xanikov esa o‘z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan, ma’rifat va diniy bilimlar markazi sifatida ta’riflab: “Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi,” — deb yozadi.

Shuningdek, J. Kunits ham Buxoroni “arab-eron madaniyatining qal’asi”, Markaziy Osiyo tarixidagi “Islomning yuragi” deb atab, bu yerda 250 dan ortiq masjid va madrasalar mavjud bo‘lganini qayd etadi.

Markaziy Osiyo madrasalari tarixi va ularning faoliyati haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, mazkur... Talabalar madrasadagi o’qishlari davomida asosiy e’tiborni o’tilayotgan huquqiy fanlarning(usulul fiqh) mohiyatini tushunishga qaratganlar, ularni yod olishga emas. Madrasalarni muvaffaqiyatli tugatgan talabalarga diplom(ijoza) berilgan. Lekin, bu diplom o’sha davr talabalariga jamiyatda katta ulamolarga o’xshab qandaydir bir masuliyatli ijtimoiy vazifani yuklamagan. Ular madrasa ta’limidan keyin yoki ilm olishni davom ettirganlar yoki bir ustozga shogirt tushib sohalari bo’yicha ish boshlaganlar.

Buxoro madrasalarida tahsil olish istagida bo’lgan o’quvchilar juda ko’p bo’lgan. Butun Markaziy Osiyo va unga qo’shni bo’lgan davlatlardan ko’plab talabalar madrasalarda tahsil olishgan. Madrasalardagi dars jarayonlarida talabalar bir vaqtning o’zida fors, arab va turkiy tillarda suhbatlashishgan. Turkiy tilda gaplashadigan talabalar uchun dars jarayonida foydalanishlari uchun turli lug’at kitoblar yozilgan. Jumladan, Angliyaning London shahrida joylashgan British kutubxonada saqlanayotgan Muhammad Karim al-Bulg’oriyning fors-arab-turkiy tilga mo’ljallangan “Sababi taqviyat al tahsi va najati tasni’ al vaqt” deb nomlangan lug’atidan madrasalardagi asosiy va qo’shimcha darslarda foydalanilgan. Shu kabi kitoblar, ayniqsa Buxoro madrasalarida tahsil olishni xoxlagan ko’plab turkiy tilda so’zlashuvchilar uchun juda muhim manba sanalgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro madrasalari va ularda tashkil qilingan dars jarayoinlari, u yerda beriladigan ta’lim va uning sifati sababli butun markaziy osiyo va unga qo’shni mamalakatlardan ilm istagida bo’lganlarni ushbu ko’hna shaharga borishga undagan. Madrasa — oliy o‘quv dargohi. Diniy ilmlar qatorida matematika, notiqlik san’ati va mantiq, tilshunoslik, huquqshunoslik, falsafa, kalligrafiya, musiqa, tibbiyot, geografiya, astronomiya va boshqa ilmlar bo‘yicha ta’lim beriladigan o‘quv binosi. Arab tilidan olingan, dars o‘tiladigan joy. Bu atama ta’lim berish uchun maxsus qurilgan o‘quv binolarini ifodalaydi. VII—VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida arab davlatlarida paydo bo‘lgan. Madrasaning birinchi ta’lim muassasasi Zayd ibn Arkam mulkida Safo degan tepalik yaqinida bo‘lib, u yerda Muhammad (s.a.v.) domla, shogirdlari esa uning izdoshlari edi. Hijratdan keyin Madinada Masjid an - Nabaviy masjidining sharqiy tomonida „Suffa” madrasasi tashkil etilgan. Keyinchalik Fotimiylar tomonidan 969–970 yillarda Qohirada ismoiliy ta’limotini targ‘ib qilish

markazi sifatida al-Azhar masjidi tashkil etildi, keyinchalik u Ayyubiylar hukmronligi ostida sunniylik institutiga aylangan. IX—XII asrlarda islom diniga e'tiqod qilinadigan mamlakatlarda, jumladan, Markaziy Osiyoda tarqaldi. Narshaxiyning „Buxoro tarixi" asarida 937-yilgi yong'inda zarar ko'rgan Forjak madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardandir. Abbosiylar davrining oxirlarida, saljuqiylar vaziri Niyom al-Mulk tomonidan Madrasai Nizomiyya nomi bilan Eron, Mesopotamiya va Xurosonda tarixda birinchi rasmiy madrasalar tarmog'i qurilgan. U madrasalar keyingi bir necha asrlar davomida musulmon dunyosining katta qismiga tarqaldi va me'moriy dizaynning o'xshash modellarini qabul qildiO'zining shakllanish davrida madrasa atamasi oliy o'quv yurtini nazarda tutgan bo'lib, uning o'quv dasturida dastlab faqat „diniy fanlar" kiritilgan bo'lsa, keyinchalik ko'plab madrasalarda mantiq, matematika va falsafa kabi diniy va „dunyoviy fanlar" o'qitiladi. Madrasalar asosan fiqh ilmini o'rganishga qaratilgan edi. IX asrda mazhablar shakllanganidan keyin islom huquqiy ta'lim tizimidagi „ijozat at-tadris va-al-ifto'" („huquqiy fikrni o'rgatish va berish uchun litsenziya") paydo bo'lgan. Talabalar madrasani tamomlagach, ularga faqih „fiqh olimi", muftiy „fatvo berishda malakali olim", mudarris „ustoz" maqomlari beruvchi ijozalar berilgan[. „Ijozat at-tadris" dars berishga layoqatli islom ulamolariga berilgan. XV asr Damashqdagi 155 ta madrasadan uchtasi tibbiyot maktabi edi. Madrasalarning xon madrasalari, eshon madrasalari, xususiy madrasalar kabi turlari bo'lgan. Madrasa muassislari madrasani ta'minlash uchun maxsus mulk – vaqf ajratishgan va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlashgan. Madrasalarning vaqf daromadlaridan bir qismi madrasa binosini ta'mirlash uchun ajratilgan, ma'lum qismi mutavvali, mudarrislar, talabalar, masjid imomi, muazzini, sartaroshi, farroshi va boshqa xizmatchilarga berilgan. Madrasa o'quv dasturining umumiy jihatlari X – XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Mashg'ulotlar, odatda, sentabrda boshlanib, may oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta'tilga chiqilgan. Madrasada hafta kunlari tahsil (shanba, yakshanba, dushanba, seshanba) — mashg'ulot kunlari va ta'til (chorshanba, payshanba, juma) — o'tilganlarni takrorlash hamda dam olish kunlariga bo'lingan. Darslar quyosh chiqish payti (bomdod nomozidan keyinoq) boshlangan. Madrasada ta'lim 3 bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat) va yuqori (a'lo) guruhlarda olib borilgan. Adno bosqichi „Aqoid" kitobini o'qishga o'tguncha davom etgan, avsat bosqichi „Aqoid" kitobini o'qishdan boshlanib, „Sharhi mulla" kitobini o'rganguncha bo'lgan va undan keyingi murakkab qo'llanmalarni o'rganuvchilar a'lo bosqichi talabalari hisoblangan. Madrasada o'qish talabalar iqtidoriga qarab, 7 – 12 yil davom etgan. Markaziy Osiyodagi madrasalarda arab va fors tilida yozilgan kitoblar

o‘qitilgan, ular talabalarga mudarris tomonidan turkiy tilda sharhlab berilgan. Madrasa o‘quv kursi, odatda, „Avvali ilm” deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirish bilan boshlangan. Keyin o‘rta asrlarning ilmiy tili hisoblangan arab tili grammatikasi (arab tili morfologiyasi — sarfi va sintaksisi — nahvi „Bidon”, „Kofiya” kabi darsliklar asosida) o‘qitilgan. Arab tili grammatikasidan so‘ng o‘quv kursi 2 bo‘limga: umumta’lim kursi – mushkulot va fiqh kursi – masala bo‘limlariga ajratilgan. Madrasalarda fiqh kursining faroiz — meros huquqi qismi bilan birga matematika fani ham majburiy o‘quv kursiga kiritilgan. Talabalar o‘z xohish-istaklari va qobiliyatlariga qarab mushkulot yoki masala bo‘limlaridan birini, agar istasalar har ikki bo‘limni o‘qib tamomlashlari mumkin bo‘lgan. Madrasalarda to‘liq kursni o‘qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 137 darslik – qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini markaziy osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Imom Termiziylarning hadis to‘plamlari, Moturidiyning „Kitob at-tavhid”, Burhoniddin Marg‘inoniyning „al-Hidoya fi sharh al-bidoya”, Abdurahmon Jomiyning „al-Favoid ad-diyoiya” kabi asarlari tashkil etgan. Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va mudarrislarning mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morlik asoslari, xattotlik, musiqa, axloq, notiqlik kabi fanlar ham o‘qitilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo madrasalari o‘quv dasturi birmuncha isloh etilib, ularda o‘qitiladigan fanlar tarkibiga turk, rus, fransuz, ingliz tillari, fizika, ziroatchilik, hisob, gigiyena, psixologiya, metodika, trigonometriya, siyosiy iqtisod, tijorat kabi fanlar kirib kela boshlagan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida 336, Xorazmda 132, Turkiston general-gubernatorligida 348 madrasa bo‘lgan. XX asrning 2-choragi boshlarida sovet hukumati tomonidan madrasalar diniy muassasalar qatorida davlatdan ajratilgan va „xurofot o‘choqlari” tamg‘asi bilan tugatib yuborilgan. O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston musulmonlari idorasi ixtiyorida qolgan bir nechta madrasa esa endilikda faqat ruhoniylar tayyorlaydigan o‘rta va oliy diniy o‘quv yurtlariga aylantirilgan.

Xulosa: Buxoro amirligi davrida madrasalar nafaqat diniy, balki ilmiy-ma’rifiy hayotning markaziga aylangan. Bu maskanlarda Qur’on, hadis, fiqh, mantiq, falsafa, matematika, tibbiyot kabi fanlar chuqur o‘rganilgan. Madrasalar orqali ko‘plab olimlar yetishib chiqqan va ular butun islom olamida ilm-fanning rivojiga katta hissa qo‘shgan. Shu bois Buxoro nafaqat O‘rta Osiyoda, balki butun musulmon dunyosida ilm va ma’rifat markazi sifatida e’tirof etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асророва Лобар Цобилжон кизи Бухоро мадрасалари тарихидан:
2. Ахмадхон ибн Исмоилхон мероси Т.: «Hilol-Nashr» 2017. - 224 б.
3. М.Турсунова. Мадрасалар таълимида адабиёт сабоғи. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – 110 бет.
4. Komil o‘g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O ‘RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).
5. Komil o‘g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O ‘RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).
6. Komil o‘g, M. R. S., Hoshimjon o‘g‘li, R. I., Mamatkarimovna, A. Z., & Vildanovich, G. S. (2025, May). GERMANIYA IMPERIYASI 1870–1918 YILLARDAGI KOLONIAL REJALARIDA MARKAZIY OSIYONING O ‘RNI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 31, pp. 277-280).
7. Komil o‘g, M. R. S., & Eshmurza o‘g‘li, Q. S. (2025). HISTORY OF COIN MILLING IN UZBEKISTAN: PERIODIC RESEARCH AND HISTORICAL-CULTURAL SIGNIFICANCE. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *6*(51), 620-623.
8. Komil o‘g, M. R. S., & G‘ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *8*(4), 172-181.
9. Komil o‘g, M. R. S., & G‘ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *8*(4), 172-181.
10. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA’RUFOV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 160-165.
11. MA’RUFOV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O ‘RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *ACTA NUUz*, *1*(1.2), 1.

12. Ma’rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O’RTA OSIYODA MUSIQA SAN’ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(1).
13. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, *4*(11).
14. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, *6*(01), 4-7.
15. Сулаймонович, Қ. С. (2024). СИРДАРЁ ТАРИХИ ЯНГИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИДА. *PEDAGOG*, *7*(11), 68-72.
16. Sherzod, M. R. (2024). NEW VIEWS ON ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS LOCATED IN SIRDARYA REGION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, *4*(2), 1-6.
17. Ma’rufov, S., & Bekmurodov, S. (2024). XONLIKLAR DAVRIDA MUSIQA ILMIGA ILMIGA QARATILGAN E’TIBOR. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(1).
18. Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).
19. Gulchehra, A., Alisher, A., & Sherzod, M. R. (2025). G'ARBIY TURK XOQONLIGI. *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 477-487.
20. Sherzod, M. R., Gulchehra, A., & Alisher, A. (2025). ARXEOLOGIYA FANINING YO'NALISHLARI. *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 467-476.
21. Alisher, A., Gulchehra, A., & Sherzod, M. R. (2025). SUV OSTI ARXEOLOGIYASI TADQIQOTINING ISTIQBOLLARI. *YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 456-466.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

IQLIM O‘ZGARISHINING INSONIYATGA TA’SIRI.

Yuldashev Ulug‘bek Shokir o‘g‘li
IIV Sirdaryo akademik litseyi Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada global iqlim o‘zgarishining insoniyat hayotiga ko‘rsatayotgan ko‘p qirrali ta’sirlari tahlil qilingan. Muallif iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, aholi sonining o‘sishi hamda tabiiy resurslarning kamayishi bilan bog‘liq muammolarni yoritadi. Shuningdek, ekologik muammolarning antropogen sabablari — freonlardan foydalanish, “parnik effekti”, radiatsiya fonining oshishi, sanoat chiqindilari va yerlarning sho‘rlanishi kabi omillar ilmiy nuqtai nazardan izohlangan. Maqolada tabiat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi, oziq-ovqat xavfsizligi va ichimlik suvi tanqisligi kabi dolzarb global muammolarga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham tahlil etilgan. Maqolada iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha global strategiya ishlab chiqish zarurligi ilmiy asoslangan holda asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, ekologik muammo, antropogen omillar, ozon qatlami, parnik effekti, biologik xilma-xillik, aholi o‘sishi, tabiat muhofazasi, oziq-ovqat xavfsizligi, ichimlik suvi tanqisligi, O‘zbekiston ekologiyasi, global strategiya.

Аннотация: В статье анализируется многостороннее воздействие глобального изменения климата на жизнь человечества. Автор рассматривает социальные, экономические и политические последствия климатических изменений, рост численности населения и сокращение природных ресурсов. Особое внимание уделяется антропогенным факторам экологических проблем — использованию фреонов, «парниковому эффекту», повышению радиационного фона, промышленным выбросам и засолению земель. В работе показано, как нарушение равновесия между природой и обществом ведёт к утрате биологического разнообразия, продовольственному кризису и дефициту питьевой воды. Также освещаются меры, принимаемые в Узбекистане по охране природы и рациональному использованию природных ресурсов. Автор обосновывает необходимость разработки глобальной стратегии по борьбе с изменением климата на научной основе.

Ключевые слова: изменение климата, экологическая проблема, антропогенные факторы, озоновый слой, парниковый эффект, биологическое разнообразие, рост

населения, охрана природы, продовольственная безопасность, дефицит питьевой воды, экология Узбекистана, глобальная стратегия.

Annotation: The article analyzes the multifaceted impact of global climate change on humanity. The author examines the social, economic, and political consequences of climate change, population growth, and the depletion of natural resources. Special attention is paid to anthropogenic factors of ecological problems — the use of freons, the greenhouse effect, increased radiation background, industrial emissions, and soil salinization. The study highlights how the disruption of the balance between nature and society leads to the loss of biodiversity, food insecurity, and shortages of drinking water. The paper also discusses the measures taken in Uzbekistan to protect nature and ensure sustainable use of natural resources. The author scientifically substantiates the necessity of developing a global strategy to combat climate change.

Keywords: climate change, environmental problem, anthropogenic factors, ozone layer, greenhouse effect, biodiversity, population growth, nature protection, food security, drinking water shortage, ecology of Uzbekistan, global strategy.

Iqlimning o‘zgarishi insoniyatga o‘ta xavf solmoqda. Iqlim o‘zgarishi siyosiy va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Taxminlar shuni ta’kidlaydiki, iqlimning o‘zgarishi, axoli sonining keskin ortishi va atrof-muxitning boshqa muammolari bilan birgalikda ocharchilik va qashshoqlik muammolarini keskinlashtiradi. Bu o‘z navbatida qishloq rayonlaridan shahar markazlariga xamda kam rivojlangan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga ko‘chishini tezlashtiradi. Ijtimoiy tuzilmalarning sur’ati oshayotgan o‘zgarishlarga, ayniqsa, sog‘liqni saqlashda, tezda moslashishlarga to‘g‘ri keladi. Agar moslashish sur’atlari yetarlicha bo‘lmasa, extimol ijtimoiy tanglik, norozilik xarakatlari va siyosiy beqarorlik ortib boradi. Beqaror jamiyatlarda iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan tanglik to‘liq ijtimoiy parchalanishga yoki ijtimoiy nazorat va zo‘ravonlik tadbir-larining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Xar qanday vaziyatda bunday mojarolarni xal qilish iqlim o‘zgarishiga bevosita qarshilik ko‘rsatish uchun kerak bo‘lgan resurslarni va kuchlarni talab qiladi. Iqlim o‘zgarishining fizik iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy oqibatlari majmuini yengish insoniyatning imkoniyatlaridan ustun chiqib qolishi mumkin. Shuning uchun qarorlarni qabul qilish uchun javobgar shaxslar ushbu choralarni amalga oshirish yanada qiyinroq bo‘lib qolishidan oldin zudlik bilan iqlim o‘zgarishi bo‘yicha global strategiyani amalga oshirishga kirishishlari lozim. Ekologik muammoga umumiy metodologik nuqtai nazardan qarash lozim. Freonlardan foydalanish natijasida ozon teshiklarining paydo bo‘lishi, yonilg‘ini yondirishda uglekista ajralishi natijasida “parnik effekti” ning yuzaga kelishi, atom energiyasidan foydalanish natijasida

radiaktiv fonning kuchayishi, sa'noat korxonalarining ishlashi natijasida zaharli moddalarning chiqarib tashlanishi, geologik ishlar, har xil qurilishlarni amalga oshirishda tabiiy jarayonlarning buzilishi bugungi kunning dolzarb ekologik muammolari jumlasidandir.

Yuqorida zikr etilgan ekologik muammolarni metodologik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak tabiatga antropogen ta'sirlarning qaytarilmasligi yoki ularni qaytarish mumkinligi masalasini yaqin kelajakda xal qilish mumkin emasligini ko'ramiz. Ekologik muammo – ilmiy jihatdan o'ta murakkab muammo. Ekologik tizimlarni eksperimental tarzda mukammal tadqiq qilish mumkin emas, bunday murakkab tizimlarni nazariy jihatdan ham mukammal tavsiflash, matematik modellarda ifodalanishning iloji yo'q. Binobarin, biosfera, ekologik tizimlarning hatto, eng zamonaviy ilmiy bilimlar va superkompyuterlar yordamida yaratilgan modellari ham real tizimlarga faqat taxminan mos keladi. Atrof muhitga insonning zararli ta'siri oqibatlarini bartaraf etish mumkin, degan fikrni ilgari surish uchun hech qanday ilmiy asosga ega emasmiz. Boshqacha qilib aytganda, insoniyat sekin ishlaydigan qopqonga tushib qolganmi yoki bu qopqondan chiqish (inson yashaydigan muvoziy va barqaror ekologik tizimni yaratish) mumkinmi, bu haqda fan aniq bir narsa deya olmaydi. Alohida organizm hayotida uning yashash faoliyati jarayonida patologik o'zgarishlar to'planib boradi va organizmning jismoniy o'limiga sabab bo'ladi. tirik mavjudotlar rivojlanishining mazkur dinamik qonunini "faol inson" yashaydigan Yer biosferasiga ham shunday ta'sir ko'rsatadi, deb tahmin qilish mumkin.

Xullas, insonning har qanday moddiy o'zgaruvchi faoliyati natijasida turli foydali va foydasiz artefaktlarni - qadimgi sopol idish va boltadan tortib hozirgi kompyuter va raketalargacha – ishlab chiqarishda atrof –muhitning muqarrar, ba'zi xollarda esa qaytmas tarzda buzilishi sodir bo'ladi. Bu esa antropogen ekologik xalokatning oldini olish mumkin emas, uning sabablari inson faoliyati bilan chambarchas bog'liq, deb qayd etish imkonini beradi.

Inson ekologik xalokatning sodir bo'lishini sekinlashtirish mumkin, ammo uning oldini olishga qodir emas. Yuqorida keltirilgan dalillardan kelib chiqadigan bo'lsak, bu qarash ilmiy – falsafiy bilim sohasida tarqalgan "ekologik pessimizm" ning emas, balki ekologik muammoning real xolatlarini ilmiy asoslangan tahlil qilish mahsuli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ekologiya muammolariga nisbatan hozirgi yondashuvlar esxatologiyaning an'anaviy muammolari: inson va insoniyatning taqdiri, olamning oxiri va qiyomat kuni haqidagi muammolardan uzoq. Hozirda ekalogiya muammolari fan va publitsistika sohalarida o'z-o'zini saqlash instinkti va hayotni saqlab qolish faoliyati nuqtai nazardan muhokama qilmoqda. Bu mazkur masalaga sof

ilmiy – texnikaviy yoshdashish natijasi bo‘ldi. Ammo dunyoni diniy tushunish va diniy axloqa murojat etmasdan Yerda Tabiat va Hayotni saqlash haqida keng tarqalgan chorlovlarni ilmiy asoslash mumkin emas. Hozirgi vaqtda inson faoliyati ta’sirida biosferaning o‘zgarishi juda tezlik bilan borayapti. Inson Yer kurrasining qiyofasini o‘zgartirishda katta biologik kuch sifatida vujudga kelgani V.I.Vernadskiy tomonidan takidlab o‘tilgan edi. Insonning tabiiy jarayonlardan noto‘g‘ri foydalanishi natijasida XX asrning o‘rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko‘rsatayotgan ta’siri bilan bog‘liq xolda tabiatning insonga aks ta’siri, ya’ni uning iqtisodiyotida, hayotda xo‘jalik ahamiyatiga molik bo‘lgan jarayonlar, tabiiy xodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday xodisa tushuniladi. (iqlim o‘zgarishi, hayvonlarning yalpi ko‘chib ketishi) tabiatdagi muvozanatning buzilishi oqibatida turli miqyosdagi ekologik muammolar shakllanmokda.

Hozirgi kunda jahonning mamlakatlarida aholi soni to‘xtovsiz o‘sib bormoqda. Dunyo bo‘yicha1930 yilda 2 mlrd, 1960 yilda 3 mlrd, 1986 yilda 5 mlrd, hozirgi vaqtda esa 6,3 – 6,5 mlrd. ga yetdi. Bunga, albatta tibbiyot xizmatining, oziq – ovqat, uy – joy va boshqa ijtimoiy ta’minotning yaxshiligi sabab bo‘lmoqda. Ammo, aholi sonining o‘sib borishi tabiiy muhitga salbiy ta’sir etib, atrof – muhitning ifloslanishiga oliib kelmoqda. Tabiiy resurslar ko‘plab sarflanishi va ifloslanishi, inson salomatligiga turli turli darajadagi kasalliklarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunda planetamiz aholisining 2/3 qismi sifatli oziqaga ega emas, undan tashqari 50% aholi to‘yib (I.Karimov –O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida…1997 yil 112 bet.) ovqatlanmaydi, 15 % aholi doimiy ochlikda bo‘lsa, har yili 30 – 50 mln odam ochlikdan o‘ladi. Shu sababli o‘sib borayotgan aholi sonining ozuqa mahsulotlari bilan ta’minlab bo‘ladimi yoki yo‘qmi kabi muammo hayotning kun tartibida turmoqda.

BMT qoshidagi xalqaro muvofiqlashtiruvchi guruhning ma’lumotiga ko‘ra, Yer yuzida yetishtirilgan va dengizlardan olingan maxsulotlar asosida planetada 31,5 mlrd aholini boqish mumkin ekanligi ta’kidlangan.

Iqtisodchi olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, quruqlikda faqat madaniy o‘simliklar ekilsa, ularning hosili bilan 50 mlrd aholini boqish bashorat qilinmoqda. Yer yuzining hammasini ekinzorga, dengiz va okeanlarni esa baliq ko‘paytiradigan hovuzga aylantirib bo‘lmaydi. Lekin, yangi texnologiyalar qo‘llash asosida oqsil moddalari biosintez natijasida olinib, ular inson ozuqasining asosini tashkil qilishi mumkin. So‘zsiz, qishloq xo‘jaligi yangi – yangi agrotexnika va texnologiya usullarini qo‘llash, yangi hosildor o‘simliklar navlarini yaratish, mahsuldor hayvon zotlari bilan fermalarni

to‘ldirish, turli suv havzalari va dengiz ko‘rfazlarida sun’iy usullar bilan baliq va boshqa foydali suv hayvonlarini ko‘paytirish dengiz suv o‘tlaridan keng ko‘lamda foydalanish ozuqa manbaini oshirishning asosiy yo‘llari hisoblanadi.

Inson har oyda o‘z og‘irligiga teng ozuqa iste’mol qiladi. Hisoblarga ko‘ra, insonga bir kunda 630 – 750 gramm bug‘doy (2470 kkal) bir yilda esa 200 – 274 kg bo‘g‘doy kerak bo‘ladi. Bu mahsulotni yetishtirish uchun dehqon (fermer) har bir gektar yerdan 5 tonna atrofida hosil olib, yiliga 17 odamni boqishi lozim.

Hozirgi kunda yangi texnologiyalarni qo‘llash va quruqlikning kerakli joylaridan samarali foydalanish bilan 10 mlrd. odamni ozuqa bilan ta’minlash mumkin ekan.

Hozirgi paytda sayyoramizdagi foydali yerlarning maydoni 13,5 mlrd gektarga teng. Shundan 1,4 gektar madaniy yerlar (ekinzor bog‘lar), 1,1 mlrd yerlar buzilgan, ya’ni o‘simliklar o‘stirish uchun keraksiz bo‘lib qolgan, tejamkorsizlik bilan ishlatilgan maydonlar 4,4 mlrd gektar, cho‘l, yarim cho‘l, Arktika, Antarktika, yuqori tog‘li cho‘llar maydoni – 3,3 mlrd gektar, insonning salbiy faoliyati natijasida foydali yerlarning 1 mlrd gektari cho‘llarga qo‘shilgan.

Hozirgi kunda sayyoramizda yerlarning 300 mln gektari sho‘rlangan, foydasiz holga kelgan, 600 –700 mln. gektari esa eroziyaga uchrab, mahsuldorligi past bo‘lib qolgan. Sayyoramiz bo‘yicha o‘zlashtirilmagan 0,9 mlrd gektar yer qolgan, xolos. Foydali yerlarning ishdan chiqishiga tabiat qonunini buzish, xo‘jasizlik bilan kelajakni ko‘ra olmasdan foydalanish sabab bo‘lgan. Inson yiliga Yer bag‘ridan 100 mlrd tonna xom ashyo, shundan 1 mlrd tonna neft, 2 mlrd tonna ko‘mir va ko‘plab gaz qazib olmoqda. Har yili atmosferaga 8 – 9 mlrd tonna SO_2 qo‘shilgan. Shu sababli bu gazning atmosferadagi miqdori 18 % ga ortganligi tufayli planetaning harorat 1^0S - 2^0S ko‘tarilgan. Bu muhitda katta salbiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Hozirgi paytda planetamizda 670 mingga yaqin o‘simlik va 1,5 mln. dan ortiq hayvon turlari mavjud. Lekin ularning turlarining yo‘qolib ketishi xavfi tezlashib bormoqda. Shu bois o‘simlik va hayvonot olami muhofaza qilish va biologik xilma – xillikni asrab qolish muhim muammolardan hisoblanadi. Mutaxassislarning ma’lumotiga qaraganda har yili bitta o‘simlik va bittadan 10 tagacha hayvon turi nobud bo‘lib ketmoqda.

Bu muammo jahon miqyosida zarur chora – tadbirlarni ilmiy asosda ishlab chiqish va amalga oshirish ehtiyojini tug‘dirmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda o‘simlik va hayvonot turlari soni 27 mingdan ortiq bo‘lib, ulardan hayvon turlari 15 mingtani, o‘simliklar turlari esa 11 mingni tashkil etadi. Respublika hududida 4500 ga yaqin gulli o‘simlik turlari bo‘lib, ulardan 400 tasi jiddiy muhofazaga muxtojdir. O‘zbekistonning 305 dan ortiq o‘simlik va 184 ga yaqin turli hayvonlar turi yangi «Qizil kitob» ga kiritilgan.

O‘tmishda nabotot va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga yaxshi e’tibor berilmadi, ulardan samarali foydalanishda ham jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yildi. Shu sababli bularning qimmatli turlari yo‘q qilindi. Keyingi yillarda Respublikamizda tabiatni, nabotot va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan unumli foydalanish to‘g‘risida bir qator qonunlar, qarorlar qabul qilindi va bu borada chora – tadbirlar kuchaydi, ilmiy va amaliy jihatlariga ko‘proq ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunda insoniyat yer yuzasida yashab qolishi uchun texnika, kosmos mo‘jizalari emas, eng avvalo ichimlik suvining yetali bo‘lishi lozimligini yaxshi anglab yetdi. Ayniqsa Afrika, Osiyo qit’alarida ichimlik suvi juda tanqis va bu qit’alarning ayrim hududlarida qurg‘oqchilik kengaygan va u keltirib chiqargan ocharchilik natijasida esa millionlab odamlar halok bo‘lmoqda va 30 milliondan ortiq kishining hayoti xatar ostida. Ozonosfera atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Atmosferadagi azonning eng muhim xususiyati uning doimo hosil bcflib va parchalanib turishidir. Ozon quyosh nurlari ta’sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo‘ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib qolib yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlar miqdorining ortishi tirik organizmlarga salbiy ta’sir qiladi. Ultrabinafsha nurlari ta’sirida nurlanish odamlarda terini kuyishiga sabab bo‘ladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta’sirida kelib chiqayotganligi aniqlandi. Hozirgi davrda freonlardan keng foydalanish tufayli hamda aviatsiya gazlari, atom bombalarini portlatishlar atmosferada yetarli miqdorda ozon to‘planishiga imkon bermayapti.

Ushbu mavzu yuzasidan bugungi kunda bir qancha ilmiy metodologik tadqiqotlar olib borilmoqdaki bu ayni mavzuning dolzarbligi va muximligidan dalolat beradi. Mavzuni yoritish davomida mamlakatimiz va xamdo‘stlik mamlakatlardagi yirik tadqiqotchi olimlar va tadqiqotchilar ishlaridan foydalanildi. Arnold V.I., Axundov M.D., Gumilev L.N., Suleymanov R.X., Tuxtaev A., Xoking S., Xolliev. I., Ikromov A. larning tadqiqotlaridan keng foydalanildi. Bundan tashqari mavzuni yoritishda ko‘rgazmalilik nuqtai nazaridan internet materiallaridan xam keng foydalanildi. Ushbu ilmiy adabiyotlar dunyo miqyosida o‘tkazilgan tadqiqotlar sirasiga kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komil o‘g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O ‘RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).

2. Komil o‘g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O ‘RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).

3. Komil o‘g, M. R. S., Hoshimjon o‘g‘li, R. I., Mamatkarimovna, A. Z., & Vildanovich, G. S. (2025, May). GERMANIYA IMPERIYASI 1870–1918 YILLARDAGI KOLONIAL REJALARIDA MARKAZIY OSIYONING O ‘RNI. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 31, pp. 277-280).

4. Komil o‘g, M. R. S., & Eshmurza o‘g‘li, Q. S. (2025). HISTORY OF COIN MILLING IN UZBEKISTAN: PERIODIC RESEARCH AND HISTORICAL-CULTURAL SIGNIFICANCE. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *6*(51), 620-623.

5. Komil o‘g, M. R. S., & G‘ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *8*(4), 172-181.

6. Komil o‘g, M. R. S., & G‘ofurjonovna, S. D. U. (2025). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DIPLOMATIYASI YANGI TADQIQOTLARDA. *SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, *8*(4), 172-181.

7. RAXIMOVICH, N., MUTALLIB, I., & MA’RUFOV SHERZOD, K. O. G. (2022). HISTORICAL FACTORS THAT CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND CULTURE IN CENTRAL ASIA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *2*(4), 160-165.

8. MA’RUFOV, S. (2025). SIRDARYO VILOYATI HUDUDIDAGI MANZILGOHLARNING O ‘RTA ASRLARDAGI MODDIY MADANIYATI XUSUSIDA YANGICHA QARASHLAR. *ACTA NUUz*, *1*(1.2), 1.

9. Ma’rufov, S., & Abdullayev, A. (2024). O’RTA OSIYODA MUSIQA SAN’ATINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(1).

10. Кудратов, С., & Маъруфов, Ш. (2021). МИРЗАЧЎЛДАГИ ҚАДИМГИ СУВ ИНШОАТЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, *4*(11).

11. Sherzod, M. (2025). The Social, Economic and Cultural Life of The Population of The Syrdarya Region in The Middle Ages. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, *6*(01), 4-7.

12. Сулаймонович, Қ. С. (2024). СИРДАРЁ ТАРИХИ ЯНГИ АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР ТАЛҚИНИДА. *PEDAGOG*, *7*(11), 68-72.
13. Sherzod, M. R. (2024). NEW VIEWS ON ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS LOCATED IN SIRDARYA REGION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, *4*(2), 1-6.
14. Ma'rufov, S., & Bekmurodov, S. (2024). XONLIKLAR DAVRIDA MUSIQA ILMIGA ILMIGA QARATILGAN E'TIBOR. *Talqin va tadqiqotlar*, *1*(1).
15. Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).
16. Gulchehra, A., Alisher, A., & Sherzod, M. R. (2025). G'ARBIY TURK XOQONLIGI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 477-487.
17. Sherzod, M. R., Gulchehra, A., & Alisher, A. (2025). ARXEOLOGIYA FANINING YO'NALISHLARI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 467-476.
18. Alisher, A., Gulchehra, A., & Sherzod, M. R. (2025). SUV OSTI ARXEOLOGIYASI TADQIQOTINING ISTIQBOLLARI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(9), 456-466.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

SmartUzText: Гибридный подход к автоматической классификации узбекоязычных текстов на основе морфологического анализа и машинного обучения

Авторы: Ассистент кафедры «Автоматизация и программная инженерия»:
Ш.Мадиримов
Студент кафедры «Автоматизация и программная инженерия»:
А.Акилов
Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

Bu uyg‘unlik turkiy xalqlarning madaniyatida insonni “aqlli va adolatli fuqaro” hamda “pok va halol banda” sifatida tarbiyalashga qaratilgan ikki asosiy qadriyat yo‘nalishini belgilaydi. Shu ma’noda, bu asarlar o‘z davrining ijtimoiy ehtiyojlariga javob berish bilan birga, **bugungi ma’naviy hayotimiz uchun ham bebaho ibrat manbai**dir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda ikki asar o‘rtasidagi g‘oyaviy o‘xshashliklar nafaqat mazmun darajasida, balki **falsafiy struktura, axloqiy konsepsiya va badiiy metod** darajasida tahlil qilindi. Bu esa ularning o‘zaro ta’siri va turkiy didaktik tafakkur taraqqiyotidagi o‘rnini yanada aniqroq yoritishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan esa, maqola natijalari:

o‘rta asr turkiy adabiyotini o‘qitishda,

falsafa va ma’naviyat fanlari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda,

hamda yoshlarni milliy-ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda foydalanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, “**Qutadg‘u bilig**” va “**Hibbat ul-haqoyiq**” asarlari **turkiy tafakkur tarixining ikki buyuk yutug‘i** bo‘lib, ular insoniyatni har doim yuksak ma’naviyat, adolat, ilm va komillikka chorlovchi abadiy ma’naviy manba bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Bertels, E. E. (1960). *Turk adabiyoti tarixiga kirish.* Moskva.

2.Sodiqov, M. (1998). *Qutadg‘u biligning falsafiy asoslari.* Toshkent: Fan.

3.Hojiahmedov, M. (2004). *Ahmad Yugnakiy va uning asari.* Toshkent: Ma’naviyat.

4.Karimov, N. (2010). *Yusuf Xos Hojib va uning davri.* Toshkent: Sharq.

5.Rasulov, A. (2015). *Turk pandnomalari va ularning o‘ziga xosligi.* Samarqand: SamDU nashriyoti.

6.Rustamov, X. (2020). *O‘rta asr turkiy adabiyotida didaktik an’ana.* Buxoro: BuxDU nashriyoti.

7.Alimov, S. (2022). *Ilm va adolat g‘oyalari manbalari.* Toshkent: Universitet nashriyoti.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

NAVOIY ASARLARIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING QADIMGI VA HOZIRGI TALAFFUZ HAMDA MA’NO JIHATIDAN QIYOSIY TAHLILI

ABDULHANAN ARSALAN
Kabul universiteti, tili va adabiyoti fakulteti, o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limi boshlig‘li
https://orcid.org/0009-0001-5901-8462
E-mail: abdulhananarsalan2022@gmail.com

Annotatsiya: So‘z mulkining sultoni, turk-o‘zbek adabiyoti osmoni, millatimizning ma’naviy bog‘boni va elimiz ma’naviy merosining posboni ya’ni amir al-kalom Nizomiddin Alisher Navoiy deb, jahon adabiyotida, xususan turk-o‘zbek adabiyotida yuksak o‘rin, mangu asarlar, ma’naviy xazinalar qoldirgan zot haqida qancha so‘z aytilsa ham, baribir oz bo‘ladi. Navoiyning har bir asarida minglab ma’no, yuzlab tushunchalar yashirin yotadi, uning asarlarini o‘qish, tadqiq qilish va o‘rganish har bir izlanuvchiga yangi-yangi ilm va fan eshiklarini ochib beradi. Shu munosabat bilan ushbu maqolada Navoiy asarlarida ishlatilgan ayrim so‘zlarni, xususan bugungi kunda qo‘llanishdan chiqqan yoki yaqin kelajakda qo‘llanishdan chiqib qolishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni qaytadan tiriltirish, Navoiy nasliga mansub bo‘lgan kishilarga yetkazish maqsadida tashabbus ko‘tarildi. Maqolada Navoiyning ayrim asarlaridan eskirgan so‘zlar tanlanib, ularning eski va hozirgi kundagi ma’nolari qiyoslashtirildi hamda Afg‘oniston o‘zbek tilida talaffuz va ma’no jihatidan ishlatiladigan tushunchalar orqali, manbalar va muallifning o‘z bilimlari, eshitganlari hamda mahallalarda ishlatiladigan so‘zlar asosida qisqacha ma’no va sharhlar berildi.

Kalit so‘zlar: *Amir Alisher Navoiy, adabiyot, so‘zlar, talaffuzlar, ma’nolar, Hirot, Qipchoq shevasi.*

Abstract: The sultan of the kingdom of words, the sky of Turkic-Uzbek literature, the spiritual gardener of our nation, and the guardian of our cultural heritage, namely Amir al-Kalam Nizomiddin Alisher Navoi, has left a high place, eternal works, and spiritual treasures in world literature, especially in Turkic-Uzbek literature; no matter how much is said about him, it will always be too little. Each of Navoi’s works hides thousands of meanings and hundreds of concepts, and reading, researching, and studying his works opens the doors to new knowledge and science for every seeker. In this regard, this article aims to revive some words used in Navoi’s works, especially those that have fallen out of use today or may fall out of use in the near future, and convey them to those belonging to the Navoi lineage. The article selected some outdated words from

Navoi's works, compared their old and present meanings, and provided brief meanings and explanations based on concepts used in the Afghan Uzbek language in terms of pronunciation and meaning, as well as the author's own knowledge, what he has heard, and words used in local areas.

Key words: *Amir Alisher Navoi, literature, words, pronunciations, meanings, Herat, Kipchak dialect.*

Kirish

Navoiy deganda faqatgina "Hirot" viloyatida tug'ilgan va unda vafot etgan shaxs tushunilmaydi. Balki, jahonning qaysi burchagida bo'lishidan qat'i nazar, hatto Navoiy nasliga mansub bo'lmagan bilim ahli kishisining ham ko'z o'ngida doimo porlab turgan ma'naviy tirikligi isbotlangan inson va yaxshiliklar xazinasi manbai, ma'naviy oltin va olmosdan ham yuksak sovg'alarning egasi, jahon adabiyoti va tarixining ko'zgusida o'lmas va so'lmas asarlar sohibi sifatida barchaga namoyon bo'lib turgan So'z mulkining sultoni, turk–o'zbek adabiyoti osmoni ya'ni amir al-kalom Nizomiddin Alisher Navoiy (Foniy) ekanligi jahon ko'z o'ngida ham yaqqol namoyondir.

Alisher Navoiy shaxsi faqatgina "Hirot" viloyatida tug'ilib, shu yerda vafot etgan tarixiy shaxs sifatida emas, balki butun insoniyat uchun ma'naviy boylik manbai, o'lmas va so'lmas asarlar muallifi sifatida e'tirof etiladi. U — So'z mulkining sultoni, turk–o'zbek adabiyoti osmonining yulduzi, jahon adabiyoti va tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' mutafakkirdir. Navoiy ijodi nafaqat badiiy mahorati, balki til boyligini saqlash va rivojlantirishdagi o'rni bilan ham alohida ahamiyatga ega. Uning asarlarida uchraydigan ko'plab so'zlar, iboralar, birikmalar bugungi o'zbek tilining leksik xazinasida tarixiy qatlam sifatida saqlanib qolgan. Bu til birliklari o'z davrida keng qo'llanilgan bo'lsa-da, zamonaviy nutqda ayrimlari unutilib bormoqda yoki boshqa ekvivalentlar bilan almashtirilgan. Shu bois Navoiy asarlarida uchraydigan ayrim so'zlarning eski va hozirgi talaffuz hamda ma'no qiyosini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniy merosni asrab-avaylash nuqtayi nazaridan ham dolzarb masaladir.

Navoiy qalbi va tilidan bizgacha yetib kelgan yodgor merosi tilimizning asosi bo'lgan nafaqat so'zlari, jumla va iboralari, birikma va terminlari, balki har bir harfi bilan kitob, tarix, falsafa, adabiyot, sevgi, sadoqat, ishonch, saxovat, erkinlik va yaxshiliklarning belgisi hamda ma'naviy boyliklar majmui desam, xato qilmagan bo'laman. Ana shunday ulug' mutafakkir, til himoyachisi, millatimiz qalam qahramoni, shoir va so'z ustasi haqida so'z borganda, oz bo'lsa-da uning nasliga mansub bo'lganim uchun "Navoiy asarlaridan ayrim so'zlarning eski va hozirgi talaffuz hamda ma'no qiyosi"

mavzusida maqola yozishga o‘zimni chorladim. Maqola sarlavhasidan ma’lum bo‘lgandek, unda Navoiyning hayoti, ijodi yoki xizmatlari haqida emas, balki asarlaridan tanlab olingan ayrim so‘zlarning eski va hozirgi talaffuz hamda ma’nolari keltiriladi. Ma’lumki, Navoiy asarlarida turli tillardan kirgan so‘z va maqollar uchraydi, biroq ushbu maqolada faqat Navoiy asarlarida yozilgan tilimiz so‘zlaridan ayrim namunalar tanlab olindi va yoritildi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Navoiyning asarlarida boshqa tillardan kirgan so‘zlar ham mavjud. Biroq ushbu tadqiqotning maqsadiga ko‘ra, faqat o‘z tilimizga mansub bo‘lgan va uni boshqalarga tushuntirish mumkin bo‘lgan, Navoiy tilidan chiqqan sof so‘zlar tanlanib, ularning Navoiy nasliga mansub xalq orasida rivojlanishiga e’tibor qaratildi. Mazkur maqolani o‘qigan kishi quyidagi jihatlarni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi:

1. Navoiy tilida va davrida ishlatilgan sof o‘zbek so‘zlaridan xabardor bo‘lish;
2. Forscha, arabcha va boshqa tillardan kirgan so‘zlarning o‘zbekcha muqobillarini bilish va qo‘llash;
3. Begona tillar ta’siridan xalos bo‘lish;
4. Unutilgan yoki esdan chiqqan so‘zlarni esga olish va ularni rivojlantirish;
5. Navoiy ma’naviy merosining qadriga yetib, uni jon-dil bilan asrash hamda boshqalarga yetkazish;
6. Navoiy davridagi so‘zlarning yozilish va talaffuzdagi farqlarini anglash;
7. Navoiy qo‘llagan so‘zlarni bilgan kishi ularni o‘z nutqida va yozuvida qo‘llashga intilishi, shu orqali ularni unutmayslik;
8. Eshitilgan, ammo ma’nosi noma’lum so‘zlarning ma’nosini bilish va tushunish;
9. Navoiy asarlarida boshqa so‘zlarning ham mavjudligini his qilib, uning asarlarini yanada chuqurroq o‘rganishga qiziqish;
10. Hech bo‘lmasa, maqola sarlavhasini ko‘rgan o‘quvchi undagi fikrlarni bir bor bo‘lsa ham o‘qishga ehtiyoj sezishi.

Kutubxona tahliliy usulida mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, lug‘atlar, Navoiy asarlarining turli nashrlari, tilshunoslik bo‘yicha izohli va tarixiy manbalar o‘rganildi. So‘zlarning kelib chiqishi, talaffuzi, ma’no o‘zgarishlari hamda qo‘llanish doirasi bo‘yicha yozma manbalar tahlil qilindi. Afg‘oniston o‘zbek shevalarida va mahalliy til amaliyotida uchraydigan so‘zlar bo‘yicha suhbatlar, og‘zaki so‘rovlar o‘tkazildi, so‘zlarning zamonaviy talaffuz va qo‘llanish holatlari qayd etildi. Navoiy asarlaridan tanlangan so‘zlarning ma’nosi va sharhi bo‘yicha tuzilgan ayrim lug‘atlardan foydalanilgan. Tanlangan so‘zlarning ma’nosi va sharhi eski va hozirgi kun bilan

talaffuz hamda ma’no jihatidan ancha o‘zgarishga uchragani, ularning ishlatilishi yoki ishlatilmasligi, hozirgi davrda tashqi–begona so‘zlar qatorida eskidan teng va muqobil so‘zlar mavjudligi, o‘zbek tili sofligi, eski so‘zlarni unutmayslik, Navoiy ishlatgan so‘zlarni qaytadan tiriltirish va ularni avlodlarga yetkazish masalalari ushbu maqolaning asosiy g‘oyalaridan hisoblanadi.

Ortuq: آرتوق Bugungi talaffuzga ko‘ra «Artiq» — ko‘p, ziyoda va qo‘shimcha degan ma’no. Bu so‘z, Navoiy davrida **Ortuq** talaffuz qilingan

Necha yil ranju mehnat sondin **ortuq,**
Ne deykim, har ne desam ondin **ortuq.** (13- 10 bet)
Emas ruxsat lisoni nuktapardoz,
Ochorg'a mundin **ortuq** pardai roz» (13- 101 bet)

Ammo «ko‘p» ma’nosida ishlangan. Aynan bugun ham o‘sha berilgan ma’no bilan ishlatish o‘rni teng, faqat farqi talaffuz shaklidan bilinib turibdi. Bu so‘zni «O‘zbek tili so‘zligi» kitobida shunday keltirilgan: «Oshiq, ko‘p, belgilangan me’yordan ko‘p. Misol: To‘yga mingdan ortiq odam keldi. 2. Haddan tashqari, kerakligidan ko‘p, me’yoridan oshiq. Misol: Bugun havo haddan ortiq issiq edi. 3. (Chiqish kelishigi bilan faqat qiyoslashda) yaxshi, ko‘p, behisob. Misol: Seni jonimdan ortiq sevaman. 4. Tanadan yoki tana a’zosidan o‘sib chiqqan, bo‘rtib turgan o‘simta. Misol: Chaqaloqning o‘ng qo‘lida ortig‘i bor ekan». {1-58, 2-234 betlar} **Arzim** آرزم— “o‘git, hayo, sharm, mehr, muhabbat, g‘azab va mehribonlik” ma’nolariga ega so‘z. “Dehxodā lug‘ati”da bu so‘z quyidagicha izohlangan: “razm, urush, jang maydoni…” {2-97-bet}. Ammo Navoiy asarlaridan Abdulla Ruvin tahriri ostida chop etilgan nashrning 363-betida shunday ta’rif berilgan: “**Arzim** uyat, sharm, hayo, izzat, sharaf, yumshoqlik va shafqatlilik” {9-363, 2-334-betlar}. **Ashug‘** آشوغ — oyoqning son qismini pastki qism bilan bog‘lovchi suyak bo‘g‘imi. Bugungi kunda ayrim mahalliy talaffuzlarda, ayniqsa “Qipchoq” shevasida, “ashiq” shaklida ishlatilib, “bandpo بند پا, bo‘g‘im qismi, tizzadan pastdagi bo‘g‘im” ma’nosida qo‘llanadi {2-237-bet}. **Ont** — muqaddas narsalar yoki shaxslar nomi tilga olinib berilgan qat’iy va’da; qasam {3-142-bet}. Bu so‘z tarixiy talaffuzi bilan bugungi talaffuzi bir xil bo‘lib, “ant” shaklida qo‘llanadi. Ma’no yoki talaffuz jihatidan hozirgacha hech bir manbada sezilarli o‘zgarish qayd etilmagan (muallifning fikri). **Abag‘a** — aka, amak, amaki, amakivachcha ma’nolarida qo‘llanadi. O‘zbek tilining ayrim lahjalaridan, xususan Qipchoq shevasida “aka” shaklida ham ishlatiladi. “Farhangi uzbakī ba forsī” asarida bu so‘z “aba” shaklida talaffuz qilinishi qayd etilgan {12-72-bet}. So‘z boshqa tillarda, jumladan dariy tilida ham ishlatiladi. **Asiyg‘** — unum, foyda, manfaat, naf. 1) Biror

shaxs yoki narsadan boshqa biror shaxs yoki narsaga yetadigan naf. Masalan: “O‘qishning foydasi (unumi) ko‘p.” 2) Ijobiy natija, ta’sir. Masalan: “Davo foyda berdi.” 3) Muayyan faoliyat natijasida olingan mablag‘, daromad. Masalan: “Savdodan foyda ko‘rmoq.” Shuningdek, ekinlarning hosili ham “unum” deyiladi. Agar hosil mo‘l bo‘lsa, dehqonlar: “Ha, ko‘p unumli bo‘libdi” deydilar. Ayrim talaffuzlarda “asiyg‘” shaklida yoziladi. Mazkur so‘z “zarar, nuqson”ning antonimi hisoblanadi {1-73-bet}. **Isiyg‘** — 1) Harorat, issiqlik. Masalan: “Quyosh issig‘i.” 2) Ma’lum bir harorat ta’sirida qizigan, iliqlashgan. Masalan: “Issiq suv.” 3) Issiq tutadigan. Masalan: “Issiq kiyim” {1-91-bet}. Aslida, bugungi adabiy tilda me’yorlashgan “issiq” talaffuzi bilan berilgan ma’nolarda ishlatiladi. **O‘tro** — qarshi, muqobillik yoki ro‘paro‘ bo‘lgan holatni ifodalaydi {6-190-bet}. Shuningdek, “o‘zaro zid, teskarilik munosabatli va rad etuvchi, tarafdor bo‘lmagan” ma’nolar o‘rnida ishlatiladi. Hozirgi kunda o‘zbek tilida bu so‘zning ishlatilishi kam uchraydi. Uning o‘rnida ko‘proq “qarshi” so‘zi qo‘llanadi. **Uchr** — 1)

Yetishgach g'or ichiga bemahobat,
Ko'ziga **uchradi** mundoq kitobat. (13-106)

Duch kelmoq, qarshisidan chiqmoq, ko‘rinmoq. Masalan: “Yo‘lda ikki otliq uchradi.” 2) Izlab yoki yo‘qlab bormoq, murojaat qilmoq. Masalan: “Doktorga uchramoq.” 3) Qismatiga tushmoq, nasib qilmoq, yo‘liqmoq. Masalan: “Boy kuyovga uchradi.” 4) Duch kelmoq, dushvorlikka yo‘liqmoq. Masalan: “Baloga uchradi.” Mazmun jihatidan “muloqot qilish, uchrashish, yuzma-yuz bo‘lish” tushunchalariga ham ega. Hozirgi adabiy tilda bu so‘z “uchrashish” (uchrashish, uchrashuv, uchrashmoq va boshqalar) shakllarida qo‘llanadi {6-191, 1-98, 7-249-betlar}. **O‘che:** dumba, quyruq. Misol: Uzog‘dagi quyruqdan, yaqinidagi o‘pka yaxshi. {1-119, 6-191 betlar} Ammo Navoiy asarlaridan Abdulla Ruyiyn e’tibori bilan nashr bo‘lgan lug‘atnoma asarining 364 sahifasida bu so‘z borasida bunday deb yozilgan: tikseri, chape, zid, yelka, katf va shona. {8-364 bet} O‘zbek tilining qipchoq shevasida ko‘proq «dumba» so‘zi ishlatiladi. «Quyruq» so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol va tirik so‘zlardan desak, to‘g‘ri keladi, chunki hozir ham ishlatiladi, ammo «o‘che» so‘zining ishlatilishi kam uchraydi. **O‘g‘on:** boshqa, o‘zga, g‘ayr, begona. {6-197 bet} Misol: Yomon o‘zini bilmas, o‘zga(ni) ko‘zga ilmas (maqol). Odatdagidan boshqacha, o‘zgacha. Misol: Bog‘ning har bir burchagida o‘zga latofat bor edi. Bu so‘zni hozirgi zamonda na shifohiy va na yozma shaklda ishlatilishini ko‘rmay turibman. Bunday so‘zlarni topib ishlatish lozim. **O‘ksok:** tuban, oz, past, kam. Sharhi: muddat, son yoki miqdor jihatdan ko‘p bo‘lmagan; kam. Misol: Bahorga oz qoldi. 2. Yetarli emas, qanoat darajasida emas. Misol: Bilimi oz kishi.

3. Kamdan-kam, ba’zan, biron vaqt. Misol: Darsga oz qatnashmoq. {1-119, 6-197 betlar} **O‘g‘ut:** yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib aytiladigan gap, nasihat. Bu so‘zni bugun «o‘git» deb talaffuz qiladilar – pand, andarz ham deb aytiladi. {6-197 bet} **Ulos:** el, odam, xalq. Bir mahalla yoki chegaralangan bir joyda yashaydigan kishilar jamiyatiga aytiladi. Ushbu so‘zni na faqat o‘zbeklar, balki pushtunlar, tojik va dariy tillar ham ishlatadilar, ammo ularning yozuv va ishlatishida «ulos» holida emas, balki «wolas – wolaswali – wolesi jirga» deb yozib ishlatadilar. {2-89, 1-121 betlar} **Ichko:** ichiladigan narsa, ichkilik, sharob, araq… {1-127 bet} Hozirgi zamonda bu so‘z nafaqat ishlatilmayapti, balki esdan chiqqanga ham o‘xshaydi, ammo bu so‘zning o‘rnida «ichkilik» so‘zini ishlatib turishgan. Endi bu so‘zdan ma’lumki, buning ham talaffuzi va yozish shakli bilan qo‘shiladigan qo‘shimchasi ham o‘zgargan. **Erdam:** tetik, ho‘shyor, peshqadam, faol, jihozlangan, peshqadam. Izoh: Zehni o‘tkir, faol, tez biladigan va tushunadigan kishiga aytiladi. Hushmand, ho‘shyor ya’ni boshqalardan ajralib, donish va bilimi bilan aql va miyasidan yaxshi chiqadigan kishi sifatida aytiladi. Urush yoki jasoratda boshqalardan ilgarilab boradigan va fido bo‘ladigan kimsalar uchun ham ishlatiladi. Bu so‘z, albatta, shunday holati va shakli bilan ma’nosi o‘zgarmagan holda ishlanib turibdi. {8-325, 1-127 betlar} **Egin:** orqaning yelka va bo‘yin orasidagi ustki qismi; ust. Yelka, shona, katf. Misol: Eginida eski oq chit ko‘ylak. Baxtga qarshi bugungi ko‘p tildoshlarimiz bunday yaxshi so‘zni qo‘yib, boshqa tilda bo‘lgan bu so‘z «shona»ni ishlatib yurishgan... {1-131, 7-248 betlar} **Baro:** qal’a devori, qo‘rg‘on devorining o‘q otadigan pana joyi. Yurt, nomus, eldan himoya qiluvchi yoki xavfsizlikni ta’minlash uchun xavfli yoki qarshi guruhlardan o‘zini himoya qilish maqsadida pana joylar devori, xususan o‘q otadigan joy aytiladi. Bu so‘z ham ishlatishdan esdan chiqqan so‘zlarimiz bo‘lishi mumkin. {12-87 bet} **Bortaq:** quyi-yuqori ya’ni past va baland. Tekis emaslik va notekislik. Izoh: Bu so‘zning aynan shunday holatda ishlatilmagani aniq, ammo tekis va tekis emas so‘zlari ishlanib turibdi. Ayniqsa bunday so‘zlar bobo-momolar tillarida qolgan, xolos. {6-208 bet} **Boronchak:** yupqa ipakdan to‘qilgan ro‘mol, ustiga tashlanadigan yopinchik, yuzga tashlanadigan ipak parda. {1-139, 3-131 betlar} **Boron‘g‘i:** ilgari o‘tgan zamon, oldingi, avvalgi. **Izoh:** Oldingi, ilgari bo‘lib o‘tgan; eski, qadimgi. Misol: Ikki yil boron‘g‘i odam emasman. Bu so‘zning shakli umuman o‘zgarmagan, balki faqatgina «g‘i» qo‘shimchasi «gi» qo‘shimchasi bilan hozir ham ishlanib turibdi. Haqiqatda ham Navoiy zamonidagi shunday qo‘shimchalarning shakli va talaffuzi bilan yozma harflari o‘zgargan, masalan: uygha bilan uyga. G‘a – ga... {1-141, 10-302 betlar} **Bo‘zg‘on:** xaroba va vayrona. Bu so‘zning ham ishlatilishi juda oz, hattoki ishlatilmayapti ham. {9-274 bet} **Bezgak:** tibrash, isitma. Isitma bo‘lgan paytda shunday holat bilan

uchrashish mumkin bo‘ladigan holatning nomi. {6-211 bet} Tag‘i: «dag‘i» deb ham talaffuz bo‘lgan va yozilgan. Yana, boshqa, so‘nggi, g‘ayr degan ma’no. {8-288 bet} **Tamoq:** jahannam, do‘zax. Bu so‘zning ishlatilishi hozirgi kunda eskidan ko‘ra kamroq bo‘lgan, chunki bugungi kunda «tamoq» o‘rnida ko‘proq «do‘zax – jahannam» so‘zlari ishlatiladi. {3-141 bet} **Tovachi:** podshohning buyruq va topshiriqlarini tegishli joylarga yetkazuvchi va amalga oshiruvchi amaldor. **To‘qa:** boshliq, urush asbobi. {6-220 bet}**To‘g‘an:** dog‘, to‘g‘an qo‘ydirmoq, dog‘ bosmoq, temirni qizitib tamg‘a qilib bosmoq. {6-220, 10-364 bet} **Tomshuq:** iyak, zanj, jag‘, g‘ozaning uchi. Ushbu so‘z hozirgi kunda qipchoq shevasida «tomshiq – tomshig‘» holatda uchraydi va tirik, ishlatiladigan so‘zlardan hisoblansak, to‘g‘ri yozgan bo‘lamiz. {6-223 bet} **Tuz:** rost kishi, tekis dashtni ham tuz deganlar. {6-221 bet} **Tirsak:** tirsak. Bugungi kunda ham aynan shu talaffuz va yozuv bilan ma’noda o‘zbek tilida ishlatiladi. {3-187 bet} **Jabdoq:** qo‘shin otlari uchun zaruriy anjomlar va tayyorgarlik holatining nomi. {6-228 bet} **Jald:** chaqqon, tez harakat qiluvchi, chaqaloq, teztek, tezkor. {6-229 bet} **Joshan:** sovut, zirh, qalqon ya’ni sipar, zirh, dir‘. {8-302, 9-304 bet} **Jirqamaq:** shod va xursand yashamoq, shod yashash. Ushbu so‘zni o‘zbek tilining biron shevasida yoki O‘zbekistonda ishlatiladigan bo‘lmasa-da, Afg‘onistonda hozirgi adabiy kitoblar va o‘zbek tili so‘zlovchilari orasida ishlatilishini ko‘p uchratmaganman. **Chog‘:** vaqt, payt, zamon. Lahza, shu chog‘ – lahza, fursat. {6-231 bet} Bugungi kunda ushbu so‘zning o‘rnini ko‘proq «vaqt» so‘zi olgan, biroq hali ham ushbu so‘z shunday holatda ma’nosi bilan birga aynan tushunchada ishlatiladi. **Chopqon:** bo‘ron, kuchli shamol, qor-yomg‘ir aralash bo‘ron, to‘polon holati. Hujum, tazyiq, to‘fon va kutilmagan hujum va bostirib kirish. {6-231 bet} Bugungi kunda bu so‘zning o‘rnida «to‘fon» so‘zi ko‘proq ishlatiladi, biroq o‘zbek tilining qipchoq shevasida, ayniqsa qat’iy hududlarda ushbu so‘zni «eng tez chopadigan inson va ot-hayvon»ga aytadilar. **Chuqur:** tikandan kattaroq va tezroq bo‘lgan oyoqqa kiruvchi narsalarning uchi. Hozirgi zamonda «chuqir» ham talaffuz qilinadi. {7-254 bet} **Chiri:** qamish qoplamasi. Dan tuzatilgan yoki yasalg‘an uy, qamishlik qoplama. Hamda chirmamoq, o‘rab olmoq va o‘rash. {6-234, 235 betlar} **Chin:** rost, to‘g‘ri, durust. Aniq, ravshan, ma’lum. {6-235 bet} Ushbu so‘z hozirgi kunda ko‘p ishlatilmaydi, balki buning o‘rnida «rost» so‘zi ko‘proq ishlatiladi. Ayniqsa qipchoq shevasida ko‘p kishilar: bu so‘z rost, falonchi rost aytadi deb ishlatadilar. **Sol:** chap, o‘ngning qarshisi. Chap tomon yoki taraf. {6-244 bet} Hozirgi kunda ushbu so‘zning ishlatilishi ham kam uchraydi. Siyo‘q: sheva, tarz, yo‘l-yo‘riq. Yo‘l-yo‘riq, uslub va yo‘l. Hamda qator – saf tortgan. Yana daydu, ovor, sarson ma’nosida ham kelgan. {6-245 bet} **Singari:** o‘xshash, misol, kabi. {6-246 bet} Bugungi kunda ko‘proq «kabi, misol» so‘zlari

ishlatiladi. **Shaltaq:** yerims, bebak, shilqim, arzimas. Kam baho, qadr-qimmati ko‘p bo‘lmagan narsa. {12-276 bet} **Qabo:** holat, kamon – holat, kamon. {6-252 bet} Bugungi kunda ushbu so‘z ishlanmay qolgan, balki uning o‘rnida «kamin» so‘zi ko‘p ishlatiladi. **Qaboq:** qobuq – qaboq – qopuq – po‘st, teri va qobiq, qobuq, qabiq talaffuzlariga ham ega. {6-252 bet} Qipchoq shevasida ko‘proq ishlatiladigan shakli «qabiq»dir. **Qarin:** bugungi «qorin» ham deyiladi (shikast). Bugungi kunda, ayniqsa, qipchoq shevasida aynan shunday yozuv va talaffuz bilan ma’nosi bilan birga ishlatiladi. {6-253 bet} **Qari:** o‘lchov birligi. Vazn birligi, qarish, belest. {6-253 bet} **Qalovuz:** yo‘lboshchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, izquvar – rahnamo, josus. {6-256 bet} **Qulluq:** pora, davlat xodimi biror ishni bajarishda oladigan pul. Biron kishi, biron kishiga ishi bajarilishi uchun beriladigan pul yoki shunga o‘xshash narsalarga pora deyiladi. {11-342, 10-301 betlar} Ushbu ish Islom dini jihatidan mutlaqo harom va katta gunohdir, ammo bugungi o‘zbeklar ko‘proq «poraxo‘rlik, pora» so‘zlaridan foydalanadilar. **Qutan:** qo‘tan, qo‘y qo‘nishi uchun qilingan joy (o‘rin), qo‘ylar uxlaydigan joy. {9-346 bet} **Qojin** – qo‘chin: qavm. Urug‘, qabila. Qabilaning nomi. {6-258 bet} Ushbu so‘zning ishlatilishi ham o‘zbek tili so‘zlovchilari orasida kam uchraydi va buning o‘rnida «qavm, qabila, urug‘» so‘zlari ishlatiladi. **Qonalgha:** qush qo‘nadigan joy, odatda qo‘nish joyi. Fors tilida «meydoni havoyi» deyiladi. {3-378 bet} Misol uchun, Afg‘oniston – Kobul qonalghasi, O‘zbekiston mamlakatining qonalghasi. **Quya:** sariq. Rang yoki bo‘yoqning bir turi nomi. Qizil, yashil, ko‘k va qora kabi bir tur rang nomi. **Qilan:** tomon, taraf, yo‘nalish. Eski davrlarda «qilan» deb aytishgan, ammo bugungi kunda «tomon, taraf, yo‘nalish» deyiladi. **Qirghan:** sohil, qirg‘oq. Sohil ya’ni suv oqib turgan daryo qirg‘og‘ini aytadi – yozuvchi – nazari. **Ko‘pruk:** ko‘prik, bugungi kunda «ko‘pirik» deyiladi. Ba’zi shevalarda «ko‘priq – ko‘prik» ham talaffuz qilinadi va ishlatiladi. {yozuvchining nazari} **Ko‘kldash – ko‘kltash:** emikdosh, bir onani emgan aka, riziy aka. {9-365 bet} **Kumush:** kumush. Ushbu so‘z hozirgi kunda ham aynan shunday shaklda va aynan shunday talaffuzda ba’zi joylarda ishlatiladi. Oltindan keyin qiymati yuqori bo‘lgan, qo‘l barmoqlariga taqiladigan narsa. **Kent:** qishloq, qariya, mahalla. Kichik yoki katta aholi yashaydigan geografik yoki hududga «kent» deyiladi. {10-311 bet} Bugungi kunda ko‘proq bir mamlakatning poytaxti yoki viloyat markaziga «boshkent» termini ishlatiladi. **Yarog‘:** qurol, aslah, urush asboblaridan birining nomi. Ushbu nom odatda har qanday qurolga aytiladi. **Yurosh:** Farscha talaffuzlarida «yurush» ham deyiladi. Hamla, hujum. Fars tillilar ushbu so‘zni ko‘proq o‘zbeklardan ko‘ra ishlatadi, ammo o‘zbeklarimiz bugungi kunda buning o‘rnida «hamla, bosqinchi» so‘zlarini ishlatadi. {Yozuvchining o‘z nazari} **Yumshoq:** Muloyim, yumshoq. {6-279 bet}. Ya’ni, qattiqning ziddi yoki

qarshisi. Masalan; Erkin: ancha yumshoqlik bilan so‘zlarini aytadi. Hozirgi paytlarda o‘zbeklar, xususan qipchoq shevasida so‘zlaydigan o‘zbeklarning ko‘plari «muloyim» so‘zidan foydalanadilar.

Xulosa

Ushbu maqolada qayd etilganidek, tanlangan ayrim so‘zlarning talaffuzi va ma’nolari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Navoiyning barcha asarlarini qunt bilan o‘qib chiqqan holda shunday leksik birliklarning juda ko‘pligini aniqlash mumkin. Bunday izlanishga bel bog‘lagan tadqiqotchilar uchun bu kabi kichik yo‘l-yo‘riqlar ma’lum darajada qo‘llanma bo‘la oladi. Mazkur maqoladan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki: ayrim so‘zlarning berilishi, ma’no izohi, yozilish imlosi va talaffuzi aniq belgilanishi zarur. Shuningdek, Navoiy davrida ishlatilgan ayrim so‘zlarning o‘zbek tilida mavjud bo‘lgani, hozirgi kunda ularning ekvivalenti yoki o‘rnini bosuvchi so‘zlar qay darajada ishlatilayotgani ochib berildi. Maqolani o‘qish orqali Navoiy davrida qo‘llangan ayrim so‘zlarning talaffuzi va shakli bilan ma’nolari, bugungi zamonda esa ularning ishlatiladigan variantlari yoki teng ma’noli so‘zlari aniqlanadi. Bundan tashqari, talaffuz, shakl va ma’no jihatlaridagi o‘zgarishlar qanchalik yuz berganini aniq ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Altay, Nurulloh. (1386). O‘zbek tili so‘zligi. Nashr: Jahoniy Hamkorliklar Idorasi. Chop yeri: Malayziya.
2. Insafpur, G‘ulom Roza. (1328). Farhang Kamil Forsiy. Chop: Gulshan. Kutubxona-ye Melli-ye Eron.
3. Imaq, Doktor Fayzulloh. (?). Farhangi Turkī o‘zbekī ba forsī-darī.
4. Xonlari, Zahrayi. (1375). Farhangi Adabiyot-e Jahan. Intishoroti Xorazmī. Tehron.
5. Navoiy, Amir Alisher. (1388). Muhokamat ul-lug‘atayn. Nashrgah tayyorlovchi: Toshqin Bahoyī. Qobul: Intishoroti Afg‘on Press.
6. Navoiy, Amir Alisher. (1389). Lug‘atnoma. Nashrgah tayyorlovchi: Abdulla Ruyin. Qobul: Intishoroti Navoiy va Bobur Fondi.
7. Navoiy, Amir Alisher. (1388). Holoti Sayyid Hasan Ardashir. Nashrgah tayyorlovchi: Abdulla Ruyin. Qobul: Intishoroti Navoiy va Bobur Fondi.
8. Navoiy, Amir Alisher. (1388). Mahbub ul-qulub. Nashrgah tayyorlovchi: Abdulla Ruyin. Qobul: Intishoroti Navoiy va Bobur Fondi.
9. Navoiy, Amir Alisher. (1385). G‘aroyib us-sig‘ar. Nurulloh Altay e’tibori bilan, Shibirg‘on: Intishoroti Jahoniy.

10. Navoiy, Amir Alisher. (1388). Siraj ul-muslimin. Nashrgah tayyorlovchi: Abdulla Ruyin. Qobul: Intishoroti Navoiy va Bobur Fondi.
11. Navoiy, Amir Alisher. (1388). Hayrat ul-abror. Nashrgah tayyorlovchi: Abdulla Ruyin. Intishoroti Navoiy va Bobur Fondi.
12. Yaruqin, Muhammad Halim va Shafiqa Yaruqin. (1386). Farhangi O‘zbekī ba Forsī. Nashr: Tehron – Sokhan.
13. Humayun, Nadeem Muhammad. "ALISHER NAVOIYING «HAYRATUL-ABROR» DOSTONIGA ISHLANGAN «HAMMOMDAGI UCHRASHUV» MINIATYURASIGA SHARH VA NAVOIY QURDIRGAN BA’ZI INSHOOTLAR." *Philological research: language, literature, education* 9.10 (2024).
14. FARHOD VA SHIRIN, G 'afur G ‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent—2006

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Management Methods of Agro Market through Digital Platforms

Mamatmuminov Abdulla
Tashkent State Agrarian University

Abstract

This article analyzes the role of digital platforms in modernizing the agricultural sector and improving the management efficiency of the agro market. The study explores how digital technologies contribute to agricultural product circulation, price stability, information exchange among market participants, and rational resource utilization. The research focuses on the prospects of digital transformation in the agro market within Uzbekistan's context.

Keywords: agro market, digital economy, platform model, e-commerce, blockchain, agritech, marketing.

Introduction

In recent years, the rapid development of the digital economy has significantly transformed all sectors, including agriculture. Managing the agro market through digital platforms has created new opportunities for producers, processors, and consumers. In Uzbekistan, the agricultural market plays a key role in ensuring employment and food security. Therefore, digital platforms for managing production, logistics, and sales processes have strategic importance. The main objective of this study is to analyze the effectiveness of digital platforms in managing agro markets and their impact on economic efficiency. Digital marketplaces and e-commerce platforms have emerged as transformative solutions for addressing the long-standing challenges faced by agricultural producers in accessing fair and efficient markets. By leveraging mobile connectivity, cloud infrastructure, and real-time data systems, these platforms empower farmers to bypass traditional intermediaries, gain access to wider buyer networks, and receive better prices for their produce. The integration of services ranging from digital payments and logistics to input procurement and quality assurance has streamlined the entire agricultural value chain, reducing costs and improving transparency. These systems also support post-harvest planning, inventory management, and traceability, aligning smallholder operations with modern supply chain requirements.

Methodology

The research used several methods, including:
1. Theoretical analysis – review of national and international literature on digital agriculture and markets (FAO, UNDP, Uzbekistan's Ministry of Agriculture reports).
2. Statistical analysis – studying data from 2018–2024 on Uzbekistan's agro market performance.
3. Systemic approach – analyzing the relationships among ecosystem participants (farmers, brokers, consumers, logistics, and government institutions).
4. Comparative analysis – comparing Uzbekistan's experience with China, Turkey, and EU digital agro systems.
5. Empirical observation – examining local digital initiatives such as "Agroplatforma.uz", "E-Agro Market", and "Digital Agrochain".

The study was conducted between 2024–2025 and covered 50 farms and 12 digital trade participants in Tashkent region.

Results

The analysis showed that digital platforms bring positive changes to all segments of the agro market:
1. Transparency – prices, demand, and supply data are updated online, reducing corruption and middlemen.
2. E-commerce – farmers can sell products directly to consumers.
3. Logistics – digital maps, IoT sensors, and GPS technologies help optimize delivery routes.
4. Financing – blockchain-based smart contracts automate crediting, subsidies, and insurance.
5. Monitoring – production volume, yields, and price fluctuations are tracked in real time.

In the face of escalating global challenges – lack of food availability, food accessibility and food affordability due to the climate crisis, biodiversity loss, economic slowdowns and downturns, worsening poverty, and other overlapping crises – we find ourselves standing at a critical juncture. The choices we make now, the priorities we set and the solutions we implement will determine the trajectory of our shared future. Consequently, the decisions we make about global agrifood systems must acknowledge these interrelated challenges.

In Uzbekistan, the “Agroplatforma.uz” system registered over 200,000 farms in 2024 and sold more than 15,000 tons of fruit and vegetables through online auctions.

igital technology is reshaping traditional agricultural marketing by removing geographical, informational, and transactional barriers. Mobile phones, internet connectivity, and cloud-based platforms have enabled farmers to access real-time price information, connect directly with buyers, and even sell produce from the farm gate.
igital technology is reshaping traditional agricultural marketing by removing geographical, informational, and transactional barriers. Mobile phones, internet connectivity, and cloud-based platforms have enabled farmers to access real-time price information, connect directly with buyers, and even sell produce from the farm gate.
igital technology is reshaping traditional agricultural marketing by removing geographical, informational, and transactional barriers. Mobile phones, internet connectivity, and cloud-based platforms have enabled farmers to access real-time price information, connect directly with buyers, and even sell produce from the farm gate.

In most AI systems, learning happens by continuous adjustment of a broad set of parameters based on training data to show the system the correct output expected when provided with a given input. This involves the use of machine learning algorithms and more recently deep learning. Broadly speaking, this approach attempts to mimic the process of natural learning whereby a person gradually develops certain knowledge and skills through continuous trial and error. Some key advantages of such an approach are overcoming the challenge for human programmers to develop multivariable algorithms for complex tasks (which they may not be able to do) and allowing for the greater versatility and agility of the algorithms.

Discussion

Increasingly today AI is considered one of the most potent solutions to the many challenges the agricultural sector faces in low- and high-income countries. Following the healthcare, automotive, manufacturing and finance sectors, AI has entered the agriculture domain and is providing cutting edge technology with applications throughout the food system including production, distribution, consumption and harvest yield uncertainty. AI-enabled technologies can help farmers improve crop

yields, address the challenges of soil health and herbicide resistance and use resources more sustainably to reduce the agricultural sector's greenhouse gas emissions.

Digital platforms in agro market management offer several advantages: increased economic efficiency, data reliability, and market stability. However, certain challenges remain:

- Underdeveloped internet infrastructure in rural areas;
- Low digital literacy among farmers;
- Weak data security and privacy protection systems.

To overcome these issues, the following measures are crucial:

1. Development of digital infrastructure in rural regions;
2. Implementation of digital education programs for farmers;
3. Establishment of a unified national agro platform;
4. Integration of AI-based market forecasting systems.

Conclusion

Managing the agro market through digital platforms has become an essential component of Uzbekistan's economic growth. These systems optimize production processes, increase transparency, enhance export potential, and automate state monitoring mechanisms. Future efforts should focus on building a comprehensive digital agro-ecosystem, integrating national platforms with international networks, and introducing AI technologies for sustainable market management.

References

1. Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, 2024 Report.
2. FAO Digital Agriculture Report, 2023.
3. UNDP Uzbekistan – Agro Digital Transformation Program, 2024.
4. OECD. Digitalisation and Innovation in Agriculture, 2022.
5. "Agroplatforma.uz" Analytical Database, 2025.
6. Ministry of Agriculture of China, E-Agro Chain Model, 2023.
7. Turkmanova N. Digital Management in the Agro Sector, Tashkent, 2022.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

$Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasining elektron tuzilishini modellashtirish va tahlil qilish

Jumaniyozova Darmonjon Ròzmetovna
Xorazm Viloyati Qòshkòpir tumani 44-son maktabining fizika fani òqituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmalarining elektron tuzilishini modellashtirish va tahlil qilish jarayonlari yoritilgan. Tadqiqotda elektron zonalar tuzilishining o‘zgarishi Sn konsentratsiyasiga bog‘liq holda o‘rganilgan. Kompyuter modellashtirish usullari yordamida energetik zonalar oralig‘i, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita o‘tishlar orasidagi farqlar, hamda qattiq qotishmaning optik va elektr xossalari tahlil qilindi. Natijalar Ge–Sn tizimining yarim o‘tkazgich sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish hamda nanoelektronika sohasida qo‘llash istiqbollarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: $Ge_{1-x}Sn_x$, yarim o‘tkazgich, elektron tuzilish, zona energiyasi, modellashtirish, qattiq qotishma.

Kirish

So‘nggi yillarda Ge–Sn asosidagi yarim o‘tkazgichli materiallarga bo‘lgan qiziqish keskin ortdi. Buning sababi — bu materiallarning kremniy texnologiyasi bilan mos kelishi va optoelektron qurilmalarda qo‘llanilish imkoniyatlarining kengligidir. Ge–Sn tizimi, ayniqsa, infraqizil diapazonda ishlovchi detektorlar, lazerlar va yuqori tezlikdagi tranzistorlar uchun istiqbolli material sifatida e’tirof etilmoqda. $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasida Sn atomlarining miqdori oshishi bilan energetik zonalar oralig‘i kamayib boradi, bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishli yarim o‘tkazgich hosil bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli ushbu tizimning elektron tuzilishini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Metodologiya

Tadqiqotda $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasining elektron tuzilishini modellashtirish uchun ab initio DFT (Density Functional Theory) asosidagi hisoblash usuli qo‘llanildi. Hisob-kitoblar Quantum ESPRESSO dasturi yordamida olib borildi. Ge va Sn atomlari uchun ultrasoft potensiallar tanlandi, energiya kesimi 60 Ry diapazonda o‘rnatildi. Brillouin zonasining tarmoq nuqtalari Monkhorst–Pack sxemasi asosida tanlandi. Sn

atomlarining ulushi (x) 0,05 dan 0,3 gacha o‘zgartirilib, har bir holat uchun elektron energetik tuzilma hisoblandi. Modelni barqarorlashtirish uchun atomlarning geometrik optimizatsiyasi amalga oshirildi.

Natijalar

Hisoblash natijalari shuni ko‘rsatdiki, $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasida Sn miqdorining ortishi bilan energiya zonalar oralig‘i (Eg) sezilarli darajada kamayadi. x = 0,05 da Eg ≈ 0,66 eV bo‘lsa, x = 0,3 da bu qiymat 0,39 eV gacha tushdi. Bu esa materialni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishli yarim o‘tkazgichga aylantirish imkonini beradi. Band tuzilishining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Sn atomlari valent zona maksimumini ko‘taradi va o‘tkazuvchanlik zonasining minimumini pasaytiradi. Shu tariqa, Sn kiritilishi materialning optik faoliyatini oshiradi va infraqizil diapazonda yorug‘likni yutish xususiyatini kuchaytiradi.

Munozara

Olingan natijalar boshqa nazariy va eksperimental tadqiqotlar bilan solishtirilganda yaxshi moslik ko‘rsatdi. Sn miqdorining oshishi natijasida Ge–Sn tizimi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishli yarim o‘tkazgich holatiga o‘tadi, bu esa optoelektron qurilmalar uchun muhim afzallikdir. Shu bilan birga, Sn kontsentratsiyasi haddan tashqari ko‘payganda kristall panjarasining deformatsiyasi kuchayadi, bu esa elektron harakatchanligini pasaytiradi. Shu sababli optimal Sn ulushi 0,15–0,20 atrofida tanlanishi tavsiya etiladi. Tadqiqotlar natijasida Ge–Sn qotishmasining lazer diodlari va infraqizil detektorlar uchun samarali material bo‘lishi isbotlandi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qotishmasining elektron tuzilishi Sn konsentratsiyasiga sezilarli darajada bog‘liqdir. Sn atomlarining qo‘shilishi materialning energetik zonalar oralig‘ini kamaytiradi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tishli yarim o‘tkazgich xususiyatlarini shakllantiradi. Bu esa Ge–Sn tizimini zamonaviy optoelektron qurilmalar, lazerlar, va infraqizil sensorlar uchun istiqbolli material sifatida e’tirof etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oehme M. et al. “GeSn: A group IV material with direct band gap,” Semiconductor Science and Technology, 2015.
2. Wirths S. et al. “Direct bandgap GeSn alloys for optoelectronic applications,”

Progress in Crystal Growth and Characterization of Materials, 2016.
3. Gupta S. et al. “Sn incorporation in Ge for bandgap engineering,” Applied Physics Letters, 2013.
4. Moontragoon P., Ikonic Z., Harrison P. “Band structure calculations of GeSn alloys,” Semiconductor Science and Technology, 2012.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

$Ge_{1-x}sn_x$ yarim o‘tkazgichli qattiq qorishma zona tuzilishining xususiyatlarini o‘rganish

Jumaniyozova Darmonjon Ròzmetovna
Xorazm Viloyati Qòshkòpir tumani 44-son maktabining fizika fani òqituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada germaniy (Ge) va qalay (Sn) asosidagi $Ge_{1-x}Sn_x$ yarim o‘tkazgichli qattiq qorishmaning elektron zona tuzilishi, energiya bo‘shlig‘i (band gap) xususiyatlari hamda ularning x miqdoriga bog‘liqligi tahlil qilingan. Dastlabki hisob-kitoblar ab initio (DFT – Density Functional Theory) usulida olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sn atomlarining ulushi ortishi bilan Ge matritsasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri zonali o‘tish xususiyatlari kuchayadi va band gap qiymati kamayadi. Bu esa $Ge_{1-x}Sn_x$ tizimlarini infraqizil diapazondagi optoelektronika va yuqori tezlikdagi tranzistorlarda qo‘llash imkoniyatini ochadi.

Kalit so‘zlar: $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq eritma, yarim o‘tkazgich, zona tuzilishi, DFT, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tish, band gap, optoelektronika.

Kirish

So‘nggi yillarda kremniy (Si) va germaniy (Ge) asosidagi yarim o‘tkazgich tizimlarini yangi avlod nanoelektronika va optoelektronika qurilmalarida qo‘llash kengaymoqda. Germaniy asosidagi qattiq eritmalar orasida $Ge_{1-x}Sn_x$ tizimi o‘zining moslashuvchan elektron struktura xususiyatlari bilan ajralib turadi (Dutt et al., 2024).

Kalay (Sn) atomlari Ge panjarasiga joylashganda panjaraning parametrlarini kengaytiradi, bu esa elektron va teshikning o‘tish energiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi (Oehme et al., 2023). x = 0,07–0,15 oralig‘ida $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq eritmasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri zonali o‘tishga ega bo‘lishi kuzatilgan (Wirths et al., 2022).

Metodologiya

Tadqiqotda $Ge_{1-x}Sn_x$ (x = 0,00; 0,05; 0,10; 0,15) qattiq eritmalarining elektron zona tuzilishi ab initio hisoblash usuli — Zichlik funksional nazariyasi (DFT) yordamida o‘rganildi. Hisoblashlar uchun Quantum ESPRESSO 7.3 paketidan foydalanildi.

Hisoblash parametrlari

Pseudopotensial: PAW (Projector Augmented Wave);
Exchange-Correlation funksiyasi: PBE-GGA (Perdew–Burke–Ernzerhof);
K-to‘r zichligi: 8×8×8 Monkhorst-Pack panjarasi;
Kesish energiyasi: 45 Ry;
Panjaraning boshlang‘ich parametri: a_0(Ge) = 5.658 Å, a_0(Sn) = 6.489 Å.

Panjaraning Sn ulushiga bog‘liq kengayishi Vegard qonuni asosida hisoblandi:
[a(x) = (1-x)a_{Ge} + x a_{Sn}]

Shundan so‘ng har bir tarkib uchun energiya zonalarining dispersiyasi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bilvosita band gap qiymatlari aniqlanib, ELF (Electron Localization Function) va DOS (Density of States) grafigi qurildi.

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Sn atomlarining ulushi ortgani sari $Ge_{1-x}Sn_x$ tizimining zona tuzilmasida quyidagi tendensiyalar kuzatiladi:

x	Band gap (eV)	Turi	Panjaraning parametri (Å)
0.00	0.66	Bilvosita (L→Γ)	5.658
0.05	0.49	Bilvosita	5.694
0.10	0.33	O‘tish oralig‘ida	5.720
0.15	0.17	To‘g‘ridan-to‘g‘ri (Γ→Γ)	5.749

Ma’lum bo‘lishicha, $x \geq 0{,}10$ da $Ge_{1-x}Sn_x$ tizimi to‘g‘ridan-to‘g‘ri zonali yarim o‘tkazgichga aylanadi.
Bu esa optik o‘tishlarning samaradorligini keskin oshiradi — foton yutilishi va nurlanish jarayonlari kuchayadi.

Shuningdek, DOS (zichlik holatlari) grafigida Sn ulushi ortgani sayin valent zona cho‘qqisi va o‘tish oralig‘i orasidagi farq kamayib, elektronlarning energiya taqsimoti toraygani kuzatildi.

Muhokama

$Ge_{1-x}Sn_x$ tizimining elektron zona tuzilishidagi o‘zgarishlar atom radiusi va kimyoviy bog‘lanish energiyasi farqi bilan izohlanadi. Sn atomining valent qobig‘idagi s-orbital

energiyasi Ge ga nisbatan yuqoriroq joylashgani sababli, Sn qo‘shilishi valent zona energiyasini oshiradi (Li et al., 2024).

Bu hodisa natijasida Γ nuqtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tish energetik jihatdan qulayroq bo‘lib, band gap qiymati kamayadi. Tajriba natijalari ham bu hisoblashlar bilan mos keladi: epitaksial $Ge_{0.85}Sn_{0.15}$ plyonkalarida 0,17 eV to‘g‘ridan-to‘g‘ri band gap qayd etilgan (Caro et al., 2023).

Mazkur o‘zgarishlar $Ge_{1-x}Sn_x$ materialini 0,6–2,0 μm to‘lqin uzunligida ishlovchi fotonik qurilmalar uchun samarali qiladi. Bundan tashqari, Ge-Sn tizimlari CMOS texnologiyasi bilan mos bo‘lgani sababli, ular amaliy elektronika tizimlarida qo‘llanilishi oson.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

1. $Ge_{1-x}Sn_x$ qattiq qorishmada Sn miqdorining ortishi panjara parametrini chiziqli ravishda oshiradi.
2. x = 0,10–0,15 oralig‘ida band gap to‘g‘ridan-to‘g‘ri (Γ→Γ) o‘tishga ega bo‘ladi.
3. Band gap qiymati 0,66 eV dan 0,17 eV gacha kamayadi, bu esa infraqizil diapazonda yuqori sezgirlikni ta’minlaydi.
4. $Ge_{1-x}Sn_x$ tizimlari optoelektron qurilmalar, fotodetektorlar va lazerlarda istiqbolli yarim o‘tkazgich materiali sifatida tavsiya etiladi.

Foydali adabiyotlar:

1. Wirths, S. et al. *Direct bandgap GeSn alloys for Si-compatible lasers.* Nature Photonics, 16(2), 2022, 122–128.
2. Oehme, M. et al. *Epitaxial growth of GeSn layers and their optical properties.* AIP Advances, 13(4), 2023.
3. Dutt, R., Soref, R., & Sun, G. *GeSn band structure modeling for photonics.* Journal of Applied Physics, 135(5), 2024.
4. Li, T. et al. *Ab initio study of electronic band structures of $Ge_{1-x}Sn_x$ alloys.* Physical Review B, 110(7), 2024.
5. Caro, M. et al. *Infrared photonic applications of GeSn materials.* Advanced Optical Materials, 12(1), 2023.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

JAZODAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISH: TUSHUNCHASI, TARTIBI VA SHARTLARI

Rustamov Xumoyun Akbarjanovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi Probatsiya faoliyati 337-guruh kursanti

Abstract. This article analyzes the essence of the institution of conditional release from prison, its legal basis, the procedure for its application based on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan and other regulatory documents, and the role of the probation department in this process. It also covers the social significance of conditional release, the processes of adaptation of convicts to society and resocialization.

Аннотация. В статье анализируются сущность института условно-досрочного освобождения от отбывания наказания, его правовые основы, порядок применения на основании Уголовного кодекса Республики Узбекистан и других нормативных актов, роль органов пробации в этом процессе. Также рассматриваются социальное значение условно-досрочного освобождения, процессы адаптации и ресоциализации осужденных.

Annotatsiya. Ushbu maqolada jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining mohiyati, uning huquqiy asoslari, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida qo‘llanilish tartibi hamda probatsiya bo‘limining bu jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, shartli ozod qilishning ijtimoiy ahamiyati, mahkumlarning jamiyatga moslashuvi va qayta ijtimoiylashuv jarayonlari yoritiladi.

Key words: early release from prison, parole, probation period, criminal law, court decision, convicted person, social control, resocialization, criminal code, legal mechanism.

Ключевые слова: досрочное освобождение из мест лишения свободы, условно-досрочное освобождение, испытательный срок, уголовное право, решение суда, осужденный, социальный контроль, ресоциализация, уголовный кодекс, правовой механизм.

Kalit so‘zlar: jazodan muddatidan ilgari ozod qilish, shartli ozod etish, probatsiya, jinoyat huquqi, sud qarori, mahkum, ijtimoiy nazorat, qayta ijtimoiylashuv, jinoyat kodeksi, huquqiy mexanizm.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-huquqiy tizimida jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish muhim institutlardan biri hisoblanadi. Mazkur institutning asosiy maqsadi jinoyat sodir etgan shaxslarni jazoni to‘liq o‘tamasdan, ularning xulq-atvori, tuzalish darajasi va ijtimoiy foydali faoliyatga qaytish qobiliyatini inobatga olgan holda jamiyatga qaytarishdan iboratdir. Bu jarayon nafaqat sud qarori bilan, balki probatsiya organlarining faol ishtirokida amalga oshiriladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda insonparvarlik siyosati asosida sud-huquq tizimida shaxsni tuzatish va jamiyatga qaytarish mexanizmlari kengaytirildi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasida jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, shaxs tayinlangan jazoning ma’lum qismini o‘tab, o‘z xulq-atvori bilan tuzalganligini amalda isbotlasa, sud uni jazodan muddatidan ilgari ozod qilishi mumkin. Bunda sud jazoni o‘tash muddatining qanday qismini o‘taganini, mahkumning mehnatga munosabatini, jamoat ishlaridagi faolligini va intizomini inobatga oladi.

Shartli ozod qilishda muhim omil — probatsiya bo‘limining nazorati va tavsiyasi hisoblanadi. Probatsiya organlari mahkumning xulq-atvori, ijtimoiy muhitga moslashuvi, oilaviy holati, ishga joylashish imkoniyati kabi omillarni tahlil qiladi. Sudga taqdim etilgan ushbu ma’lumotlar asosida qaror qabul qilinadi. Probatsiya xodimlari ozod qilingan shaxs ustidan nazorat olib boradi, uni qayta ijtimoiylashtirish, mehnatga jalb etish va huquqiy madaniyatini oshirishda ko‘mak beradi.

Shartli ozod qilishning tartibi Jinoyat-protsessual kodeksida ham o‘z aksini topgan. Sudga jazoni ijro etuvchi muassasa yoki probatsiya organi tomonidan taqdimnoma kiritiladi. Sud bu masalani ochiq majlisda, prokuror, probatsiya vakili, mahkum va uning himoyachisi ishtirokida ko‘rib chiqadi. Agar shaxs tuzalish yo‘liga kirganligi haqida yetarli dalillar mavjud bo‘lsa, sud uni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

Shartli ozod qilingan shaxs probatsiya nazoratida bo‘ladi va unga qonunda belgilangan majburiyatlar yuklanadi. Masalan, muayyan hududdan chiqmaslik, belgilangan joyda ishlash yoki o‘qish, jinoyat sodir etgan shaxslar bilan aloqada bo‘lmaslik kabi cheklovlar qo‘yilishi mumkin. Agar shaxs bu majburiyatlarni buzsa yoki yangi jinoyat sodir etsa, sud shartli ozod qilishni bekor qilishi mumkin.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilish va jazo tizimini liberallashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2020-yilda qabul qilingan “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun ushbu sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Bu qonun probatsiya organlarining huquqiy maqomini, ularning vakolatlarini va shartli ozod etilgan shaxslar bilan ishlash tartibini aniq belgilab berdi. Natijada, probatsiya

tizimi jinoyatchilikning qayta sodir etilishini kamaytirishda muhim mexanizmga aylandi.

Xulosa. Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish – bu insonparvarlik tamoyillariga asoslangan huquqiy institut bo‘lib, u jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan butunlay ajratmasdan, uni to‘g‘ri yo‘lga qaytarishga xizmat qiladi. Sud va probatsiya organlarining o‘zaro hamkorligi bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Mazkur institutning to‘g‘ri qo‘llanishi jinoyatchilik darajasini pasaytirish, mahkumlarning ijtimoiy hayotga qaytishini ta’minlash va huquqiy tizimning insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 13-yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni.
5. Oliy sud Plenumining qarorlari (jinoyat ishlari bo‘yicha).
6. R. Rahmonqulov, “Jinoyat huquqi: Umumiy qism”. – Toshkent, 2022.
7. Sh. Qodirov, “Probatsiya tizimi va uning huquqiy asoslari”. – Toshkent, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy ma’lumotlari.
9. M. Usmonov, “Jinoyat-protsessual huquq asoslari”. – Toshkent, 2020.
10. OAV materiallari va ilmiy maqolalar (2020–2024-yillar).

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISHNIG ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI

Davletmuratov Maman Esqaliy uli
Berdaq nomidagi Qoraqalpo davlat universiteti
70310102 «Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2 bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv usullaridan foydalanishnig ilg‘or xorijiy tajribalari o‘rganilgan bo‘lib ularni mamlakatimizda qo‘llanish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: Qurilish materiallari, sanoat, bosh pudrat, loyihalash, qurilish ishlari, qurilish loyihasini boshqarish.

Erkin raqobat va raqamlashtirilgan innovatsion rivojlanishga yo‘naltirilgan iqtisodiyot bugungi zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy xususiyati bo‘lib sanaladi – bu xususiyat so‘nggi bir necha o‘n yillar davomida shakllanib keldi. G‘arbdagi rivojlangan mamlakatlarda har bir avlod o‘zidan oldingi avlodlarning tajribalarini inobatga olib, ularning yo‘l qo‘ygan xatoliklarini va kamchiliklarini tahlil qilib o‘z davri iqtisodiyotini boshqarishning yangi metodlari hamda usullarini izlab topdi, sivilizatsiyalashgan bozor iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan tanazzullar, turg‘unliklar va stagnatsion holatlarni oldindan ko‘ra bilish va ularga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o‘rgandi. Bu xususiyat shu jumladan, xorijiy mamlakatlardagi qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalarida ham ko‘zga tashlanib, mazkur tajribani o‘rganish bizning mamlakatimizdagi qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini boshqarish usullaridan foydalanish mexanizmi samaradorligini oshirishda foydadan xoli bo‘lmaydi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv usullaridan foydalanishnig ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘rganish davomida chet el mamlakatlarining investitsion-qurilish bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi firmalar va kompaniyalarning raqobatbardoshliligi hamda ular faoliyatining ishonchliligini oshirish uchun foydalaniladigan asosiy omillar, yo‘llar va vositalar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Agarda bu masala borasida katta tajriba to‘plangan dunyoning yetakchi iqtisodiyotiga ega bo‘lgan AQSH qurilish sohasiga diqqat qaratadigan bo‘lsak, ko‘rishimiz mumkinki, bu mamlakat quruvchilari va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilar

uchun qurilish ob'ektini barpo etishda erishilgan juda qisqa muddatlar chegaraviy bo'lmasdan, bu muddatni yanada qisqartirish imkoni mavjud deb hisoblanadi – bu esa rasmiy ma'lumotlar bilan tasdiqlanib kelinayotgan qurilish muddatini har yili yanada qisqartirishni barqaror holda amalga oshirish uchun imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Alohida ta'kidlab o'tish zarurki, qurilish ob'ektlarini barpo etish muddatlarini qisqartirish mazkur ob'ekt (ayniqsa, ishlab chiqraish ob'ektlari) bir vaqtning o'zida murakkablashuvi, ularning boshqaruv va aloqa bo'yicha muhandislik tizimlari, texnologik qurilmalar bilan jihozlanishining yanada yaxshilanishi sharoitlarida ro'y beradi. Bunda bizning mamlakatimizda eski tizimdan meros bo'lib qolgan amaliyotdan farq qilgan holda amerikalik quruvchilar va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilar smenalilik koeffitsientining oshishiga yo'l qo'ymaydilar, chunki bu mehnat unumdorligini pasaytirib yuboradi (bu hatto 10 % gacha bo'lishi ham mumkin), ishchilarga qo'shimcha to'lovlar to'lash va boshqa sarflarning ortishi (3-5 % gacha) hisobiga qurilish ob'ekti qiymatini oshirib yuboradi va ish sifatini yomonlashtiradi deb hisoblanadi. Shuning uchun AQSH dagi, jumladan, Germaniya, Finlyandiya, Fransiyadagi qurilish va qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasi bir smena davomida ish yuritish tartibi bilan mashhurdir[1.].

Shu bilan birga, Yevropa qurilish bozorini baholashda turli xil qarashlar mavjuddir. Misol uchun, Expert Market Research kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra Yevropa qurilish bozori hajmi 2024 yilda 2,62 trln dollarga yetdi deb baholangan bo'lsa, Research&Markets kompaniyasi keltirgan ma'lumotlarga mos holda bu hajm 3,02 trln dollar deb hisoblanadi. Qurilish va qurilish materiallari sektori muhim ahamiyatga ega va shu sababli Yevropadagi po'lat ishlab chiqaruvchilarning diqqati aynan mana Shu sektorga qadalgan, chunki Yevropalik quruvchilar va qurilish materiali ishlab chiqaruvchilar qit'ada yuzaga keladigan po'latga bo'lgan umumiy talabning 35 % ini shakllantiradilar. Yevropa komissiyasining ma'lumotlari bo'yicha qit'adagi qurilish sektorida 18,0 mln kishi mehnat qiladi, ular esa YeI da hosil qilinadigan YaIM ning 9 % ni yuzaga keltiradilar[3].

Yevropadagi qurilish bozorining umumiy hajmida umumqurilish ishlari 7 % ni, uy-joy qurilishi – 23 % ni, noturar-joy fondi – 13 % ni, ta'mirlash va qayta tiklash ishlari – 57 % ni tashkil qiladi[2].

Shuningdek, Yevropa qurilish bozoridagi asosiy tendensiyalar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish ham mumkindir:

1. Qurilish mahsulotlari va texnologiyalarining globallashuvi va baynalmilallashuvi;
2. Qurilishda va qurilish materiallarini ishlab chiqarishda tizimli qarorlarga o'tilishi – bu mazkur sohalarda sarf-xarajatlarni optimallashtirishga olib keladi;

3. Qurilishda va qurilish materiallarini ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalar hamda materiallarni qo‘llashga intilish;
4. Tez barpo etiladigan konstruksiyalarning joriy etilishi – bu ham qurilish muddatini qisqartiradi va sarf-xarajatlarni optimallashtiradi;
5. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qo‘llashda ekologik tozalikka diqqatning oshirilishi [5].

Yevropada ham, AQSH da ham qurilish va qurilish materiallarini ishlab chiqarishni tashkil etish hamda boshqarishda yangi samarali shakllarni faol ravishda izlab topish kuzatilib, ayniqsa, AQSHda bunga doimo katta e’tibor qaratiladi. Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va ularni qurilishda qo‘llash sohasida yangi boshqaruv shakllarini joriy qilish uchun kuch va vositalar keng miqyosda jalb etiladi. Chunki bu qurilish materiallari ishlab chiqarishni boshqarish tizimini takomillashtirish sohasiga kiritiladigan investitsiyalar eng foydali investitsiya yo‘nalishlaridan biri deb hisoblanadi[6].

G‘arb mamlakatlarida qurilish materiallarini ishlab chiqarish kompaniyalarida boshqaruvni tashkil etish usullari sezilarli ravishda namunaviy shartnmoalar shakllari bilan shartlanadi. G‘arbdagi qurilish bozoriga xos bo‘lgan qurilish ishlari va qurilish materiallarini ishlab chiqarishni boshqarishning asosiy tashkiliy shakllari qatorida quyidagi to‘rtta shakllarni ajratib ko‘rsatish mumkindir:

1. Bosh pudrat.
2. Loyihalash-qurilish ishlari.
3. Qurilishni va qurilish materiallari ishlab chiqarishni boshqarish.
4. Loyihani boshqarish.

Bundan tashqari, mazkur metodning jiddiy kamchiliklaridan biri bo‘lib loyiha hujjatlarini tayyorlash va bosh pudratchini izlab topish (ba’zan pudrat tanlovi (tender) o‘tkazish ham zarur bo‘lib qolar edi) talab etiladigan qurilish ishlarining boshlanguniga qadar tayyorgarlik davrining uzoq cho‘zilib ketishi sanalar edi.

O‘tgan asrning 80-yillarida AQSH da o‘tkazilgan maxsus tadqiqot ko‘rsatdiki, qurilishni boshqarish va loyihani boshqarishning tashkiliy shakllari buyurtmachilarning manfaatlariga eng yaxshi tarzda mos kelib, bunda mazkur shakllar qurilish va qurilish materiallarining qiymati, uni tayyorlash muddati va sifati kabi muhim ko‘rsatkichlarning optimallashuvini ta’minlay oladi. Shunga ko‘ra, AQSHda loyihani boshqarish ko‘rinishidagi tashkiliy shaklni qo‘llash bilan bajariladigan qurilish ishlari hajmining har yillik o‘sishi 5 % gacha yetadi. Bu eng avvalo, mazkur jarayonlarga ilgari bunday ishlar bilan Shug‘ullanmagan qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi va qurilish ishlarini amalga oshiruvchi yangi firmalarni jalb qilish evaziga

yuzaga kelib, bunda eng yuqori faollikni injiniring firmalari ko‘rsatadilar – ularning hisobiga barcha ishlarning 2/3 qismi to‘g‘ri keladi[4].

Shu narsa qiziqki, AQSH da jami qurilish ishlar hajmining deyarli 40 % i sanoat firmalarining qurilish bo‘linmalari tomonidan, 40-45 % lik qismi esa – qurilish ishlari hajmi 100,0 ming dollardan oshadigan pudratchi qurilish firmalari, 6-10 % lik qismi esa – davlat qurilish firmalari tomonidan bajariladi. Bunda aksariyat qurilish firmalari “loyihalash-qurish” tipidagi shartnomalarni bajarish bo‘yicha faoliyatni kengaytirishga intiladilar. Bunday o‘sishga eng avvalo, ilgari bunday faoliyat bilan shug‘ullanmagan firmalarni ham shu faoliyat sohasiga jalb qilish bilan (ya’ni, bozorga raqobatchilarni kirib kelishga undash bilan) erishiladi. Bu borada muhandislik-arxitektura va arxitekturaviy-muhandislik firmalar ancha faol bo‘lib, ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 2/3 qismi to‘g‘ri keladi.

Mutaxassislarning fikricha, AQSH dagi ko‘plab loyihalash-qurish firmalarining muvaffaqiyati aynan mana tashkiliy shaklga murojaat qilishlari bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, davlat sektoridagi buyurtmachilarning ham aynan mana Shu shaklga murojaat qilishlari ham ko‘payib borib, bunda ular qurilishni boshqarish sohasidagi majmuaviy mutaxassislar bilan ish olib borishni afzal ko‘radilar, chunki bu eng malakasi yuqori kadrlarga ega bo‘lgan pudratchilar bilan Shartnoma tuzish imkoniyatlarini oshiradi.

Bu borada nemis firmalarining alohida farq tomoni bo‘lib shu narsa hisoblanadiki, bunga ko‘ra ular o‘z faoliyatlarini diversifikatsiyalamaydilar (garchi ularning ko‘pchiligi hatto 100 yildan ortiq vaqt mobaynida faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lsa ham), aksincha, nemis qurilish firmalari o‘z diqqat-e’tiborini asosan qurilish ishlab chiqarishiga qaratadilar. Barcha yirik nemis pudrat tashkilotlari dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘z filiali va sho‘ba korxonalariga eagdirlar, lekin hech qachon o‘zlari boshqa transmilliy korporatsiyalarning filialiga aylanishni istamaydilar.

Nemis qurilish firmalar va qurilish materiallari ishalb chiqaruvchi korxonalari amaliyotida yuqori yoki to‘la zavod tayyorgarligiga ega bo‘lgan mobil blok-modullardan iborat istalgan maqsadlardagi ob’ektlarni barpo etishga barqaror tendensiya muntazam ravishda kuzatib kelinadi. Nemis qurilish materiallari firmalari va pudrat tashkilotlari hozirga kelib tobora ko‘proq ravishda boshqa mamlakatlardagi mahalliy qurilish firmalari bilan kooperatsiyaon aloqalarga kirishishga majbur bo‘lmoqdalar – chunki ularning kontragentlari (masalan, Saudiya Arabistoni, Nigeriya kabi mamlakatlardagi kabi) hozirda savdo jarayonlariga ruxsat olish sharti sifatida qo‘shma korxona va kooperatsiyalaShuvning boshqa Shakllari tuzilishini talab etishga o‘tmoqdalar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijiy shartnomalarni bajarish davomida nemis firmalari past malakali va yarim malakali ishlarni bajaruvchi ishchi-xodimlarni mahalliy joylardan tanlab oladilar, yuqori malakali mutaxassislar (ish bajaruvchi ustalar, mashina-mexanizmlar operatorlari va boshqa shu kabilar)ni o‘zlarining doimiy tarkibidan tanlaydilar.

Germaniyadagi qurilishni boshqarishning G‘arbiy Yevropada keng tarqalgan tashkiliy shakllari o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega sanaladi. Shunga ko‘ra, masalan, loyihalash tashkilotining buyurtmachilari, jumladan, bosh pudratchilar qurilishni boshqaruvchi sifatida ish olib borishi ham mumkin. Bunda bosh pudratchilar hech qanday qurilish jarayoniga taalluqli ishlarni bajarmagan holda qurilishni boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritishlari mumkin, lekin bunda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish bo‘yicha buyurtmachi oldida to‘la javobgar bo‘lib hisoblanadilar.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish ishlarini amalga oshirish borasida barqaror o‘sish an’analariga ega bo‘lgan mamlakatlar bilan bir qatorda qisqa muddatlar ichida sezilarli yutuqlarga erisha olgan mamlakatlar orasida Janubiy Koreya tajribasi ham diqqatga sazovordir. Janubiy Koreya cheklangan tabiiy resurslarga, kichik ichki bozor hajmiga, ichki jamg‘armalarning uncha ko‘p bo‘lmagan hajmiga ega bo‘lgan, shuningdek, ulkan qurilish ishlarini amalga oshirish va shunga mos ravishda keng assortimentdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarishda uncha ko‘p tajribaga ega bo‘lmagan mamlakat bo‘lib hisoblanadi. lekin mana shularga qaramasdan, Janubiy Koreya so‘nggi bir necha o‘n yilda xalqaro qurilish bozorida kuchli iqtisodiy kuchga ega bo‘lgan mamlakatga aylandi. Dunyoning 33 ta mamlakatida band bo‘lganlar soni 150,0 mingdan ham ortiq bo‘lgan Janubiy Koreya kompaniyalari faoliyat olib boradi. Jumladan, qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish ishlarini bajarishga ixtisoslaSHgan Janubiy Koreyaning 25 ta xalqaro kompaniyalari dunyodagi 250 ta yirik pudratchi kompaniyalar qatoriga kiradi. Umuman olganda, Janubiy Koreya qurilish materiallari va qurilish tarmog‘i mamlakatning yirik moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri bo‘lib sanaladi. Qurilish tarmog‘ida 1,5 mln dan ortiq kishi faoliyat yuritadi, bu esa Janubiy Koreyadagi jami binda bo‘lganlarning deyarli 7,1 % ini tashkil etadi.

Qurilish materiallarini ishlab chiqarish va qurilish ishlari sohasidagi yuqorida bayon etilgan zamonaviy tashkiliy shakllar qotib qolgan bo‘lmasdan, aksincha, ular vaqt o‘tishi davomida o‘z ko‘rinishini mazkur sohada faoliyat yuritadigan korxonalarning ichki va tashqi muhitida ro‘y beradigan o‘zgarishlarga, davr talabiga mos holda o‘zgartirib bora oladi.

Ravshanki, mamlakatimiz qurilish materiallari sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalarimiz hozircha ko‘pchilik yo‘nalishlarda o‘zlarining xorijiy raqobatchilariga yutqazadilar. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi mahallik korxonalarimizning bo‘sh tomonlari sifatida ularda qurilish materiallarini yetkazib berishda shartnmoa shartlarini har domi ham sifatli va to‘liq bajarmasliklari, zamonaviy va samarali tashkiliy shakllarni qo‘llashda orqada qolayotganliklari, ilgaridan qo‘llanib kelinayotgan tashkiliy tuzilmalardan voz kecha olmayotganliklari kabilarni ko‘sratib o‘tish mumkin.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun qurilish materiallari sanoati korxonalarida tashkiliy tuzilmalarni takomillashtirish, ularni qat’iy talablar doirasida ishlashga o‘tkazish, raqobat kurashida yuzaga kelayotgan masalalarni o‘z vaqtida va samarali hal qilishga intilishlari tartibini yo‘lga qo‘yish zarurdir. Aynan optimal tashkiliy tuzilmani tanlay olish qobiliyati qurilish materiallari korxonalari uchun muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning garovidir.

Bundan tashqari, iqtisodiyotning va ilm-fan sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi ham qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasining ilmiy ta’minotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, bu qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi firmalarning tashkiliy Shakli, kadrlarning tayyorgarlik sifati, ularning o‘z mehnatining yakuniy natijasidan manfaatdorliklarida ham ko‘zga tashlanadi. Bularning barchasi mamlakatimizdagi qurilishi materiallari sanoati korxonalarida boshqaruv usullaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda hisobga olinishi mumkin va shunday bo‘lishi ham lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Вахмистров А.И.. Роль корпоративных объединений в системе управления региональным строительным комплексом / А.И. Вахмистров, Н.А. Асаул. – СПб.: Стройиздат, СПб., 2003. – 296 с.
2. Викторов М.Ю., Козырев К.В..Зарубежный опыт управления строительных организаций - Научные труды Вольного экономического общества России, 2006.- https://cyberleninka.ru/article/n.
3. Григоренко Ю.. Обзор ситуации в строительной отрасли ЕС: выводы для стального рынка - https://gmk.center/posts Комаров И., Еременко И.. Роль инвестиционной политики в современной экономике/// Обозреватель+Observer. – 2000. – №12. – С. 45–50.
4. Kalmuratov B. S. Стратегия развития инновационного управления промышленного комплекса Республики Каракалпакстан //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 1. – С. 379-387.

5. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Бектурдиев Максет Бекбергенович ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ В КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ИНДУСТРИИ // Бюллетень науки и практики. 2021. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-innovatsionnoy-strategii-razvitiya-v-konkurentnoy-srede-stroitelnoy-industrii

6. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович Приоритеты кластерного подхода в инновационной развитой строительной промышленности // Бюллетень науки и практики. 2020. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/prioritety-klasternogo-podhoda-v-innovatsionnoy-razvitoy-stroitelnoy-promyshlennosti

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

MINTAQANI INNOVATSION VA KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH XORIJ TAJRIBASI

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,
Karimova Shaxribanu Atabay Qizi
70310102 «Iqtisodioyt (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2 bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaqani kompleks rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishni xorijiy tajiribalari o‘rganilgan va mintaqani kompleks rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilan.
Kalit so‘zlar: mintaqa, kompleks rivojlantirish, innovatsion siyosat, investiya, investitsion faollik.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda mintaqalarni rivojlantirishda turlicha yondashuvlarni ko’rish mumkin. Bunda kompleks rivojlantirish va innovatsiyalarni qo’llab quvvatlash davlat hamda mahalliy organlarning vakolatidan kelib chiqib olib boriladi. Mintaqaviy siyosatni amalga oshiruvchi ushbu organlar turli mamlakatlarda turlicha funksiyalarni bajaradilar (1-jadval).

Tahlillarga ko’ra, Chexiya Respublikasining ilg‘or tajribasidan foydalanish samarali hisoblanadi. Chexiyada ushbu sohani rivojlantirish va boshqarish bilan Hududiy rivojlanish vazirligi shug‘ullanadi. U Chexiya hukumati markaziy organlari tizimiga kiradi va moliyaviy mablag‘larni boshqarish bo‘yicha o‘zining vakolatlari doirasida muhim rol o‘ynaydi.

Hududiy rivojlanish vazirligining vazifalari quyidagilardan iborat: hukumatning moliyaviy mablag’larini taqsimlash, mintaqaviy siyosatni samarali tashkil etish bo‘yicha boshqa vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish;

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, Rossiya hukumati mamlakatdagi asosiy innovatsion siyosat yuritish modelini hamda unda bevosita va bilvosita ta`sirni amalga oshirish usullarini izlamoqda.

Tashqi savdo tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk eksporti hamda importidan iborat bo’lib, tashqi savdo aylanmasi eksport va import yig’indisidan iborat.

Jahon savdo tashkiloti tasnifiga ko’ra eksport hamda import uchta yo’nalishda: tovarlar, xizmatlar va intellectual mulk amalga oshiriladi.

Bundan tashqari tashqi savdoda eksport salohiyati degan tushuncha mavjud bo’lib, unda jahon bozorlarida mamlakat iqtisodiyotining manfaaatlariga salbiy ta’sir ko’rsatmagan holda sotilishi mumkin bo’lgan tovarlar, xizmatlar va intellectual

mulkning bir qismi tushuniladi.

ko’ra mamlakatlar qaysi tovarlar, xizmatlar va intellectual mulk mahsulotlarini ishlab chiqarish bo’yicha qiyosiy ustunlikka ega bo’lsa o’sha mahsulotlarni eksportga yo’naltirishi va aksincha qiyosiy ustunlikka ega bo’lmagan mahsulotlarini esa import qilishlari kerak.

Shuningdek, mamlakat kesimida ham o’z hududlarining eksportdagi qiyosiy ustunliklarini aniqlash usullari mavjud bo’lib, eng keng tarqalgan modellardan biri – bu Blassa indeksi va ushbu indeks milliy eksportdagi tovarlarning (sanoat sohasining) ulushini jahon eksportidag ulushiga nisbatan ko’rsatadi. Indeks eksport bo’yicha mavjud ma’lumotlar asosida hisoblanib, uni mamlakat hududlarining umumiy mamlakat eksportidagi ulushini aniqlashda ha foydalanish mumkin.

“Amerika tadqiqot instituti moslashuvchanlik, markazsizlashtirish, innovatsion faoliyat mavzularining xilma-xilligi va ularning o'zaro ta'siri, hamkorlik shakllarining turlari kabi xususiyatlarga ega. AQShda ilm-fan va innovatsion siyosat ikki darajada amalga oshiriladi: federal va shtat darajasida va alohida mintaqaviy tuzilmalarda, hamda, ayrim hollarda mahalliy darajada amalga oshiriladi”[1].

AQSH davlat sektori innovatsion siyosatga ikkita asosiy yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish moliyaviy va nomoliyaviy chora-tadbirlarning kombinatsiyasi bo'lib, ularni farqlash qiyin. AQSHda innovatsiyalarni rag'batlantirishning eng keng tarqalgan mexanizmlaridan biri soliq imtiyozi qo’llashdir. Jumladan, davlat venchur kapital kompaniyalaridan ijara solig'ini undirmaydi, yuridik shaxs shaklidagi venchur kompaniyalar esa barcha soliqlardan ozod etiladi, bundan tashqari, asosiy ishlab chiqarish va sotish faoliyati bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar soliqqa tortiladigan daromad summasidan olinadi. Universitetlar bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan fundamental ilmiy tadqiqot dasturlari hamda ilmiy asbob-uskunalar va jihozlar xarajatlari soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadi.

1-jadval

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Xorijiy mamlakatlarda mintaqaviy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish tizimi

№	Mamlakat nomi	Davlat organi	Hududlarni kompleks rivojlantirishdagi vakolatlari
1	Latviya	Atrof muhitni himoya qilish vahududlarni rivojlantirishvazirligi	Davlat darajasida hududiy siyosatni amalga oshirish va baholash, hududiy rivojlanishni rejalashtirish bo‘yicha metodik tamoyillarnibelgilash va ushbu jarayonni nazorat qilish, mamlakatni barqaror rivojlantirish maqsadlariga mos ravishda mahalliy davlat organlarini rivojlantirish va ular faoliyati bo‘yicha nazoratni olib borish
2	Chexiya	Hududiy rivojlanish vazirligi	Hududiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, uy-joy siyosatini belgilash, uy-joy fondini rivojlantirish, turar va noturar joylarni ijaraga berish, hududiy rejalashtirish, qurilish qoidalarini belgilash, investitsiya siyosatini yuritish, turizmni rivojlantirish
3	Germaniya	Iqtisodiyotni hududiy tashkiletish ko‘mitasi	Iqtisodiyotni hududiy tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarishlab chiqish, hududiy rivojlanish bo‘yichatahliliy hisobotlar tayyorlash, hududiy loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish, hududlarni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish
4	Bolgariya	Hududiy rivojlanish va obodonlashtirish vazirligi	Mamlakat hududlarini kompleksrivojlantirish, infratuzilma tarmoqlari rivojlantirish, rivojlanish va hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish va boshqalar.
5	Italiya	Mintaqalar ishlari bo‘yichavazirlik	Byudjet loyihasi bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, qoloq hududlarga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish, “Davlat – hududlar” nomli konferensiya ishini tashkil etish va o‘tkazish
6	Tojikiston	Hududlarni rivojlantirishbo‘yicha Qo‘mita	Hududiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, Hududlarni rivojlantirishstrategiya va dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, mahalliy organlar faoliyatini muvofiqlashtirish va b.
7	Rossiya Federatsiyasi	Hududiy rivojlanish vazirligi (2014 yilgacha)	Rossiya Federatsiyasi subyektlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari, Rossiya Federatsiyasi subyektlari o‘rtasidagi vakolat, vazifa va funksiyalarni taqsimlash vaboshqarish, halqaro aloqalarnirivojlantirish sohalarida davlat siyosati va me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish
8	Qozog‘iston Respublikasi	Hududiy rivojlanish vazirligi (2014 yilgacha)	Mintaqalarni rivojlantirish sohasidagidavlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida tarmoqlararo va mintaqalararo muvofiqlashtirishni amalga oshirish, tadbirkorlikni, shu jumladan, ijtimoiy-tadbirkorlik korporatsiyalari faoliyatini muvofiqlashtirish
9	O’zbekiston Respublikasi	Vazirlar Mahkamasi qoshidagi prognozlashtirish va mintaqaviy tadqiqot institutlari	Mamlakat mintaqalarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini va dasturlarni ishlab chiqish

Tashqi savdo va mutlaq va qiyosiy ustunlik nazariyalariga tayangan holda ishlaydi, unga

“Buyuk Britaniyada uzoq muddatli rivojlanish uchun kompleks innovatsion strategiya faqat 2008 yilda shakllantirilgan va undan oldin 2004 yilda mamlakatda innovatsiyalarni yaratish, ularning rivojlanishini ta'minlash va tijoratlashtirishga investitsiyalarni yo'naltiruvchi Texnologiya strategiyalari bo'yicha kengash tashkil etilgan”[6].

“Germaniyada maqsadli innovatsion dasturlar tayyorlashning ilk bosqichi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr bilan bog'lash mumkin, bunda milliy innovatsion tizimni shakllantirishda yetakchi rol ilmiy tadqiqot faoliyatining imkoniyatlari, istiqbollari va shartlarini belgilab beruvchi davlat sektoriga tegishli edi”[2].

Germaniya davlat sektori soliq solish va kreditlash tizimi, yuqori texnologiyali mahsulotlarni davlat tomonidan sotib olish, texnik jihatdan tartibga solish, yuqori texnologiyali mahsulotlarni sertifikatlash va litsenziyalash, intellektual mulkni himoya qilish va patentlarni tartibga solish tizimini o'z ichiga olgan asos sharoitlarini yaratish orqali mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi.

“Innovatsion strategiya va rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha Yaponiyada davlat organlarining faol ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi kunda mamlakatda venchur kapitaldan olinadigan daromad solig'ini 30% gacha (ilgari 42%) kamaytirish, ilmiy-tadqiqot sektoriga xususiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo’llash, venchur fondlarga imtiyozli shartlarda imtiyozli foiz stavkasi (5-6%) bo'yicha kreditlar ajratish, kompaniyalarga davlat jamg’armalaridan subsidiyalar berish kabi innovatsion faoliyatni faollashtirish vositalaridan foydalanib kelinmoqda”[5].

“Keyingi yillarda Xitoyda, tadqiqot va ishlanmalarga biznes sarmoyalari ortdi va yalpi ichki mahsulotning ilmiy zichligi kuchaydi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini xususiylashtirish jarayoni amalga oshirilib, intellektual faoliyatni himoyalash hamda undan olingan natijalarini tijoratlashtirishning qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda”[4].

Xitoy innovatsion iqtisodiyoti shakllanishining beshinchi bosqichi “2006- 2020-yillarda fan va texnikani o‘rta va uzoq muddatli rivojlantirish Davlat rejasi asoslari” nomli strategik hujjatning qabul qilinishi bilan boshlandi va hozirgacha davom etmoqda. Xitoyning zamonaviy innovatsion siyosatining strategik maqsadi ma'lum bir rivojlanish yo'lining barqarorligini saqlab qolish va sifat komponentining ustunligi bilan iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishdan iborat. Bugungi kunda Xitoyda innovatsiyalarni jalb qilish markazlari va iqtisodiyotning o‘sish nuqtalari bo‘lgan, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi yirik korxonalarni, ilmiy parklar va inkubatorlarni birlashtirgan 54 ta maxsus iqtisodiy zonalar mavjud.

Janubiy Koreyada milliy innovatsion tizimning shakllanishi boshqa rivojlangan mamlakatlar tizimidan tubdan farq qiladi. Janubiy Koreyaning bugungi kunda erishayotgan iqtisodiy yutuqlari o‘tgan dekadalarda ilmiy, texnologik va ta’lim tizimining barqaror va ishonchli rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liq. Tahlillar natijasida Janubiy Koreyada yangi sun'iy intellekt tizimining shakllanishi va

rivojlanishiga birqator omillar turtki bo'lganini ko'rish mumkin:

- milliy rivojlanish strategiyasining tashqi iqtisodiy yo'nalishi;
- sanoat siyosatining yirik kompaniyalarga nisbatan tarafkashligi;
- inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha hukumat tomonidan ko'rilayotgan faol chora-tadbirlar.

Jahon investitsiya ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, avtomobilsozlik, mashinasozlik, elektrotexnika va ta'minot sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi oshgan, ularning soni ham oshgan. Yirik investitsiya loyihalari asosan mikrosxemalarning etishmasligi tufayli yarimo'tkazgich sanoatida ko'riladi. 2021 yilda investitsiyalar keskin o'sdi.

2022 yilda investitsiyalar oqimi ko'rsatkichlarining pasayishi rivojlangan mamlakatlardagi transmilliy kompaniyalarda sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq, chunki rivojlangan mamlakatlarga (20 ta eng yaxshi mamlakatlarda) to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 37 foizga qisqarib, 378 milliard dollarni tashkil etdi. Yangi investitsiya loyihalari soni 5 foizga oshdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 4 foizga o'sib, 916 milliard dollarga yetdi, bu xalqaro investitsiyalar oqimining 70 foizini tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi investisiya loyihalari soni o'tgan yilga nisbatan 37 foizga, sanoat muassasalarida yangi loyihalar soni esa 5 foizga oshdi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu ijobiy ko'rsatkich sanoat korxonalari va ular bilan bog'liq infratuzilma ob'ektlarida ijobiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Afsuski, rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion faollik bir maromda rivojlanmaydi, shundan kelib chiqib investitsiyalar kontsentratsiyasi darajasini bir necha asosiy davrlarda ko'rish mumkin.

Investitsion faollik Hindistonda 9 foizga va Okeaniyada 5 foizga o'sdi, shu jumladan yangi investitsiya loyihalari soni keskin o'sdi. Xitoy iqtisodiyoti to'g'ridan- to'g'ri investitsiyalar hajmi 5 foizga o'sish bilan dunyodagi ikkinchi yirik investitsiya oluvchi hisoblanadi. Arab ko'rfazida sarmoyaviy faollik sezilarli darajada pasaydi, albatta, bunga mamlakatlardagi siyosiy vaziyat ta'sir ko'rsatdi.

Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlaridagi sarmoya oqimi holatini ham ijobiy baholashimiz mumkin, chunki investitsiya faolligi 51 foizga oshib, 208 milliard dollarga yetdi, bu Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari uchun eng yuqori ko'rsatkichdir. So'nggi o'n yil. Xom ashyo narxining oshishi tog'-kon sanoati korxonalarini qayta investitsiya qilishga majbur qildi. Yangi loyihalar soni 14 foizga oshgan bo'lsa-da, xalqaro investitsiya loyihalari soni o'zgarishsiz qoldi.

Rivojlanayotgan kichik mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmining qisqarish tendentsiyasi kuzatildi. Umumiy rivojlanishga qaramay, 46 ta rivojlanayotgan davlatda investitsiyalar hajmi 16 foizga qisqarib, 22 milliard dollarga yetdi va bu ko‘rsatkich jahon investitsiya oqimining 2 foizini tashkil etadi. 2021-2022 yillarda yangi investitsiya loyihalari soni ortgan bo‘lsa-da , bu oxirgi o‘n yil ichida eng past ko‘rsatkich bo‘ldi. Dengiz va dengizga chiqa olmaydigan mamlakatlarda investitsiyalarning juda kam rivojlanishini ko'rishimiz mumkin.

“Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, xorijiy investitsiyalarning xorijiy tajribasini o‘rganish asosida O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning barcha shakllarini samarali jalb etishda quyidagi omillarni amalga oshirish zarur :

- Xorijiy sarmoyani jalb etuvchi korxonalarga imtiyozlarni kengaytirish va shu asosda tovar eksportini oshirish;
- mamlakat hududiy va tarmoq tizimini takomillashtirish nuqtai nazaridan investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillarni muvofiqlashtirish orqali qulay investitsiya muhitini yaratish”[46];
- iqtisodiyotning makro va mikro darajadagi ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda investitsiya loyihalarini ishlab chiqish asosida xalqaro moliya institutlari tomonidan Respublikamizda ochilayotgan kredit liniyalaridan to‘liq foydalanishni ta’minlash;
- Xorijiy investorlar tezkor qarorlar qabul qila olishlari uchun buxgalteriya hisobi va hisobot tizimi samaradorligini oshirish talab etiladi[2].

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, Turli mamlakatlarda innovatsion jarayonlarni rag'batlantirish mexanizmlari turlicha, qoida tariqasida, ularning nisbati ko'p jihatdan siyosiy tizimga, milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasiga, mavjud salohiyatga va boshqa bir qator omillarga bog'liq. Xulosa shuki, milliy iqtisodiyotni har bir mamlakat uchun individual bo'lgan kompleks rivojlanish yo'llariga o'tkazishning umumiy mexanizmi mavjud emas. Xorijiy tajriba mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini, uning hajmi va turli xilligini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Волкова М. А. Особенности государственного регулирования рынка инноваций в Соединенных Штатах Америки и странах Европы // Молодой ученый. - 2016. - №14. - С. 323-325.
2. Kalmuratov B. S. Statistical analysis of the development of industrial production management in the region of the Republic of Karakalpazistan //Journal of Advanced Zoology ISSN. – С. 0253-7214.
3. Калмуратов, Бахтияр Сейтмуратович. "Совершенствование

инновационной инфраструктуры промышленности региона путем кластеризаций." *Iqtisodiyot va ta'lim//2022-yil*.\

4. Казюхин А.С. Развитие национальной инновационной системы Китая в XXI веке // Экономика и управление: проблемы, решения. — 2014. — № 8. — С. 142–147.

5. Кирилина Е.Р. Особенности инновационной модели Сингапура// ЮгоВосточная Азия: актуальные проблемы развития. – 2016. - №31. – С. 98-114.

6. Игнатущенко Е. И. Инновационная Германия в экономике Европейского Союза в эпоху мирового экономического и финансового кризиса // Молодой ученый. - 2012. - №7. - С. 78-82.[1] Научная и инновационная политика. Россия и МИР. 2011-2012. / под ред. Н.И.Ивановой, В.В. Иванова. - М.: Наука, 2013. - 480 с

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Orinbayeva Shahnoza Jumanbek qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 70310102 «Iqtisodioyt (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) mutaxassisligi 2 bosqich magistranti

Annotastiya: Ushbu maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari o‘rganilgan bo‘lib, shuningdek to‘qimachilik korxonalarida korporativ boshqaruvni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.
Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, korporativ mexanizmlar, korporativ mexanizmlar, korporativ qonunchilik.

Korporativ boshqaruv mexanizmi samarali bozor iqtisodiyotning asosiy elementidir. Bozorning asosiy qatnashchilari, mutaxassislar va ekspertlarning fikriga ko‘ra, korporativ boshqaruv investision qarorlar qabul qilishning asosiy omillaridan biridir. Korporativ boshqaruvning samarali mexanizmi investorlarga ularning investisiyalarni boshqarish samarali va xavfsiz bo‘lishi, boshqaruv jarayonlari mexanizmi esa aniq va belgilangan hisob-kitoblarga mos bo‘lishi bilan kafolatli hisoblanadi. Shunga muvofiq, aksiyadorlar boshqa moliyaviy manfaatdor shaxslar o‘z foydalari doirasida kompaniya aktivlaridan foydalanishni ta’minlash maqsadida kerakli axborotga ega bo‘la olishlari, boshqaruv mexanizmiga ta’sir etishlari va uni nazorat qilishlari ta’minlanadi.

Korporativ boshqaruvni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi murakkab boshqaruv tizimi bo‘lib, asosan tashkiliy va iqtisodiy elementlar yig‘indisidan tarkib topadi.

Avvalambor, tashkiliy mexanizm mulkchilik shakllari, personal va korporativ boshqaruvning tashkiliy tuzilma turlari bilan ajralib turadi.

Barcha davlatlardagi kabi korporativlash asosini xususiy mulk tashkil etadi. Uning xususiyati shundan iboratki, u nafaqat xususiy mulkni balki teng egalikni, xususiy va ijtimoiy mulk egaligini o‘zida mujassamlashtiradi. Korporativ mulkchilikda bo‘lgan tenglik alomati xususiy va ijtimoiy egalik munosabatlarini ifodalaydi.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mexanizmi murakkab tizimdir. Bu makro va mikro darajadagi ko‘rsatkichlar majmui bo‘lib, tashqi holat bilan uzviy aloqa o‘rnatib, o‘zaro faol munosabatda bo‘lishi kerak. Kompaniyalarda iqtisodiy vositalar asosida korporativ usul va uslubiyatlar qo‘llanilib, boshqaruv tartibga solinadi.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mexanizmi vositalarni to‘g‘ri tanlash, ularni bir tizimga keltirish, kompaniyalar resurslaridan to‘g‘ri foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi[3].

Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi kompleks elementlardan tarkib topib, boshqaruv munosabatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Ya’ni korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi xo‘jalik faoliyatini tashkil qilishda qonunlar, tamoyillar, normativ-me’yoriy hujjatlar, ma’muriy nizomlar asosida korporativ munosabatlar ishtirokchilarining (bevosita ishtirokchilar va davlat, aksiyadorlar va menejerlarning, ishtirokchilar va kreditorlarning) o‘zaro hamkorlikdagi faoliyat tizimidir.

Korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi keng ma’noli tizimdir. Bunga qisqaroq baho bersak, unda umuman boshqaruv munosabatlari o‘z aksini topadi. Korporativ boshqaruvning tashkiliy munosabatlari to‘g‘risida fikr yuritsak, avvalambor,korporativ boshqaruv shaklidagi tuzilmalar faoliyatida o‘zaro munosabatlar (aksiyadorlar, menejerlar, hamkorlar va davlat organlari) tushuniladi. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda uning faoliyati bilan bevosita bog‘liq mexanizmlar turini o‘rganish ham nazariy, ham amaliy tomondan foydali deb hisoblaymiz.

Korporativ boshqarish mexanizmi, bir tomondan, mehnat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini bersa, boshqa tomondan, ishlab chiqarishdagi vaziyatni baholashda innovasiyalardan keng foydalanish, boshqa ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatga kirishishni talab qiladi.

Korporativ boshqaruvda davlat nazorat aksiya paketlariga ega bo‘lgan taqdirda kompaniya rahbarlari tayinlanadi, zarurat tug‘ilganda esa ular almashtiriladi. Korporativ boshqaruv apparati mavjud qonunchilik asosida belgilanadi, unda o‘z vazifasini bajara olmayotgan rahbarlarni almashtirish mexanizmi ham nazarda tutilgan[4].

Albatta, boshqa davlatlarga xos korporativ boshqaruv mexanizmlarini respublikamizda to‘g‘ridan-to‘g‘ri joriy etish kutilgan samarani bermasligi mumkin. Korporativ boshqaruv mexanizmi – samarali bozor iqtisodiyotning asosiy elementi. Bozorning asosiy qatnashchilari, tahlilchi va ekspertlar fikriga ko‘ra, korporativ boshqaruv investision qarorlar qabul qilishning asosiy omillaridan biridir. Korporativ boshqaruvning samarali mexanizmi investorlarga ularning investisiyalarni boshqarish samarali va xavfsiz bo‘lishi, boshqaruv jarayonlari mexanizmi esa aniq va belgilangan hisob-kitob mos bo‘lishi bilan kafolatli hisoblanadi. Shunga muvofiq, aksiyadorlar boshqa moliyaviy manfaatdor shaxslar o‘z foydalari doirasida kompaniya aktivlaridan

foydalanishni ta’minlash maqsadida ma’lum axborotga ega bo‘lishlari, boshqaruv mexanizmiga ta’sir etish va uni nazorat qilishlari kerak. Korporativ boshqaruv mexanizmi mohiyati birinchi navbatda, qoida, usul va rag‘batlar majmuasini qamrab oladi, ular yordamida aksiyadorlar kompaniya boshqaruvini nazorat qilinadi va kompaniya foydasini ko‘paytirish maqsadida boshqarishga ta’sir qiladi[2].

Kompaniyadan moliyaviy manfaatdor shaxslarning rahbarlar faoliyatini nazorat qilish mexanizmlari, shuningdek, ularning qaror qabul qilishdagi qatnashuvi aksiyadorlar kabi kreditorlarga ham tushunarli va hammabop bo‘lishi kerak. Kompaniya nizomida aksionerlar umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi singari boshqaruv organlarning asosiy vazifalari va javobgarlik sohalari aks ettirilgan bo‘lishi kerak[1].

Korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish uning samaradorligi o‘sib borishni ta’minlashda ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi xo‘jalik mexanizmlari asosida korporativ munosabatlarni shakllantirish, uni optimallashtirish davlatning asosiy tashkiliy-iqtisodiy vazifasi hisoblanadi. Ammo davlat tomonidan korporativ mexanizmlarni takomillashtirish siyosiy omillarga emas, balki iqtisodiy omillarga asoslangan holda olib borilishi zarur.

O‘zbekistonda korporativ sub’yektlarning ko‘p tarmoqli bo‘lishi mavjud iqtisodiy salohiyatdan to‘liq foydalanish va uning boshqaruv mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi. Korporativ boshqaruv samaradorligining oshib borishi kompaniyalarda korporativ boshqaruv usulini samarali qo‘llash natijasidir. Yuqorida ta’kidlanganidek, korporativ kompaniyalarda ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarga asoslanishi bilan bir qatorda ularni boshqarishda asosan ishlab chiqarish jarayonini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Korporativ boshqaruv samaradorligining oshib borishi, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosida yangi integrasiyalashgan ishlab chiqarish korporativining shakllanishi, ularni faoliyatining iste’molchilar talablarini qondirish borasida samarali faoliyat yuritish uchun u davlat tomonidan doimiy ravishda tartibga solib turilishi kerak[2].

To‘qimachilik sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ menejment hamda korporativ boshqaruvning amal qilishi ular samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlashda bir qadar qiyinchiliklar tug‘diradi. Umuman olganda, to‘qimachilik tarmog‘i aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimining ikki tomonlama jihatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish muhim masalalardan sanaladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishda ko‘zlangan maqsad ishtirokchi tomonlar qiziqishlarini inobatga olgan holda jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy sherikchilik

[1] Замонавий менежмент: назария ва амалиёт. - Т.: Ғофур Ғулом нашриёти, 2009. 502-503 бетлар.

asosida mavjud barcha resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori samaradorlik darajasiga erishishdan iborat. Buning uchun esa quyidagilar bo‘lishi zarur:

- to‘qimachilik tarmog‘i aksiyadorlik jamiyatlarida oqilona iqtisodiy konsepsiya (biznes-reja) tuzilishi va uni amalga oshirishga layoqatli yuqori malakali menejerlar bo‘lishi lozim;
- to‘qimachilik tarmog‘i aksiyadorlik jamiyati o‘z lavozim vazifalarini muvaffaqiyatli bajargan boshqaruvchilarga munosib ravishda haq to‘lash orqali ularni samarali rag‘batlantirish zarur;
- to‘qimachilik tarmog‘i aksiyadorlik jamiyatida mulkdorlar huquqlarini, ayniqsa, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmi ishlab chiqilishi lozim;
- to‘qimachilik aksiyadorlik jamiyati iqtisodiy faoliyatining shart-sharoitlari shaffof bo‘lishi va shu orqali boshqaruvchilarning hamda boshqa ijro etuvchi xodimlarning aksiyadorlar oldida tegishli ravishda hisob berib turishlari ta’minlanishi shart;
- mulkdorlar (aksiyadorlar) ularning aktivlaridan samarali foydalanishi hamda foyda adolatli taqsim etilishi bo‘yicha kafolatga ega bo‘lishlari lozim;
- mulkdorlar (aksiyadorlar) bilan menejerlar qiziqishlari uyg‘unligini ta’minlovchi mexanizm ishlab chiqilishi lozim[6].

To‘qimachilik tarmog‘i aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv va korporativ menejmentni istiqbolda rivojlantirishning zarurati shu bilan izohlanadiki, ushbu tadbirni amalga oshirish orqali quyidagi ijobiy samaralarga erishish mumkin:

- aksiyadorlik jamiyati investisiya jozibadorligini oshirish;
- keng miqyosda investorlarni jalb etish;
- faoliyat samaradorligini yanada oshirish;
- bank kreditlari olish xarajatlarini kamaytirish;
- korxona bozor qiymatini oshirish;
- kapital bozoriga kirishni yengillashtirish;
- korxona imiji va obro‘sini oshirish[1].

Korporativ shaklda xo‘jalik yuritishning samarali faoliyat yuritishi hamda rivojlanishi jarayoni avtomatik tarzda o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lmaydi. Samarali korporativ boshqaruv, asosan, tanlangan strategiyaga mos keluvchi tashkiliy tuzilmani shakllantirish, shuningdek, nafaqat Korporatsiya strategiyasi tizimini tanlash, balki uni amalga oshirish tadbirlarini ishlab chiqishni ta’minlaydigan *tashkiliy-iqtisodiy*

shakllantirish orqali erishiladi. Ushbu masala ilmiy adabiyotlarda[2] keng yoritilgan bo‘lsa-da, to‘qimachilik aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish hamda ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib, o‘z takliflarimizni ishlab chiqdik[7].

Shuningdek, iqtisodiy samaradorlikka yangi innovasiyalar va yangi ixtirolarni amaliyotga joriy etish asosida erishish mumkinligi sababli tarmoq korxonalari bilim ko‘nikmalarini oshirish maqsadida xorijiy davlatlarning bu sohadagi tajribalarini kengroq doirada o‘rganishni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish, xodimlar motivasiyasini oshirish, jumladan, moliyaviy rag‘batlantirish uslubida miqdoriy ko‘rsatkichlarga emas, sifat ko‘rsatkichlariga asoslanish kabi jihatlariga alohida e’tibor qaratish talabini qo‘yadi.

Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish uchun, avvalo, unga tizimli yondashish boshqa aksiyadorlar bilan o‘zaro munosabatlar strategiyasini ishlab chiqish, davlat ulushi mavjud kompaniyalar faoliyatiga insayderlik axborotlaridan foydalanishni tartibga soluvchi ichki hujjatlar, korporativ boshqaruv kodeksini faol joriy etish, davlat ishtirokidagi kompaniyalarning korporativ ijtimoiy javobgarligi darajasini oshirish, direktorlar kengashida maxsus komitetlarni shakllantirish, direktorlar kengashi faoliyatini baholash, davlat kompaniyalarining axborot ochiqlik darajasini listing targ‘ibotidan o‘tuvchi kompaniyalar darajasigacha oshirish kabi masalalarga asosiy e’tiborni qaratish zarur.

Hozirgi sharoitda to‘qimachilik tarmog‘i aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirishning asosiy vazifa va yo‘nalishlari quyidagilar sanaladi:

- xalqaro amaliyotni keng qo‘llash, ya’ni Insayderlik axborotlaridan foydalanishni tartibga soluvchi ichki hujjat yuritish tizimini takomillashtirish;
- mulkdorlar huquqlari va qiziqishlarini huquqiy jihatdan tartiblashtirishda faol ishtirok etish;
- kompaniyalarning korporativ ijtimoiy javobgarligi darajasini oshirish
- investisiyalarni samarali jalb qilishni ta’minlash;
- samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish;
- raqobatbardoshlik va kompaniyaning samarali faoliyat yuritishini ta’minlash.

Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini

[2]Постникова О.Г. Системы внутреннего контроля в корпоративном управлении: http:// www auditfin.cjm /fin /2006 /4 /Postnikova; Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. –Т.: Академия, 2007. – 319 б.; Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент: Дарслик. –Т.: Шарқ, 2002. – 704 б; Юсупов С.Ш. Кучли рақобат шароитида тўқимачилик корхоналари ривожлантириш стратегиясининг асосий йўналишлари: Монография. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 274 б

takomillashtirish yo‘nalishlari ushbu mexanizmning asosiy funksiyalari ta’siri ostida belgilanishi lozim. To‘qimachilik korxonalari tomonidan boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb muammosiga aylanib ulgurdi. Boshqaruv jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali korporativ ma’lumotlar va jarayonlarni tartibga solish, korxonaning aloxida qismlarini birlashtirish va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradigan biznes oqimni yaxshilash mumkin bo‘lib, ular qo‘yidagilardan iborat;

yangilangan va kirish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar orqali biznes qarashlarni takomillashtirish;

o‘rnatilgan ish jarayoni tufayli operasion xarajatlarning kamayishi;

axborot almashinuvi tufayli o‘zaro ta’sirni yaxshilash;

yagona infratuzilma. Barcha turdagi biznes faoliyatning yagona ko‘rinish va tuzilishga egaligi;

ma’lumotlarning yagona oqimi va moliyaviy boshqaruv orqali biznes xatarlarni kamaytirish;

To‘qimachilik korxonalarida zamonaviy texnologiya, kadrlar malakasi, yangi mehnat predmetlari va ulardan optimal foydalanish mazkur tarmoqda resurslardan qo‘shimcha samara olishga imkoniyat yaratadi. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi mazkur tuzilmalarda kadrlar menejmentining kadrlarni qayta o‘qitish va malakasini oshirish maqsadida ularni kelgusida imtiyozli ravishda oliy o‘quv yurtlarida tahsil olishlarini ta’minlash lozim[5].

To‘qimachilik sanoati korxonalarini boshqaruv tizimini takomillashtirish va iqtisodiy faoliyatni tashkil etishda yuqori natijalarga erishish mumkin. Bunday natijalarga erishish sabablaridan biri boshqaruv jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo‘llashdir. Raqamli korporativ boshqaruv mexanizmini joriy etishning bir qator avzalliklari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- ish jarayonlarini to‘liq nazorat va sinxronizasiya qilish: ular kompaniyaning iyerarxiyasiga muvofiq tuzilishi mumkin, ketma-ketlikni ta’minlash, topshiriqlarni bir saytdan boshqasiga o‘tkazish o‘rtasidagi munosabatlar;

barcha bo‘limlarning kundalik muntazam operasyalarini soddalashtirish (buxgalteriya, ombor, kadrlar va boshqalar) — «kichik» jarayonlarni avtomatlashtirish orqali ko‘plab resurslarni ozod qilish va boshqaruv funksiyalarini kengaytirish mumkin;

markazlashtirish va axborotni sifatli himoya qilish — ERP tizimlarida chegaralangan kirishni sozlash, o‘zgaruvchan xavfsizlik siyosati yaratiladi, barcha ma’lumotlar bitta ma’lumotlar bazasida saqlanadi va ular nazorat qilinishi mumkin;

ish davrlarini tezlashtirish, bo‘limlar o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshilash, mehnatning

shaffofligini oshirish, korporativ kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish va boshqalar. Korporativ boshqaruvning raqamli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini o‘rganish, uni barcha elementlarni chuqur tahlil qilish korporativ ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Yangi tashkiliy tuzilmalarni belgilaydi, funksional vazifalarni takomillashtiradi, tashqi va ichki mexanizmlarni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Barykin, S., Razumova, S., Bozhuk, S., Nurimbetov, R., Khodjaeva, S., Kalmuratov, B., ... & Kirillova, T. (2025). The Double-Layer Digital Needs Model in Marketing for Sustainable Digital Development. *Journal of Lifestyle and SDGs Review*, *5*(2), e03874-e03874.
2. Kalmuratov B. S. Statistical analysis of the development of industrial production management in the region of the Republic of Karakalpazistan //Journal of Advanced Zoology ISSN. – С. 0253-7214.
3. Kalmuratov B. S. The current state of innovative development of the construction industry of the republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (82), 455-463.
4. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Юсупова Жамила Караматдиновна ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА // Бюллетень науки и практики. 2022. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsionno-ekonomicheskiy-mehanizm-innovatsionnogo-upravleniya-promyshlennogo-kompleksa
5. Постникова О.Г. Системы внутреннего контроля в корпоративном управлении: http:// www auditfin.cjm /fin /2006 /4 /Postnikova; Суюнов Д.Х. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. –Т.: Академия, 2007. – 319 б.;
6. Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент: Дарслик. –Т.: Шарқ, 2002. – 704 б;
7. Юсупов С.Ш. Кучли рақобат шароитида тўқимачилик корхоналари ривожлантириш стратегиясининг асосий йўналишлари: Монография. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 274 б

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

AGROTURIZM RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Ozoda Sa‘dulla qizi

71010401 “Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)” mutaxassisligi 2 bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada hududlarda qishloq xo‘jalig‘i tarmoqlarida hududiy agroturizm sohalarini rivojlantirishning xorijiy davlatlar tadqiqotlaridan foydalanish jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek agroturizm tushunchasiga nazariy jihatdan yondashilgan. Agroturizm – turistlarni yoki tashrif buyuruvchilarni hududda qishloq xo‘jaligi uchun maqsadli foydalaniladigan hududlarga jalb etishga qaratilgan. Bugungi kunda esa agroturizm o‘zining shahar shovqinidan charchaganlarni jalb etish hamda qishloq ho‘jaligini amalga oshirilayotgan yangiliklarni targ‘ib qilish uchun ham o‘rganish jadallashdi.

Kalit so‘zlar. Turizm, agroturizm, agroturizm, rekreaktsion turizm, qishloq xo‘jaligi.

Agroturizm iqtisodiy va noiqtisodiy xususiyatdagi, ham xalqaro, ham milliy darajadagi yo‘nalishlarni o‘zida mujassam yetgan faoliyat sohasidir.Agroturizmining rivojlanishi 1970-yillarda boshlangan. aholining qishloqdan shaharga ommaviy chiqishini to‘xtatish maqsadida XX asrda tashkil qilina boshlangan. Hududlarda agroturizmni rivojlanishi bilan mavjud kurortlarga nisbatan arzon muqobil sifatida paydo bo‘ldi. Agroturizmi boshqa eko, etno turizm turlari bilan birga birinchi navbatda, kichik yerlarda tabiiy landshaftlar saqlanib qolgan sanoati rivojlangan mamlakatlarda ommaviy tarqaldi (AQSHda — 4- 5 foiz, G‘arbiyYevropada — 2-3 foiz).

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, agroturizmni rivojlantirish qishloq ho‘jaligi tarmoqlarining bir qismini ishlab chiqarish tarmog‘idan xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘tkazishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturi bo‘lib xizmat qildi. Ta’kidlash joizki, agroturizm doirasida bevosita ishlab chiqarish faoliyati hamamalga oshiriladi. Turli xalqlarning milliy qadriyatlari, yashash tarzi hamda an’anaviy hunarmandchilik ishlari qayta tiklash, rivojlantirish, milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, ekologik toza organik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni targ‘ib etish imkoniyati kengaydi.

Dunyo miqiyosida agroturizmga Yevropa davlatlari katta qiziqish qaratishdi.Italiya, Fransiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar Agroturizmini rivojlantirishning yorqin namunasi sifatida misol bo‘la oladi. Bugungi kunda Italiyada

agroturizmining yetakchisi sifatida e'tirof etilgan, undan yiliga 350 million dollarga yaqin foyda oladi. Yevropa Ittifoqi Italiya misolida G'arbiy yevropada qishloq xo'jaligini saqlab qolish, aholi turmush tarzini yaxshilash, sifatli va tabiiy mahsulot yetishtirish yo'lini qishloq turizmi orqali rivojlantirish mumkin ekanligini ko'rsatib beradi. Italiyada hududida asossan mutloq ustunlik jihatidan kelib chiqib iqlim, aholining ixtisoslashuvi orqali tanlangan misol tariqasida zaytun plantatsiyalarida terib olish jarayoni, zaytun mahsulotidan olinadigan yog', konservalash, quritilish jarayonlarini turistlarga ko'rsatib, plantatsiya bilan tanishtirish, fermerlar o'z faoliyati, bu sohadagi yangiliklar ko'rsatiladi.

Agroturizm hududdagi tabiatni asrash vositalari va usullarini topish imkoniniberadi. Ko'pgina mamlakatlarda turizmning ushbu turini rivojlantirish milliy qishloq landshaftlarini muhofaza qilish va rekreatsiya qilishning asosiy yo'nalishiga aylandi. Shuningdek, hududlarda faoliyat olib boruvchi agrobiznes vakillari tomonidan ko'shimcha xizmatlarni tashkil qishilish, daromad manbai sifatida tanlash imkonini beradi. Agroturizmning rivojlanishini bo'yicha xorijiy tajribalardan Italiya tajribasini o'rganish jarayonida o'ziga xos qadimiy bog'lari, zaytun plantatsiyalari, sut va sut mahsulotlarini (pishloq turlari, brinza, yangi sog'ilgan sut va sut mahsulotlari) bugungi kunda ham turistlarni o'zlariga jalb etmoqda[2].

Alohida e'tibor qaratish joyiz bo'lgan jihatni ham hisobga olish zarur Evropachekka qishloq joylarida qishloq xo'jaligi yerdan foydalanishning eng muhim shakliva qishloq jamoasining eng muhim faoliyati hisoblanmaydi. Unda yangi g'oyalar, mahsulotlar yetishtirishda innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalanish, mahsulotlarning ilmiy tadqiqotlar orqali yangi turlariini ishlab chiqish, ularning yangi xususiyatlarini topish muhim ahamiyatga ega. Yerlardan unumli foydalanish, o'g'itlarni oqilona ishlatish borasida ilgarilab ketgan.

Hududlarning agroturizm bo'yicha rivojlantirishida asosan uning mutloq avfzalligi bilan bog'liqdir. Ularning ekoturistik, etnik jihatdan o'ziga xos tarihga ega bo'lishi, ularning milliy bayramlari, milliy festevallarini rivojlantirishi, shuningdek, hududda fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari iqtisosligidan kelib chiqqan holda oyilaviy biznesni va kichik tadbirkorlikni, xizmatlar sohasini rivojlantirish orqali qishloq hududlarida agroturizm turli yo'nalishlarda rivojlanib o'z natijasini ko'rsatgan[1].

Olib borilgan tadqiqotlar mobaynida Gruziya, Yaponiya, Italiya, Shvetsariyatajribalari o'rganildi. Iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan Gruziya va Yaponiya tajribalari chuqur o'rganildi.

Gruziya tajribasi – Gruziyaning agroturizm tashkil qilish jarayoni hududlarda turizmni rivojlantirishda davlat va aholining o'z tashabbuslari o'rganildi va tahlil

qilindi. Gruziya iqtisodiyotining rivojlantirishda asosiy manbasi turizmdir.Bunda vino, pishliq ishlab chiqarish, churchxela shirinligini tayyorlash jarayonlarini ko‘rsatishadi va sayyohlarga tayyor mahsulotlarni sotishadi. Bu hududda mavjud tarixiy yodgorliklarini ham roli katta hisoblanadi. Ammo turizm yo’nalishlarni yanada mazmunli tashkil qilish maqsadida ular tarixiy va agroturizmsalohiyatini bir biriga bog‘lab turistlarni vaqtlarini yanada qiziqarli o‘tkazishadi va ko‘proq ma’lumotlarni targ‘ib qilishadi. Gruziya agroturizm imkoniyatlarida e’tiborli jihati shundaki, hududda daraxtlarni kesishmasligi, yashil hududlarniasrash, yangi bino qurish jarayonida ham daraxtlarni asrab, arxitekturani daraxtlarga (yashillikni saqlab qolishga) moslab qurishga alohida e’tibor qaratilgan. Har bir hudud uchun maxsus Logotiplar orqali mahsulotlr qadoqlanadi bunda uzum barglari,vino idishlar(riton)dan foydalanishadi.

Kaxetiya (Gruziya) hududi o‘zining uzumchilik, vino ishlab chiqarish, Eno turizmi bilan mashhur hisoblanadi. Aholi uy sharoitida ham vino mahsulotlari, sut mahsulotlaridan pishloq, brinza, xonadonda yetishtirilgan meva va savzavot mahsulotlaridan foydalanib, turistlarni qarshi olishadi. Qishloq aholisining tashabbusi bilan uy sharoitida uzumdan turli shirinliklar tayyorlanadi. Tayyorlash jarayonlarini master klass sifatida ko‘rsatib berishadi. Turistlarga xizmat ko‘rsatishda eko jihozlardan keng foydalaniladi, qurigan darahtlardan foydalanib, oshxona mebellaridan foydalaniladi. Undan tashqari tandirda non yopish jarayonini alohida master klass ko‘rsatish xizmati ham mavjud. Albatta bu aholi daromadini oshirish imkonini beradi. Gruziya tajribasining o‘ziga xosligi – bunda davlat, hududiy boshqarma va uyxo‘jaligi hamkorligida amalga oshiriladi.

Yaponiya davlatida agroturizm salohiyatini agrobiznes rivojlantirish va agroturizm uchun infratuzilmasini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Yaponiyaning chekka hududlarini rivojlantirishda davlat va kichik biznes, tadbirkorlikka keng imkoniyat beradi. Bu borada yuqori tajribaga ega. Hududni rivojlanishida ko‘proq davlat va xududiy tashkilotlarning tashabbuslari orqali aholidaromadini oshirishga imkoniyat beradi.Tadqiqot natijasida Aiti Perfekturasining Fermer xo’jaliklaridan olingan interviyu natijasida ma’lum bo‘lishicha fermerlar hamkorlikda savdo shahobchalarini tashkil qilishadi. Har bir fermer o’zining onsonqadoqash tizimig ega. Mahsulotlarni sifati doimiy standartlashdan o’tadi. Standartgamos kelmagan mahsulotlarni qayta ishlash fabrika yoki korxonlariga yuboriladi[4].

O‘rganilgan ma’lumotlar asosida quyida Yaponiyaning Aiti prefekturasining rivojlantirish mehanizmi chuqurroq tadqiq qilindi.

Yaponiyaning Aiti prefekturasini sanoat asosida rivojlantirish tashkiliy tuzilmasini tahlili quyidagilardan iborat:

- Aiti prefekturasi hududiy boshqarmasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish hududiy tashkiloti bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikda faoliyat olib boradi.

Aiti prefekturasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish hududiy tashkiloti moliyaviy ko‘mak beruvchi tashkilotlar bilan, yuristlar assotsiatsiyasi, boshqaruvni qo‘llab-quvvatlash tashkiloti, kompleks qo‘llab-quvvatlovchi tashkilot(Yaponiyaning hududiy innovatsiya va kichik biznesni rivojlantirish tashkiloti), ilm-fan, texnologik tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Tashrif buyurgan turistlar ma’lum bir qonun qoidalar orqali fermer xo‘jaliklarida harakatlanadilar.

Ushbu tashkilotlar va korxonalar hududda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘mak beradi. Aholiga qishloq xo‘jaligining so‘ngi yangiliklari, texnik imkoniyatlar bo‘yicha konsultativ maslahatlar bepul berib boriladi.

Yaponiyaning yana bir tajribasi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga qo‘shilganqiymat zanjiri asosida mahsulot qiymatini oshiradi.

Aiti prefekturasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali hududlarda agroturizmni rivojlantirishmoqda.

Tadqiqotlar va Yevropa qishloq (agro) turizm federatsiyasi ma’lumotiga ko‘ra, Yevropaning 27 mamlakatida 100,0 mingdan ziyod joylashtirish vositalari mavjud. Bunda:

Ikki kishi uchun bir honaning narxi 20-200 AQSH dollari oralig‘ida bo‘lib, odatda 40-70 AQSH dollarini tashkil etadi.

- Buyuk Britaniyada 60 foiz fermerlar turizm sohasida daromad olishadi. O‘rtacha yillik daromad 10-50 ming AQSH dollarini tashkil etadi.
- Yevropada agroturizmni eng rivojlangan mashhur yo‘nalishlari buFransiya, Buyuk Britaniya va Italiya mamlakatlari hisoblanadi.

Agro turizmning Italiya tajribasiga ko‘ra, bu davlatda qishloq turizmi paydo bo‘lgan va tan olingan birinchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ular oddiy italyanfermasida yashash va ishlash imkonini beradi. Qishloq turizmini rivojlanishi ular uchun qo‘shimcha daromad hisoblanadi. O‘zining ko‘p vaqtini sarflaydigan fermer xo‘jaliklari egalari uchun turistlarning yordami, ularning shu sohaga qiziqishini orttirish qishloq xo‘jaligi faoliyatining bir bo‘lagi hisoblanadi.

Urushdan keyingi yillarda dehqonlar qiyinchilik bilan omon qolishgan, shuning uchun yer egalari uchun qo‘shimcha daromad topish istagi ortgan. Italiya qishloqlariga kelgan turistlar xilma-xil qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanish, I taliyan taomlari hamda hududning o‘ziga xos an’analari va yashash tarzi ularni qiziqtira boshladi. Agroturizmining muhim vazifalaridan biri qishloq xo‘jaligining yangi o‘ziga xos

tarmog‘ini tashkil yetish orqali alohida qishloq aholipunktlarini rivojlantirishga turtki berish, ular aholisining daromad darajasini oshirish, urbanizatsiya oqimini kamaytirishdan iborat. Uning rivojlanishiga faol jamoat arboblari, hududiy jamoat o‘zini o‘zi boshqarish organlari a’zolari yordam berishi mumkin[3].

Mahalliy tashabbuslarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari:

- faol odamlarni topish, “pastdan” tashabbusni uyg‘otish va tegishli tayyorgarlikni tashkil yetish, tadbirlarni birgalikda rejalashtirish va tashkil yetish muhim;
- hududlarda qishloq tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy resurslar mavjud, ammo ulardan foydalanish uchun ko‘nikma va bilim zarur;
- “hokimiyat – biznes – aholi – turist” hamkorligi barqaror natijalarga erishishga yordam beradi;
- qishloq obodonchiligi yetakchilarini qo‘llab-quvvatlash muhim.

Bugungi kunda ko‘plab turizm va qishloq xo‘jaligibilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro tashkilotlar jumladan oziq-ovqat va qishoq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) Qishloq turizmi butun dunyoda yashil turizmi bilan bog‘liq yangi loyihalarni amalga oshirmoqda.

Agroturizmning Italiya tajribasiga ko‘ra, bu davlatda qishloq turizmi paydo bo‘lgan va tan olingan birinchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ular oddiy italiyan fermasida yashash va ishlash imkonini beradi. Qishloq turizmini rivojlanishi ular uchun qo‘shimcha daromad hisoblanadi. O‘zining ko‘p vaqtini sarflaydigan fermer xo‘jaliklari egalari uchun turistlarning yordami, ularning shu sohaga qiziqishini orttirish qishloq xo‘jaligi faoliyatining bir bo‘lagi hisoblanadi.

Urushdan keyingi yillarda dehqonlar zo‘rg‘a omon qolishgan, shuning uchun yer egalari uchun qo‘shimcha daromad topish istagi ortgan. Italiya qishloqlariga kelgan turistlar xilma-xil qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanish, italiyan taomlari hamda hududning o‘ziga xos an’analari va yashash tarzi ularni qiziqtira boshladi.

Italiyaliklarning mehmondo‘stligi tashrif buyuruvchilarning arzon dam olishga bo‘lgan ehtiyojlari hududdagi aholini sifatli xizmat ko‘rsatish va dam oluvchilarga barcha shart-sharoitlarni yarata boshlagan. Bundan olingan daromad yuqori bo‘lib, qishloqlarda daromadli biznes ekanligini tez orada bilib olishgan italiyaliklar o‘z uylarini fermalarini jihozlashni boshladilar.

XX asrning 70-yillarida qishloq xo‘jaliklarida vino, zaytun moyi va boshqamahsulotlar ishlab chiqarishdan tashqari, turistlarga rasman xonalarni ijaraga beradigan fermer xo‘jaliklari paydo bo‘la boshladi[1].

Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha qoida tariqasida, umumiy tozalik qoidalari ishlab chiqilgan,

ammo mehmonlarni ko‘ngil ochish uchun maxsus dasturi yo‘q. Italiyaning Boloniya agroturizm fermalarining faoliyati tadqiq qilinganida, bu fermalarda mezbonlar odatdagi ishlari bilan shug‘ullanishadi, sayyohlar esa unda imkoni boricha va xohlaganlaricha ishtirok etishlari mumkin. Bugungi kunda Italiyada qishloq turizmi allaqachon shakllangan bozor hisoblanadi.

Ma’lumotlarga qaraganda har yili Italiyada ikki milliondan ortiq aholi tomorqa va fermalarga kelib ishlab, mamlakatning iqtisodiyotiga va maxalliy byudjetiga salmoqli foyda keltiradi.

Xorijiy davlatlarning agroturizm sohasidagi yutuqlari va erishilgan natijalarini tadqiq qilib, ushbu yutuqlar va ilg‘or natijalarni mamlakatimiz agroturizmi sohasiga quyidagilarni joriy qilinishini maqsadga muvofiq:

- qishloq hududlaridagi xo‘jalik subyektlarida – fermerlar, dehqon xo‘jaliklari, agroklasterlarda agroturizm shoxobchalarini tashkil qilish va talabgorlarning kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida maxsus amaliy seminarlar, dala sharoitida ko‘rgazmalar o‘tkazish;
- talabgorlarni xorijiy davlatlarga malaka oshirish, tajriba almashish va kasbiy salohiyatlarini oshirish bo‘yicha amaliy master-klasslarni tashkil qilish;
- agroturizm shoxobchalarini tashkil qilganligi uchun maxsus sertifikatlarni taqdim qilish, ularni agroturizm salohiyatidan olingan xizmatlar ko‘rsatish, ish bajarish yoki boshqa bog‘liq tadbirkorlik faoliyatlaridan olinadigan soliqlarni boshlang‘ich 3 yilda ozod qilish;
- manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan, jumladan Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmalari hisobidan agroturizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy ekspertlarni taklif qilish va tanlab olingan hududlarda namunaviy agroturizm shoxobchalarini tashkil qilish;
- Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmalari, oliy ta’lim bilan bog‘liq ta’lim muassasalar, shuningdek, mamlakatimizdagi xorijiy davlatlar va tashkilotlar, moliyaviy institutlarning vakolatxonalari tomonidan maxsus grant loyihalarini ishlab chiqish va bunda mamlakatimizning har bir hududlarini qamrab olishni ko‘zda tutish lozim.

Shundan hulosa qilishimiz mumkinki, biz mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirish uchun Gruziya hamda Yaponiya tajribalaridan foydalanilgan holda tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarni tizimlashtirish maqsadida qishloq hududlarida agroturizm rivojlanishining institutsional tuzilmasi taklifi kiritildi.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida agroturizm sohalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda qishloq

xo‘jaligi va turizm sohasining rivojlanishi borasida uzoq yillik tajribaga ega.Bugungi kunda qishloq aholisining mahsulot yetishtirish, dehqonchilik, chorvachilik va boshqa qishloq xo‘jaligi sohalariga ixtisoslashuviga karamasdan, agroturizm rivojlantirish uchun tajribalari yetishmaydi. Mavjud salohiyat resurslaridan oqilona foydalanish orqali aholini yashash tarzini rivojlantirish muhimdir. Hududlarda turizmni rivojlantirish iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga katta tasir ko‘rsatadi, shuningdek,bu tarmoqlar o‘zaro ta’sirga ega.

Tadqiqot ishlariga ko‘ra, agroturizmning rivojlantirish zaruriyati va bugungi kundagi qishloq xo‘jaligi tizimidagi asosiy muammolar ko‘rib chiqilgan.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati va o‘rni rejada agroturizm sohasining rivojlanishi, olimlar tomonidan bildirilgan fikrlartavsiflari keltirilgan.

Agroturizm – bu qishloq hududlarida mavjud fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, uy xo‘jaliklari yetishtirgan mahsulotlaridan tatib ko‘rish, yetishtirish, terish, qayta ishlash jarayonida mahalliy va chet ellik turistlarni ishtirokida jarayonlar bilan tanishtirish, o‘rgatish, amaliy bajarib ko‘rishdir. Bunda albatta, hududlarda mavjud turistik salohiyatdan va undagi boshqa turizm turlaridan foydalanish tashrif buyuruvchi turistlarga qishloq hududlarda ko‘proq vaqt o‘tazishimkonini beradi. Bu esa mahalliy aholining ish bilan ta’milash, daromadini oshirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiyasi 2015 y
2. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Жиемуратов Темирбай Полатбаевич, Калбаева И. Е. АНАЛИЗ ТУРИСТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА // Бюллетень науки и практики. 2022. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/analiz-turisticheskogo-potentsiala-regiona
3. Калмуратов Б.С. Перспективы развития экотуризма в Республике Каракалпакстан// Материалы «Международной научно-практической конференций «Развитие туризма Казахстана на мировом уровне: проблемы и перспективы» 9 апреля 2024 г. РК г. Астана стр 92-99.
4. Norchayev A. N. Qalmuratov B., Razbayev S.N.Rekreatsiya turizmini rivojlantirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni boshqarish//“Innovations in Science and Technologies” илмий-электрон журнали махсус сон. 2025 йил. 421-429 betlar

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

XXI ASR JAHON SIYOSATIDA BAG'RIKENGLIK TAMOYILI

Akbarov Sherzodbek Asqarali o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Siyosatshunoslik" yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: 21-asrda jahon siyosati globallashuv, madaniy xilma-xillik va davlatlararo integratsiya jarayonlarida bag'rikenglik tamoyilining ahamiyatini oshirib yubordi. Ushbu maqolada bag'rikenglikning xalqaro siyosatdagi o'rni, turli davlatlar va tashkilotlar misolida uning amalga oshirilishi va bu tamoyilni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolar tahlil qilingan. Bag'rikenglikning tinchlik, barqarorlik va xalqaro hamkorlikni ta'minlashdagi roli yoritilib, Yevropa Ittifoqi, ASEAN va BMT kabi tuzilmalar faoliyati misolida tahliliy yondashuv berilgan. Shuningdek, nafrat so'zi, ksenofobiya va diniy radikalizm kabi xavf-xatarlarning bag'rikenglikka salbiy ta'siri ko'rsatilgan. Maqola global miqyosda bag'rikenglik tamoyilining dolzarbligi va uni mustahkamlashning ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: *Bag'rikenglik, jahon siyosati, globallashuv, madaniy xilma-xillik, ksenofobiya, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, BMT, dinlararo muloqot, barqarorlik, xalqaro hamkorlik, siyosiy tamoyillar.*

Аннотация: В 21 веке мировая политика преувеличила значение принципа толерантности в процессах глобализации, культурного разнообразия и межгосударственной интеграции. В данной статье анализируется роль толерантности в международной политике, ее реализация на примере различных государств и организаций и проблемы, препятствующие развитию этого принципа. Освещается роль толерантности в обеспечении мира, стабильности и международного сотрудничества, дается аналитический подход на примере деятельности таких структур, как Европейский Союз, АСЕАН и ООН. Также показано негативное влияние на толерантность таких опасностей, как слово ненависти, ксенофобия и религиозный радикализм. В статье освещается актуальность принципа толерантности в глобальном масштабе и важность его укрепления.

Ключевые слова: *Толерантность, мировая политика, глобализация, культурное разнообразие, ксенофобия, Европейский союз, АСЕАН, ООН, межконфессиональный диалог, стабильность, международное сотрудничество, политические принципы.*

Annotation: In the 21st century, world politics exaggerated the importance of the

principle of tolerance in the processes of globalization, cultural diversity and Interstate integration. This article analyzes the role of tolerance in international politics, its implementation on the example of various states and organizations, and the problems that are becoming an obstacle to the development of this principle. The role of tolerance in ensuring peace, stability and international cooperation is highlighted and an analytical approach is given on the example of the activities of structures such as the European Union, the Asean and the UN. It has also been shown that risks such as hate speech, xenophobia, and religious radicalism have negative effects on tolerance. The article highlights the relevance of the principle of tolerance on a global scale and the importance of its strengthening.

Keywords: *Tolerance, world politics, globalization, cultural diversity, xenophobia, European Union, Asean, UN, interfaith dialogue, sustainability, international cooperation, political principles.*

21-asr jahon siyosatida bag‘rikenglik tamoyili insoniyatning tinchlik va taraqqiyot sari intilishlarida asosiy tamoyillardan biriga aylandi. Dunyo o‘zining ko‘p madaniyatli va ko‘p millatli tabiatini namoyon qilar ekan, madaniy xilma-xillikni qabul qilish va hurmat qilish bugungi siyosiy muhitning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. Bag‘rikenglik tushunchasi, insoniyat taraqqiyotida tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun asosiy vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu tamoyil nafaqat inson huquqlarini ta’minlashning kafolati, balki davlatlar va jamiyatlarning barqarorligini ta’minlashda ham muhim vositadir.

Bag‘rikenglik tamoyilining rivojlanishiga, 1995-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi muhim hissa qo‘shdi. Ushbu hujjatda bag‘rikenglik insonlarning tabiatdan kelib chiqadigan huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, xilma-xillikni qabul qilish va ijtimoiy adolatni ta’minlash vositasi sifatida e’tirof etildi[1]. Ushbu tamoyillar bugungi kunda ham xalqaro hamkorlik va milliy siyosatlarda o‘z aksini topmoqda. Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida qayd etilganidek, bag‘rikenglik alohida odamlar o‘rtasida, oila va jamoadagi o‘zaro munosabatlarda zarurdir. Maktablarda va universitetlarda, norasmiy ta’lim yo‘li bilan uyda va ish joylarida bag‘rikenglik ruhini mustahkamlash va kishilar o‘rtasida bir-biriga ochiqlik, e’tibor va birdamlik munosabatlarini shakllantirish lozim. Bunda, kommunikatsiya vositalari erkin, ochiq muloqot va muhokamaga ko‘maklashishda, bag‘rikenglik qadriyatlarini tarqatishda, ayniqsa, bosh ko‘tarayotgan murosasizlikni targ‘ib qiluvchi guruhlar va mafkuralarga nisbatan befarq munosabatda bo‘lish xavfli ekanini tushuntirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Bag‘rikenglik” tushunchasi nimani anglatadi? Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida ushbu tushunchaga uchta muhim va qamrovdor ta’rif berilgan.

Birinchi ta’rif: Bag‘rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik –turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

Ikkinchi ta’rif: Bag‘rikenglik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag‘rikenglik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Hech qanday vaziyatda ham bag‘rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Bag‘rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Uchinchi ta’rif: Bag‘rikenglik – inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburiyatidir. Bag‘rikenglik – aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o‘rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir. Shuningdek, globalizatsiya sharoitida madaniy xilma-xillikni saqlash va uni hurmat qilish muhim ahamiyatga ega. Bag‘rikenglik tamoyili bu turli madaniyatlarning o‘ziga xosligini tan olish va ularni qadrlashni talab qiladi. YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Madaniy xilma-xillikni himoya qilish to‘g‘risidagi deklaratsiya” ushbu tamoyilni global miqyosda mustahkamlashga qaratilgan. Globallashuv jarayonlari davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi bag‘rikenglikni millatlararo birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida faol targ‘ib qilmoqda. 2015-yilda yuzaga kelgan qochoqlar inqirozi davrida bag‘rikenglik siyosati o‘zining muhimligini isbotladi. Yevropa davlatlari turli millatlarga mansub bo‘lgan qochqinlarni qabul qilishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelsa-da, bag‘rikenglikka asoslangan yondashuv xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda asosiy vosita bo‘ldi.

Bag‘rikenglik tamoyilining yana bir yorqin ifodasi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) misolida ko‘rinadi. ASEAN davlatlari mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda bag‘rikenglikka asoslangan siyosat yuritmoqda. Ushbu tashkilotning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan madaniy xilma-xillikni hurmat qilish mintaqa davlatlarining tinchlik va barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda[3].

Bag‘rikenglik nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning ham asosi hisoblanadi. Kanadaning ko‘pchilik madaniyatli siyosati millatlararo totuvlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. Ushbu siyosat nafaqat jamiyatdagi madaniy xilma-xillikni saqlashga, balki iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishga ham xizmat qildi[5].

Dinlararo bag‘rikenglik xalqaro munosabatlarda alohida o‘rin tutadi. “Dinlararo bag’rikenglik g’oyasi – xilma-xil diniy e’tiqodlarga mansub kishilarning bir zamon, bir makonda, ya’ni umumiy vatanda, oliyjanob g’oya va niyatlar yo’lida hamkor va hamjihat bo’lib yashashini anglatadi”[6]. Din qadimdan aksariyat ma’naviy qadriyatlarni o’zida mujassam etib keladi. Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham ularni bir-birlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga yo’nalganligidadir. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g’oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do’stlik kabi fazilatlarga tayanadi. 2019-yilda Vatikan tomonidan o‘tkazilgan Dinlararo Muloqot Xalqaro Konferensiyasi ushbu yo‘nalishdagi muhim qadam bo‘ldi. Tadbirda dinlararo ziddiyatlarni bartaraf etish va tinchlikni ta’minlash bo‘yicha muhim takliflar bildirildi[4].

Biroq, bag‘rikenglik tamoyilini rivojlantirish yo‘lida bir qator muammolar mavjud. Xususan, millatchilik, ksenofobiya va diniy radikalizm kabi holatlar jamiyatda nizolarni kuchaytirib, tinchlikka tahdid solmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan nafrat so‘zi ham bag‘rikenglikni rivojlantirishga to‘siq bo‘luvchi omillardan biridir. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, nafrat so‘zining ko‘payishi jamiyatlar o‘rtasidagi ishonchni kamaytirib, ziddiyatlarni kuchaytirmoqda[2]. Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar va davlatlar bag‘rikenglik tamoyilini ilgari surish uchun turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan turli rezolyutsiyalar va dasturlar bag‘rikenglik tamoyilini targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi va ASEAN kabi tashkilotlarning bag‘rikenglikka asoslangan yondashuvlari boshqa davlatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, bag‘rikenglik tamoyilini rivojlantirishda ta’lim va targ‘ibot muhim rol o‘ynaydi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida bag‘rikenglik, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar mavzusida darslar o‘tkazish zarur va ommaviy axborot vositalari orqali bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish kabi jarayonlar uni rivojlanishiga salmoqli hissa qo’shadi. Binobarin, Bag‘rikenglik tamoyilini global miqyosda rivojlantirish uchun davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va BMT, YUNESKO, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar bag‘rikenglikni targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, 21-asr jahon siyosatida bag‘rikenglik tamoyili global tinchlik, ijtimoiy adolat va madaniy hamjihatlikni ta’minlashning asosiy vositasiga aylangan. U

turli millatlar, dinlar va madaniyatlar o‘rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlash, ziddiyatlarni bartaraf etish va inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bag‘rikenglik tamoyilini amalga oshirishda ta’lim, xalqaro hamkorlik va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu tamoyilni yanada keng targ‘ib qilish orqali dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash mumkin. Ushbu tamoyil nafaqat davlatlararo, balki jamiyat ichidagi munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Bag‘rikenglikni mustahkamlash, xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlari orqali amalga oshirilishi lozim.

REFERENCES

1. BMT - Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi, 1995.
2. YUNESCO - Nafrat tushunchasining ijtimoiy birdamlikka ta’siri, 2021.
3. ASEAN Nizomi, ASEAN kotibiyati, 2008.
4. Dinlararo Muloqot uchun Pontifik Kengash – Tinchlik va totuvlik uchun dinlararo muloqot konferensiyasi, 2019.
5. W.Kymlicka. Multikultutalizm va ijtimoiy davlat: Zamonaviy demokratik davlatlarda tan olinishi va qayta taqsimlanishi, 2010.
6. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O’zbekiston, 2000.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Altenariya jinsining mikroskopik zamburuğlari.

Jo'rayeva Aziza.
Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti talabasi.

Ilmiy rahbar:
Raximov Yorqin Erkinovich.
Qarshi davlat texnika universiteti Shahrisabz oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alternaria jinsiga mansub mikroskopik zamburug'larning morfologik va molekulyar xususiyatlari, ularning ekologik ahamiyati hamda turlararo farqlanishi o'rganildi. Ushbu jins vakillari o'simliklar, tuproq, havo va oziq-ovqat mahsulotlarida keng tarqalganligi aniqlangan. Tadqiqotda morfologik belgilar (konidiofor shakli, konidiyalarning o'lchami, septalar soni) va molekulyar markerlar (ITS, LSU, GAPDH, TEF1) asosida filogenetik tahlil o'tkazildi. Olingan natijalar Alternaria jinsining yuqori genetik xilma-xilligini ko'rsatdi. Maqola natijalari ushbu zamburug'larning taksonomik tizimini boyitadi hamda ularni biotexnologik va ekologik jihatdan o'rganish uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Alternaria, mikroskopik zamburug', morfologiya, filogeniya, genetik tahlil, ekologik ahamiyat.

Annotation:

This article studies the morphological and molecular characteristics of microscopic fungi belonging to the genus *Alternaria*, their ecological significance, and interspecific differentiation. Representatives of this genus are found to be widely distributed in plants, soil, air, and food products. The research was conducted based on morphological traits (shape of conidiophores, size of conidia, and number of septa) and molecular markers (ITS, LSU, GAPDH, TEF1) to perform phylogenetic analysis. The obtained results demonstrated a high level of genetic diversity within the *Alternaria* genus. The findings enrich the taxonomic system of these fungi and provide a basis for their further biotechnological and ecological studies.

Keywords: *Alternaria*, microscopic fungi, morphology, phylogeny, genetic analysis, ecological significance.

Аннотация:

В данной статье изучены морфологические и молекулярные особенности микроскопических грибов рода *Alternaria*, их экологическое значение и межвидовые различия. Представители этого рода широко распространены в растениях, почве, воздухе и пищевых продуктах. Исследование проводилось на основе морфологических признаков (форма конидиеносцев, размеры конидий, количество перегородок) и молекулярных маркеров (ITS, LSU, GAPDH, TEF1) для проведения филогенетического анализа. Полученные результаты показали высокий уровень генетического разнообразия внутри рода *Alternaria*. Результаты исследования обогащают таксономическую систему этих грибов и создают основу для их дальнейшего биотехнологического и экологического изучения.
Ключевые слова: *Alternaria,* микроскопические грибы, морфология, филогения, генетический анализ, экологическое значение.

Kirish. Alternaria jinsining mikroskopik zamburug‘lari ascomycetes bo‘limiga mansub, ko‘p hollarda anamorf bosqichda uchraydigan, konidial ko‘payish yo‘li bilan rivojlanadigan mikroorganizmlardir. Bu jinsga mansub turlar deyarli barcha iqlim mintaqalarida, ayniqsa, mo‘tadil va subtropik zonalarda keng tarqalgan. Alternaria turlari ko‘plab o‘simliklarda barg dog‘lanishlari, meva chirishlari va urug‘ kasalliklarini keltirib chiqaruvchi fitopatogenlardir. Shu bilan birga, ular saprofit yoki endofit sifatida ham uchrab, o‘simlik to‘qimalarida yashovchanlikni saqlab qoladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, Alternaria turlari morfologik jihatdan bir-biriga juda o‘xshash bo‘lgani uchun ularni an’anaviy mikroskopik usullar bilan farqlash qiyin. Shu sababli so‘nggi yillarda molekulyar biologiya va filogenetik tahlil usullaridan keng foydalanilmoqda. ITS va GAPDH genlari asosidagi tahlillar turlararo farqlanishni aniq ajratish imkonini beradi. Alternaria jinsining o‘rganilishi nafaqat fitopatologik, balki ekologik va biotexnologik nuqtayi nazardan ham muhimdir. Ayrim turlari bioaktiv moddalarning manbai sifatida farmatsevtik sohada qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, mikotoksin ishlab chiqaruvchi shakllar oziq-ovqat xavfsizligi uchun xavf tug‘diradi. Bu esa Alternaria jinsining chuqur o‘rganilishini dolzarb masalaga aylantiradi.

Adabiyotlar-tahlili:

So‘nggi o‘n yilliklarda Alternaria jinsiga oid ko‘plab ilmiy ishlanmalar olib borilgan [1], [2], [4], [6]. Simmons ushbu jinsni 29 ta bo‘limga ajratib, har birining morfologik belgilarini batafsil tavsiflagan [1]. Woudenberg va hamkasblari esa ko‘p genli filogeniya asosida yangi sistematik yondashuvni taklif etgan [2]. Ularning tahliliga ko‘ra, Alternaria alternata kompleksi turli kichik kladlardan tashkil topgan bo‘lib, bu

guruhda genetik xilma-xillik nihoyatda yuqori [2], [7]. Lawrence o‘z ishida Alternaria turlarining patogenlik darajasi va toksin ishlab chiqarish qobiliyatini filogenetik asosda o‘rgangan [4]. Adabiyotlarda qayd etilishicha, Alternaria turlari tomonidan ishlab chiqariladigan mikotoksinlar — alternariol, tenuazonic kislota, altertoksinlar — inson va hayvon sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin [4], [8], [10].

Shu bilan birga, Ahmadpour va boshq. Eron o‘simliklaridan yangi ikki tur — *A.* iraniana va *A.* avrinicani ajratib, ularni molekulyar dalillar bilan tasdiqlagan [3]. Bunday izlanishlar Markaziy Osiyo uchun ham dolzarb, chunki bu mintaqada ham xilma-xil o‘simlik muhitlari mavjud [2], [3], [7]. Ko‘plab manbalarda morfologik belgilarni genetik tahlil bilan birlashtirish eng ishonchli yondashuv sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [2], [4], [6], [8].

Metodologiya:

Tadqiqot ishlari *Alternaria* jinsiga mansub mikroskopik zamburug‘larni morfologik va molekulyar usullar yordamida o‘rganish asosida olib borildi. Namunalar O‘zbekistonning Qashqadaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlaridan hamda Eronning Gilon va Mazandaron viloyatlaridan olindi. Har bir hududda o‘simlik barglari, mevalari va tuproqdan 25 tagacha namunalar yig‘ildi. Namuna yig‘ish aseptik sharoitda amalga oshirilib, ular 4°C da laboratoriyaga yetkazildi.

Izolyatsiya jarayonida namunalar 70% etanol bilan dezinfeksiya qilinib, steril suv bilan yuvildi va Potato Dextrose Agar (PDA) muhitida 25°C da 10 kun davomida inkubatsiya qilindi. O‘sib chiqqan koloniyalar morfologik xususiyatlariga ko‘ra dastlabki identifikatsiyadan o‘tkazildi. Mikroskopik tahlilda konidiyalarning shakli, o‘lchami, septalar soni va konidioforlarning tuzilishi aniqlanib, mikrometr yordamida o‘lchovlar olindi.

DNK ajratish CTAB usuli bilan amalga oshirildi, PCR yordamida ITS, LSU, GAPDH va TEF1 genlari ko‘paytirildi. PCR mahsulotlari 1,5%li agaroz gelda tekshirib, Sanger sekvenslash orqali o‘qildi. Olingan ketma-ketliklar NCBI GenBank ma’lumotlari bilan BLAST orqali taqqoslandi. Natijalar MEGA X dasturida hizalanib, maksimum likelihood usulida filogenetik daraxtlar qurildi.

Morfologik va molekulyar tahlil natijalari o‘zaro solishtirilib, turlararo farqlanish darajasi aniqlashtirildi. Statistik tahlillar Excel va SPSS 26.0 dasturlarida o‘tkazildi. Shu asosda *Alternaria* izolyatlarining genetik xilma-xilligi, morfologik barqarorligi va ekologik moslashuvchanligi baholandi.

1-jadval.

Alternaria izolyatlarining morfologik ko‘rsatkichlari

№	Izolyat kodi	Konidiy uzunligi (µm)	Septa soni	Konidiofor shakli	Koloniya rangi
1	A1-IRN	25–35	4–6	Silindrsimon	To‘q jigarrang
2	A2-KSH	30–45	5–8	Egilgan	Qora-jigarrang
3	A3-TBR	22–28	3–5	To‘g‘ri	Kulrang
4	A4-QRM	40–55	7–9	Tarvaqaylagan	Qora

Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, olingan barcha *Alternaria* izolyatlari o‘ziga xos morfologik va molekulyar belgilar majmuasiga ega. Mikroskopik tahlillar asosida konidiyalar turli shakllarda — ellipsoid, yumaloq, silindrsimon va tarvaqaylagan holda kuzatildi. Konidioforlar uzun, silliq yuzali, genikulyatsiyalangan va simpodial o‘sishga ega bo‘lib, bu jinsning tipik morfologik belgilarini tasdiqladi. Har bir izolyatda konidiyalarning uzunligi 22–55 µm oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha 35 µm ni tashkil etdi. Septalar soni esa 3 dan 9 tagacha bo‘lgan. Koloniyalar dastlab oqish-jigarrang tusda, keyinchalik qora-jigarrang rangga kirgan. Ayrim izolyatlar sirtida pufakchali strukturalar hosil qilgan, bu ularning ikkilamchi metabolit ishlab chiqarish faoliyatini ko‘rsatadi. Molekulyar tahlillar ITS genida 3–5%, GAPDH genida esa 2–4% nukleotid farqlanishni ko‘rsatdi. LSU genining sekvens natijalari izolyatlarning filogenetik jihatdan *Alternaria alternata* kompleksiga yaqinligini aniqladi. TEF1 geni asosidagi daraxtlarda esa ayrim izolyatlar mustaqil klad hosil qilib, yangi tur bo‘lish ehtimolini ko‘rsatdi.

Filogenetik tahlil natijasida barcha izolyatlar uchta asosiy klasterga ajraldi: biri *A. alternata* guruhiga, ikkinchisi *A. tenuissima* klasteriga, uchinchisi esa ilgari qayd etilmagan yangi liniyaga mansub bo‘ldi. Har bir klaster ichida genetik o‘xshashlik 95–98% darajada saqlangan. Bu natijalar *Alternaria* jinsining turlararo farqlanishi geografik jihatdan ham o‘ziga xos ekanini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar asosida ayrim izolyatlar yangi takson sifatida tavsiflanishi uchun morfologik va genetik asos yetarli ekanligi isbotlandi. Shu bilan birga, morfologik jihatdan o‘xshash izolyatlar molekulyar markerlar orqali aniq farqlangan. Bu esa taksonomiyada genetik markerlarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi. Shuningdek, konidiyalarning diametri va devor qalinligi o‘sish sharoitiga bog‘liq tarzda o‘zgarishi kuzatildi. Ayrim izolyatlar 25°C da tez o‘sish, boshqalari esa 20°C da optimal o‘sish tezligini namoyon

etdi. Shu bilan birga, natijalar *Alternaria* jinsining ekologik moslashuvchanligi yuqori ekanini ko‘rsatdi.

Muhokama

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, *Alternaria* jinsining ichki xilma-xilligi morfologik mezonlar asosidagina emas, balki molekulyar ko‘rsatkichlarga tayanib baholanishi kerak. Oldingi adabiyotlarda qayd etilganidek, bu jinsda tashqi belgilar tez-tez o‘zgaruvchan bo‘lib, tashqi muhit omillariga sezgir. Shu bois morfologik belgilarni mustahkamlovchi genetik dalillar muhim rol o‘ynaydi. Bizning tadqiqotda aniqlangan kladlarning genetik farqlari oldingi filogenetik modellar bilan mos tushdi. Bu *Alternaria* jinsining klasterlari o‘rtasidagi evolyutsion masofaning aniq ko‘rsatkichlarini beradi. *Alternaria* jinsining o‘ziga xos xususiyati — uning turli yashash muhitlariga moslasha olish qobiliyatidir. Shu tufayli, u o‘simliklar, tuproq, havo va oziq-ovqat muhitlarida uchrashi mumkin. Ayrim izolyatlar o‘simlik barglarida saprofit sifatida, boshqalari esa fitopatogen shaklda aniqlangan.

Filogenetik tahlil natijasida ayrim izolyatlar *A. alternata* kompleksidan tashqarida joylashgan bo‘lib, bu yangi evolyutsion yo‘nalishlar mavjudligidan dalolat beradi. Molekulyar markerlar asosida bu izolyatlar *A. iraniana* va *A. avrinica* turlariga yaqin, ammo mustaqil genetik liniyaga mansub ekani aniqlangan. Bu natijalar Eron, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo floralarining o‘ziga xos endemik zamburug‘ turlariga boy ekanligini tasdiqlaydi. Ayrim izolyatlar mikotoksin ishlab chiqaruvchi gen klasterlarini o‘z ichiga olgani aniqlanib, ularning potentsial toksikologik ahamiyatini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ayrim endofitik shakllarda o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi fitogormonlar sintezlanishi ham qayd etildi. Bu holat *Alternaria* jinsining biologik faolligi ikki tomonlama — patogen va foydali yo‘nalishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida kuzatilgan morfologik o‘zgaruvchanlik turlararo ekologik moslashuv natijasi sifatida izohlanadi. Xalqaro filogenetik bazalar bilan taqqoslash natijasida ayrim izolyatlar hali ilmiy adabiyotlarda qayd etilmaganligini ko‘rsatdi. Shu sababli, bu natijalar yangi tur sifatida tavsiflash uchun asosiy nomzod hisoblanadi. Olingan natijalar kelgusida genetik ekspressiya va mikotoksin biosintezi bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Takliflar:

1. *Alternaria* jinsining taksonomik aniqligini oshirish uchun morfologik, biokimyoviy va molekulyar markerlarni kompleks tahlil qilish zarur.

2. Har bir yangi izolyat uchun genetik markerlar ketma-ketligini xalqaro bazalarga (NCBI, MycoBank) kiritish tavsiya etiladi.
3. Yangi aniqlangan izolyatlar asosida *Alternaria* jinsining regional atlasi yaratilishi kerak.
4. Markaziy Osiyo sharoitida o‘simliklardan ajratilgan izolyatlar mikotoksin ishlab chiqarish qobiliyatiga ko‘ra baholanishi lozim.
5. *Alternaria* turlarining ekologik rollarini aniqlash uchun ularning simbioz va antagonistik o‘zaro ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiq.
6. Endofitik shakllarni qishloq xo‘jaligida biokontrol agent sifatida qo‘llash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.
7. Molekulyar tahlillar asosida yangi bo‘limlar (sektsiyalar)ni tavsiflash kerak.
8. Mikotoksin sintezida ishtirok etuvchi genlarning ekspressiya darajasini o‘rganish orqali xavfli turlarni aniqlash mumkin.
9. Bioinformatik tahlillar yordamida filogenetik klasterlarning evolyutsion vaqtini modellashtirish kerak.
10. Fitopatogen shakllarni nazorat qilish uchun biologik vositalarni ishlab chiqish kerak.

Xulosa

Tadqiqot yakunida *Alternaria* jinsining morfologik va molekulyar jihatdan juda murakkab, ko‘p shaklli va ekologik jihatdan moslashuvchan guruh ekanligi aniqlandi. Mikroskopik kuzatuvlar konidiyalarning shakli, septalar soni, rangi va joylashuvi bo‘yicha sezilarli farqlanishlarni ko‘rsatdi. Bu farqlanishlar genetik tahlillar bilan tasdiqlanib, turlararo chegaralarni aniq belgilashga yordam berdi. Molekulyar tahlillar asosida izolyatlar uchta kladga ajralib, ayrimlari yangi tur bo‘lish ehtimolini ko‘rsatdi. Morfologik va genetik natijalar uyg‘unligi bu jinsning ichki tizimini qayta ko‘rib chiqish zarurligini isbotladi. Shu bilan birga, *Alternaria* turlarining ekologik roli faqat fitopatogenlik bilan cheklanmasdan, endofitik va saprofitik faoliyatda ham namoyon bo‘lishi aniqlangan. Olingan natijalar asosida yangi bo‘limlar yoki komplekslarni tavsiflash mumkinligi ta’kidlandi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u *Alternaria* jinsining taksonomik, ekologik va biotexnologik o‘rganilishiga yangi yondashuvlar kiritadi. Kelgusida molekulyar markerlar sonini kengaytirish, genom darajasidagi tahlillarni o‘tkazish va bioinformatik modellarni ishlab chiqish rejalashtirilmoqda. Shu bilan birga, *Alternaria* jinsining foydali metabolit ishlab chiqaruvchi shakllarini biotexnologiyada qo‘llash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu tadqiqot *Alternaria* jinsini chuqur o‘rganishga, yangi turlarni aniqlashga va ularning ekologik rolini tushunishga mustahkam ilmiy asos yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Simmons, E.G. (2007). *Alternaria: An Identification Manual*. CBS Fungal Biodiversity Centre, Utrecht.
2. Woudenberg, J.H.C. et al. (2015). "Alternaria redefined." *Studies in Mycology*, 82: 1–21.
3. Ahmadpour, A. et al. (2025). "Morphological and Molecular Characterization of a New Section and Two New Species of *Alternaria* from Iran." *Life*, 15(6): 870.
4. Lawrence, D.P. et al. (2016). "Phylogenetic diversity of *Alternaria* species in relation to pathogenicity and toxigenicity." *Mycologia*, 108(6): 1119–1138.
5. Pryor, B.M. & Michailides, T.J. (2002). "Morphological and molecular characterization of *Alternaria* isolates associated with Alternaria late blight of pistachio." *Phytopathology*, 92(4): 406–416.
6. Peever, T.L. (2007). "Molecular phylogenetics of *Alternaria* species and their taxonomic implications." *Fungal Genetics and Biology*, 44(6): 1012–1021.
7. Hong, S.G. et al. (2019). "Molecular diversity and phylogeny of *Alternaria* species associated with cereal crops." *Journal of Microbiology*, 57(3): 245–258.
8. Andersen, B. & Thrane, U. (2006). "Differentiation of *Alternaria* species based on morphology and secondary metabolite profiles." *Studies in Mycology*, 55: 1–20.
9. Serdani, M. et al. (2002). "Endophytic *Alternaria* species in herbaceous plants." *Mycological Research*, 106(5): 653–661.
10. Thomma, B.P.H.J. (2003). "Alternaria spp.: from general saprophyte to specific parasite." *Molecular Plant Pathology*, 4(4): 225–236.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

CLINICAL PHARMACOLOGY OF ANTIHYPERTENSIVE DRUGS IN PREGNANT WOMEN

Bazarova Albina Mukhammadjonovna
Department of Pharmacology, Clinical Pharmacology and Medical Biotechnology, ASMI

In children, these mechanisms are particularly relevant because their immune system is still developing. Over-suppression of inflammatory responses may lead to impaired immunity or delayed tissue repair. Moreover, glucocorticoids interfere with the hypothalamic–pituitary–adrenal axis by exerting negative feedback at the level of the hypothalamus and pituitary gland, thereby reducing endogenous cortisol production. This suppression can become clinically significant with prolonged or high-dose therapy and may persist for months after drug withdrawal.

RESULTS AND DISCUSSION

The pharmacokinetics of glucocorticoids in children differ significantly from those in adults due to age-related changes in hepatic enzyme activity, plasma protein binding, and renal clearance. After the age of two, hepatic cytochrome P450 enzymes (especially CYP3A4) become more active, resulting in faster metabolism of certain corticosteroids such as prednisolone and dexamethasone. Consequently, children often require proportionally higher doses (on a mg/kg basis) to achieve comparable plasma concentrations and therapeutic effects. However, interindividual variability is considerable, necessitating careful titration [3].

Protein binding is another important determinant of glucocorticoid pharmacokinetics. Cortisol and synthetic glucocorticoids are primarily bound to corticosteroid-binding globulin (CBG) and albumin. In young children, CBG concentrations are slightly lower than in adults, increasing the proportion of free, pharmacologically active drug. Enhanced renal clearance in this age group also contributes to shorter elimination half-

lives. These factors underline the necessity of individualized dosing regimens and monitoring, particularly for long-term therapy.

Glucocorticoids are used in pediatric patients for a broad spectrum of diseases. Systemic administration (oral or intravenous) is essential in severe inflammatory or autoimmune conditions such as nephrotic syndrome, systemic lupus erythematosus, or acute lymphoblastic leukemia. Inhaled glucocorticoids such as budesonide and fluticasone are the cornerstone of long-term asthma control, while topical preparations (hydrocortisone, betamethasone) are widely used in dermatologic disorders. Intranasal formulations treat allergic rhinitis, and intra-articular injections may be employed in juvenile arthritis.

The route of administration significantly influences both efficacy and safety. Inhaled and topical routes minimize systemic exposure and reduce the risk of HPA axis suppression, yet chronic or high-dose use can still result in systemic absorption. Oral and intravenous routes, though potent, carry greater risks for adverse metabolic and endocrine effects and must be accompanied by gradual tapering schedules to prevent adrenal insufficiency.

The adverse effects of glucocorticoid therapy in children are dose-dependent and related to both the duration and potency of exposure. The most concerning long-term complication is growth suppression, resulting from inhibition of growth hormone secretion, decreased osteoblast activity, and suppression of insulin-like growth factor-1 (IGF-1) production. Skeletal demineralization and osteopenia are also common due to decreased calcium absorption and increased bone resorption [4].

Metabolic disturbances include central obesity, glucose intolerance, and dyslipidemia, collectively known as “Cushingoid features.” Immunosuppression increases the risk of bacterial, viral, and fungal infections. Behavioral and neuropsychiatric changes—such as mood swings, irritability, or even psychosis—have been reported in susceptible children. Prolonged use may lead to HPA axis suppression, causing adrenal atrophy and an impaired stress response, which can be life-threatening during illness or surgery if not properly managed. For this reason, withdrawal from long-term glucocorticoid therapy must be gradual, allowing endogenous cortisol production to recover.

The guiding principle in pediatric glucocorticoid therapy is the “lowest effective dose for the shortest possible duration.” Alternate-day dosing can reduce HPA axis suppression, particularly in chronic inflammatory diseases. When long-term therapy is unavoidable, clinicians often opt for intermediate-acting agents like prednisolone, which more closely mimic physiological cortisol rhythms. The use of inhaled corticosteroids with high first-pass hepatic metabolism (such as fluticasone) reduces

systemic exposure and side effects. Additionally, nutritional support with adequate calcium, vitamin D, and protein intake helps mitigate the risk of bone loss. Regular growth monitoring, blood pressure measurement, and assessment of infection risk are mandatory for children receiving long-term treatment [5].

Recent pharmacological research has aimed to separate the beneficial anti-inflammatory effects of glucocorticoids from their metabolic side effects. The development of selective glucocorticoid receptor agonists (SEGRAs) seeks to maintain transrepression (anti-inflammatory gene suppression) while minimizing transactivation (metabolic gene stimulation). Furthermore, nanotechnology-based drug delivery systems, such as liposomal formulations, promise to target inflamed tissues more selectively, reducing systemic exposure. These innovations, coupled with pharmacogenetic insights into CYP3A4 polymorphisms and glucocorticoid receptor variants, hold the potential to personalize therapy and minimize toxicity in pediatric populations.

CONCLUSION

The clinical pharmacology of glucocorticoids in children older than two years reflects a constant interplay between therapeutic benefit and physiological vulnerability. While these agents remain essential in managing many pediatric diseases, their power demands meticulous control. Every decision to initiate, maintain, or taper therapy must consider not only the immediate inflammatory response but also the long-term impact on growth, metabolism, and neuroendocrine function.

Children’s heightened metabolic rate, faster hepatic clearance, and developing endocrine system make them particularly sensitive to both the therapeutic and adverse actions of glucocorticoids. Awareness of these differences, coupled with careful dosing and monitoring, allows clinicians to harness the full potential of glucocorticoid therapy without compromising safety. The emergence of selective receptor modulators and targeted delivery technologies promises to refine the balance between efficacy and toxicity further.

Ultimately, glucocorticoid therapy in pediatric patients is a paradigm of individualized medicine — a practice that demands not only pharmacological expertise but also empathy and vigilance. The clinician must remain aware that each milligram of a corticosteroid can profoundly shape a child’s growth trajectory and physiological development. Therefore, the art of pediatric pharmacology lies not in prescribing more, but in prescribing wisely — achieving control of disease while preserving the child’s future health and potential.

REFERENCES

1. Charmandari, E., Nicolaides, N. C., & Chrousos, G. P. Adrenal insufficiency. Lancet, 383(9935), 2014.
2. Rhen, T., & Cidlowski, J. A. Antiinflammatory Action of Glucocorticoids—New Mechanisms for Old Drugs. New England Journal of Medicine, 353(16), 2015.
3. Allen, D. B. Systemic effects of inhaled corticosteroids in children. Current Opinion in Pediatrics, 32(6), 2020.
4. Patel, L., et al. Adverse effects of long-term oral corticosteroid therapy in children. Archives of Disease in Childhood, 88(6), 2013.
5. Cuzzolin, L., et al. Pharmacokinetics and safety of corticosteroids in children. Therapeutic Drug Monitoring, 42(3), 2020.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Modern Professions and the Effectiveness of Digital Economic Systems in Increasing Population Incomes

Xayriddinov Sh. B
Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi.
Email: xayriddinovshuxrat571@gmail.com
Human Resources Management 4th year students, group 022/s-09
Kudratov Shahzod Sarvar o’g’li
Fayziyev Muhammadali Turdiali o‘g‘li

Introduction

In the context of rapid transformations in the global digital market, the significance of utilizing digital technologies by every nation is increasing exponentially. According to *DataReportal*’s reports on global digital environment trends, compared to 2022, the number of mobile device users increased by 3.2%, internet users by 1.9%, and social media users by 3%. Moreover, it was highlighted that 68% of the world’s population actively engage in communication through digital platforms.

The defining feature of economic development in the 21st century is the formation of a digital transformation process and the emergence of modern professions. The rapid growth of the digital economy has profoundly reshaped the global labor market, leading to the emergence of new professional directions, work formats, and income-generation mechanisms. Labor resources are now actively engaged not only in traditional production sectors but also in areas such as information technology, artificial intelligence, cybersecurity, digital marketing, and data analytics.

In Uzbekistan, significant efforts are being made to integrate international best practices in digitalization. One such example was the signing of a Memorandum of Understanding on August 15, 2023, in Washington, between the Minister of Digital Technologies of Uzbekistan, Sherzod Shermatov, and the Deputy Administrator of USAID, Isabel Coleman, to enhance cooperation in digital innovation and technology exchange.

Furthermore, the Presidential Decree No. PQ-6079, dated October 5, 2020, titled *“On the Approval and Effective Implementation of the Digital Uzbekistan–2030 Strategy”*, aims to accelerate the development of the digital industry and enhance the competitiveness of the national economy. The strategy includes comprehensive programs for the digital transformation of regions and sectors, as well as a *roadmap* that encompasses goals related to e-government, digital industry, digital education, and

digital infrastructure.

The main objectives of the Digital Economy Program are clearly defined. The digital economy represents an economic system where data—expressed in digital form—serves as the primary factor of production and service delivery. It involves processing large volumes of information and analyzing the results to introduce more efficient solutions for production, services, technologies, logistics, and product delivery compared to traditional systems. In other words, the digital economy refers to activities associated with the development of online services, electronic payments, e-commerce, crowdfunding, and other areas linked to the advancement of digital computing technologies[5].

The development of digital economic systems has expanded opportunities for generating income through **remote work, freelancing, startups, and online services.** This process contributes to the **sustainable growth of household incomes,** the emergence of new forms of employment, and an increase in overall labor productivity. At the same time, the rise of economic activity through digital platforms has had a **positive impact on social equality, financial inclusion, and innovative employment processes.** The experience of developed countries demonstrates that the advancement of modern professions significantly enhances overall economic efficiency, provides the population with **high-technology employment opportunities,** and broadens the sources of **digital income generation.** According to the **OECD (2024),** every job created in the digital economy indirectly leads to the creation of **1.5 additional jobs** in related sectors, emphasizing the multiplier effect of digital transformation on labor markets.

In Uzbekistan, this direction is gaining particular importance. Within the framework of the **"Digital Uzbekistan – 2030" Strategy,** the country is witnessing the rapid expansion of **digital infrastructure, e-government, online payment systems, e-commerce, and IT education programs**. These developments are fostering the formation of new professional fields such as **software development, graphic design, data analytics, content management, and digital marketing**.

However, alongside the rapid progress of the digital economy, certain challenges remain. These include **insufficient technological adaptability of the labor force, skills shortages, underdeveloped retraining systems, and the persistence of the digital divide.** Therefore, conducting an in-depth analysis of the impact of modern professions on population income is crucial for improving existing economic policies and ensuring inclusive digital growth. In summary, the main objective of this research is to **analyze the factors contributing to income growth through the interaction**

between the digital economy and modern professions, as well as to identify their roles in enhancing **economic efficiency and social stability**.

Relevance of the Topic

At the current stage of global economic development, the **digital economy** and **emerging professional fields** have become the main drivers of the international labor market. Economic systems shaped by **artificial intelligence (AI), automation, Big Data**, and **digital platforms** are not only improving the quality of human capital but also creating new mechanisms for increasing household income and ensuring inclusive economic growth. According to the **UNCTAD Digital Economy Report (2019),** seven leading digital corporations — **Microsoft, Apple, Amazon, Google, Facebook, Alibaba, and Tencent** — accounted for approximately **two-thirds of global market capitalization.** Furthermore, nearly **40% of the global value added** in the information and communication technology (ICT) sector was generated by the **United States and China**, highlighting the concentration of digital wealth within advanced economies. Today, ongoing transformations in the labor market — including the rise of **freelancing, remote work, the gig economy, and startup activities** — are reshaping traditional income models and fostering the emergence of a **digital employment paradigm**. According to **OECD** and **World Bank (2023–2024)** data, the global digital professions sector is growing at an annual rate of **12–15%,** contributing up to **25% of total global income**.

In Uzbekistan, under the **"Digital Uzbekistan – 2030" Strategy**, the implementation of digital technologies, investment in **IT parks**, and the development of **information technology education** have been identified as strategic priorities. As a result, new professional fields are emerging, creating **high-income employment opportunities** for youth and qualified specialists. However, several pressing challenges remain, including the **digital divide, skills shortages, technological imbalances** in the labor market, and the **slow adaptation** to new economic relations. Therefore, a comprehensive and scientifically grounded analysis of the impact of modern professions and digital economic systems on population income is essential for developing **effective strategic policy recommendations**. The **relevance of this topic** lies in its focus on identifying mechanisms that ensure **sustainable economic growth and social well-being through digital transformation**, fully aligning with Uzbekistan's **innovation-driven development strategy** and long-term modernization objectives.

Literature Review

Issues related to the **information society, digitalization**, the **digital economy**, and its development have been extensively studied by scholars from both foreign countries and the Commonwealth of Independent States (CIS). Researchers such as **A.A. Abduvaliyev, A.B. Bobojonov, S.S. G‘ulomov, B.A. Begalov, A.Sh. Bekmurodov, A.A. Musaliyev, T.Z. Teshabayev, N. Nabiyeva, K.U. Turabayeva, D.N. Rakhimova, and S.M. Khodjaev** have conducted theoretical and applied research within the framework of the **digitalization policy of the national economy**. Their studies emphasize the interrelation between digital transformation, economic efficiency, and human capital development in the context of Uzbekistan’s modernization processes.

Research Methodology

The methodological foundation of this study is based on **theoretical frameworks of the digital economy,** the **human capital model**, and **economic concepts related to the transformation of modern labor markets.** The research employs a comparative and analytical approach, combining statistical data, international experiences, and national policy assessments to examine the impact of digital economic systems and modern professions on population income and economic growth.

Analysis and Results

The formation of digital economic systems and modern professions has emerged as one of the **key drivers of global economic growth** in recent years. This section analyzes the impact of the digital economy on population income, drawing upon both international experiences and Uzbekistan’s economic indicators. According to the **UNCTAD Digital Economy Report (2019)**, seven leading digital corporations — **Microsoft, Apple, Amazon, Google, Facebook, Alibaba, and Tencent** — accounted for approximately **two-thirds of total global market capitalization**. Furthermore, about **40% of the global value added** in the information and communication technology (ICT) sector was contributed by the **United States and China**.

As of **2021**, the share of the **digital economy in national GDP** stood at **1.6% in Uzbekistan**, compared to **9.3% in the United States, 3.8% in China**, and **8% in India**. This demonstrates the relatively early stage of digital transformation in Uzbekistan’s economy, while also underscoring its significant potential for growth and innovation. The analysis reveals that **digital transformation** and **modern professions** play a pivotal role in shaping income distribution, enhancing productivity, and ensuring

sustainable employment. The integration of technologies such as **artificial intelligence, software development, digital marketing, design, and data analytics** is not only reshaping the structure of the labor market but also contributing to the **diversification of income sources** and overall **economic efficiency.**

Conclusion

The findings of this research indicate that the **rapid development of the digital economy** and the **emergence of modern professions** have become critical factors driving national economic growth and increasing population incomes. In the context of Uzbekistan, the share of the digital economy **doubled between 2020 and 2024,** reflecting both the creation of new digital jobs and the stabilization of household incomes.

Furthermore, the expansion of **remote work, freelancing**, and **startup ecosystems** through digital platforms has contributed to improving **youth employment**, fostering **social engagement**, and promoting **inclusive economic development**.

In conclusion, fostering digital transformation in Uzbekistan's economy requires a comprehensive policy approach that integrates **technological innovation, education and training,** and **labor market adaptation**. Such measures are essential to maximize the socio-economic benefits of digitalization and to ensure sustainable growth in the era of the Fourth Industrial Revolution.

References

1. DataReportal. (2024). Global digital indicators analysis at the beginning of 2024. Retrieved from https://datareportal.com/ — a platform providing statistical analyses of global digital indicators.
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2022, January 28). Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 on the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022–2026. Retrieved from https://lex.uz/docs/-5841063
3. Zhao, S. (2020). Empirical study on the impact of digital economy on China's employment [Doctoral dissertation, Northeast University of Finance and Economics].
4. Bobojonov, A. B. (2018). Methodological aspects of developing the information products and services business in Uzbekistan [PhD Dissertation, Tashkent State University of Economics]. Tashkent: TSUE.
5. Gulyamov, S. S., et al. (2019). Blockchain technologies in the digital economy. Tashkent: Iqtisod-Moliya Publishing.

6. G‘aniyev, Sh. Sh. (2022). Modern trends in training personnel under the conditions of the digital economy in Uzbekistan. Bulletin of Science and Education. Retrieved from https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:qUcmZB5y_30C

7. G‘aniyev, Sh. Sh. (2023). Priority directions for the effective management of human resources in the context of the digital economy in the Republic of Uzbekistan. Bulletin of Science and Education. Retrieved from https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=FlqmKcEAAAAJ&citation_for_view=FlqmKcEAAAAJ:ZeXyd9-uunAC

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

XUFAR ZIYORATGOHLARI VA TO‘Y MAROSIMLARINING MA’NAVIY AHAMIYATI

Nasriddinov Dilovar Muslixadim o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatining Xufar qishlog‘ida saqlanib kelayotgan ziyoratgohlar va to‘y marosimlari tahlil qilinadi. Xufar aholisi orasida shakllangan diniy e’tiqod, xalq og‘zaki ijodi va urf-odatlar orqali muqaddas joylarga bo‘lgan hurmat, to‘y va sunnat marosimlarining ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xufardagi diniy marosimlar va ziyorat an’analari xalqning ma’naviy hayoti, birlik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.
Kalit so‘zlar: Xufar, ziyoratgoh, marosim, xalq og‘zaki ijodi, to‘y, xatna, sunnat, diniy an’ana, avliyo, Xujamqara, hatmi Qur’on.
Abstract: This article examines the sacred sites and wedding rituals preserved in the village of Khufar, located in Uzbekistan’s Surkhandarya region. Through an analysis of local religious beliefs, oral traditions, and customary practices, the study highlights the community’s enduring reverence for sacred places and the social importance of wedding and circumcision ceremonies. The findings reveal that the religious and pilgrimage traditions of Khufar play a vital role in nurturing the community’s spiritual life, reinforcing collective identity, and fostering social cohesion within the broader cultural landscape of the Surkhan Valley.
Keywords: Khufar, shrine, ritual, folk oral tradition, wedding, circumcision, religious custom, saint, Khujamqara, recitation of the Qur’an

O‘zbekiston janubida joylashgan Xufar qishlog‘i o‘zining qadimiy madaniyati, diniy qadriyatlari va xalq og‘zaki ijodi bilan ajralib turadi. Bu hududda asrlar davomida shakllangan ziyorat joylari va marosim an’analari mahalliy aholining e’tiqodi va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi.

Xalq orasida avliyolarning qabri deb e’tiqod qilinadigan joylar, to‘y va sunnat marosimlari orqali e’tiqodiy, axloqiy va ijtimoiy birlik mustahkamlanadi.

Muqaddas maskanlar. Xufarda qadimdan mashhur bo‘lgan bir qator ziyorat joylari mavjud: Xo‘ja Isohon Vali, Xo‘ja G‘oyib, Mulla Xo‘ja Qaro, Sangi kalon, Xo‘ja Barkuh va boshqalar. Bu joylar xalq orasida avliyolar yotgan yoki qadami tegkan maskan sifatida e’tiqod qilinadi. Ziyoratchilar bu joylarda Qur’on tilovati qiladi, duo

o‘qiydi va Allohdan madad so‘raydi.

Ziyoratgohlarning shakllanishi, asosan, islomiy e’tiqod bilan bir qatorda, xalqning qadimiy an’analari bilan ham bog‘liqdir.

Xujamqara ziyoratgohi. Xufarning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan Xujamqara ziyoratgohi qishloqdan 8–10 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, “Xayiti Eshon” nomi bilan ham mashhur. Bu joy xalq orasida orzular ro‘yobga chiqadigan muqaddas maskan sifatida qadrlanadi. Ziyoratchilar yozu-qish demay bu joyga kelib, Qur’on tilovat qiladi, nazr-niyozlar keltiradi[1].

Bu holat xalq orasida avliyolarga bo‘lgan ehtirom va Allohga bo‘lgan muhabbatning amaliy ifodasi sifatida ko‘riladi.

Yetti avliyo rivoyati. Xufar aholisining e’tiqodida “Yetti avliyo” haqida mashhur rivoyat mavjud. Unga ko‘ra, qadimda bu hududda yetti aka-uka yashagan, ular solih va halol kishilar bo‘lgan.

Ularning qabrlari hozirgacha ziyorat qilinadi:

Xo‘ja Pesh — Sangardak bog‘ida,

Xo‘ja Ilgor — Sangardak darasida,

Xo‘ja Asmin va Xo‘ja Aspbon — Xonchiza hududida,

Xo‘ja Murud — Dexobod tog‘larida,

Xo‘ja Barkuh — Xufarning yuqori qismida joylashgan.

Bu ziyoratgohlar xalq uchun e’tiqodiy markaz bo‘lib xizmat qiladi va ularning ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallaydi.

Xufarda to‘y va diniy marosimlar. To‘y va tayyorgarlik an’analari. Xufarda to‘y marosimlari, ayniqsa, yozning oxiri va kuz boshlarida — hosil yig‘imi tugagan paytlarda o‘tkaziladi. To‘y joyi sahro yoki keng hovlida tayyorlanadi. Har bir qarindosh va qo‘shni yordam beradi: kimdir qozon olib keladi, kimdir taom pishiradi, boshqalar mehmonlarni kutib oladi. To‘y odatda 3–4 kun davom etadi, bu paytda qo‘shni qishloqlardan ham mehmonlar keladi. Sozandalar chaladi, xalq raqsga tushadi, o‘yinlar o‘tkaziladi[2].

Xatna (sunnat) to‘yi. Xufarda xatna to‘yi eng muhim diniy marosimlardan biridir. Odatda u bahor yoki yoz oylarida o‘tkaziladi. Marosim oqsoqollar duosi bilan boshlanadi. Bola oq kiyim kiyadi, boshi ipak yoki atlas ro‘mol bilan o‘raladi. Xalq “Allohu Akbar” deb duo qiladi, bolani ko‘tarib yurishadi, unga sovg‘alar — kiyim, pul, atir, shirinliklar taqdim etiladi. Bu marosim islomiy e’tiqod, poklik va oila

[1] “Зиёратгоҳи Хуфар” — Tojik tilidagi xalq og‘zaki to‘plami

[2] Xufar qishlog‘i aholisi og‘zaki ma’lumotlari (2024-yil yozgi ekspeditsiya).

shodiyonasining timsolidir[3].

Hatmi Qur’on marosimi. To‘ylar orasida Hatmi Qur’on marosimi ham o‘tkaziladi. Imom Qur’on tilovat qiladi, 15–20 kishi ishtirok etadi. Tilovatdan so‘ng Allohdan baraka, farzandga sog‘lik va umr so‘raladi. So‘ng duolar bilan dasturxon yoziladi[4].

Xufar xalqi uchun ziyoratgohlar, to‘y va sunnat marosimlari nafaqat diniy e’tiqodning ifodasi, balki xalq birligi va mehr-oqibat ramzidir. Bu an’analar orqali Xufar aholisi Allohga bo‘lgan sadoqatini, milliy qadriyatlarga ehtiromini va ijtimoiy birdamlikni namoyon etadi. Ziyoratgohlar xalq xotirasi va e’tiqodining tirik guvohi bo‘lib, to‘y marosimlari esa — bu xotiraning davomiyligini ta’minlovchi ijtimoiy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Зиёратгоҳои Хуфар” — Tojik tilidagi xalq og‘zaki to‘plami.
2. Xufar qishlog‘i aholisi og‘zaki ma’lumotlari (2024-yil yozgi ekspeditsiya).
3. T. To‘xtayeva. O‘zbekiston marosim madaniyati. Toshkent, 2018.
4. Surxondaryo viloyati etnografik materiallari to‘plami (2020–2024

[3] Surxondaryo viloyati etnografik materiallari to‘plami (2020–2024)
[4]T. To‘xtayeva. O‘zbekiston marosim madaniyati. Toshkent, 2018.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda biologiya fanining o‘rni

Xoliqulova Zulayxo
Chilonzor tumani 232 maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jarayonida biologiya fanining ahamiyati tahlil qilingan. Biologiya bilimlari inson organizmining asosiy funksiyalari, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va kasalliklarning oldini olish bilan bog‘liq jarayonlarni chuqur tushunishga yordam beradi. Tadqiqotda biologiya fanini o‘quv jarayonida qo‘llash orqali yoshlar va kattalar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, biologiya fani, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, profilaktika, ta’lim.
Аннотация. В статье анализируется роль биологии в формировании здорового образа жизни. Знания биологии помогают глубже понять функции человеческого организма, здоровое питание, физическую активность и профилактику заболеваний. Исследование рассматривает эффективные методы внедрения биологических знаний в образовательный процесс для популяризации здорового образа жизни среди молодежи и взрослых.
Ключевые слова: здоровый образ жизни, биология, здоровое питание, физическая активность, профилактика, образование.
Abstract. This article examines the role of biology in promoting a healthy lifestyle. Knowledge of biology helps to understand human body functions, healthy nutrition, physical activity, and disease prevention. The study explores effective methods of applying biological knowledge in the educational process to encourage a healthy lifestyle among youth and adults.
Keywords: healthy lifestyle, biology, healthy nutrition, physical activity, prevention, education.

Bugungi kunda sog‘lom turmush tarzi insonning hayot sifati va uzoq umr ko‘rishi uchun muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan saqlanish va ruhiy holatni boshqarish kabi elementlar shaxsning umumiy salomatligi va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, biologiya fani inson organizmining tuzilishi, funksiyalari va rivojlanish jarayonlarini chuqur tushunishga yordam beradi, bu esa sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda nazariy va amaliy asos yaratadi.

Biologiya bilimlari orqali insonning ovqat hazm qilish tizimi, mushak-skelet tizimi, yurak-qon tomir va immun tizimlari kabi organizm funksiyalari haqida aniq tushuncha hosil qilinadi. Bu esa sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va unga rioya qilishni osonlashtiradi. Shu sababli, biologiya fanini ta’lim jarayonida va kundalik hayotda qo‘llash orqali yosh avlod va kattalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish dolzarb va muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari sifatida adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatuv va so‘rovnoma, eksperiment va statistik tahlil usullari qo‘llandi. Kuzatuv va so‘rovnomalar orqali turli yoshdagi ishtirokchilarning sog‘lom turmush tarziga rioya qilish darajasi va biologiya fanidan olingan bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatlari aniqlandi. Eksperiment orqali biologiya fanining ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi samaradorligi baholandi.Biologiya fanining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy mashg‘ulotlar va profilaktik choralarni qo‘llash orqali bemorlarni va sog‘lom odamlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu mavzu nafaqat ta’lim sohasida, balki sog‘liqni saqlash va profilaktika tizimida ham katta ahamiyatga ega.

Biologiya fanining asosiy bilimlari va prinsiplari yordamida yoshlar va kattalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va targ‘ib qilish usullarini aniqlash, Sog‘lom turmush tarzining asosiy elementlari va uning inson salomatligiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda biologiya fanining rolini aniqlash uchun bir nechta metodlar qo‘llanildi. Avvalo, adabiyotlarni tahlil qilish orqali biologiya va sog‘lom turmush tarziga oid ilmiy maqolalar, darsliklar va xalqaro manbalar ko‘rib chiqildi va mavzu bo‘yicha nazariy asoslar aniqlandi. Shuningdek, kuzatuv va so‘rovnoma usuli yordamida turli yoshdagi ishtirokchilar — o‘quvchilar, talabalar va kattalar — orasida sog‘lom turmush tarziga rioya qilish darajasi va biologiya fanidan olingan bilimlarni amaliy qo‘llash imkoniyatlari kuzatildi. Bundan tashqari, eksperiment usuli tatbiq qilinib, biologiya fanining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi samaradorligi ta’lim jarayonida maxsus metodikalar va mashg‘ulotlar orqali sinab ko‘rildi. Olingan natijalar esa statistik tahlil yordamida matematik va statistik usullar bilan o‘rganildi, tendensiyalar aniqlanib, samaradorlik darajasi baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, biologiya fanidan olingan bilimlarni amaliy hayotda qo‘llash sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda sezilarli ijobiy natijalar berdi. Kuzatuv va so‘rovnoma natijalari ko‘rsatdiki, ishtirokchilar sog‘lom ovqatlanish odatlari bilan bog‘liq bilimlarni qo‘llaganda, 65%–70% ishtirokchi sog‘lom ovqatlanishga rioya qilgan. Shuningdek, jismoniy faollik darajasi sezilarli darajada

oshgan: 50% dan 75% gacha ishtirokchilar muntazam sport bilan shug‘ullana boshlagan. Profilaktik choralar va kasalliklardan saqlanish bo‘yicha amaliy bilimlarni qo‘llash darajasi ham sezilarli darajada o‘sdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, biologiya fanining amaliy qo‘llanilishi nafaqat sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga yordam beradi, balki ishtirokchilarda bilimlarni amalda qo‘llashga intilish va motivatsiyani ham oshiradi.

Eksperiment natijalari shuni ko‘rsatdiki, biologiya fanini interaktiv va amaliy metodlar orqali o‘rgatish, masalan, laboratoriya ishlar, sog‘lom ovqat tayyorlash mashg‘ulotlari va jismoniy faollikni kuzatish, yoshlar va kattalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga samarali ta’sir qiladi.

Statistik tahlil yordamida aniqlanishicha, biologiya bilimlarini amaliy qo‘llash bilan sog‘lom turmush tarzini qo‘llash darajasi o‘rtacha 40–45% ga oshgan. Bu esa biologiya fanining ta’lim jarayonida va kundalik hayotda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, biologiya fanining ta’lim jarayonida va amaliy hayotda qo‘llanilishi sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biologiya bilimlari inson organizmining tuzilishi, uning asosiy tizimlari va funksiyalari, shuningdek, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va kasalliklardan profilaktika qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Kuzatuv va eksperiment natijalari ko‘rsatdiki, biologiya fanini interaktiv va amaliy metodlar orqali o‘rgatish ishtirokchilar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va unga rioya qilish darajasini 40–45% ga oshiradi. Shu tariqa, biologiya fanini ta’lim jarayonida va kundalik hayotda qo‘llash yoshlar va kattalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning samarali vositasi ekanligi aniqlandi. Biologiya fanining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli nafaqat nazariy bilim berish, balki amaliy mashg‘ulotlar va profilaktik choralarni qo‘llash orqali aholining umumiy salomatligini yaxshilash va uzoq umr ko‘rish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Soliyev, F. (2025). INSONLAR HAYOTIDA “VALEOLOGIYA ASOSLARI”NING TUTGAN O‘RNI VA SOG’LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTISH . Физическое воспитание, спорт и здоровье, 3(3). извлечено от https://pshedu.jdpu.uz/index.php/pshedu/article/view/8368 (Original work published 8 апрель 2023 г.)
2. Aminov V. Sog‘lom turmush tarzi — inson omilini kuchaytirish garovi. — T.: Meditsina,1999.
3. Boxodirov K., Boboxodjayev N. Sog‘lig'ingiz o‘z qo‘lingizda. — T.: Meditsina.
4. Mahkamov M., Sodiqov Q. Sog'lom avlod yarataylik. — T.: «0‘qituvchi», 1996.
5. Musurmonova O. 0‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. — T.: Fan, 1993.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

BROKKOLI KARAMINING HOSILDORLIGINI OSHIRISHDA FOSFORLI O'G'ITLARNING O'RNI

Y.SH. Mahmudov
P.V. Negmatova
Y.X.Eshmamatovna
M.A.Jo'ramurodova
Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutining 2-bosqich magistrantlari
yoqubxonmahmudov20@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda fosforli o‘g‘itlarning turli do‘zalarining brokkoli karamining hosildorligiga ta’siri o‘rganildi. Eng yuqori hosil (19,0 t/ga) 120 kg/ga P_2O_5 variantida olindi.
Kalit so’zlar: Brokkoli, fosforli o’g’it, sabzavotchilik, hosildorlik, ekin maydoni, ko‘chat.
Резюме: Изучено влияние доз фосфорных удобрений на урожайность брокколи. Максимальный урожай (19,0 т/га) получен при 120 кг/га P_2O_5.
Ключевые слова: брокколи, фосфорные удобрения, урожайность, овощеводство, Самарканд, посевная площадь, рассада.
Abstract: The study examined the effect of phosphorus fertilizer doses on broccoli yield. The highest yield (19.0 t/ha) was obtained at 120 kg/ha P_2O_5.
Keywords: broccoli, phosphorus fertilizer, yield, vegetable growing, Samarkand, cultivation area, seedling.

Kirish: Brokkoli sabzavot ekini sifatida O‘zbekistonda ko‘p ekilmasa ham so‘nggi yillarda katta e’tibor qozonmoqda. Uning biologik qiymati yuqori, tarkibida C, K, A vitaminlari, mikro va makroelementlar ko‘pligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, brokkoli yetishtirishda o‘g‘itlash tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir. Fosforli o‘g‘itlar ildiz tizimi rivojlanishi va hosilning hosil bo‘lishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Shuning uchun biz brokkoli hosildorligiga turli do‘zadagi fosforli o‘g‘itlarning ta’sirini kuzatdik va o’rgandik.

Tadqiqot materiali va usullari. Tajriba Urgut tumanining tipik bo‘z tuproqlarida 2025-yil vegetatsiya davrida o‘tkazildi. Urug‘lar 25-yanvarda issiqxonaga ekildi va 10-mart sanasida dalaga olib chiqilib ekildi, hosil 20–25-may kunlari yig‘ib olindi. Tajriba maydoni 4 variantdan iborat bo‘lib, har bir variant 4 marta takrorlandi. Har bir variant

4 qatordan iborat bo'lib chekkadagi qatorlar himoya va o'rtadagi qatorlar esa nazorat bo'lib xizmat qildi. Ekish sxemasini 70x25 sm qilib ekildi va gektariga 57000dona ko'chat ketishi malum bo'ldi. O'lkamiz mintaqasi nisbatan issiq iqlim sharoitiga ega bo'lganligi sababli o'suv davri biroz qisqardi va brokkoli karamlari nisbatan ertaroq yetildi.

V1 – Nazorat (fosforli o‘g‘itsiz), V2 – P100 (100 kg/ha P_2O_5),
V3 – P120 (120 kg/ha P_2O_5), V4 – P125 (125 kg/ha P_2O_5).

Vegetatsiya davomida 8 marta sug‘orish amalga oshirildi. Har bir boshning og‘irligi, hosildorlik (t/ga) va sifati kuzatildi. Har bir brokkoli ko'chatlari kuzatilib bargining kattaligi va shakli o'lchab borildi.

Natijalar va muhokama: Tajriba natijalariga ko‘ra, fosforli o‘g‘it qo‘llanilgan variantlarda brokkoli boshchalari yirik va bir xil shaklda hosil bo‘ldi. Nazorat variantida boshchalar o‘rtacha 200–230 g bo‘lgan bo‘lsa, P100–P125 dozalarda bosh og‘irligi 320–350 g gacha yetdi.

1-jadval. Brokkoli hosildorligiga fosforli o‘g‘itlarning ta'siri

Variantlar	O‘rtacha bosh og‘irligi(g) Hosildorlik (t/ga)	Izoh
Nazorat	210–230 gram, 12,5–13,0 t	Boshlar mayda, notekis
P100	280–320 gram, 16,8–17,2 t	Hosildorlik oshdi
P120	320–350 gram, 18,5–19,0 t	Eng yaxshi natija
P125	300–340 gram, 18,0–18,2 t	Biroz pasayish kuzatildi

Eng yuqori natija P120 (120 kg/ha P_2O_5) variantida qayd etildi – hosildorlik 19,0 t/ga atrofida bo‘ldi. P125 da esa biroz pasayish kuzatildi, bu esa ortiqcha fosforning o‘zlashtirilmasligidan dalolat beradi. Shuningdek, sug‘orish soni (8 marta) ham hosil shakllanishida muhim ro‘l o‘ynadi. Fosforli o‘g‘itlar berilgan variantlarda ildiz tizimi yaxshi rivojlanib, barglar to‘q yashil va fotosintez intensivligi yuqori bo‘ldi. Fosfor kam qo'llanilgan brokkoli boshchalari esa nisbatan rangi ochiq va boshchasi kichik bo'lib qoldi, bu esa brokkolining hosildorligiga tasir ko'rsatdi. Biz olgan natijalar xalqaro va mahalliy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan uyg‘un bo‘lib (Smith et al., 2021; Abduraxmonov, 2019), brokkoli yetishtirishda fosforli o‘g‘itlarning samarali qo‘llanilishini tasdiqlaydi.

Kuzgi shudgorlashda fosforli o‘g‘itlarning o‘rni. Tadqiqot doirasida 2024-yilning kuz oyida (oktabrda) chuqurligi 25–28 sm bo‘lgan kuzgi shudgorlash amalga oshirildi va tuproqqa 60 kg/ga P_2O_5 fosforli o‘g‘it kiritildi. Bu esa tuproqning oziqlanish muhitini yaxshilab, keyingi bahorgi o‘stirish davrida ko‘chatlarning ildiz tizimini tez

va barqaror rivojlantirishga xizmat qildi. Fosforning harakatchanligi past bo‘lganligi sababli kuzgi shudgorlashda kiritilishi ularning o‘zlashtirilishini ta’minladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, brokkoli karamining hosildorligini oshirishda fosforli o‘g‘itlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, 120 kg/ha P_2O_5 dozasi eng yaxshi natijani berdi – 19,0 t/ga hosildorlik va yuqori sifatli boshchalarning shakllanishiga olib keldi. Fosforning fiziologik ta’siri, ayniqsa, ildiz tizimi va fotosintez jarayonida muhim bo‘lib, ko‘chatlarning sog‘lom rivojlanishiga, hosil bir tekis shakllanishiga xizmat qildi. Iqtisodiy jihatdan ham P120 varianti fermerlar uchun optimal variant bo‘lib, investitsiyalangan xarajatlarni to‘liq qoplaydi va yuqori daromad beradi. Tadqiqot natijalari nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, brokkoli yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari va agrotexnologlar uchun tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Smith, R., Johnson, M., & Lee, T. (2021). Phosphorus Management in Vegetable Crops. Journal of Horticultural Science.
2. Abduraxmonov A. (2019). O’zbekiston sharoitida fosforli o‘g‘itlarning samaradorligi. Toshkent. Agronashr.
3. FAO. (2020). Fertilizer Use by Crop in Central Asia. FAO Report.
4. Tursunov N.R. Yunusova Sh. (2023). Oziq-ovqat xavfsizligida sabzavotchilikning o‘rni. SamDU Axborotnomasi.
5. Zuev I.V. (1981). Sabzavotchilik. Toshkent. O‘qituvchi

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

TOSHKENT MINTAQASIDA TURIZM TARMOG‘INING MINTAQAVIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Shodiyeva Nafosat Hamza qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
e-mail: **nafosatkhons@gmail.com** telefon raqam: +998910096970
Ro’zmatov Boburjon Zafarjon o’g’li
Zangiota tumani ixtisoslashtirilgan maktabi geografiya fani o’qituvchisi,
e-mail: **ruzmatov.bobur@gmail.com** telefon raqam: +998903619812

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent mintaqasida turizm tarmog‘ining mintaqaviy iqtisodiyotdagi o‘rni, uning rivojlanish yo‘nalishlari va iqtisodiy ta’siri tahlil qilingan. Mintaqada turizm sohasining iqtisodiy salohiyati, investitsion imkoniyatlari hamda hududiy infratuzilmaning ta’sir darajasi o‘rganiladi. Mazkur mavzu bugungi kunda dolzarb bo‘lib, Toshkent mintaqasining iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda turizm tarmog‘i strategik ahamiyat kasb etadi.
Kalit so’zlar: turizm, mintaqaviy iqtisodiyot, investitsiya, infratuzilma, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish:

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar sektori, xususan turizm sohasi tez sur’atlarda rivojlanmoqda. Bu jarayonda Toshkent mintaqasi o‘zining tabiiy-geografik sharoiti, transport-kommunikatsiya imkoniyatlari hamda madaniy meros obyektlari bilan ajralib turadi. Turizm mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy faollikni oshiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va mahalliy byudjetga tushumlarni ko‘paytiradi. Shu boisdan turizm tarmog‘ining Toshkent mintaqasi iqtisodiyotidagi o‘rnini o‘rganish va uning rivojlanish omillarini tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism:

Toshkent mintaqasi O‘zbekistonning iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lib, unda turizm tarmog‘i xizmatlar sohasining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Mintaqada so‘nggi yillarda dam olish maskanlari, mehmonxonalar, transport va aloqa tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Chorvoq, Amirsoy, Parkent, Qibray kabi hududlarda rekreatsion va ekologik turizm yo‘nalishlari kengayib bormoqda. Turizm mintaqada bandlikni oshiradi: statistik ma’lumotlarga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan ishchi kuchining 10 foizdan ortig‘i turizm bilan bevosita bog‘liq.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar oqimining muhim qismi turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda.

Turizm mintaqaviy iqtisodiyotda ko‘p tarmoqli ta’sir kuchiga ega. U mahalliy ishlab chiqaruvchilar, transport, savdo, ovqatlanish tizimi, hunarmandchilik va axborot xizmatlari bilan uzviy bog‘langan. Natijada, turizm klasterlari shakllanib, iqtisodiy o‘sish va bandlikni ta’minlaydi. Toshkent mintaqasida davlat siyosati, xususiy sektor faoliyati va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish turizmning barqaror rivojlanish omillari sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa:

Toshkent mintaqasida turizm tarmog‘i mintaqaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda. Uning rivojlanishi iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida ekologik, madaniy va biznes-turizm yo‘nalishlarini kengaytirish, transport va xizmatlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizmni rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari (2024–2025-yillar).
3. Raximov A., “Mintaqaviy iqtisodiyot asoslari”, Toshkent, 2022.
4. Saidov B., “Turizm iqtisodiyoti va menejmenti”, Toshkent, 2023.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA MILLIY QADRIYATLAR VA AN’ANAVIY SAN’AT NAMUNALARINI O‘QITISHNING O‘QUV-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Muallif: **Xayrullayeva Munisa** , Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik” kafedrasi, 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Xalilov Lenar Shevketovich** ,Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik” kafedrasi, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasviriy san’at darslarida milliy qadriyatlar va an’anaviy san’at namunalarini o‘qitishning o‘quv-tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Maqolada milliy merosni ta’lim jarayoniga kiritish orqali o‘quvchilarda estetik did, milliy o‘zlik, ijodiy fikrlash va ma’naviy ongni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy san’at namunalariga tayangan holda tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning madaniy xotirasini mustahkamlaydi, ularni vatanparvarlik, bag‘rikenglik va estetik qadriyatlarga yo‘naltiradi.

Kalit so‘zlar: tasviriy san’at, milliy qadriyatlar, an’anaviy san’at, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, xalq amaliy san’ati, ma’naviy meros, ta’lim samaradorligi.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yosh avlod qalbiga singdirish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san’at fani o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va estetik tafakkurni rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. San’at orqali tarbiya qilish – bu insonni nafaqat go‘zallikni anglashga, balki uni yaratishga ham o‘rgatishdir. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda Milliy ta’lim dasturida san’at va madaniyatni o‘qitish orqali yosh avlodning ma’naviy kamolotini ta’minlash zarurligi alohida qayd etilgan [1].

So‘nggi yillarda o‘zbek pedagogikasida san’at ta’limida milliy qadriyatlarni o‘qitish masalasiga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Musinova A.S. (2020) o‘z ishida milliy zargarlik va to‘qimachilik san’atining o‘quvchilar estetik dunyoqarashini shakllantirishdagi rolini tahlil qilib, bu yo‘nalishni “madaniy xotira va ijodiy merosni davom ettirish vositasi” deb baholaydi [2].

Naralieva Sh. va Khamroeva Kh. (2023) milliy qadriyatlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni shakllantirishda asosiy manba ekanini, ularni

ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, deb ta’kidlaydi [3]. Shuningdek, Mamadaliyev M.M. (2025) milliy an’analar jamiyatning axloqiy va estetik rivojida muhim o‘rin tutishini qayd etadi. Unga ko‘ra, o‘quvchilar xalq og‘zaki ijodi, amaliy bezak san’ati, libos va naqsh uslublari orqali milliy o‘zlikni chuqur his eta boshlaydilar [4].

Tadqiqot nazariy va tajribaviy yondashuvlar asosida olib borildi. Nazariy bosqichda tasviriy san’at ta’limida milliy qadriyatlar va an’anaviy san’at namunalarini o‘qitishning estetik, pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilindi. Xususan, xalq pedagogikasi, badiiy tarbiya nazariyasi, estetik idrok va ijodiy tafakkurni rivojlantirish konsepsiyalari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida komparativ tahlil, kuzatish, pedagogik diagnostika va amaliy tajriba usullaridan foydalanildi. O‘qituvchilarning dars jarayonida milliy qadriyatlardan foydalanish tajribalari o‘rganilib, o‘quvchilarning estetik dunyoqarashi va ijodiy faolligiga ta’siri tahlil etildi. Nazariy jihatdan, milliy qadriyatlar tasviriy san’at ta’limida badiiy idrokni shakllantiruvchi omil sifatida ko‘rib chiqildi. Shu asosda, o‘quv jarayoniga xalq amaliy bezak san’ati, miniatyura, naqsh, kashtachilik, zardo‘zlik, kulolchilik, ganch o‘ymakorligi kabi turlarni integratsiya qilish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tajriba bosqichida milliy san’at namunalariga tayangan o‘qitish metodlari, vizual tahlil, interfaol mashg‘ulotlar va ijodiy topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Har bir darsda milliy bezak elementlari va tarixiy obrazlardan foydalanish o‘quvchilarning estetik hissiyotini kuchaytirishi, o‘zligini anglashini ta’minlashi kuzatildi. Natijada, nazariy tahlillar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuv tasviriy san’at darslarini nafaqat mazmunan boyitadi, balki o‘quvchilarning ma’naviy, estetik va ijodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xitoy poytaxti Pekin shahrida 2000 yilda Termiz davlat universitetining Ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi A.Xudoyqulov YUNESKOning “Qishloq ta’limini rivojlantirish” mavzusidagi seminar – treningda ishtirok etdi[14]. O‘zbekiston Respublikasi bilan YUNESKOning siyosiy – madaniy rivojlanishida, zamonaviy fanning ilg‘or yutuqlarini oliy ta’lim tizimiga joriy etishda,kadrlar tayyorlash, ilm – fan va ta’lim sohasidagi o‘zaro hamkorligi respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy, hamda jahon tajribasi asosida kadrlar tayyorlash, inson va uning intellektual, global va mintaqaviy muammolarni bartaraf etishda hamda aqliy va jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Respublika Tashqi ishlar vazirligi, YUNESKO ishlari bo‘yicha Milliy komissiya va Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti hamkorligida Samarqand davlat universitetida “Temuriylar renessansining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni” (1996, 2011), “Mirzo Ulug‘bekning jahon ilm – fani rivojiga qo‘shgan hissasi” (2009) mavzularida xalqaro konferensiyalar o‘tkazildi[15] .

O‘zbekiston Respublikasi bilan YUNESKO va Germaniyaning Bonn universitetiga qarashli Rivojlanishlarni tadqiq qilish markazi (ZEF) o‘rtasidagi shartnoma 2002 yilning yanvar oyida imzolanib, uzoq muddatga mo‘ljallangan ilmiy – tadqiqot dasturi “Xorazm viloyatida yer va suvdan foydalanishning iqtisodiy va ekologik qayta qurish” deb nomlandi. Mazkur loyiha O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda Urganch davlat universiteti olimlari bilan birgalikda amalga oshirildi[16] .

2006 yilning 7 – 10 sentabr kunlari BMT ning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti YUNESKO bosh direktori Koichiro Matsuura O‘zbekistonda bo‘ldi. Tashrif davomida O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida ustuvor ahamiyat kasb etuvchi yo‘nalishlar, xususan, ta’lim va madaniyat

[13] Ўзбекистон ва БМТ: муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. –Т., 2021. – Б.214.
[14] Ўзбекистон ва БМТ: муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. –Т., 2021. – Б.214.
[15] Истиқлол ва СамДУ. – Самарқанд, 2017. – Б. 112.

[16] Давлетов С Ёшларнинг экологик онги ва маданиятини юксалтириш – атроф – муҳит мусаффолигига эришишнинг муҳим омили // Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси. – 2012 . – №3. – Б.39.

sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi [17]. O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligi davomida turli yillarda o‘zbekistonlik ko‘plab olim va tadqiqotchilar tashkilotning xalqaro ilmiy va o‘quv grantlarini qo‘lga kiritdilar. Jumladan, 3 nafar tadqiqotchi YUNESKOning “Ipak yo‘li” nomli Xirayama granti (Yaponiya), 2 kishi Obuchi granti (Yaponiya), 8 kishi Buyuk devor (Xitoy), kishi MASHAV (Isroil), 1 kishi Chexiya granti, 4 kishi Koreya granti, 1 kishi tashkilotning ustuvor yo‘nalishlarni qo‘llab – quvvatlash grantining sohibi bo‘lgani o‘zaro ilmiy hamkorlikning amaliy samaralarini ko‘rsatadi[18] . 1997 – 2010 yillarda O‘zbekiston Milliy universitetining bir nafar aspiranti YUNESKO yo‘nalishi bo‘yicha Koreyada ilmiy safarda, bo‘ldi universitetning Tarix fakulteti professor – o‘qituvchilari Yaponiyada YUNESKO homiyligida o‘tkazilgan II xalqaro “Buyuk ipak yo‘li” simpoziumida ishtirok etdi[19]. Buxoro davlat unversiteti dotsenti O.Qodirov esa YUNESKO tashkiloti tomonidan hunarmandchilik mahsulotlariga beriladigan 15 ta sifat sertifikatlari bilan taqdirlandi. Ushbu universitetning professor – o‘qituvchilaridan dotsent U.Rashidov O‘zbekiston va Buxoro tarixi sohasidagi xizmatlari uchun YUNESKO tasarrufidagi Xalqaro qadimshunoslik akademiyasining doktorlik unvoniga S.Raupov va N.Bekovalar esa YUNESKO huzuridagi Xalqaro “Antigue World” ilmiy akademiyasining doktori faxriy unvonlariga sazovor bo‘ldilar[20] . O‘zbekistonlik olima ayollar YUNESKOning “Tabiiy fanlarda olima ayollar” nomli L’Oreal qo‘shma granti va “Inson va biosfera” dasturlarida faol ishtirok etdi. Shu bilan birga qo‘shma grantga 2006 yili ToshdAU tadqiqotchisi Dilfuza Egamberdiyeva, 2007 yilda O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti ilmiy xodimi Barno Sultonova, 2010 yili O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti ilmiy xodimi Nilufar Mamadaliyevalar ishtirok etdi[21] . Shuningdek, uch nafar o‘zbek olima ayollari YUNESKOning “Fanda olima ayollar” mukofotiga sazovor bo‘ldi. Ilm – fanning turli sohalarida faoliyat olib borgan O‘zR FA yosh olimlari 2009 yildan buyon dolzarb ilmiy loyihalari bilan BMT ko‘magida faoliyat olib

[17] Шукуров Ғ. ЮНЕСКО ва Ўзбекистон ҳамкорлиги // Халқ сўзи, 2006 йил 6 сентябр.
[18] ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий Комиссияси. 1994 – 2009. 4615900003 UZB – сонли ЮНЕСКО Қатнашув дастури. – Тошкент, 2009. – Б. 14.
[19] National Commissions for UNESCO Commissions nationales pour l'UNESCO Headquarters of UNESCO/flags/Statue Moore/Eiffel Tower© UNESCO/Patrick Lagès 2018. – Б. 72.
[20] National Commissions for UNESCO Commissions nationales pour l'UNESCO Headquarters of UNESCO/flags/Statue Moore/Eiffel Tower© UNESCO/Patrick Lagès 2018. – Б. 72.
[21] Бухоро давлат университети. Иккинчи китоб. Илм ва таълим фидойилари. (Биографик маълумотнома)– Бухоро, 2016. – Б.35 – 176 (511).

boruvchi Xalqaro Fanlar akademiyasining (TWAS) mukofotlari bilan taqdirlandi[22] .

Paxta genomikasi sohasidagi o‘zbek olimlarining yangi avlod vakili biologiya fanlari doktori I.Abdurahmonov 2010 yilda Ummon poytaxti Maskatda Xalqaro Fanlar akademiyasining (TWAS) 25 – yig‘ilishida uning a’zoligiga qabul qilindi[23] .

2010 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti restavratsiya laboratoriyasi YUNESKO ko‘magida zamonaviy jihozlar bilan ta’minlandi[24] .

YUNESKOning Respublikadagi vakolatxonasi bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rtasidagi hamkorlik doirasida ijtimoiy va gumanitar fanlar dasturi bir qancha sohalarga yo‘naltirilgan. Ilmiy hamkorlik va tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan turli tadbirlar orqali yoshlarning huquq imkoniyatlarini kengaytirish, tabiiy fanlar soxasida ilmiy – tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar, shu jumladan aspirantlar va suv resurslari yo‘nalishida ilmiy izlanishda bo‘lgan tadqiqotchilar malakasini oshirishn hamda ularning tadqiqot natijalarini xalqaro ilmiy nashrlarda chop ettirishga ko‘maklashish shular jumlasidandir [25].

YUNESKO Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining ilm – fan, ta’lim va ilmiy – tadqiqot ishlarini doimiy ravishda monitoring qilib bordi. Tashkilotning 2013 yili e’lon qilgan hisobotida O‘zbekiston 2003 – 2013 yillar davomida ilmiy – tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar YAIMning 0,4 foizini tashkil etishi ko‘rsatilgan bo‘lsa qo‘shni respublikalar Qozog‘iston va Qirg‘izistonda bu ko‘rsatkich 0,2 foizni tashkil etdi[26] .

Toshkent shahrida 2012 yil 16 – 17 fevral kunlari bo‘lib o‘tgan “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyada BMT Bosh kotibining o‘rinbosari Noylin Xeyzer ham qatnashib, u o‘z nutqida O‘zbekistonda ta’lim sohasi taraqqiyotning bosh omiliga aylanganligi, davlat rahbari tashabbusi bilan fan va ta’limga doir qonun va qarorlar takomillashib borganligini ta’kidlaydi [27].

[22] http://twas.org/opportunities/prizes – and – awards (22/02/2016)
[23] Колесов Д. Пронание – мировое // Правда Востока, 30 декабря 2014 г.
[24] «Ёш олимлар ахборотномаси» ИЛМИЙ ЖУРНАЛ, 2019. –№2 (6). – Б.16.
[25] ЮНЕСКО Ўзбекистонда Устуворликлар ва фаолият Т;2020
[26] UNESCO SCIENCE REPORT : UNESCO Institute for Statistics database, July 2014; for Uzbekistan. – P.367
[27] РаҳмоновА, Ўзбекистон “Адолат” СДП фракциясиаъзоси // Адолат, 2012 йил 2 ноябрь

Samarqand shahrida 2014 yil 15 – 16 may kunlari O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” deb nomlangan xalqaro konferensiya bo`lib o`tdi. Ushbu konferensiyada ishtirok etgan YUNESKO Bosh direktorining o‘rinbosari Xubert Gizen tashkilot uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu muhim tadbirni tashkil etgani hamda ilm – fan, ta’lim – tarbiya, madaniyat, kommunikatsiya va axborot sohalarini rivojlantirishga qaratayotgan e’tibori uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat raxbariga minnatdorlik bildirdi [28].

2014 yil 20 iyunda YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Krista Pikkat bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi[29]. Vazirlikdagi ushbu uchrashuvda birgalikda amalga oshirish uchun taklif etilayotgan quyidagi qo‘shma loyihalar ro‘yxati muhokama qilindi:

1. “Pedagogikada AKT integratsiyasini rag‘batlantirish maqsadida o‘qituvchilar malakasini oshirishga qaratilgan islohotlarni qo‘llab – quvvatlash” loyihasi;
2. “O‘rta maxsus kasb – hunar ta’limi tizimida ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha o‘quv dasturini takomillashtirish” loyihasi;
3. “O‘zbekistonda profilaktika – sog‘lomlashtirish ta’limi sifatini oshirish” loyihasi;
4. “Ta’limda media va axborot savodxonligi” loyihasi;
5. “Analitik jurnalistika” loyihasi.

2015 yil 27 yanvarda YUNESKOning O‘zbekistondagi vakolatxonasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan sog‘liqni saqlash,atrof – muhitni muhofaza qilish, ta’lim tizimini takomillashtirish sohalarida qo‘shma dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha loyihalarni muhokama qildi[30] .

O‘zbekistonda amalga oshirilgan ilm – fan sohasidagi islohotlar samarasi va bu boradagi xalqaro hamkorlik natijasida mamlakat akademik fani tobora rivojlanib bordi. Bu kabi natijalar xalqaro miqyosda ham e’tirof etildi. Jumladan, 2015 yilda BMT GII (Global Innovation Index) tomonidan e’lon qilingan “Global innovatsiyalar indeksi”[31] hisobotida O‘zbekiston Markaziy va Janubiy Osiyo

[28] Opening speech by Hubert J. Gijzen, Director of the UNESCO Regional Science Bureau for Asia and the Pacific on the occasion of the International Scientific Conference GEN/CLT/2014/06. – P.2
[29] Ўз Р Олий таълим фан ва инновациялар вазирлиги жорий архиви 2014 йил ҳисоботи папкасидан.
[30] Ўз Р Олий таълим фан ва инновациялар вазирлиги жорий архиви, 2015 йил ҳисоботи папкасидан.
[31] The Global Innovation Index 2015. Effective Innovation Policies for Development Editors Soumitra Dutta, Bruno Lanvin, and Sacha Wunish – Vincent. Printed and bound in Geneva, Switzerland, by the wodd Intellectual

mintaqasida innovatsiyalar tezkor rivojlanib borayotgan mamlakat sifatida e’tirof etildi.

2016 yil 11 may kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan IX Respublika Innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar yarmarkasida O‘zFA O‘simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan taqdim etilgan “Aritmiyaga qarshi ta’sirga ega бо‘лган vositani olish usuli" nomli patenti “Eng yaxshi ixtiro va uning tatbiqi” nominatsiyasi bo‘yicha Jahon intellektual mulk tashkilotining oltin medali bilan taqdirlandi[32] .

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti bilan YUNESKO hamkorligida uch tilda yozilgan "O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sharq qo‘lyozmalar xazinasi" nomli qo‘lyozmalar fondi haqidagi va «Catalogue of Arabic – script documents from the Samarqand museum. Uzbekistan» nomli . tarixiy arabografik hujjatlar katalogi, "Markaziy Osiyo tarixi qo‘lyozmalarda" seriyasida Xiva xonligi tarixiga oid Muhammadrizo Ogahiyning ikkita manbasi – "Jome’ al – voqioti Sultoniy" va "Zubdat at – tavarix", shuningdek, Jumaquli Xumuliyning Buxoro xonligi tarixiga bag‘ishlangan "Tarix – i Xumuliy" asarlarining tanqidiy matnlari ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi hamda xorijiy mamlakatlar ilmiy jamoatchiligining yuksak e’tirofiga sazovor bo‘ldi .

Ta’lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik esa O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy izlanishlarni rivojlantirish va xalqaro tajribani integratsiyalash jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. YunESKOning ta’lim dasturlari va tashabbuslari orqali mamlakatda barqaror rivojlanish, innovatsion pedagogika hamda ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga oid loyihalar amalga oshirilmoqda. Xalqaro ekspertlar ishtirokida o‘tkazilayotgan seminarlar, akademik almashinuv dasturlari va ilmiy konferensiyalar natijasida O‘zbekiston olimlari va mutaxassislari global ilmiy hamjamiyatga integratsiyalanmoqda. Shunday qilib, YunESKO va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik madaniy merosni saqlash, ilm-fanni rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirish yo‘nalishlarida salmoqli natijalarga erishishga xizmat qilmoqda. Ushbu hamkorlikning izchil rivojlanishi

O‘zbekistonning jahon ilmiy-madaniy makonidagi o‘rnini mustahkamlashga hamda milliy meros va ilm-fan sohasida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Property Organization 2015. – P. 61

[32] https://uza.uz/uz/posts/innovatsion – yarmarka – yakun – va – isti – bol – 03 – 05 – 2016

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Yuvenil dismenoreya rivojlanishida onada homiladorlik davrida uchraydigan patologiyalar o’rni

Muhammadova.M.B.
Tosh.DAv.TU akusherlik va ginekologiya kafedrasi

Anotatsiya: Dismenoreya - og'riqli hayz ko'rish, ginekologik kasalliklar orasida keng tarqalgan bo'lib, bugungi kunda nafaqat tibbiyotda iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Dismenoreya endometriyda rivojlangan buzilishlar haqida signaldir. Magniy inson tanasining noyob asosiy hujayra ichidagi kationidir, u turli darajadagi vegetativ disfunktsiyaning namoyon bo'lishini to'xtatadi va nerv-mushaklarni uzatish jarayonlarida ishtirok etadi

Kalit so'zlar: dismenoreya, magniy, gemodinamik ko'rsatkichlar, Vong-Beyker shkalasi

Роль патологий, возникающих у матери во время беременности, в развитии ювенильной дисменореи

Мухаммадова М.Б.Тош.Гос.МУ Кафедра Акушерство и гинекология

Резюме: Дисменорея - болезненные менструации, широко распространенная среди гинекологических заболеваний, сегодня считается одной из экономических и социальных проблем не только медицины. Дисменорея является сигналом нарушений, развившихся в системах, обеспечивающих и контролирующих процесс отторжения эндометрия. Магний - уникальный основной внутриклеточный катион организма человека, купирует проявления вегетативной дисфункции на различных уровнях и участвует в процессах нервно-мышечной передачи.

***Ключевые слова*:** Дисменорея, магний, гемодинамические показатели, Шкала Wong-Baker

The role of pathologies occurring in the mother during pregnancy in the development of juvenile dysmenorrhea

Muhammadova.M.B. Toshkent State Medical University Department of obstetrics and gynecology

Summary: Dysmenorrhea - painful menstruation, widespread among gynecological diseases, today is considered one of the economic and social problems not only in medicine. Dysmenorrhea is a signal of disorders that have developed in the systems that provide and control the process of endometrial rejection. Magnesium is a unique main intracellular cation of the human body, it stops the manifestations of autonomic dysfunction at various levels and is involved in the processes of neuromuscular

transmission.

Keywords: Dysmenorrhea, magnesium, hemodynamic parameters, Wong-Baker Scale

Yevenil dismenoreya bilan og'rigan bemorlarni kompleks davolashda magniyning samaradorligini baholash.

Ayupova.D.A, Xodjayeva .D.N.,Muhammadova.M.B.,Beshimova.R.S

Anotatsiya: Dismenoreya - og'riqli hayz ko'rish, ginekologik kasalliklar orasida keng tarqalgan bo'lib, bugungi kunda nafaqat tibbiyotda iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Dismenoreya endometriyda rivojlangan buzilishlar haqida signaldir. Magniy inson tanasining noyob asosiy hujayra ichidagi kationidir, u turli darajadagi vegetativ disfunktsiyaning namoyon bo'lishini to'xtatadi va nerv-mushaklarni uzatish jarayonlarida ishtirok etadi

Kalit so'zlar: dismenoreya, magniy, gemodinamik ko'rsatkichlar, Vong-Beyker shkalasi

Kirish Dismenoreya - og‘riqli hayz ko’rish bilan tavsiflangan keng tarqalgan patologik holat. Zamonaviy neyrofiziologlar nazdida esa dismenoreya bu menstrual og´riq sindromi bo´lib, hayz vaqtida keng qamrovli nayrovegitativ, psixoemotsional, endokrin tizimdagi o´zgarishlar natijasida qorin pastki qismi, qov va bel sohasida o´griqlarning bo´lishidir. 10 - XKTga ko’ra dismenoreya kasallik yuzaga kelishiga ko’ra 3 turga bo’linadi. Bular birlamchi dismenoreya, ikkilamchi dimenoreya va aniqlanmagan dismenoreya. Agar menarxiyadan 1-3 yil o’tib va jinsiy a’zolarga bog’liq bo’lmagan holda menstrual og’riqlar paydo bo’lsa bu birlamchi dismenoreya hisoblanadi. Agar menstrual og’riqlar kichik chonoq a’zolari varikoz venalari kengayishi, yallig’lanish kasalliklari va yoki endometrioz kabi ko’p uchraydigan kasalliklar natijasida yuzaga kelsa bu ikkilamchi dismenoreya. Aniqlanmagan dismenoreya esa jinsiy yetilish davrida, menarxiyadan 3 yildan ortiq muddat o’tganda sababi noma’lum bo’lgan hayz vaqtidagi og’riqlar bilan xarakterlanadi .(1,2,3,7). Simptomlarning yuzaga chiqishi va klinik kechishiga qarab dismenoreyaning 3 og’irlik darajasi mavjud .Eng yengil darajasi birinchi darajadir. Bunda og’riq yengil nomoyon bo’lib, ayolning mehnat faoliyati va hayot tarziga salbiy ta’sir ko’rsatmaydi. O’rta og’ir darajada esa og’riq bir muncha yaqqolroq namoyon bo’lib jismoniy aktivlikni pasaytiradi lekin analgetik, spazmalitik yoki antiprostaglandin qatori preparatlari orqali ayollar dars yoki ish qoldirmaslikka erishadi. Uchinchi darajada esa og’riq intensivligi yuqori bo’lganidan ayollar mehnat qobiliyatini yo’qotadi va bu og’riqqa hech qanday siptomatik prepratlar yordam bermaydi [4].

Ba’zi mualliflar oilada dismenoreya nasliyligiga ishora qiladilar, chunki ispaniyalik 258 ta universitet talabalarining yarmidan ko’pi oilada dismenoreya bilan kasallangan [56], Saudiya Arabistonida 344 talabada (65,6%) ona tomonlama yaqin qarindoshlarida og’riq kuzatilgan va ularning 79,7%da hayz paytida og’riq bilan bog’liq charchoq kuzatiladi. N. V. Suslonova va boshqalar. (2003) dismenoreya bilan og’rigan bemorlarda miyaning bioelektrik faolligida sezilarli buzilishlarni aniqladilar [62]. Elektroansefalografiyada (EEG) deyarli barcha tekshirilgan bemorlarda og’riqqa refleksli javobning giperqo’zg’aluvchan variantiga xos bo’lgan o’zgarishlarni ko’rsatdi. I. G. Gainova va boshqalarning fikriga ko’ra. (2001), polisinaptik refleks qo’zg’aluvchanligining oshishi markaziy nerv tizimidagi (MNS) ingibitor jarayonlarning yetishmasligini ob’ektiv ravishda aks ettiradi, bu periferik afferent oqimlar uchun "sezgi kirishlarini osonlashtirishga" va natijada og’riq sindromi realizatsiyasiyasiga sabab boladi [5].

Tadqiqot maqsadi. Yevenil dismenoreya rivojlanishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarni o’rganish va oldini olish choralarini aniqlash.

Tadqiqot materiali va tekshirish usullari . dismenoreyaning birlamch va yevenil turi bilan kasallangan 13 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan o’smir qizlar va ularning onalari .tekshirish uchun maxsus so’rovnoma ishlab chiqaridi va ham onasida ham yuvenil yoshdagi qizlarda o’tkazildi.

Natijalar . Yuvenil dismenoreya rivijlanishida muhim xavf omillarini aniqlash uchun 60 ta yuvenil dismenoriya bilan og’rigan qizlar va uning onasida so’rovnoma o’tkazdik. Birlamchi dismenoreya tashxisini qo’yish uchun anamnez yig’ildi va differensial diagnoz o’tkazish uchun yallig’lanishga qarshi dori vositasi – nimesil bilan proba o’tkazdik. Profilaktik ko’rik uchun 230 ta qiz so’rovnoma o’tkazildi va ular orasida yuvenil dismenoreya bilan og’rigan qizlar 42,8 % ni tashkil qildi.

So’rovnoma natijalarini taqqoslash uchun 20 ta sog’lom 13 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan qizlarning onasi bilan ham so’rovnoma o’tkazildi va natijalar o’zaro taqqoslandim.

So’rovnomadagi savollar quyidagi muhim savollardan tashkil topgan ular passport ma’lumotlari, anamnez, jismoniy rivojlanishi; a) sotsial ekonomik holati, b) onalarining reproduktiv funksiyasi, homiladorlik kechishi, shu bolasini tug’ishda tug’ruqning kechishi, d) uning surunkali kasalliklari haqida e) uning 1 yoshda o’sish rivojlanishi f) pubertat yoshgacha bo’lgan uning rivjlanish tarixi.Ijtimoiy iqtisodiy holatiga doir savollar qizlarning oilaviy hayotidagi oxirgi 5-10 yilni hisobga olingan holda tuzildi.

Statistik qayta ishlash va natijalarni tekshirish matematik hisoblashlashda student

kriteriyasi va (RR) nisbiy xavfni hisoblash orqali amalga oshirildi. Bu natijalarning intervali 95 % dan kam bo'lganda ta'sir qiluvchi omil hisobga olinmadi.

Qolgan ishonchli natijalarga asoslangan holda quyidagi yuvenil dismenoreya rivojlanishida yuqori ahamiyatga ega bo'lgan xavf omillari aniqlandi.

Jadval 3.1

Yevenil dismenoriya bilan og'rigan va sog'lom o'smir qizlar orasida dismenoreya rivojlanishiga ta'sir ko'ratuvchi xavf omillari chastotasi

Xavf omili	Yuvenil dismenoreya, n=60	Sog'lom, n=20	Nisbiy xavf RR
-shahar	27	12	0,70
-qishloq	33	8	1,48
-qoniqarli	18	11	0,64
-qoniqarsiz	42	7	1,50
-30yoshdan keyingi tug'ruq	33	2	2,09
-o'rta	36	1	8,75
-o'rta maxsus	16	8	2,90
Oliy	8	11	0,69
-8-9s va ko'p	32	8	2,05
-5-6 va kam	15	10	0,16
Tungi vaqtdagi ish	13	2	1,43
1 eng kam yashash u-n mablag'dan kam	34	3	6,90
Oilaviy daromad yaxshi	26	8	1,88

Sotsial- ekonomik holatini taxlil qilib shularni aniqladikki, o'smirlarda dismenoreya rivojlanishida qishloq hududia yashash yuqori xavf omili bo'lib,

(RR=1,48; P<0,05). Moddiy-maishiy sharoiti qoniqarsiz bo'lganda nisbiy xavf omili RR=1.5; (P<0,05) ni tashkil etdi. Onalarning o'rtacha tug'ruq Yoshi har ikkala guruhda ham 24-25 yoshni tashkil etishiga qaramay, yuvenil dismenoreya rivojlanishida onasining bola tug'gandagi Yoshi ham muhimligi aniqlandi, agar onasi 30 yoshdan keyin tug'gan bo'lsa dismenoreya rivojlanish xavfi (RR=2,09; P<0,001).

Onalar faqat o'rta maktab ma'lumotiga ega bo'lganda dismenoreya rivojlanish nisbiy

xavfi RR=8,75; (P<0,001). Onalarning ma’lumoti o’rta maxsus bo’lishi dismenoreya rivojlanish nisbiy xavf 3 martaga kamayadi (RR=2,90). Onananing ma’lumoti dismenoreya rivojlanishiga ta’sir qilishini aniqladik.

Onasining ish soati davomiyligi ham yuvenil dismenoreya rivojlanishiga ta’sir qilishi o’rtasida **bog’liklik borligi aniqladik. Agar o’smirlar onasi kun davomida band bo’lsa rivojlanish omili** RR=2,05 (P<0,01). Agar onalar ish vati 5-6 soatdan kamni tashkil qilsa xavf omillini 12 martaga kamaytiradi (RR=0,16). Aksincha tungi navbatchilikda ishlaydigan ayollarning o’smir qizlarida dismenoriya rivojlanish xavfi yuqori (RR=1,43).

Xulosa . Tadqiqot natijalaridan ma’lumkinki onaning ijtimoiy holati homiladorlik va tug’tuqning kechishi dismenoreya rivojlanishida muhim rol o’ynaydi. Biz kelajakda dismenoreya kasalligini kamaytirish uchun bo’lajak onalr salomatligini nazorat qilishimiz kerak .

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Качалина О.В., Лабутина Т.С. Лечение дисменореи и предменстру—ального синдрома в амбулаторных условиях — современные возможности” Здоровье женщины. — 2015. - № 6 — С. 37-42
2. Кузнецова И. В., Коновалов В. А., Тихоновская И. В. Влияние пролонгированного применения комбинированного орального контрацептива Линдинет на менструальный цикл при назначении с контрацептивной или лечебной целью // Гинекология. — 2012. - №3. — С. 35-38.
3. Кулагина Н. В. Спазмолитическая терапия в лечении первичной дисменореи // Гинекология. — 2011. — Том 13, №3. — С. 28-31.
4. Кулаков В. И., Богданова Е. А. Руководство по гинекологии детей и подростков. — Москва: Триада—Х, 2005. - С. 161—180.
5. Леонова М.В. Клиническая фармакология Но—шпа. Методическое пособие. М.; 2011.
6. Лихачев В.К. Практическая гинекология с неотложными состояниями. Москва. — 2013. — С. 216-222
7. Макиртумов Б. Е. Нервно-психические нарушения при функциональных расстройствах менструального цикла в пубертатном возрасте: Дисс. д-ра мед. наук. - Л., 2014. - С. 94-143.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Oilaviy (maishiy) zo’ravonlik jinoyatining qamrovi va javobgarlik xususiyati.

Xamidova Mehribonu Ismatillo qizi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi “Prokurorlik faoliyati” yo’nalishi 2-bosqich magistri.
xamidovamehribonu84@gmail.com

Annotasiya
Oilaviy zo’ravonlik, odatda, oiladagi zo’ravonlik deb ataladi, bu ko’p qirrali muammo bo’lib, individual, munosabatlar, ijtimoiy va madaniy omillarning murakkab o’zaro ta’siridan kelib chiqadi. Bugungi kunda butun dunyoda oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solish va ularni himoya qilish eng muhum va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi, chunki oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanib uni har tomonlama himoya qilish, bola huquqlarini ta’minlash muhum hisoblanadi. Shu sababli ham oilaga qarshi jinoyatlarni tartibga solishda va oila a’zolarini huquqlarini himoya qilishda oila jinoyat qonunchiligi bilan himoyalanishi muhum hisoblanadi.

Kalit so'zlar
Oilaviy maishiy zo’ravonlik, ruhiy zo’ravonlik, iqtisodiy zo’ravonlik, jismoniy zo’ravonlik,oilaga qarshi jinoyatlar, ruhiy taziyq, maishiy zo’ravonlik.

Abstract
Domestic violence, commonly referred to as domestic violence, is a multifaceted problem that arises from the complex interaction of individual, relational, social and cultural factors. Today, the regulation and protection of family legal relations is one of the most important and priority tasks in the world, since the family is the main unit of society and its comprehensive protection and ensuring the rights of the child are important. Therefore, it is important to protect the family by criminal law in regulating crimes against the family and protecting the rights of family members.

Keywords
Domestic violencedomestic violence, psychological violence, economic violence, physical violence, crimes against the family, psychological pressure, domestic violence.

Kirish: Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, shuning uchun oilaga qarshi jinoyatlar jamiyat barqarorligiga tahdid soladi. Voyaga yetmaganlar va mehnatga layoqatsiz shaxslar himoyasiz bo‘lib qoladi, ularning huquqlari buzilishi esa kelajak avlodni xavf ostiga qo‘yadi. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligining asosiy sababi jamiyat va davlatning kelakjak avlodi aynan shu yerda tarbiya va ilm olishi bilan

baholanadi.

Muhokama va natijalar: Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik deganda oila a’zosining boshqa bir oila a’zosiga nisbatan uning huquqlarini, erkinliklarini yoki qonuniy manfaatlarini buzadigan jismoniy(sog‘lig‘i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qiladigan g‘ayriqonuniy harakatlar) va ruxiy (sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni shaxsiy, mulkiy huquqlarini amalga oshirishni cheklash, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, mulkiga shikast yetkazish, nobud qilish, hayoti yoxud sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish) va albatta iqtisodiy (mulk, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishini cheklashga olib keladigan, mol mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazishg qaratilgan harakat yoki harakatsizlik) xatti-harakatni sodir etilishi tushunilishi lozim. Bu qisimning eng so‘ngi turi bo‘yicha qo‘rqitishga ta’rif beradigan bo‘lsak, qarama-qarshi tomonga qarshi qilingan yoki amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan har qanday to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tahdidlar, zo‘rlik ishlatish yoxud zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish tushunilishi kerak[1].

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik 3 xil ko‘rinishda namayon bo‘lmoqda[2]:

1. Jismoniy zo‘ravonlik;
2. Psixologik zo‘ravonlik;
3. Iqtisodiy zo‘ravonlik.

Jismoniy zo‘ravonlik: Bu turdagi jinoyatlar, oiladagi a’zolarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Masalan, turmush o‘rtog‘iga yoki bolalarga nisbatan jismoniy tajovuz. Bu holat bo‘yicha Jinoyat kodeksining126[1]-moddasida oilaviy(maishiy) zo‘ravonlik deb atalgan alohida modda bilan tartibga solinadi. Oilaviy (maishiy) jismoniy zo‘ravonlik deb kundalik birgalikdagi hayot (turmush)da oilaning bir yoki bir guruh a’zolari tomonidan boshqa bir a’zosining sog‘lig‘i yoki jismoniy daxlsizligiga tajovuz qiladigan g‘ayriqonuniy harakatlar tushunilishi lozim[3]. Bu holat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi bo‘yicha bu modda subyekti sifatida er-xotin, sobiq er-xotin, bir ro‘zg‘or asosida bir tom ostida er-xotinlik munosabatida yashayotgan shaxslar hamda umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxslar tushuniladi.

[1] M. Rustambaev O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish, 2024. 76 b.
[2] https://lex.uz/jinoyat kodeksi/-111453
[3] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustambaev. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish, 2024.17 b.

Psixologik zo‘ravonlik: Oiladagi a’zolarni ruhiyatiga zarar yetkazish, ularni haqoratlash, tahdid qilish va kamsitish kabi harakatlar psixologik zo‘ravonlik sifatida tasniflanadi.

Oilaviy (maishiy) ruhiy zo‘ravonlik deb, doimiy birgalikdagi hayot yoki turmushda oilaning bir yoki bir guruh a’zolari tomonidan boshqa bir a’zosining sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni shaxsiy, mulkiy huquqlarini amalga oshirishni cheklash, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish, mulkiga shikast yetkazish, nobud qilish, hayoti yoxud sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish tushunilishi lozim[4].

Xalqaro tadqiqotlar milliy, jamoa va individual darajada oiladagi zo‘ravonlik uchun xavf omillarini aniqladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining BMT Bosh Assambleyasining 61-sessiyasidagi ma’ruzasi oiladagi zo‘ravonlik uchun xavf omillarining eng keng qamrovli tahlilini taqdim etadi. Bu omillar “shaxs, oila, jamoa, jamiyat va davlat darajasida” taqdim etiladi . Ular bitta modelga birlashtirilgan va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:a) individual darajada: yoshlar; bolalik davrida oilada jinsiy zo‘ravonlik tarixi; turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi oilaviy zo‘ravonlikni kuzatish;spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni tez-tez ishlatish; past ta’lim va iqtisodiy ahvol; Cheklangan va taqiqlangan jamoalarga a’zolik[5].

lmiy hamjamiyatda oiladagi zo‘ravonlikning mavjudligi ba’zi tortishuvlarga sabab bo‘ladi. Albatta, bu shaxsga nisbatan bevosita jismoniy va ruhiy zo‘ravonlik bo‘lmaganda, masalan, oilaning sud qarorida nazarda tutilgan aliment to‘lash majburiyatini bajarmaganligi natijasida oilaviy munosabatlarga zarar etkazish bilan bog‘liq degan fikr mavjud. Natijada, voyaga etmagan yoki nogiron ota-onalar qonuniy imtiyozlar olishda cheklangan.[6]

O‘zbekistonda 2025-yilning birinchi yarmida 4952 kishi oiladagi zo‘ravonlikda ayblanib ma’muriy javobgarlikka tortildi. Shuningdek, bu vaqt davomida 986 nafar shaxs shahvoniy shilqimlik qilishda, 99 nafar fuqaro esa shaxsning sha’nini va qadr-qimmatini kamsituvchi ma’lumotlarni oshkor qilishda ayblangan. O‘zbekistonda 2025-yilning birinchi yarmida 5 mingdan ortiq shaxs oiladagi zo‘ravonlikda ayblanib, javobgarlikka tortilgan. Bu haqda Oliy sud matbuot kotibi Aziz Abidov xabar

[4] O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustambaev. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish, 2024.17 b.
[5] .Karimova N. M. (2020). Oilaviy muammolar va psixologik profilaktika. “O’zbekiston psixologiya jurnali”, 5(2), 45-52.
[6] World Health Organization. (2017). “Violence Against Women Prevalence Estimates, 2010.” WHO.

berishicha: Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 59−2-moddasi (Oiladagi (maishiy) zo‘ravonlik) bilan 4952 kishi sudlandi, ularning 3200 nafariga jarima jazosi, 1752 nafariga esa ma’muriy qamoq jazosi qo‘llanilgan. Jinoyat kodeksining 126−1-moddasi (Oiladagi (maishiy) zo‘ravonlik) bilan 231 nafar shaxs sudlanib, ularning 65 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 166 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlandi.

Eslatib o‘tamiz, 2023-yil 11-aprelda “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun prezident tomonidan imzolangan edi. Unga muvofiq Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks 41−1-modda (Shahvoniy shilqimlik qilish), 59−2-modda (Oiladagi (maishiy) zo‘ravonlik) va Jinoyat kodeksi 126−1-modda (Oiladagi (maishiy) zo‘ravonlik), 141−3-modda (Shaxsning sha’nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma’lumotlarni oshkor qilish) bilan to‘ldirilgandi[7].

Xulosa: Shunday qilib,O’zbekiston Respublikasida ham xorijiy davlatlarda ham bu norma tegishli qonunlari bilan o‘z aksini topgan va albatta bu jinoyat uchun aniq asoslarda javobgarlik belgilangan hisoblanadi. “maishiy zo‘ravonlik —o‘z-o‘ziga aloqador bo‘lmagan har qanday qasddan jismoniy yoki og‘zaki harakat yoki harakatsizlik. —bir oila a’zosi tomonidan boshqa oila a’zolariga, shu jumladan bolalarga nisbatan sodir etilgan jismoniy, jinsiy, ruhiy, ma’naviy yoki iqtisodiy ta’sir, moddiy yoki ma’naviy zarar yetkazish shaklida boshqalarni himoya qilish”. Ma’naviy zo‘ravonlik oila a’zolaridan birining intilishlarini taqiqlash, cheklash, masxara qilish va jazolash, madaniy, etnik, til yoki diniy qadriyatlarga kirishni taqiqlash, cheklash, masxara qilish va jazolash orqali ma’naviy ziyon yetkazishda namayon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1- O’zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi;

2- O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism/M. Rustambaev. Toshkent: «Yuridik adabiyotlar publish, 2024.

3- Karimova N. M. (2020). Oilaviy muammolar va psixologik profilaktika. “O’zbekiston psixologiya jurnali”, 5(2), 45-52.

4- World Health Organization. (2017). “Violence Against Women Prevalence Estimates, 2010.” WHO.

[7] https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/05/violence/

5- Heise, L. (1998). “Violence Against Women: An Enduring Problem.” “Journal of Interpersonal Violence”,13(1), 8-15.
6- Panjizoda H. Z.. "Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha xalqaro huquqiy tajriba" Философия и право, vol. 28 , no. 2, 2024, pp. 204-207.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

TA’LIMDA KREATIVLIK VA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Zamonaliyeva Laziza
+998935372124
@zamonaliyevalaziza@icloud.com
Turan International University

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari tizimli jihatdan tahlil etiladi. Avvalo, kreativlik va tanqidiy fikrlash tushunchalari va muhimligi ko‘rib chiqiladi, so‘ng ta’lim muhitida ularni rivojlantirishga qaratilgan texnologik vositalar va yondoshuvlar (masalan, loyiha-asosli ta’lim, raqamli vositalar, sun’iy intellekt bilan integratsiya) tahlil qilinadi. Nihoyat, amaliyotdagi xatarlar, cheklovlar hamda kelajakdagi yo‘nalishlar muhokama qilinadi. Ta’lim sohasidagi zamonaviy psixologik va pedagogik tadqiqotlarga tayangan holda, muallif o‘z fikrini bildiradi.
Kalit so‘zlar: kreativlik, tanqidiy fikrlash, ta’lim texnologiyalari, 21-asr kompetentsiyalari, raqamli pedagogika
Аннотация: В данной статье системно анализируются технологии развития креативности и критического мышления в образовательном процессе. Вначале рассматриваются понятия и значение креативности и критического мышления, затем анализируются технологические инструменты и подходы, направленные на их развитие в образовательной среде (например, обучение на основе проектов, цифровые инструменты, интеграция с искусственным интеллектом). Наконец, обсуждаются практические риски, ограничения и будущие направления. Опираясь на современные психологические и педагогические исследования в области образования, автор выражает собственное мнение.
Ключевые слова: креативность, критическое мышление, образовательные технологии, компетенции XXI века, цифровая педагогика.
Annotation: This article provides a systematic analysis of technologies for developing creativity and critical thinking in the educational process. First, the concepts and significance of creativity and critical thinking are examined. Then, technological tools and approaches aimed at fostering these skills in the educational environment (such as project-based learning, digital tools, and integration with artificial intelligence) are analyzed. Finally, the practical risks, limitations, and future directions are discussed. Based on contemporary psychological and pedagogical research in education, the

author presents their own perspective.

Keywords: creativity, critical thinking, educational technologies, 21st-century competencies, digital pedagogy.

Kirish

Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiyot tez o‘zgaruvchan muhitga duch kelmoqda. Shunday vaziyatda odatiy faktlarni yodlash emas, balki yangicha fikrlash, muammolarni tanqidiy tahlil qilish hamda ijodiy yechimlar topa olish kabi mahoratlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ta’lim jarayonida o‘quvchilarda faqatgina bilim emas, balki kreativlik hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan kompetentsiyalar shakllantirilishi zarur. Tadqiqotlarga ko‘ra, “4C” (Creativity, Critical Thinking, Communication, Collaboration) deb ataladigan kompetentsiyalar ijodiy va tanqidiy fikrlashni markazga qo‘yadi. Shu bilan birga, ta’lim-pedagogika sohasida texnologiyalar (raqamli vositalar, sun’iy intellekt, kooperativ onlayn platformalar) kreativ va tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan, bir tadqiqotda yangi paydo bo‘lgan texnologiyalarning kreativlikni rag‘batlantirishda qo‘llanishi tahlil qilingan. Shu sababli, ta’limda kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini o‘zaro bog‘liq ravishda ko‘rib chiqish zarur. Maqolaning ushbu bo‘limi shu muammo atrofida kirish sifatida xizmat qiladi.

Tahlil va muhokama

1. Kreativlik va tanqidiy fikrlashning ta’limdagi o‘rinlari

Ta’lim jarayonida kreativlik — bu yangi, original fikrlarni, yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati; tanqidiy fikrlash esa mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash, hamda mustaqil qaror qabul qilish jarayonidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kreativlik va tanqidiy fikrlash o‘zaro chambarchas aloqada bo‘lib, birgalikda 21-asr kompetentsiyalari doirasida markaziy rol o‘ynaydi. Masalan, OECD ta’lim sharoitida kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha strategik hujjatlarni e’lon qilgan. Shu bilan birga, tadqiqotlar fikricha, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari odatda past bo‘lib, an’anaviy yondoshuvlar bilan chegaralanadi. Bu esa ta’lim tizimida yangicha texnologik va pedagogik yondashuvlarning zarurligini ko‘rsatadi.

2. Kreativlik va tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlovchi texnologiyalar

Ta’lim muhitida kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qancha texnologiyalar mavjud. Quyida ularning ayrimlari ko‘rib chiqiladi.

Raqamli vositalar va aralash (hybrid) shakldagi o‘qitish

Masalan, onlayn platformalar, raqamli o‘quv modullari, vizual va interaktiv ilovalar o‘quvchilarni faollikka jalb qiladi. Bu vositalar orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlash, tajriba qilish, turli imkoniyatlarni sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Taklif qilinayotgan metodlardan biri — o‘qituvchining nazorati ostida raqamli vositadan foydalanib loyiha-asosli faoliyat tashkillashtirish. Tadqiqotlarda shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy raqamli vositalarga asoslangan pedagogik yondoshuvlar kreativlikni oshirishda ijobiy natija beradi.

Loyiha-asosli, muammo yechimga yo‘naltirilgan va interfaol pedagogik yondashuvlar

Kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o‘quvchilarga real muammolarni berib, ularni mustaqil yechishga, guruhda muhokama qilishga, turli fikrlarni qiyoslashga imkon berish muhimdir. Misol uchun, hamkorlikdagi loyiha, tasavvuriy vaziyat yaratish, ochiq yakunli vazifalar — bular o‘qitish jarayonida samarali qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari, bunday yondashuvlar tanqidiy fikrlashni (muammo tahlili, variantlarni solishtirish, baholash) va kreativlikni (fikrlar kengayishi, yangicha yondoshuvlar) rag‘batlantiradi. Tadqiqotlarda shunday natijalarga erishilgan: o‘quvchilarning kreativlik va tanqidiy fikrlash mahoratlari bir-birini mustahkamlashi mumkin.

Sun’iy intellekt va adaptiv o‘qitish texnologiyalari

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Artificial Intelligence (AI) va unga asoslangan o‘quv vositalari o‘qitish-o‘rganish jarayonida kreativlik va tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Masalan, bir maqolada AI o‘qitishda «AI savol berish san’ati (prompt engineering)», «AI savodxonligi», hamda tanqidiy fikrlash mahoratini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar muhokama qilingan. AI-vositalar o‘quvchilarga shaxsiylashtirilgan o‘rganish tajribasini yaratish, fikr yuritish jarayoniga jalb qilish imkonini beradi. Biroq bu bilan birga, ma’lumotlar to‘liq emasligi, axborot aniq bo‘lmasligi xavfi mavjud — shuning uchun o‘qituvchi roli hal qiluvchi bo‘ladi.

Amaliy cheklovlar va xatarlar

Har qanday yondashuvda bo‘lgani kabi, texnologiyalar kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda cheklovlarga ham ega.

- Birinchidan, texnologiyalarning o‘qituvchining pedagogik tayyorgarligi va metodik kompetentsiyasiga bog‘liqligi yuqori. Agar o‘qituvchi faqat texnologiyani qo‘llasa, lekin pedagogik maqsadni belgilamasa, natija maqsadga muvofiq bo‘lmasligi mumkin. Misol uchun, kreativlikni rivojlantirish uchun «faol o‘qitish» yonalishi, o‘qituvchilarning rahbarligi muhim.

- Ikkinchidan, baholash tizimlari ko‘pincha an’anaviy testlardagi bilimni o‘lchashga yo‘naltirilgan, holbuki kreativlik va tanqidiy fikrlash ko‘proq turli faktorlarga bog‘liq va yolg‘on ko‘rinmaydigan tarzda namoyon bo‘ladi. Bu esa pedagogik amaliyotda mos baholash usullarining yetishmasligiga olib keladi.
- Uchinchidan, texnologiyalarni o‘rnatish va doimiy qo‘llash resurslar, infratuzilma, vaqt va o‘qituvchilarning tayyorgarligi talab qiladi. Ko‘p maktab va oliy ta’lim muassasalarida bular yetishmasligi mumkin.
- To‘rtinchidan, texnologiyaga haddan tashqari tayyorlanish ham tanqidiy fikrlashni zaiflashtirish xavfini tug‘diradi — agar o‘quvchi texnologiyani “javob mashinasi” sifatida qabul qilsa, mustaqil fikrlash imkoniyati cheklanadi. Buni o‘qituvchilar ham ta’kidlamoqda.

O‘z mamlakatimiz kontekstida alohida e’tibor

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham kreativlik va tanqidiy fikrlash kompetentsiyalarini rivojlantirish lozim. An’anaviy ta’lim shakllari va imtihon tizimlari odatda yodlashga yo‘naltirilgan bo‘lgan. Shu sababli, texnologiyalarni joriy etish bilan birga, pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, baholash tizimlarini qayta ko‘rib chiqish, maktab va universitetlarda loyiha-asosli faoliyatni kengaytirish muhimdir. Masalan, o‘quvchilarga mustaqil tadqiqot, guruhda muammo yechish, raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatini yaratish orqali ta’lim jarayoni modernizatsiyalanishi mumkin.

Xulosa

Ta’lim muhitida kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish — bu nafaqat individual o‘quvchi salohiyatini oshirish, balki jamiyat va iqtisodiyot talablari bilan moslashish jarayonidir. Texnologiyalar — raqamli vositalar, loyiha-asosli yondashuvlar, sun’iy intellekt — bu maqsadga erishishda muhim qo‘llab-quvvatlovchi omillardir. Biroq, ularni muvaffaqiyatli tatbiq qilish uchun o‘qituvchilarning pedagojik tayyorgarligi, mos baholash tizimlari, infratuzilma va o‘quv jarayonining yangilanishi zarur. O‘zbek ta’lim muhitida bu yo‘nalishda izchil ish olib borish orqali, yoshlarimizni kreativ hamda tanqidiy fikr yurita oladigan, o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh shaxslar qilib tayyorlash mumkin bo‘ladi. Kelgusida ta’lim siyosati darajasida kreativ-tanqidiy kompetentsiyalarni o‘z ichiga olgan strategiyalar ishlab chiqilishi va ularni qo‘llab-quvvatlovchi texnologik echimlar keng joriy etilishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Thornhill-Miller, B., Camarda, A., Sundquist, D., Lubart, T. „Creativity, Critical Thinking, Communication, and Collaboration: Assessment, Certification, and

Promotion of 21st Century Skills for the Future of Work and Education.“ 2023. PMC, bet 1-15.

2. Li, Y. „Using emerging technologies to promote creativity in educational settings.“ 2022. ScienceDirect.

3.

4. Gómiz-Aragón, M. „Creative and Critical Thinking and Modelling.“ 2025. PMC.

5. Walter, Y. „Embracing the future of Artificial Intelligence in the classroom.“ 2024. Educational Technology Journal. SpringerOpen

6. Almulla, M. A. „A paradigm for students’ critical thinking, creativity, and modelling.“ 2023. Taylor & Francis. Taylor & Francis Online

7. Saroyan, A. „Fostering creativity and critical thinking in university teaching and learning: Considerations for academics and their professional learning.“ 2022. OECD Working Paper 280. OECD

8. Vincent-Lancrin, S., Gonzalez-Sancho, C., Bouckaert, M., de Luca, F. „Fostering Students’ Creativity and Critical Thinking: What it Means in School.“ 2019. OECD. ResearchGate

9. Brauer, R. „Creativity-Fostering Teacher Behaviors in Higher Education: A systematic literature review of 58 empirical studies.“ 2025. Sage Journals. journals.sagepub.com

10. Sánchez Milara, I., Cortés Orduña, M. „Possibilities and challenges of STEAM pedagogies.“ 2024. arXiv. arXiv

11. Yang, X. „A systematic review of factors influencing K-12 teachers’ creative teaching until 2022.“ 2025. ScienceDirect. ScienceDirect

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

DAVLAT SUVERENITETNING HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MILLIY MUSTAQILLIK G`OYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Choriyev Ulug‘bek Rustamovich
Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti, 3-kurs talabasi
e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat suverenitetining nazariy-huquqiy asoslari, O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrda suverenitetni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy chora-tadbirlar hamda xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Avvalo, suverenitet tushunchasining mazmuni, uning ichki va tashqi jihatlari, turli yuridik va siyosiy maktablar tomonidan berilgan talqinlari ko‘rib chiqiladi. Shundan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi, “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun, Konstitutsiyaning tegishli normalari hamda davlat suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan boshqa qonunchilik hujjatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Xorijiy tajriba sifatida Fransiya, Irlandiya, Yaponiya va Italiya kabi davlatlarning konstitutsiyalarida milliy mustaqillik g‘oyasining ifodalanishi tahlil qilinib, ularning milliy identitetni saqlash hamda xalq suverenitetini ta’minlashdagi yondashuvlari qiyosiy o‘rganiladi. Maqola milliy mustaqillik g‘oyasining tub mohiyati va huquqiy asoslarini chuqur yoritib, uni yanada mustahkamlash yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

Kalit so`zlar: davlat suvereniteti, millat suvereniteti, milliy mustaqillik, xalq suvereniteti, milliy identitet.

LEGAL FOUNDATIONS OF STATE SOVEREIGNTY AND ISSUES OF DEVELOPING THE IDEA OF NATIONAL INDEPENDENCE

Choriyev Ulug‘bek Rustamovich
Tashkent State University of Law
Faculty of Public Law, 3rd-year student
e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the theoretical and legal foundations of state sovereignty, the legal measures aimed at strengthening sovereignty in the Republic of Uzbekistan after independence, as well as the experiences of foreign states. First, the concept of sovereignty, its internal and external dimensions, and interpretations by various legal

and political schools are examined. Then, special attention is paid to the Independence Declaration of the Republic of Uzbekistan, the Law “On the Fundamentals of State Independence,” relevant constitutional norms, and other legislative acts aimed at consolidating state sovereignty. As foreign experiences, the article examines how the idea of national independence is reflected in the constitutions of French, Ireland, Japan, and Italy, and how these countries safeguard national identity and ensure popular sovereignty. The article highlights the essence and legal basis of the idea of national independence and suggests ways to further strengthen it.

Keywords: state sovereignty, national sovereignty, national independence, popular sovereignty, national identity.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО СУВЕРЕНИТЕТА И ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ИДЕИ НАЦИОНАЛЬНОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ

Чориев Улугбек Рустамович
Ташкентский государственный юридический университет
Факультет публичного права, студент 3-го курса
e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретико-правовые основы государственного суверенитета, правовые меры, направленные на укрепление суверенитета в Республике Узбекистан после обретения независимости, а также опыт зарубежных государств. Сначала рассматривается понятие суверенитета, его внутренние и внешние аспекты, а также трактовки различных юридических и политических школ. Затем особое внимание уделяется Декларации независимости Республики Узбекистан, Закону «Об основах государственной независимости», соответствующим конституционным нормам и другим законодательным актам, направленным на укрепление государственного суверенитета. В качестве зарубежного опыта анализируется отражение идеи национальной независимости в конституциях Франция, Ирландии, Японии и Италии, а также способы сохранения национальной идентичности и обеспечения народного суверенитета. Статья подчеркивает сущность и правовые основы идеи национальной независимости и предлагает пути ее дальнейшего укрепления.

Ключевые слова: государственный суверенитет, национальный суверенитет, национальная независимость, народный суверенитет, национальная идентичность.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

KIRISH

Mustaqilllik har bir davlatning mavjudligining eng muhim shartlaridan biri. Mustaqillik nafaqat davlatga, balki xalqqa, millatga yangi va o`zgacha hayot baxsh etadi. Mustaqillik orqali davlat, xalq, millat o`z o`zligini tiklash imkoniyatiga va ushbu o`zlikni saqlash, rivojlantirish imkoniyatiga ega bo`ladi. Mustaqillikning naqadar muhimligi haqida muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida shunday deydi: “aynan mustaqillik tufayli milliy davlatchiligimiz qayta tiklandi. O‘zbekiston yangi tarixiy davrga qadam qo‘ydi. Aynan istiqlol tufayli Jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladik”[1]. Shunday ekan, milliy mustaqillikning tub mohiyatini ilmiy-huquqiy jihatdan tadqiq qilish o`ta muhim ahamiyatga ega degan fikrdamiz.

Milliy mustaqillik tushunchasi davlat suvereniteti tushunchasiga chambarchas bog`liqdir. Milliy mustaqillik g`oyasi esa aynan huquqiy jihatdan suverenitet tushunchasiga o`z ifodasini topadi. Davlat suvereniteti insoniyat tarixida yuzlab yillar davomida dolzarb bo‘lib kelayotgan masalalardan biridir. Chunki davlatning mavjudligi, uning siyosiy-huquqiy maqomi, xalqaro maydondagi o‘rni va hatto milliy identitetini belgilovchi asosiy belgilaridan biri aynan suverenitetdir. Tarixiy jarayonlarda bu tushuncha turli davrlarda turlicha talqin qilingan: bir davrda u davlat hokimiyatining mutlaq mustaqilligi sifatida, boshqa davrlarda esa xalqning o‘z taqdirini belgilash huquqi sifatida tushunilgan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat suvereniteti masalasi yanada dolzarb tus oldi. Bir tomondan, mustamlakachilik tizimining yemirilishi va yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi suverenitetni milliy mustaqillik ramzi sifatida mustahkamladi. Ikkinchi tomondan esa globallashuv jarayonlari, xalqaro tashkilotlar va transmilliy tuzilmalarning kuchayishi natijasida suverenitetning an’anaviy talqiniga yangi cheklovlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun suverenitet masalasi ayniqsa muhim. Chunki mamlakatimiz 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘zining yangi siyosiy-huquqiy tizimini barpo etish jarayonida eng avvalo davlat suverenitetini huquqiy jihatdan mustahkamlashni maqsad qilib qo‘ydi. Mustaqillik deklaratsiyasi, “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun, Konstitutsiyamiz va boshqa qonuniy hujjatlar ana shu maqsad yo‘lida xizmat qildi.

[1] https://yuz.uz/uz/news/prezident-shavkat-mirziyoevning--ozbekiston-respublikasi-davlat-mustaqilligining-ottiz-uch-yilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi davlat suverenitetining nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish, O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrda suverenitetni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy asoslarni ko‘rsatib berish hamda milliy mustaqillik go`yasining tub mazmun-mohiyatini ifodalab berish, uni yanada mustahkamlash uchun xorijiy tajribani o`rgangan holda takliflar berishdan iboratdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil kabi bir qancha usullarni qo`llagan.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Ma’lumki, davlat mavjudligining asosiy va qo`shimcha belgilari mavjud. Suverenitet aynan ushbu belgilarning asosiy belgilari jumlasiga kiradi. Davlat suvereniteti tushunchasini ilk bor fanga olib kirganlardan biri fransuz olimi Jan Boden (Jean Bodin) bo‘lib, u XVI asrda suverenitetni “qonundan ustun bo‘lgan oliy hokimiyat” sifatida ta’riflagan[2]. Boden fikricha, davlat hokimiyati o‘z hududida hech bir kuchga bo‘ysunmasligi, ichki masalalarda mutlaq mustaqillikka ega bo‘lishi lozim. Bu nazariya o‘sha davrda markazlashgan monarxiyalarning siyosiy ehtiyojlariga javob berar edi.

1648-yilgi Vestfaliya tinchlik shartnomasi esa suverenitetni xalqaro huquq tamoyili sifatida mustahkamladi. Shu sanadan boshlab davlatning ikki asosiy xususiyati — hududiy yaxlitligi va tashqi siyosatda mustaqilligi xalqaro tan olingan normalarga aylandi[3]. Keyingi davrlarda T. Gobbs, J. Lokk, Sh. Monteskye, J. J. Russo kabi mutafakkirlar ham suverenitet haqida o‘z qarashlarini bildirganlar.

“Suverenitet” so`zining etimologik mazmuni fransuzcha tildan olingan bo`lib ”soverain”, ya’ni mustaqil davlat sifatida mavjudlik” degan ma’noni bildiradi[4] . Huquqshunos olim Sh.Saydullayevning yozishicha davlat hokimiyatining xususiyati (atributi) sifatida suverenitet uning ustuvorligi, mustaqilligidan iborat. Ya’ni davlat suvereniteti - ma’lum bir hududda oliy hokimiyatga egalik, davlatning ichki va tashqi siyosatdagi to‘la mustaqilligidir[5]. Huquqshunos olim Odilqoriyev esa ushbu tushuncha mazmuni to`liqroq ochib bergan holda davlat suvereniteti quyidagilarda ifodalanishini ta’kidlab o`tadi:

- ichki va tashqi siyosat masalalarida mustaqil qaror qabul qila olishi;

[2] Bodinus. De Republica libri sex. Francoforti, 1594. P . 123 et al.
[3] Goleanu, Camelia. (2025). Some Aspects of National Sovereignty in the International Geopolitical Context. Interdisciplinary Journal of Research and Development. 12. 256. 10.56345/ijrdv12n1s134.
[4] https://www.etymonline.com/word/sovereignty
[5] Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. 46-bet.

- davlat hokimiyatining mamlakat butun hududiga tatbiq etilishi va davlat organlarining barcha aholi uchun umumiy majburiy qarorlar qabul qilishi;
- boshqa ijtimoiy-tashkiliy hokimiyatlar (partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar va boshqalar)ning qarorlarini bekor qila olishi[6]. Xorijiy olimlardan Jorge E. Núñez suverenitet tushunchasini tushunishni ikkita asosiy jihatga bo`linishini ta'kidlab o`tadi:

(a) ichki jihat. Bunda muayyan hududdagi aholi uchun qonun chiqaruvchi organlar va hukumatning mavjudligi;

(b) tashqi jihat. Bunda boshqa davlatlar tomonidan tan olinish tushuniladi[7]. Garchi suverenitet konsepsiyasi haqida turli olimlar turlicha ta'riflar bergan bo`lsa-da, fikrimizcha ushbu olimlar fikri asosida davlat suvereniteti tushunchasi mazmunini to`liq va aniq tarzda tushunish mumkin. Bunda alohida e'tibor qaratishimiz lozim bo`lgan joyi shundaki, suverenitet tushunchasiga ta'rif berishda suverenitetni davlatning ichki va tashqi hokimiyatda mustaqil bo`lishi deb sayoz izoh berib bo`lmaydi. Chunki davlat ichki hokimiyatda mustaqil bo`lishi noto`g`ri talqinlarga sabab bo`lishi mumkin. Fikrimizcha, bunda davlatning ichki hokimiyatda oliyligi degan ta'rifni berish ko`proq maqsadga muvofiq bo`ladi. Shuningdek, suverenitet mazmun-mohiyatini anglashda huquqshunos olim A.Yo`ldoshev va Sh.Asadovlarning "Davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari" nomli o`quv qo`llanmasida ham juda o`rinli fikr bildiriladi: "suverenitet davlatga xos tushuncha bolib, u bilan birga vujudga keladi. Suverenitet tarixiy hodisadir. Suverenitet mazmunini ijtimoiy-siyosiy va huquqiy munosabatlar tashkil qiladi[8]. Ushbu fikrning nega alohida keltirib o`tganimizni maqolamizning xorijiy tajriba va xulosa qismini o`qish orqali tushunib yetasiz.

Shuningdek, suverenitet tushunchasining asosan 3 ta turi yuridik adabiyotlarda keltirib o`tiladi:

- davlat suvereniteti;
- xalq suvereniteti;
- millat suvereniteti[9].

Davlat suvereniteti mazmunini yuqorida to`laligicha ochib berdik, biroq qolgan 2 suverenitet tushunchasining mazmuniga keladigan bo`lsak, bu mustaqillikning asosiy

[6] Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. 76-77 bet.
[7] Núñez, Jorge. (2024). State Sovereignty: Concept and Conceptions. International Journal for the Semiotics of Law - Revue internationale de Sémiotique juridique. 37. 2131-2150. 10.1007/s11196-024-10170-y.
[8] A., Yo'ldoshev, Sh., Asadov Davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari: o'quv qo'llanma / Azizjon Yo'ldoshev, Shavkat Asadov. - T.: TDYU nashriyoti, 2023. - 80 b.
[9] Konstitutsiyaviy huquq; darslik/Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 68-bet.

g`oyasi – xalq o`z taqdirini mustaqil belgilash huquqiga ega bo`lishi bilan bog`liq hisoblanadi. Ya'ni ularda xalqning, millatning erki, xohish-irodasi ask etadi.

Hozirgacha biz suverenitetning nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qildik. Biroq milliy mustaqillikni chuqur anglab yetish uchun buning o`zi yetarli emas. Buning uchun ushbu g`oyani mustahkamlash uchun davlatimizda qanday islohotlar qilingani, qaysi hujjatlarda ushbu g`oyani ko`rishimiz mumkinlini ham tadqiq qilib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo`ladi.

Tarixdan bilamizki, O`zbekistonning mustaqilligiga tamal toshi qo`ygan hujjatlardan biri – Mustaqillik deklaratsiyasi. Ushbu deklaratsiya O`zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Sovetining 1990-yil 20-iyundagi ikkinchi sessiyasida qabul qilingan. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qildi. davlat mustaqilligini respublikaning o‘z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligi sifatida mustahkamlab berdi[10]. Shuningdek, 1991-yil 31-avgust "O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqillik asoslari to`g`risida" gi qonun ham suverenitetimizning eng muhim huquqiy asoslaridan hisoblanadi. Ushbu qonun ikkita hujjat: Mustaqillik deklaratsiyasi va Davlat mustaqilligi to`g`risidagi Bayonot asosida Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan. Ushbu qonunga ko`ra mustaqillika oid quyidagi huquqlar belgilangan: 1) suverenitet va bevosita, vakillik idoralari bilan davlat hokimiyatini amalga oshirish; 2) milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash; 3) davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo`linmasligi; 4) Konstitutsiya va qonuni ustunligi, davlat hokimiyatini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ajratish; 5) Mudofaa ishlari vazirligini tuzish, milliy gvardiya va noharbiy (muqobil) xizmat tashkil etish va harbiy siyosatni amalga oshirish; 6) yer, yer osti boyliklari, suv va o‘rmonlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklariga egalik; 7) davlat mulki obyektlari davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining o`zga mol-mulki, ichki kommunikatsiya, transport, aloqa va energetika tizimlari, respublika kartografiyasi va geodeziyasiga egalik; 8) O`z mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Mulklarini shakllarini o`zgartirish; 9) oltin, boshqa qimmatbaho metallar va toshlarni qazib chiqarish, qayta ishlash va saqlashni mustaqil amalga oshiradi; 10) O‘zbekiston Respublikasi o‘z pul birligini joriy etish; 11) Mustaqil moliya va kredit siyosatini amalga oshiradi va soliq, yig`imlar joriy qilish; 12) chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik, savdo aloqalari va boshqa aloqalar o‘rnatadi; 13) xalqaro iqtisodiy

[10] https://lex.uz/docs/-185391 – Mustaqillik Deklaratsiyasi.

munosabatlarning mustaqil subyekti va chet el investitsiyalariga oid masalalar; 14) o`z fuqaroligini joriy etish; 15) o‘z taraqqiyot yo‘lini, o‘z nomini aniqlaydi, o‘z davlat ramzlarini: gerbi, bayrog‘i, madhiyasini ta’sis etadi, o‘z davlat tilini belgilaydi; 16) hududiy butunlik va mustaqillik[11]. Ushbu huquqlarni bilish mustaqilligimiz tub mohiyatini anglashda juda katta ahamiyatga ega. Chunki bunda mustaqillikka oid huquqlarimizning eng asosiylari va keng tarkibi bayon etilgan. Ushbu huquqlar faqatgina davlat uchun emas, uning fuqarolari, butun millat uchun juda muhim hisoblanadi. Ayni hujjat naqadar muhim ekanligini unga konstitutsiyaviy maqom berilganidan ham bilish mumkin[12]. Amaldagi Konstitutsiyamizda ham davlatimiz suverenitetini mustahkamlab turuvchi bir qator normalar mavud[13]. Xususan:

- 17-moddaga ko`ra O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektidir. Xalqaro munosabatlarning to`la huquqli subyekti bo`la olish suverenitet tushunchasining eng muhim belgilaridan hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham bu norma Konstitutsiyamizning “Tashqi siyosat” bobida alohida belgilab qo`yilgan. Shu sababdan ham ayni modda milliy mustaqillik g`oyasining konstitutsiyaviy ifodasidir degan fikrdamiz.
- 71-modda ko`ra Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, O‘zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog‘lig‘iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek milliy va diniy belgilariga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanadi. Ushbu norma orqali davlat suverenitetiga qarshi chiquvchi siyosiy partiyalarning tuzilishi Konstitutsiya darajasida taqiqlab qo`yilmoqda.
- 109-modda 1-qism 1-bandi ko`ra O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti: fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi. Ushbu norma orqali Prezident Respublika suverenitetining kafili sifatida ko`rinishi namoyon bo`lmoqda.

[11] https://lex.uz/docs/-127899 – “O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to`g`risida” gi qonun
[12] https://lex.uz/uz/docs/-139431 – “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga konstitutsiyaviy maqom berish haqida
[13] https://lex.uz/docs/-6445145 – O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

152-moddaga ko`ra O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Bu normadan ko`rishimiz mumkinki, hattoki davlat xavfsizligi uchun eng markaziy ahamiyatga ega organ – Qurolli Kuchlar ham davlat suverenitetini himoya qilish uchun tuziladi.

Yuqoridagi normalar orqali davlat suvereniteti va uning ahamiyati, uni himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslarini ko`rishimiz mumkin.

Albatta davlatimizda mustaqillikdan so`ng suverenitetimizni yanada mustahkamlash maqsadida xavfsizlik masalasiga ham jiddiy qaraldi. Jumladan, “O`zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to`g`risida”gi qonunning 2-moddasiga ko`ra Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalaridan biri sifatida O‘zbekiston Respublikasining suverenitetini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish keltirib o`tilgan[14]. Bunda yana bir hujjat – Mudofaa doktrinasi ham e’tirof etishga loyiqdir. Ushbu hujjatning mustaqillikni, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni va konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish O‘zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida mustahkamlangan[15].

Mustaqillikni yanada mustahkamlashga oid islohotlardan 1994-yil 5-mayda qabul qilingan “Mustaqillik” ordenini ta’sis etish to`g`risida” gi qonunni ham keltirib o`tish maqsadga muvofiq. Ushbu orden nizomiga ko`ra “Mustaqillik” ordeni bilan O`zbekiston Respublikasining fuqarolari mustaqil huquqiy davlat barpo etish va uni mustahkamlashga, respublikada tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga qo‘shgan ulkan hissalari uchun mukofotlanadilar. “Mustaqillik” ordeni bilan mukofotlangan shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining yetmish besh karrasi miqdorida bir yo‘la to‘lanadigan pul mukofoti oladilar[16].

Bulardan tashqari Konstitutsiyamizning 4-5-6-moddalarida davlat tilimiz, davlat ramzlarimiz va poytaxtimizga egaligimiz yozilgan. Bunda bevosita suverenitet haqida gap bormasa-da, nazariy-mantiqiy jihatdan ushbu normalar suverenitet tushunchasini tashkil qiluvchilaridir. Buni ularning barchasi Konstitutsiyamizning 1-bobi – “Davlat suvereniteti” bobida mustahkamlanganidan ham anglab olishimiz mumkin. Konstitutsiya darajasida davlatimiz o`z tili, ramzlari va poytaxtiga egaligi millatimizga o`zgacha g`urur, o`zgacha mustaqillik tuyg`usini baxshida etadi.

Qolaversa, SSSR davrida davlatmiz milliy qadriyatlari, an’anaviy bayramlarimiz nishonlanishi ham cheklanib, tarixiy ajdodlarimiz xotirasiga e’tibor qaratilmayotgan

[14] https://lex.uz/acts/-3610935 – “O`zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to`g`risida”gi qonun
[15] https://lex.uz/mact/-3495885 – Mudofaa doktrinasi
[16] https://lex.uz/uz/docs/-107583 - “Mustaqillik” ordenini ta’sis etish to`g`risida” gi qonun

edi. Mustaqillikka erishish natijasida milliy bayramlarimizni tiklash va tarixiy xotiralarimzini abadiylashtirishda mutlaqo mustaqil bo`ldik. Xususan, O`zbekiston Prezidentining "Navro`z xalq bayramini o`tkazish yakunlari to`g`risida" gi 2-sonli farmoniga ko`ra har yili 21-mart umumxalq Navro`z bayrami kuni deb e'lon qilindi[17]. Yuqorida davlatimiz suverenitetining, milliy mustaqiligimizning qonunchilikdagi o`rni, uni himoya qilish va uni yanada mustahkamlash uchun davlatimiz tomonidan mustahkamlangan bir necha hujjatlar va ularning normalarini tahlil qilib o`tdik.

XORIJIY TAJRIBA

Hozirgacha milliy mustaqilligimizni yanada mustahkamlash uchun qonunchiligimizda bir qator normalar, islohotlar amalga oshirilgan bo`lsa-da, fikrimizcha bu yanada takomillashtirilishi zarur. Bunda turli xorijiy tajribalarni o`rganib chiqish maqsadga muvofiq bo`ladi deb o`ylaymiz.

Irlandiya Konstitutsiyasi milliy mustaqillik g'oyasini xalqning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo'ygan. Konstitutsiyanign 1-moddasida quyidagicha norma mustahkamlangan: "Irlandiya xalqi o'zining ajralmas, bekor qilib bo'lmaydigan va suveren huquqini tasdiqlaydi. Bu huquq o'z davlat boshqaruvi shaklini tanlash, boshqa millatlar bilan munosabatlarini belgilash hamda o'zining iqtidor va an'analari asosida siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini rivojlantirish huquqidan iboratdir." Mazkur norma Irlandiya xalqining o'ziga xos milliy identiteti va tarixiy qadriyatlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab, milliy mustaqillik g'oyasini huquqiy asosga qo'yadi. Shu orqali u suverenitet faqat xalq hokimiyati emas, balki milliy an'ana va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi[18].

Fransiya Konstitutsiyasida milliy mustaqillik g'oyasi xalq suvereniteti va respublika tamoyili orqali huquqiy jihatdan mustahkamlangan. 1789-yilda qabul qilingan Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasining 3-moddasida shunday norma mustahkamlangan: "Barcha suverenitetning manbai millatdadir. Hech qanday tashkilot, hech qanday shaxs millatdan kelib chiqmagan hokimiyatni amalga oshira olmaydi.[19]" Ushbu tamoyil keyinchalik 1958-yilda qabul qilingan V Respublika Konstitutsiyasida yanada rivojlantirilgan.

Konstitutsiyaning 1-moddasida Fransiya Respublikasi bo'linmas, sekulyar, demokratik va ijtimoiy davlat sifatida e'lon qilinadi. 3-moddasida esa quyidagicha norma belgilangan: "Milliy suverenitet xalqnikidir. Xalq suverenitetni vakillik

[17] https://lex.uz/uz/docs/-764801 – O`zbekiston Prezidentining "Navro`z xalq bayramini o`tkazish yakunlari to`g`risida" gi 2-sonli farmoniga ko`ra har yili 21-mart umumxalq Navro`z bayrami kuni deb e'lon qilindi
[18] https://www.irishstatutebook.ie/eli/cons/en/html#part1 – Irlandiya Konstitutsiyasi
[19] https://avalon.law.yale.edu/18th_century/rightsof.asp - Fransiya Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasi

organlari yoki referendum orqali amalga oshiradi. Hech bir xalq qismi yoki shaxs bu suverenitetni o‘zlashtira olmaydi.[20]” Mazkur konstitutsiyaviy qoidalar milliy mustaqillik g‘oyasini xalqning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab, suverenitetni faqat xalqning irodasi orqali amalga oshirilishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, ular Fransiya Respublikasining asosiy tamoyillari — sekulyarlik, demokratiya va ijtimoiy adolatni milliy mustaqillik bilan uzviy bog‘lab, milliy identitetni huquqiy darajada mustahkamlaydi.

1947-yilda qabul qilingan Yaponiya Konstitutsiyasida milliy o‘zlik xalq suvereniteti bilan uyg‘unlashtirgan holda keltiriladi. . 1-moddada shunday norma mavjud: “Imperator davlatning ramzi va xalq birligining timsolidir. Suverenitet butunlay xalqnikidir.[21]” Mazkur norma Yaponiya xalqi uchun ikki jihatni mustahkamlaydi: birinchidan, milliy tarixiy ramz – Imperator milliy identitetning ifodasi sifatida saqlanib qoladi; ikkinchidan, siyosiy hokimiyat manbai sifatida xalq suvereniteti tan olinadi. Shu tarzda Yaponiya konstitutsiyasi milliy qadriyatlar va demokratik tamoyillar uyg‘unligini ta’minlaydi

Italiya Konstitutsiyasi milliy mustaqillik g‘oyasini xalq irodasi va mehnat qadriyati orqali ifodalaydi. 1-moddada shunday deyilgan: “Italiya mehnatga asoslangan demokratik respublikadir. Suverenitet xalqnikidir va u Konstitutsiyaning chegaralarida amalga oshiriladi.[22]” Bu norma Italiya xalqining milliy o‘zligini respublika boshqaruv shakli va mehnat qadriyatlari bilan bog‘laydi. Xalq suvereniteti nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotning asosiy tamoyili sifatida ham namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, davlat suvereniteti milliy mustaqillik g‘oyasining huquqiy poydevori hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, bu g‘oyani huquqiy jihatdan mustahkamlash uchun Mustaqillik deklaratsiyasi, “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun va Konstitutsiyada bir qator normalarni belgilab berdi. Ushbu normalar mamlakat hududiy yaxlitligi, tashqi siyosatda mustaqilligi, davlat ramzlari va xalqaro maydondagi o‘rnini huquqiy kafolat bilan mustahkamladi. Mustaqillik yillarida suverenitetni yanada mustahkamlash maqsadida Mudofaa doktrinasi, “Davlat xavfsizlik xizmati to`g`risida” gi qonun, milliy bayramlarning tiklanishi kabi qator islohotlar amalga oshirildi.

[20] https://www.conseil-constitutionnel.fr/sites/default/files/as/root/bank_mm/anglais/constiution_anglais_oct2009.pdf - Fransiya Konstitutsiyasi
[21] https://japan.kantei.go.jp/constitution_and_government_of_japan/constitution_e.html - Yaponiya Konstitutsiyasi
[22] https://www.senato.it/documenti/repository/istituzione/costituzione_inglese.pdf - Italiya Konstitutsiyasi

Bizningcha, milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash zarur va bu uchun har bir davlat o`zining tarixiy o`zligini e'tiborga olishi va shu asosda buni yanada takomillashtirishga, qonunchilikka yangi-yangi normalarni kiritishga harakat qilishi kerak. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakat o‘z tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitidan kelib chiqib suverenitetni mustahkamlashning turli usullarini qo‘llaydi: Eron — diniy va xalq suvereniteti uyg‘unligi orqali, Irlandiya — xalqning ajralmas huquqi orqali, Yaponiya — tarixiy ramz va xalq hokimiyatini uyg‘unlashtirish orqali, Italiya esa xalq irodasi va mehnat qadriyati orqali milliy mustaqillik g‘oyasini huquqiy asosda mustahkamladi. Demak, O‘zbekiston uchun ham xorijiy tajribalarni o‘rganib, suverenitetni mustahkamlashda milliy qadriyatlar va xalqning siyosiy irodasini uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Mustaqillikning 34 yillik tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, milliy mustaqillik g‘oyasi nafaqat huquqiy hujjatlarda, balki xalqning tarixiy xotirasi va milliy identitetida ham mustahkam o‘rin egallab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://yuz.uz/uz/news/prezident-shavkat-mirziyoevning--ozbekiston-respublikasi-davlat-mustaqilligining-ottiz-uch-yilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi
2. Bodinus. De Republica libri sex. Francoforti, 1594. P . 123 et al.
3. Goleanu, Camelia. (2025). Some Aspects of National Sovereignty in the International Geopolitical Context. Interdisciplinary Journal of Research and Development. 12. 256. 10.56345/ijrdv12n1s134.
4. https://www.etymonline.com/word/sovereignty
5. Davlat va huquq nazariyasi: darslik. - Toshkent: TDYU, 2021. 46-bet.
6. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. 76-77 bet.
7. Núñez, Jorge. (2024). State Sovereignty: Concept and Conceptions. International Journal for the Semiotics of Law - Revue internationale de Sémiotique juridique. 37. 2131-2150. 10.1007/s11196-024-10170-y.
8. A., Yo'ldoshev, Sh., Asadov Davlat suverenitetining konstitutsiyaviy asoslari: o'quv qo'llanma / Azizjon Yo'ldoshev, Shavkat Asadov. - T.: TDYU nashriyoti, 2023. - 80 b.
9. Konstitutsiyaviy huquq; darslik/Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 68-bet.
10. https://lex.uz/docs/-185391 – Mustaqillik Deklaratsiyasi.

11. https://lex.uz/docs/-127899 – “O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to`g`risida” gi qonun
12. https://lex.uz/uz/docs/-139431 – “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga konstitutsiyaviy maqom berish haqida
13. https://lex.uz/docs/-6445145 – O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
14. https://lex.uz/acts/-3610935 – “O`zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to`g`risida”gi qonun
15. https://lex.uz/mact/-3495885 – Mudofaa doktrinasi
16. https://lex.uz/uz/docs/-107583 - “Mustaqillik” ordenini ta’sis etish to`g`risida” gi qonun
17. https://lex.uz/uz/docs/-764801 – O`zbekiston Prezidentining “Navro`z xalq bayramini o`tkazish yakunlari to`g`risida” gi 2-sonli farmoniga ko`ra har yili 21-mart umumxalq Navro`z bayrami kuni deb e’lon qilindi
18. https://avalon.law.yale.edu/18th_century/rightsof.asp - Fransiya Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasi
19. https://www.conseil-constitutionnel.fr/sites/default/files/as/root/bank_mm/anglais/constiution_anglais_oct2009.pdf - Fransiya Konstitutsiyasi
20. https://www.irishstatutebook.ie/eli/cons/en/html#part1 – Irlandiya Konstitutsiyasi
21. https://japan.kantei.go.jp/constitution_and_government_of_japan/constitution_e.html - Yaponiya Konstitutsiyasi
22. https://www.senato.it/documenti/repository/istituzione/costituzione_inglese.pdf - Italiya Konstitutsiyasi

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

SUD PRESEDENTI TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Choriyev Ulug‘bek Rustamovich
Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi
e-mail: Ulugbekc824@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola sud pretsedenti institutining huquq manbasi sifatidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda sud pretsedentining nazariy asoslari, tarixiy shakllanish jarayoni hamda u umumiy huquq (common law) tizimida qanday mustahkam o‘rin egallagani yoritilgan. Maqolada Angliya huquq tizimida “stare decisis” tamoyilining paydo bo‘lishi, equity (adolat huquqi) tizimining shakllanishi, ratio decidendi va obiter dicta tushunchalari, shuningdek majburiy (binding) va tavsiyaviy (persuasive) presedent turlari keng tahlil qilingan. Shuningdek, sud pretsedenti tizimining moslashuvchanligi — follow, distinguish, overrule va reversal tamoyillari orqali huquqning dinamik rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Muallif sud pretsedenti institutining ijobiy va salbiy jihatlarini baholash bilan bir qatorda, uni huquq manbasi sifatida o‘rganish zarurligini asoslab beradi. Mavzu hali milliy huquqshunoslikda yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, uni chuqur ilmiy tahlil qilish zaruriyati mavjud.

Kalit so‘zlar: *sud pretsedenti, huquq manbai, umumiy huquq, ratio decidendi, obiter dicta, stare decisis, adolat huquqi, majburiy presedent, tavsiyaviy presedent, amal qilish, farqlash, bekor qilish, qarorni o`zgartirish.*

THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF JUDICIAL PRECEDENT

Choriyev Ulug‘bek Rustamovich
3rd-year student, Faculty of Public Law,
Tashkent State University of Law
E-mail: Ulugbekc824@gmail.com

ANNOTATION

This article is devoted to the analysis of the role and significance of the judicial precedent as a source of law. It examines the theoretical foundations and historical

development of the doctrine of precedent, as well as its firm position within the common law system. The paper explores the emergence of the "stare decisis" principle in the English legal system, the formation of the equity law system, and the concepts of *ratio decidendi* and *obiter dicta*. Moreover, it provides a detailed analysis of binding and persuasive precedents. The flexibility of the judicial precedent system — through the mechanisms of *follow*, *distinguish*, *overrule*, and *reversal* — is examined as an important factor that contributes to the dynamic development of law. The author evaluates both the advantages and disadvantages of judicial precedent and emphasizes the necessity of its recognition as a source of law. The topic remains insufficiently studied in Uzbek legal scholarship, which demonstrates the need for deeper theoretical and practical research in this area.

Keywords: judicial precedent, source of law, common law, ratio decidendi, obiter dicta, stare decisis, equity, binding precedent, persuasive precedent, following, distinguishing, overruling, reversal.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ СУДЕБНОГО ПРЕЦЕДЕНТА

Чориев Улугбек Рустамович
Студент 3-го курса факультета публичного права
Ташкентский государственный юридический университет
Электронная почта: Ulugbekc824@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу роли и значения судебного прецедента как источника права. В ней рассматриваются теоретические основы и историческое формирование института прецедента, а также его устойчивое положение в системе общего права (*common law*). В работе освещается появление принципа *stare decisis* в английской правовой системе, формирование системы *equity* (права справедливости), а также понятия *ratio decidendi* и *obiter dicta*. Кроме того, анализируются обязательные (*binding*) и рекомендательные (*persuasive*) прецеденты. Гибкость системы судебного прецедента — посредством механизмов *follow*, *distinguish*, *overrule* и *reversal* — рассматривается как важный фактор динамичного развития права. Автор

оценивает как положительные, так и отрицательные стороны судебного прецедента и подчёркивает необходимость его изучения как источника права. Тема остаётся недостаточно исследованной в отечественной юридической науке, что свидетельствует о необходимости более глубокого теоретического и практического анализа.

Ключевые слова: судебный прецедент, источник права, общее право, *ratio decidendi, obiter dicta, stare decisis*, право справедливости, обязательный прецедент, рекомендательный прецедент, применение, разграничение, отмена, изменение решения.

KIRISH

Bugungi kunda huquq tizimlarining xilma-xilligi ularning manbalarini ham farqlaydi. Roman-german huquq oilasida qonun asosiy manba sifatida e’tirof etilsa, umumiy huquq (common law) tizimida sud pretsedenti huquq yaratishning asosiy manbasi hisoblanadi. Sud pretsedenti – bu sudning ilgari ko‘rilgan ish yuzasidan chiqargan qarori bo‘lib, keyingi shunga o‘xshash ishlarni hal etishda namunaviy huquqiy qoida sifatida qo‘llaniladi. Shu bois, u nafaqat huquqni qo‘llash, balki huquqni ijod etish vositasi sifatida ham e’tirof etiladi.

Biroq, sud pretsedentini huquq manbasi sifatida tan olish masalasi hanuzgacha huquqshunoslar o‘rtasida bahsli mavzu bo‘lib qolmoqda. Ba’zi nazariyotchilar sud faqat mavjud qonunlarni qo‘llashi kerak, deb hisoblasalar, boshqalar sudlar amaliy faoliyati orqali huquqni rivojlantiradi, deya ta’kidlashadi. Shu jihatdan, mazkur maqola sud pretsedentining mohiyatini, uning shakllanish tarixini va zamonaviy huquq tizimlaridagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Mavzu milliy huquqshunoslikda yetarlicha yoritilmagan bo‘lib, uni chuqur o‘rganish huquq tizimlarining taqqoslamali tahlilini boyitadi hamda huquqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi sud pretsedenti institutining nazariy va tarixiy asoslarini o‘rganish, uni huquq manbasi sifatida tahlil qilish hamda sud qarorlarining huquq tizimiga ta’sirini ochib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada sud pretsedentining majburiy va tavsiyaviy turlari, ratio decidendi va obiter dicta qismlarining amaliy ahamiyati, shuningdek sud amaliyotida qo‘llaniladigan follow, distinguish, overrule va reversal mexanizmlarining mohiyati yoritilgan.

Tadqiqot davomida muallif qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiy tahlil, mantiqiy tahlil va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalangan. Qiyosiy yondashuv orqali sud pretsedenti institutining Angliya huquq tizimidagi o‘rni va boshqa huquq

oilalaridagi huquq manbalari bilan farqlari tahlil qilingan. Tarixiy tahlil esa sud pretsedentining vujudga kelish bosqichlarini aniqlashga yordam bergan. Mantiqiy tahlil orqali esa sud pretsedentining huquqiy barqarorlik va adolatni ta’minlashdagi o‘rni asoslab berilgan. Mazkur yondashuvlar sud pretsedentining zamonaviy huquqiy tizimdagi o‘rnini chuqurroq anglash imkonini beradi.

TADQIQOT NATIJALARI

Sud presedenti va yuridik presedent tushunchalarni ayrim hollarda chalkashtirishlar uchrab turadi. Biroq bu tushunchalar bir-biridan farqli hisoblanadi. Yuridik presedent tushunchasiga to`xtalishdan oldin “presedent” so`zi qanday ma`noni anglatishini bilib olish kerak. “Presedent” so`zi lotincha tildan olingan bo`lib *“avvalgisi, oldingisi”* degan ma’nolarni anglatadi[1][1]. Yuridik presedent – sud yoki ma’muriy organning yozma yoki og`zaki qarori bo`lib, bu qaror kelgusida barcha shunga o`xshash ishlarni ko`rib chiqish va hal qilish uchun asos bo`ladigan namuna normadir[2] [2]. Davlat organlari, jumladan, ma’muriy boshqaruv hamda sud organlari o‘zlarining ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, tartibga solish jarayonida o‘ziga xos, ba’zan original qarorlar qabul qiladilar. Ularning qabul qilgan qarorlari kelajakda xuddi shunga o`xshash munosabatlarni tartibga solishda etalon (namuna) norma bo‘lib xizmat qiladi. Bundan yuridik presedentni quyidagicha ta’riflashimiz mumkin: “yuridik presedent – muayyan ishni ma’muriy organ yoki sud organlari tomonidan ko‘rib chiqishda boshqa organ va sudlar tomonidan aynan shunga o‘xshash ish bo‘yicha ilgari chiqarilgan qarorning qo‘llanilishidir”. Presedent huquqning manbayi sifatida ilgari qadimgi Rimda qo‘llanilgan. Hozirgi kunda huquqiy presedentning anglo-sakson huquqiy oilasiga mansub davlatlar uchun o`rni beqiyos. Xususan, AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya va boshqa shu kabi davlatlar. Ammo, Yevropa qonunchiligi va roman-german huquqiy tizimiga mansub davlatlar sud amaliyotini huquq shakli sifatida tan olmaydilar. Huquqiy presedent keng tushuncha bo`lib,o`z ichiga quyidagilarni oladi: ma’muriy presedent va sud presedenti. Ma’muriy presedent deganda ma’muriyatning jamiyatni boshqaruv sohasidagi ayrim ishlar yuzasidan qabul qilgan qarorini, kelgusida xuddi shunga o‘xshash ishga asos sifatida qo‘llashi uchun xizmat qilishi tushuniladi[3][3]. Sud presedenti esa sud organining biror-bir ish yuzasidan qabul qilgan qarorini, kelgusida xuddi shunga o‘xshash ishga nisbatan namuna tarzida qo‘llashiga

[1] https://www.etymonline.com/word/precedent
[2] Сабуров Н., Нажимов М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Ўқув-услубий қўлланма. –Т.: ТДЮИ, 2009. – Б.70.
[3] Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b

aytiladi. Shu o`rinda sud presedentni huquq manbasi sifatida e'tirof etish xususida to`xtalishimiz o`rinlidir. Sud presedentni asosiy huquq manbasi sifatida e'tirof etmaslik kerak deydigan huquqshunoslar quyidagi ikkita asosni keltirishadi:

1. Huquqiy presedent ko`proq ma`lum bir shaxs irodasiga bog`liq bo`lib qolishi va bu mansabdorning suiiste`mollik qilishi ehtimoli borligi;

2. Roman-german huquq nazariyotchilarining fikricha, sudlar faqat huquqni qo`llash vakolatini amalga oshirishi kerak, huquqni ijod qilishni emas.

Bizningcha huquq presedentini u uzoq davrlardan beri huquq manbayi sifatida mustahkamlanib qolgan davlatlarda asosiy manba sifatida saqlab qolish kerak kerak. Bunga sabab qilib yuridik presedentni quyidagi ijobiy jihatlarini keltiramiz:

1. Aniqlik oshadi. Ma'lumki, sud qaror chiqarganda konkret holatga nisbatan chiqaradi. Bu esa keyingi davrda huquqni qo`llashda aniqlikni ta'minlaydi.

2. Huquqni tushunish darajasi o`sadi – odamlar aniq holatlarni o`qib, ularni xatti-harakati uchun ularni qanday jazo kutib turganini aniq bilishadi.

3. Adolatni ta'minlashga imkoniyat kuchayadi – ma'lumki sud presedentiga sudlarga jazo tayinlashda keng imkoniyatlar beriladi. Bu natijasida esa ular ishning har bir holatini hisobga olgan holda adolatli qarorlar qabul qilishi mumkin.

4. Aholida huquq tizimiga nisbatan ishonch ko`payadi – odamlar bir xil holat uchun bir xil jazo berilayotganini bilib, huquqqa nisbatan ijobiy qarashni boshlaydi. Masalan, A shaxs doriga muhtojligi uchun dorixonadan dori o`g`irladi; xuddi shu jinoyatni 1 yildan keyin B shaxs sodir etdi. Agar A shaxsga nisbatan B shaxsga og`irroq jazo tayinlansa, bu B shaxs uchun nohaqlik bo`lib qoladi. Sud presedentida esa ularga bir xil jazo tayinlanadi.

5. Obyektivlik. Angliya huquq tizimini oladigan bo`lsak, ularda sud presedenti allaqachon huquqning asosiy manbayi sifatida shakllangan. Bu bo`yicha ularda butun boshli sud qarorlari to`plami vujudga kelgan va amaliyot shakllanib bo`lgan. Shunday ekan yuqoridagi ijobiy xususiyatlar va Angliyadagi huquqiy tizimni hisobga olgan holda uni o`zgartirish samarali bo`lishdan ko`ra ko`proq zararli bo`ladi.

Sud presedenti masalasiga yanada kengroq to`xtalishdan oldin uning vujudga kelish tarixiga oid o`ziga xosliklarni o`rganib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Ma'lumki, sud presedenti manbasining mavjudligi umumiy huquq (common law) huquqiy oilasidagi davlatlarga xos. Shu boisdan umumiy huquqning vujudga kelishini o`rganish asosida mavzumiz bo`lgan sud presedentiga oid kerakli ma'lumotga ega bo`lamiz. Ushbu huquq oilasi vujudga kelish tarixi Anglo-Sakson davriga, xususan Alfred Buyuk (871–886) davriga borib taqaladi. O'sha davrda hukmron bo'lgan huquqiy tizim Germaniya xalqlarining shimoliy Yevropadagi huquqiy an'analariga

yaqin bo‘lib, asosan mahalliy odat-huquq qoidalariga tayanar edi. Bu davrda cherkov jamiyat hayotida ustun kuch hisoblangan.

1066-yil Normanlar istilosidan so‘ng, Angliya huquqida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Qirol sudi – Curia Regis – umumiy huquqning shakllanishida asosiy manba bo‘ldi. Mazkur sud asosan Vestminsterda faoliyat yuritib, butun mamlakat bo‘ylab yurisdiksiya amalga oshirar edi. Normanlar hukmronligi davrida markazlashgan boshqaruv tizimi, samarali ma’muriy nazorat va hujjat yuritish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada, istilodan keyingi asrlarda yagona va izchil huquqiy tizim shakllandi.

Umumiy huquq rivojlanishida Qirol Genrix II (1154–1189) alohida o‘rin tutadi. U “Umumiy huquq otasi” sifatida tan olinib, Anglo-Sakson odatlarini norman huquqi bilan birlashtirdi va davlat boshqaruvini tizimli tashkil qildi. Qirol sudlarini mamlakatning barcha fuqarolari uchun ochdi, hududni oltita sud okrugiga bo‘ldi va qirollik sudyalarini maxsus safarlarga yuborib, turli odat-huquq qoidalarini hujjatlashtirdi. Shu tariqa, turli hududlarda amal qilgan huquqiy qoidalar asta-sekin yagona “common law” tizimiga singib bordi[4][4].

XII asrdan boshlab sud qarorlari “Yearbooks” nomli yillik to‘plamlarda qayd etildi. Dastlab bu qarorlar faqat tavsiyaviy xarakterga ega hujjat sifatida ishlatilgan bo‘lsa-da, XVI asrga kelib ular amalda majburiy qoida sifatida qo‘llanila boshlandi. XIX asrda esa oldingi sud qarorlari majburiy kuchga ega bo‘ldi va “stare decisis” – ya’ni sud presedenti prinsipi – umumiy huquqning ajralmas qismiga aylandi. “Stare decisis” lotincha so`z bo`lib “stand by things decided”[5] [5] ya’ni “qaror qilingan narsalarga rioya qilish” ma’nosini beradi.

XIV asrdan boshlab esa umumiy huquq yonida equity (adolat huquqi) tizimi shakllandi. Bunda shu narsa e’tiborga loyiqki, ayni amaliyotdan so`ng sud tizimi ikkiga bo`lindi: “common law – umumiy huquq” va “equity – adolat huquqi”. Adolat huquqi qoidalari Umumiy huquqning ba’zi muammoli qoidalaridan kelib chiqadigan adolatsizlikni yumshatishga qaratilgan edi. Bu sud tizimi Lord Chancellor tomonidan boshqarilgan Chancery sudi orqali faoliyat yuritdi. Equity tizimining paydo bo‘lishiga bir qancha sabablar mavjud. Biz shulardan ikkita ta eng muhimlarini keltiramiz. Birinchi sabab – “writs” deb nomlanuvchi sud buyrug`i tizimining cheklanganligi edi. Ya’ni ushbu tizimga ko`ra da’vogar sudga murojaat qilish uchun ayni Qiroldan “writs” nomli hujjat olishga majbur edi. Shu bois ko‘plab da’vogarlar Common law sudlarida adolat topolmasdan, Chancery sudiga murojaat qilishga majbur bo‘lganlar.

[4] Adams, G. B. (1924). The origin of the common law. *The Yale Law Journal, 34*(2), 115–128. https://www.jstor.org/stable/788661

[5] https://www.law.cornell.edu/wex/stare_decisis

Ikkinchidan, Adolat huquqi tizimida moslashuvchanlik ustuvor bo‘lib, u turli adolatli vositalarni – masalan, injunction (sud qarorini to‘xtatib turish) yoki trust (ishonchli mulk boshqaruvi) kabi huquqiy institutlarni ishlab chiqdi. Bu institutlar u paytlarda umumiy huquqda mavjud emasligi, da’vogarlar tomonidan har doim o`zlari kutgan adolatni suddan olishlariga to`sqinlik qilardi. Chunki u paytlarda “common law” bo`g`inida faqat pulli kompensatsiya ta’sir chorasi mavjud bo`lib, bu da’vogarlar talablarini doim ham qondira olmasdi.

Ammo oradan vaqtlar o`tib, ikki tizim – Common law va Equity – o‘rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga kela boshladi. Bu bo`yicha eng muhim sud ishi sifaitda “Earl of Oxford’s Case (1615)[6]ni keltirishimiz mumkin [6]. Ushbu keysda ikkita bo`g`in o`rtasida ziddiyat vujudga kelib qoldi. Shunda keys bo`yicha chiqarilgan qaror asosda “equity – common law’dan ustunligi” qoidasi shakllandi. Keyinroq, ya’ni1873–1875-yillardagi “Sud tizimi islohoti to‘g‘risida”gi aktlar orqali ikki tizim rasman birlashtirildi. Endilikda, yagona sud tizimi har ikkala – ham “Common law”, ham “Equity” – qoidalarini birgalikda qo‘llash imkoniga ega bo‘ldi.

Sud qarorlari presedent sifatida ikki xil shaklda bo‘lishi mumkin. Birinchisi, original presedent – bu holatda ma’lum bir ijtimoiy munosabatni tartibga soladigan mavjud manba bo‘lmasa, sud o‘zi yangi qoida yaratadi. Ikkinchisi, deklarativ presedent – bunda sudlar avvalgi presedentlarga asoslanib qaror qabul qiladi.

Original presedent orqali ilgari mavjud bo‘lmagan yangi norma yaratiladi. Bunga mashhur Donoghue v Stevenson (1932) ishi misol bo‘la oladi. Ushbu ishda sud ichimlik ichidan salyangoz chiqib qolgan holatni ko‘rib, ishlab chiqaruvchi iste’molchiga bevosita shartnoma bo‘lmasa ham javobgar bo‘lishi kerakligi haqida qoida o‘rnatdi. Bu qoida “neighbour principle” – ya’ni “qo‘shnichilik tamoyili” sifatida mashhur bo‘lib, inson o‘z harakatlari oqibatida zarar ko‘rishi mumkin bo‘lgan shaxslarga nisbatan ehtiyotkorlik burchini bajarishi kerakligini belgiladi. Shu tariqa, mazkur ish ingliz huquqida zamonaviy tort huquqi (tort law) ning poydevorini yaratdi va original presedentning yorqin namunasi bo‘lib qoldi.

Bundan tashqari sud presedentini majburiy (Binding Precedent) va tavsiyaviy (Persuasive Precedent) kabi turlari ham mavjud. Ushbu turlarning mavjudligi asosi sifatida sud presedenti doktrinasi (Doctrine of Judicial Precedent) va 1873-yilgi “Sud tizimi to‘g‘risida”gi qonunini (Judicature act 1873)[7] keltirishimiz mumkin [7].

Majburiy presedentga ko`ra sudlar ishlarni ko`rishda xuddi shunga o`xshash faktlarga

[6] Earl of Oxford’s Case (1615) 21 ER 485 (Ch)
[7] https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1875/77/pdfs/ukpga_18750077_en.pdf

ega ishlar bundan oldin yuqoriroq sudlar tomonidan ko`rilgan bo`lsa, o`sha hukmi qo`llashga majbur bo`lishadi.

Tavsiyaviy presedentga keladigan bo`lsak, bunda qabul qilingan sud qarorini qo`llash ixtiyoriy bo`ladi. Majburiy bo‘lmagan, biroq sud qaroriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan presedentlar tavsiyaviy presedent sifatida tan olinadi. Ularning kuchi sudyalar tomonidan qaror chiqarishda foydalanilgan dalillarning mantiqiyligi va ishonchliligiga bog‘liq. Quyidagi holatlarda presedentlar odatda tavsiyaviy hisoblanadi:

I. Quyi sud qarorlari. Yuqori instansiya sudlari quyi sud qarorlarini qo`llashga majbur bo`lmasa-da, ayrim hollarda ularni mantiqiy asoslari sababli e’tiborga olishlari mumkin. Agar quyi sud sudyasi muhim huquqiy masalani chuqur asoslab, yangi talqin bergan bo‘lsa, bu yuqori sud uchun muhim yo‘naltiruvchi manba bo‘lishi mumkin. Masalan, R v R (1991)[8] ishida Oliy sud quyi instansiya qarorining asoslarini qo‘llab-quvvatlab, er-xotin o‘rtasidagi jinsiy munosabatda zo‘rlash jinoyat ekanligini huquqiy jihatdan tasdiqladi [8].

III. Boshqa umumiy huquq yurisdiksiyasida qabul qilingan qarorlar. Ingliz huquqi umumiy huquq (common law) oilasiga mansub bo‘lganligi sababli, boshqa common law davlatlari sud qarorlari ingliz sudlari uchun majburiy emas, ammo ular ko‘pincha tavsiyaviy sifatida qo‘llanadi. Masalan, Kanada, Avstraliya yoki Yangi Zelandiya sudlarining qarorlari zamonaviy huquqiy masalalarni hal etishda ingliz sudlariga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Lister v Hesley Hall Ltd (2001)[9] ishida Lordlar palatasi Kanadadagi sud amaliyotiga tayanib, vicarious liability (boshqalar qilgan zarar uchun javobgarlik) institutini kengroq talqin qildi [9].

III. Parallel sudlar qarorlari. Bir xil darajadagi sudlar qarorlari bir-birini bog‘lamaydi. Biroq, sudya oldingi qarorda keltirilgan mantiqni asosli deb bilsa, u holda bu qaror tavsiyaviy presedent sifatida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, Colchester Estates v Carlton Industries (1984)[10] ishida ko‘rsatib o‘tilganidek, Yuqori sud bir hay’ati toomnidan qabul qilinga qaror boshqa hay’at sudyalarini majburlamasa-da, ular huquqiy aniqlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashi mumkin [10].

IV. Qurollik Maslahat kengashi (Privy Council) qarorlari. Ushbu Kengash asosan Buyuk Britaniyadan tashqaridagi Hamdo‘stlik davlatlaridan kelgan ishlarni ko‘radi. Shu sababli uning qarorlari texnik jihatdan Angliya va Uels sudlari uchun majburiy emas. Biroq u yerda ko‘pincha yuqori darajadagi sudyalar (jumladan, Lordlar yoki keyinchalik Oliy sud a’zolari) ishtirok etgani sababli, Kengash qarorlari katta obro‘ga

[8] *R v R* [1991] 1 AC 599 (HL)
[9] Lister v Hesley Hall Ltd (2001) is [2001] UKHL 22
[10] Colchester Estates (Cardiff) Ltd v Carlton Industries plc [1984] 2 All ER 601.

ega va amalda ko‘pincha ingliz sudlari tomonidan tavsiyaviy presedent sifatida qo‘llanadi. Masalan, Attorney-General for Jersey v Holley (2005)[11] ishidagi qaror Kengash tomonidan chiqarilgan bo‘lsa-da, ingliz sudlari uni keng qo‘llagan [11].

Navbatdagi masala sud presedentining tarkibiy qismlaridir. Sud presedentlari 2 ta qismdan iborat bo`ladi. Birinchisi – ratio decidendi, ikkinchisi – obiter dicta. Ratio decidendi lotin tilidan “qarorning sababi” yoki “qarorga olib kelgan asosiy huquqiy tamoyil” deb tarjima qilinadi[12] [12]. Bu sud qarorining eng muhim va majburiy bo‘lgan qismini tashkil etadi. Unda sudning huquqiy asoslari, qo‘llanilgan tamoyillari va bevosita qarorga olib kelgan mantiqiy huquqiy mulohazalar mujassam bo‘ladi. Aynan ratio decidendi kelgusida boshqa sudlar uchun pretsedent kuchiga ega bo‘ladi. Bu orqali common law tizimida huquqiy barqarorlik, izchillik va oldindan ko‘ra bilish imkoniyati ta’minlanadi. Masalan, Carlill v Carbolic Smoke Ball Co (1893)[13] ishini olaylik [13]. Bu ish shartnoma huquqi (contract law) tarixidagi eng muhim pretsedentlardan biridir. Kompaniya reklama orqali o‘z mahsulotini sotish uchun shunday e’lon beradi: “Kimki bizning Smoke Ball mahsulotimizni ko‘rsatmalar asosida ishlatib, shunga qaramay grippga chalinadigan bo‘lsa, biz unga £100 to‘laymiz”. Kompaniya bu e’lonni jiddiy shartnoma taklifi emas, balki oddiy reklama deb himoya qildi. Ammo sud buni haqiqiy oferta deb topdi, chunki kompaniya hatto £1000 miqdorida pulni bankda depozit qilib qo‘yganini ko‘rsatib, o‘zining jiddiy niyatini isbotlagan edi. Sudning ratio decidendi shundan iborat bo‘ldiki, ommaga qaratilgan aniq va jiddiy va’dalar ham shartnoma taklifi sifatida qabul qilinishi mumkin va agar tomonlar uni bajarsa, majburiy kuchga ega bo‘ladi.

Sud qarorining ikkinchi qismi esa obiter dicta deb ataladi. Bu lotincha “shunchaki aytib ketiladigan gaplar” degan ma’noni bildiradi[14] [14]. Obiter dicta sudyaning qarorga bevosita ta’sir ko‘rsatmagan fikrlari, mulohazalari, faraziy misollari yoki qo‘shimcha izohlaridan iborat bo‘ladi. U majburiy huquqiy kuchga ega emas, ya’ni binding precedent sifatida e’tirof etilmaydi. Shu boisdan sudlar obiter dicta’ni qo‘llashga majbur emaslar.

Shu tariqa, ratio decidendi va obiter dicta umumiy huquqi oilasiga ega davlatlatda sud qarorining ikkita muhim tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Birinchisi – qarorning huquqiy “yuragi” bo‘lib, majburiy kuchga ega, ikkinchisi esa – majburiy bo‘lmagan qismdir. Har ikki tushuncha ham pretsedent huquqi mexanizmini to‘liq anglashda muhim

[11] Jersey Attorney General v. Holley, ((2005), 341 N.R. 285 (PC))
[12] https://www.lexisnexis.co.uk/legal/glossary/ratio-decidendi
[13] Carlill v Carbolic Smoke Ball Co [1893] 1 QB 256
[14] https://www.lexisnexis.co.uk/legal/glossary/obiter-dictum

nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ular sudlarning ijodiy huquqiy faoliyatini va huquqning evolyutsion rivojlanishini ta’minlaydigan asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sud pretsedenti tizimi qat’iy va o‘zgarmas mexanizm emas. U o‘zida barqarorlik va izchillikni ta’minlagan holda, muayyan darajada moslashuvchanlik (adaptivlik) xususiyatiga ham ega. Sudlar avvalgi ishlar bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashlari yoki ulardan ma’lum hollarda chekinishlari mumkin. Bunda ushbu huquqiy tizimga oid sudlarda qo`llaniladigan to`rtta muhim tushunchalar amal qilish (follow), farqlash (distinguish), bekor qilish (overrule) va qarorni o`zgartirish (reversal) “.

Mazkur tamoyillar sud hokimiyatining ijodiy huquqiy faoliyatini ifodalaydi va huquq tizimining ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga mos ravishda yangilanib borishini ta’minlaydi.

Birinchidan, amal qilish (follow) instituti orqali sudlar o`xshash faktlarga ega bo`lgan bundan olgindi presedentlar bo`lsa, ularni o`z ishlarida qo`llaydi va ayni sud qarorlari asosida hukm chiqaradi. Bu sud presedentiga klassik misol hisoblanadi. Ya’ni adabiyotlarimizda eng keng tarqalgan va asosiy yoritilib ketilgan qismi. Biroq bundan keyingi institutlar ko`pincha yoritilmasdan qolib ketmoqda.

Ikkkinchi institut – farqlash (distinguishing). Bu orqali sudlar avvalgi ish va yangi ish o‘rtasidagi jiddiy faktik yoki huquqiy tafovutlarni aniqlab, ilgari qo‘llanilgan pretsedentni tatbiq etmaslik uchun asos topadilar. Bu hol sud mustaqilligini, shuningdek, huquqiy talqinlarning yangicha rivojlanishini ta’minlaydi. Farqlash orqali sudlar mavjud pretsedentni inkor qilmasdan, uni konkret ishning o‘ziga xos sharoitlariga moslashtirgan holda talqin etadi.

Uchinchidan, bekor qilish (overruling) mexanizmi orqali yuqori instansiya sudi yoki o‘sha sudning keyingi tarkibi ilgari chiqarilgan pretsedentni noto‘g‘ri deb topib, uni kuchdan qoldirishi mumkin. Bu esa sud amaliyotining o‘zini-o‘zi to‘g‘rilash va yangilash imkoniyatini beradi. Natijada, sud amaliyoti xatoliklardan tozalanadi, huquq normalari esa zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiqlashtiriladi. Bunda shu narsani alohida qayd etish kerakki, overruling bo`lishi eski presedentni butunlay bekor qilgan holda uning o`rnini egallaydi va yangi presedentga aylanadi.

Vanihoyat, qarorni o`zgartirish (reversal) tushunchasi mavjud bo‘lib, bu holatda masala avvalgi pretsedent bilan bog‘liq emas, balki aynan o‘sha ish bo‘yicha yuqori sud instansiyasi tomonidan pastki sud qarorining o‘zgartirilishiga taalluqlidir. Qarorni o`zgartirish sud qarorlari ustidan nazorat tizimini mustahkamlaydi hamda sud instansiyalari o‘rtasidagi iyerarxik bog‘liqlikni ifodalaydi.

Ushbu to`rtta institut sudlar diskretsiyasi, ya'ni mustaqilligini ta'minlash uchun, qolaversa, har bir holga obyektiv yondashish imkoniyatini berish uchun juda muhim hisoblanadi. Ushbu institutlar va sud presedentining ijobiy tarafi haqida huquqshunos olim Hart quyidagicha fikr bildiradi: "hatto eng oddiy qonun normalari ham "noaniqlik soyasiga" ega bo'lib, sudya ba'zan ularning ma'nosini tanlashda ijodiy qaror qabul qilishga majbur bo'ladi. Shu sababli, sudya faoliyati shunchaki mexanik qo'llashdan ko'ra, qo`shimcha ma'no yaratish orqali qonunlarni qo`llashi va yangi qoidalarni yaratishi muhimdir[15]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, sud pretsedenti huquq tizimining barqarorligini, izchilligini va oldindan ko'ra bilish imkoniyatini ta'minlovchi muhim institutdir. U sud qarorlariga aniqlik va bir xillik olib kirib, fuqarolarning huquqqa bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shuning uchun ham, u uzoq tarixiy davrlar davomida huquq manbasi sifatida shakllanib kelgan davlatlarda o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Ikkinchidan, sud pretsedentining amaliy ahamiyati shundaki, u nafaqat huquqni qo'llash, balki uni ijodiy rivojlantirishga xizmat qiladi. Sudlar o'z qarorlari orqali yangi huquqiy qoidalarni ishlab chiqib, zamon talablariga mos huquqiy mexanizmlarni shakllantiradilar. Ayniqsa, Donoghue v Stevenson yoki Carlill v Carbolic Smoke Ball Co kabi ishlar bunga yorqin misol bo'la oladi.

Uchinchidan, sud pretsedenti tizimi qat'iy emas, balki moslashuvchan tuzilishga ega. Follow, distinguish, overrule va reversal kabi mexanizmlar orqali u ijtimoiy o'zgarishlarga javob beradigan dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu boisdan, pretsedent tizimi sud hokimiyatining ijodiy va nazariy rivojlanishini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, sud pretsedentining ratio decidendi va obiter dicta qismlarini to'g'ri farqlash sud qarorlarining mazmunini to'liq anglash va kelgusida to'g'ri qo'llash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat huquqiy aniqlikni oshiradi, balki sud amaliyotida adolatning ta'minlanishiga ham xizmat qiladi.

Mazkur mavzu hali milliy huquqshunoslikda to'liq o'rganilmagan bo'lib, uni chuqur ilmiy va amaliy tahlil qilish O'zbekiston sud tizimida ham pretsedent elementlaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu yo'l bilan biz nafaqat xalqaro tajribadan o'rganamiz, balki milliy huquq tizimimizni yanada mukammal va adolatli shaklga keltiramiz.

[15] Hart, H. L. A. (1994). *The Concept of Law* (P. A. Bulloch & J. Raz, Eds.; 2nd ed.). Clarendon Press

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://www.etymonline.com/word/precedent
2. Сабуров Н., Нажимов М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Ўқув-услубий қўлланма. –Т.: ТДЮИ, 2009. – Б.70.
3. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b
4. Adams, G. B. (1924). The origin of the common law. The Yale Law Journal, 34(2), 115–128. https://www.jstor.org/stable/788661
5. https://www.law.cornell.edu/wex/stare_decisis
6. Earl of Oxford's Case (1615) 21 ER 485 (Ch)
7. https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1875/77/pdfs/ukpga_18750077_en.pdf
8. R v R [1991] 1 AC 599 (HL)
9. Lister v Hesley Hall Ltd (2001) is [2001] UKHL 22
10. Colchester Estates (Cardiff) Ltd v Carlton Industries plc [1984] 2 All ER 601.
11. Jersey Attorney General v. Holley, ((2005), 341 N.R. 285 (PC))
12. https://www.lexisnexis.co.uk/legal/glossary/ratio-decidendi
13. Carlill v Carbolic Smoke Ball Co [1893] 1 QB 256
14. https://www.lexisnexis.co.uk/legal/glossary/obiter-dictum
15. Hart, H. L. A. (1994). The Concept of Law (P. A. Bulloch & J. Raz, Eds.; 2nd ed.). Clarendon Press

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

OSIYO TARAQQIYOT BANKINING O‘ZBEKISTON RIVOJLANISHI UCHUN AJRATGAN KREDIT LINIYALARI VA GRANTLARI

Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi
imamarasulova5@gmail.com
+998993005775

Annotatsiya

Osiyo taraqqiyot banki, mamlakatlar o‘rtasidagi ishtirokda milliy valyutalar va investitsiyalar almashish, yirik infrastruktura loyihalari uchun moliyaviy yordam ko‘rsatish, va mintaqadagi ta’lim, sog‘liqni saqlash, energiya, transport, kommunikatsiya va boshqa sohalarda iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirishda o‘z ahamiyatli vazifalarini amalga oshiradi. Bundan tashqari, energetika sohasini isloh qilish dasturi chiqindilarni va qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanishni kamaytirish bo‘yicha aniq siyosatni o‘z ichiga oladi. Bu boradagi say-harakatlar mamlakatimiz uchun dolzarb mavzu bo‘lib, maqola Osiyo tarqqiyot banki tomonidan ajratilayotgan kredit liniyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: davlat sektori, kreditlar, transport, qishloq xo‘jaligi, shaharsozlik, yashil renovatsiya.

Кредитные линии и гранты, выделенные Азиатским банком развития для развития Узбекистана

Мамарасулова Ироды Зафаржон кизи
imamarasulova5@gmail.com
+998993005775

Абстракт

Азиатский банк развития участвует в обмене национальных валют и инвестиций между странами, оказывает финансовую поддержку крупным инфраструктурным проектам, а также усиливает экономическое развитие региона в сфере образования, здравоохранения, энергетики, транспорта, связи и других сферах, выполняет важные задачи. Кроме того, программа реформирования энергетического сектора включает четкую политику по сокращению выбросов и использования ископаемого топлива. Усилия в этом направлении являются актуальной темой для нашей страны, и статья посвящена изучению кредитных линий, выделяемых Азиатским банком развития.

Ключевые слова: госсектор, кредиты, транспорт, сельское хозяйство, градостроительство, зеленая реновация.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Credit lines and grants allocated by the Asian Development Bank for the development of Uzbekistan

Mamarasulova Iroda Zafarjan qizi
imamarasulova5@gmail.com
+998993005775

Abstract

The Asian Development Bank is involved in the exchange of national currencies and investments between countries, providing financial support for large infrastructure projects, and strengthening economic development in the region in education, health, energy, transport, communication and other areas. In addition, the energy sector reform program includes clear policies to reduce emissions and fossil fuel use. Efforts in this regard are an urgent topic for our country, and the article is devoted to the study of credit lines allocated by the Asian Development Bank.

Keywords: public sector, loans, transport, agriculture, urban development, green renovation.

Osiyo taraqqiyot bankining mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlashi taxminan 1984-yilda boshlangan. U rivojlanish bosqichiga mos keladigan individual ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallangan va bankning cheklangan resurslarini aks ettiruvchi strategik mulohazalar va iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishda eng muhim deb topilgan maqsadlarni hisobga olgan. 1984-yildan 1990-yillarning boshigacha mamlakatlarning rivojlanish rejalari xususiy sektor orqali sanoatni rivojlantirishga e’tiborning kuchayganligini ko‘rsatdi.



1-rasm. 2022-yilda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan amalga oshirilgan yordamlar sektorlar bo‘yicha[1] (mlrd.$)

Osiyo taraqqiyot banki krediti va texnik ko‘magida moliya va davlat sektorini ulushi yuqori hisoblanadi. Bu jarayonda dasturni loyihalashning murakkabligi va ko‘lami faoliyat yurituvchi sub’ektlar faoliyatini yaxshilash va institutsional salohiyatni mustahkamlashga ko‘proq e’tibor qaratilishi bilan ortadi. Undan keying darajada transport va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va suv ta’minotini yaxshilash turadi.

Osiyo taraqqiyot banki mamlakatlar iqtisodiyotida juda sezilarli o‘rin egallamaydigandek tuyilishi mumkin, lekin rivojlanishi oqsayotgan va bazi sektorlari yuqori texnologiyaga asoslanmagan davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina qishloq xo‘jaligini oladigan bo‘lsak, Osiyo taraqqiyot banki nafaqat moliyaviy balki, texnik yoki tajriba almashinishda yordamlar ko‘rsatadi. Buni natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining mahsuldorligi hamda ish unumi oshadi.



2-rasm. 2022-yilda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan amalga oshirilgan yordamlar mintaqalar bo‘yicha[2] (mlrd. $)

Diagramma ko‘rsatrib turganidek, 2022-yilda Osiyo taraqqiyot banki eng ko‘p Markaziy Osiyo mintaqasiga yordam ko‘rsatgan. Bu hudud nisbatan kamroq rivojlanayotgan hudud hisoblanadi. Eng kam mablag‘ tinch okean mintaqasiga ajratilgan. Janubi-sharqiy Osiyoda eng Osiyoning eng rivojlangan mamlakatlari

[1] Muallif tomonidan tayyorlandi
[2] Muallif tomonidan tayyorlandi

joylashgan. Bular, Janubiy Koreya, Yaponiya kabilardir. Birgina Xitoyning o‘zi bugungi kunda butun dunyo ishlab chiqarish sanoatini boshqarmoqda. Mamlakatlar Xitoydan tayyor mahsulot olishmoqda. Bugungi Xitoy dunyo sanoat hubi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki O‘zbekistonda 1995-yildan beri faoliyat yuritib kelmoqda va asosiy rivojlanishda hamkori hisoblanadi[3]. O‘zbekistonning ushbu bankdagi kvotasi 310,5 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Hozirgi paytda O‘zbekistonda OSiyo tarqqiyot banki ishtirokidagi umumiy miqdori 625,5 mln. AQSH dollariga teng bo‘lgan 13 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Osiyo taraqqiyot bankining O‘zbekiston bilan hamkorligi mamlakatning inklyuziv, barqaror va ochiq bozorga asoslangan iqtisodiyotga o‘tishiga yordam beruvchi islohotlarni qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Osiyo taraqqiyot bankining yordam ko‘rsatish yo‘nalishlari O‘zbekistonning milliy rivojlanish strategiyasi va uning ustuvor yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi[4]. Masalan:

- davlat boshqaruvini isloh qilish;
- iqtisodiy rivojlanish, jumladan, tarkibiy islohotlar, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni mustahkamlash, transport va savdo aloqalarini yaxshilash;
- ijtimoiy rivojlanish.

[3] https://review.uz/uz/post/osiyo-taraqqiyot-bankining-ozbekistondagi-vakolatxonasi-ozbekistonda-pandemiyani-engib-otish-uchun-hamkorlikni-chuqurlashtirish
[4] https://www.adb.org/where-we-work/uzbekistan



3 -rasm. 2023-yil aprel holatiga ko‘ra Osiyo taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonga amalga oshirilgan yordamlar sektorlar bo‘yicha[5] (mlrd.$)

O‘zbekistonning ikkinchi darajali shaharlarida yashovchi aholining hayot sifatini yaxshilash uchun Osiyo taraqqiyot banki “ Integratsiyalashgan shaharsozlik” loyihasi doirasida 59 million dollarlik kredit va 500 ming dollarlik grantni ma’qulladi. U COVID-19 pandemiyasi va iqlim o‘zgarishi ta’siri tufayli o‘sish sur’ati ortda qolgan Jizzax, Xovost, Xiva va Yangiyer shaharlarida kommunal infratuzilma va xizmatlarga strategik investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Osiyo taraqqiyot banki yashil renovatsiya kreditlarini kengaytirishga yordam beradigan 150 million dollarlik kreditni tasdiqladi. Bu mamlakatdagi tijorat kreditorlari uchun mavjud bo‘lgan mablag‘ni ko‘paytiradi, shunda ular arzon uy kreditlari berishni davom ettiradilar. O‘zbekistonda qarz oluvchilar isitish va sovutish tizimlarini ta’mirlash yoki o‘rnatish, quyosh panellarini o‘rnatish yoki uylarida suv izolyatsiyasini yaxshilash va shu orqali energiya samaradorligini oshirish uchun yashil renovatsiya kreditlaridan foydalanishlari mumkin.

1-jadval.

2018-yil 1-yanvardan – 2022-yil 31-dekabrgacha O‘zbekiston bilan birgalikda moliyalashtirilgan loyihalar[6]

[5] Muallif tomonidan tayyorlandi
[6] https://www.adb.org/where-we-work/uzbekistan/overview

Loyiha	Loyiha soni	Loyiha summasi (mln.$)
Suveren	19	1 757,16
Kreditlar	6	1 742,91
Grantlar	1	0,30
Texnik yordam	12	13,95
Suveren bo‘lmagan	4	665,85

2023-yilda oziq-ovqat va suv xavfsizligini yaxshilashga yordam berish uchun Osiyo tarqqiyot banki 150 million dollarlik kredit va 3 million dollarlik grantni ma’qulladi, bu esa O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish bo‘yicha iqlimga mos yechimlarni taqdim etadi. Ushbu ko‘mak Amudaryo va Zarafshon daryosi havzasining tanlangan hududlarida tanlangan kichik loyihalarda irrigatsiya va drenajni modernizatsiya qiladi.

Osiyo taraqqiyot banki shuningdek, O‘zbekistonni qo‘llab-quvvatlashda transport, energetika aloqalari va savdoga ustuvor ahamiyat berishda davom etmoqda mamlakatdagi mintaqaviy aloqalar uchun muhim bo‘lgan milliy yo‘llarni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish uchun 273,85 million dollar miqdorida kredit ajratdi. Loyiha Afg‘oniston, Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonni bog‘lovchi Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik (CAREC) 2-koridorining bir qismi bo‘lgan A380 avtomagistrali bilan aloqani yangilaydi. Shuningdek, kam ta’minlangan beton qoplamali yo‘llarni kengaytiradi va ularning holatini yaxshilaydi, sayohat vaqtini va transport vositalarini ishlatish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Loyiha, shuningdek, yo‘nalishlar va kesishmalarni yangilaydi, avtobus bekatlari va piyodalar uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydi, aniqroq belgilar va boshqa xavfsizlik funksiyalarini qo‘shadi.

Bundan tashqari, Osiyo taraqqiyot banki loyiha hududida turizm sohasini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashi aytilmoqda. Xususan, bu borada elektron chiptalar tizimini ishlab chiqish, turizm menejmentiga ayollarni jalb qilish va o‘qitish, shuningdek, ayollar, bolalar, qariyalar va nogironligi bor yo‘lovchilar uchun kirish va xavfsizlik funksiyalari mavjud poyezd stansiyalari atrofida shaharsozlikni rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Prognozlarga ko‘ra, “Buxoro-Xiva” liniyasining elektrlashtirilishi yillik yo‘lovchi

tashish hajmini 2026-yilga kelib uch yarim barobardan ziyodga — 1 million yo‘lovchidan ko‘proqqa oshiradi. Yillik yuk tashish hajmi esa 2026-yilda jami 11,8 million tonnaga yetishi kutilmoqda.

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, Moliya vazirligi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonning xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan davlat tashqi qarzi qoldig‘ining asosiy qismi Osiyo taraqqiyot banki hissasiga to‘g‘ri kelib, 1-oktabr holatiga 5,1 mlrd dollarni tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.adb.org/who-we-are
2. https://nsp.gov.uz/outinst?id=15
3. https://review.uz/uz/post/osiyo-taraqqiyot-bankining-ozbekistondagi-vakolatxonasi-ozbekistonda-pandemiyani-engib-otish-uchun-hamkorlikni
4. https://www.adb.org/where-we-work/uzbekistan
5. https://www.adb.org/where-we-work/uzbekistan/overview

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

TARJIMA JARAYONIDA EKVIVALENTLIK VA ADEKVATLIK MUAMMOLARI

Zulunova Mohidil Murodjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti, nemis tili kafedrasi o`qtuvchisi

Annotatsiya:
Mazkur maqolada tarjima jarayonida ekvivalentlik va adekvatlik tushunchalarining mazmuni, ularning o‘zaro farqi hamda tarjima sifatiga ta’siri tahlil qilinadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, tarjimonning interpretatsiya jarayonidagi roli hamda semantik muvofiqlikni ta’minlash muammolari yoritiladi. Shuningdek, maqolada ekvivalentlikning turli darajalari va tarjimada adekvatlikning nazariy asoslari nemis va o‘zbek tillari misolida ko‘rsatib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: tarjima, ekvivalentlik, adekvatlik, tarjimon, semantika, pragmatika, kontekst, madaniyat.

Kirish

Tarjima nazariyasi tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u tillararo muloqotni ta’minlaydigan vosita sifatida nafaqat lingvistik, balki madaniy hodisani ham ifodalaydi. Tarjimaning asosiy maqsadi – manba tilidagi mazmunni maqsad tilida imkon qadar to‘liq va aniq tarzda yetkazishdir. Shu jarayonda “ekvivalentlik” va “adekvatlik” tushunchalari tarjima sifatini belgilovchi asosiy mezonlardir.

Ekvivalentlik tushunchasi tarjimaning mazmuniy jihatdan mos kelish darajasini bildirsa, adekvatlik esa manba matnning kommunikativ ta’sirini va funksional vazifasini saqlab qolishni nazarda tutadi. Tarjimon bu ikki omil o‘rtasida muvozanatni topishi zarur, chunki semantik jihatdan to‘liq mos tarjima har doim ham funksional jihatdan adekvat bo‘lavermaydi.

Asosiy qism

1. Ekvivalentlik tushunchasi va uning darajalari

Ekvivalentlik (lot. aequivalens – teng qiymatli) tarjima jarayonida manba matnning maqsad tilidagi mazmuniy va semantik jihatdan mosligini bildiradi. Tarjima nazariyasida bir necha darajadagi ekvivalentlik farqlanadi:

1. *Formal ekvivalentlik* – grammatik tuzilish va leksik birliklarning tashqi shaklini saqlashga intiladi.
2. *Semantik ekvivalentlik* – matnning ma’nosini to‘liq va aniq ifodalashni ko‘zlaydi.
3. *Pragmatik ekvivalentlik* – tarjimaning o‘quvchi yoki auditoriyaga ta’sirini manba

matn bilan bir xil darajada yetkazishga qaratiladi.
Masalan, nemis tilidagi “Es regnet Bindfäden” iborasi so‘zma-so‘z “iplar yog‘ayapti” tarzida tarjima qilinsa, formal ekvivalent bo‘ladi, lekin semantik va pragmatik jihatdan “yomg‘ir shiddat bilan yog‘ayapti” shakli adekvatroq bo‘ladi.

2. Adekvatlik tushunchasi va uning xususiyatlari
Adekvatlik (lot. adaequatus – moslashtirilgan, muvofiq) ekvivalentlikdan kengroq tushuncha bo‘lib, u tarjimada semantik, stilistik va funksional jihatlarning uyg‘unligini ta’minlashni nazarda tutadi.
Adekvat tarjima nafaqat matnning ma’nosini, balki uning uslubini, ohangini, madaniy konnotatsiyasini ham to‘g‘ri aks ettiradi.
Nemis tilidan o‘zbek tiliga badiiy asarlar tarjimasida adekvatlikni saqlash ayniqsa murakkab, chunki madaniyatlararo tafovutlar tarjimonni ijodiy yechim topishga majbur qiladi. Masalan, “Schwarzer Humor” iborasini “qora hazil” deb so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin, ammo o‘zbek o‘quvchisiga “achchiq hazil” shakli mazmun jihatdan adekvatroq ta’sir qiladi.

3. Tarjima jarayonida muvozanat muammosi
Ko‘p hollarda tarjimon ekvivalentlik va adekvatlik o‘rtasida tanlov qilishi kerak bo‘ladi. Ilmiy matnlarda formal ekvivalentlik muhim bo‘lsa, badiiy tarjimada adekvatlik ustunlik qiladi. Shu sababli tarjimon til birliklarini kontekstga moslashtirgan holda, manba matnning kommunikativ maqsadini saqlab qolishi kerak.
Bu jarayonda tarjimonning kompetensiyasi, madaniy bilimlari va ijodkorligi muhim rol o‘ynaydi. Tarjimon matnni faqat so‘zlar yig‘indisi sifatida emas, balki madaniy mazmunli birlik sifatida idrok etishi lozim.

Xulosa

Tarjima jarayonida ekvivalentlik va adekvatlik muammolari tarjima sifatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ularning o‘zaro nisbatini to‘g‘ri aniqlash

tarjimonning tajribasi, tahliliy fikrlashi va madaniyatlararo tafakkuriga bog‘liq. Har qanday tarjimada asosiy maqsad – manba matn mazmunini to‘liq, to‘g‘ri va o‘quvchi uchun tushunarli shaklda yetkazishdir. Shuning uchun tarjimon ekvivalentlik va adekvatlikni uyg‘unlashtira olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. Москва: ЭТС, 2000.
2. Nida, E. Toward a Science of Translating. Leiden: E.J. Brill, 1964.
3. Catford, J.C. A Linguistic Theory of Translation. Oxford: OUP, 1965.
4. Шомақсудова Г. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: TDShI, 2018.
5. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 2011.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Yakubova Mohinur Jumaniyozovna

Anotatsiya:Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning ilmiy asoslangan rolini tahlil qiladi. Guilfordning divergent fikrlash modeli, Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi va Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasi asosida didaktik o‘yinlarning flüensiya, fleksibillik, originalik va elaboratsiya kabi kreativ o‘lchovlarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Empirik tadqiqotlar (Torrance, Pyle va Danniels, To‘xtaxo‘jayeva va boshq.) natijalari shuni ko‘rsatadiki, yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlar kreativ mahsulotlar sifatini 18–32% ga oshiradi. O‘yinlarning neyrobiologik mexanizmlari (dopamin ajralishi), amaliy qo‘llash tamoyillari (maqsadga yo‘naltirilganlik, differensial yondashuv, formativ baholash) va cheklovlari (o‘qituvchi malakasi, resurslar, gender farqlari) muhokama etiladi. O‘zbekiston ta’lim kontekstida milliy didaktik o‘yinlarni integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Maqola didaktik o‘yinlarni kreativ ta’limning strategik vositasi sifatida baholaydi va uzun muddatli tadqiqotlar zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, didaktik o‘yinlar, boshlang‘ich sinf, divergent fikrlash, yaqin rivojlanish zonasi, flüensiya, fleksibillik, originalik, milliy didaktik o‘yinlar, o‘zbek ta’lim tizimi.

Abstract: This article analyzes the scientifically based role of didactic games in developing creative thinking skills of primary school students. Based on Guilford's divergent thinking model, Vygotsky's sociocultural theory and Gardner's theory of multiple intelligences, the impact of didactic games on creative dimensions such as fluency, flexibility, originality and elaboration is examined. The results of empirical studies (Torrance, Pyle and Danniels, Tokhtakhojayeva et al.) show that guided didactic games increase the quality of creative products by 18–32%. The neurobiological mechanisms (dopamine release), principles of practical application (goal-oriented, differential approach, formative assessment) and limitations (teacher qualifications, resources, gender differences) of games are discussed. Recommendations are made for the integration of national didactic games in the context of education in Uzbekistan. The article evaluates didactic games as a strategic tool for creative education and emphasizes the need for long-term research.

Keywords: creative thinking, didactic games, primary school, divergent thinking, zone

of proximal development, fluency, flexibility, originality, national didactic games, Uzbek education system.

Аннотация: В статье анализируется научно обоснованная роль дидактических игр в развитии навыков творческого мышления учащихся начальной школы. Основываясь на модели дивергентного мышления Гилфорда, социокультурной теории Выготского и теории множественного интеллекта Гарднера, рассматривается влияние дидактических игр на такие аспекты творческого мышления, как беглость, гибкость, оригинальность и развитость. Результаты эмпирических исследований (Торренс, Пайл и Дэнниелс, Тохтаходжаева и др.) показывают, что управляемые дидактические игры повышают качество творческих продуктов на 18–32%. Обсуждаются нейробиологические механизмы (выделение дофамина), принципы практического применения (целеориентированность, дифференцированный подход, формирующее оценивание) и ограничения (квалификация учителей, ресурсы, гендерные различия) игр. Даны рекомендации по интеграции национальных дидактических игр в образовательную систему Узбекистана. В статье дидактические игры оцениваются как стратегический инструмент творческого образования и подчеркивается необходимость долгосрочных исследований.

Ключевые слова: творческое мышление, дидактические игры, начальная школа, дивергентное мышление, зона ближайшего развития, беглость, гибкость, оригинальность, национальные дидактические игры, узбекская система образования.

Kreativ fikrlash zamonaviy ta’lim paradigmasining markaziy komponenti sifatida qaralmoqda, chunki u o‘quvchilarda muammolarni noan’anaviy yechimlar bilan hal qilish, yangi g‘oyalarni generatsiya qilish va moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar (6–10 yosh) uchun bu ko‘nikma kognitiv rivojlanishning muhim bosqichi bo‘lib, Piagetning operatsion oldi bosqichidan konkret operatsiyalar bosqichiga o‘tish davrida shakllanadi. Ushbu maqolada didaktik o‘yinlarning kreativ fikrlashni rivojlantirishdagi roli ilmiy asoslangan holda tahlil etiladi, empirik tadqiqotlar, psixologik nazariyalar va pedagogik modellar asosida yondashiladi. Kreativ fikrlashning mohiyati Guilfordning divergent fikrlash modelida aniq ifodalangan bo‘lib, u flüensiya (ko‘p g‘oya ishlab chiqarish), fleksibillik (turli toifadagi g‘oyalarni birlashtirish), originalik (noyob yechimlar) va elaboratsiya (tafsilotlarni boyitish) kabi o‘lchovlarni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu ko‘nikmalar tabiiy ravishda mavjud bo‘lsa-da, ularni tizimli

rivojlantirish uchun stimulyatsiya talab etiladi. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasiga ko‘ra, bolaning rivojlanishi ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali amalga oshadi, bu yerda didaktik o‘yinlar “yaqin rivojlanish zonasi”ni faollashtirib, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi mediativ jarayonni ta’minlaydi. Didaktik o‘yinlarning ta’limiy potentsiali Frobelning “kindergarten” kontseptsiyasidan boshlab rivojlangan bo‘lib, u o‘yinni bolaning tabiiy faoliyati sifatida qabul qilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda (Torrance, 2008; Runco, 2014) o‘yin asosidagi aralashuvlar kreativ fikrlash ballarini 15–25% ga oshirishi isbotlangan. Masalan, Russ va Fiorelli (2010) tomonidan o‘tkazilgan meta-tahlilda o‘yinli intervensiyalar bolalarning emotsional ekspressiyasi va divergent fikrlashini sezilarli darajada yaxshilagan. Boshlang‘ich sinfda didaktik o‘yinlar quyidagi mexanizmlar orqali samara beradi: birinchidan, o‘yin muhitida xavfsizlik hissi yaratiladi, bu esa xato qilish qo‘rquvini yo‘qotib, eksperimentatsiyani rag‘batlantiradi; ikkinchidan, rol o‘yinlari orqali empatiya va perspektiva olish ko‘nikmalari rivojlanadi; uchinchidan, qurilish o‘yinlari (masalan, LEGO yoki bloklar bilan) prostoriy tasavvurni va muhandislik fikrlashni kuchaytiradi.

Empirik dalillar sifatida Pyle va Danniels (2017) tadqiqotini keltirish mumkin: ular boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida erkin o‘yin va yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlarni solishtirib, ikkinchisining kreativ mahsulotlarni (rasmlar, hikoyalar) sifatini 32% ga oshirganini aniqlagan. Bundan tashqari, o‘yinlarning neyrobiologik asoslari ham mavjud – o‘yin vaqtidagi dopamin ajralishi prefrontal korteks faolligini oshirib, ijodiy assotsiatsiyalarni kuchaytiradi (Panksepp, 2007). O‘zbekiston kontekstida o‘tkazilgan tadqiqotlar (To‘xtaxo‘jayeva, 2022) shuni ko‘rsatadiki, milliy didaktik o‘yinlar (masalan, “Alpomish” ertagi asosidagi rol o‘yinlari) o‘quvchilarning flüensiya ko‘rsatkichlarini 18% ga yaxshilagan, bu mahalliy madaniy elementlarni integratsiya qilishning samaradorligini tasdiqlaydi. Didaktik o‘yinlarni amaliy qo‘llashda bir nechta ilmiy tamoyillar rioya etilishi lozim. Birinchisi, o‘yinlarning maqsadga yo‘naltirilganligi: har bir o‘yin kreativ fikrlashning muayyan o‘lchovini nishonga olishi kerak. Masalan, “Nima bo‘lardi agar...” savollari bilan boshlanadigan o‘yinlar flüensiyani, “Qanday qilib boshqacha qilish mumkin?” savollari fleksibillikni rivojlantiradi. Ikkinchisi, differensial yondashuv: Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasiga asosan, o‘yinlar vizual-prostoriy, lingvistik yoki kinestetik intellektlarga moslashtirilishi kerak. Uchinchisi, baholashning formativligi: o‘quvchilarning kreativ mahsulotlari Consensual Assessment Technique (Amabile, 1996) usuli bilan baholanib, sub’yektiv emas, balki mutaxassislar konsensusiga asoslanadi.

Didaktik o‘yinlarning cheklovlari ham mavjud bo‘lib, ularni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Birinchidan, o‘qituvchining malakasi: agar o‘yin faqat ko‘ngilochar bo‘lib

qolsa, kreativ rivojlanish minimal bo‘ladi. Ikkinchidan, resurslar: raqamli didaktik o‘yinlar (masalan, Scratch dasturlash muhiti) qishloq maktablarida cheklangan. Uchinchidan, gender farqlari: ba’zi tadqiqotlar (Baer & Kaufman, 2008) qizlarning lingvistik kreativligi o‘g‘il bolalarga nisbatan o‘yinlarda ko‘proq rivojlanishini ko‘rsatadi, bu esa gender-neytral dizaynni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ilmiy asoslangan, samarali vosita hisoblanadi. Ular psixologik, pedagogik va neyrobiologik mexanizmlarni birlashtirib, o‘quvchilarni kelajakdagi murakkab muammolarga tayyorlaydi. Kelgusida o‘zbek ta’lim tizimida didaktik o‘yinlarni milliy o‘quv dasturlariga integratsiya qilish bo‘yicha uzun muddatli longitudinal tadqiqotlar zarur bo‘lib, bu ularning uzoq muddatli ta’sirini aniqlashga yordam beradi. Shunday qilib, didaktik o‘yinlar nafaqat ta’limning qiziqarli shakli, balki kreativ avlodni shakllantirishning strategik vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amabile, T. M. (1996). Creativity in context. Westview Press.
2. Baer, J., & Kaufman, J. C. (2008). Gender differences in creativity. The Journal of Creative Behavior, 42(2), 75–105.
3. Gardner, H. (1983). Frames of mind: The theory of multiple intelligences. Basic Books.
4. Guilford, J. P. (1967). The nature of human intelligence. McGraw-Hill.
5. Panksepp, J. (2007). Can PLAY diminish ADHD and facilitate the construction of the social brain? Journal of the Canadian Academy of Child and Adolescent Psychiatry, 16(2), 57–66.
6. Pyle, A., & Danniels, E. (2017). A continuum of play-based learning: The role of the teacher in supporting children’s creativity. Early Child Development and Care, 187(3–4), 478–490.
7. Runco, M. A. (2014). Creativity: Theories and themes: Research, development, and practice (2nd ed.). Academic Press.
8. Russ, S. W., & Fiorelli, J. A. (2010). Developmental approaches to creativity. In J. C. Kaufman & R. J. Sternberg (Eds.), The Cambridge handbook of creativity (pp. 233–249). Cambridge University Press.
9. To‘xtaxo‘jayeva, R. A. (2022). Milliy didaktik o‘yinlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish. O‘zbekiston ta’limi va fan jurnali, 4(2), 112–125.
10. Torrance, E. P. (2008). The Torrance tests of creative thinking: Norms-technical manual. Scholastic Testing Service.
11. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Establishment of Small Industrial Zones and Development of Their Marketing Activities: International Experiences

Yunusboyev Azizbek
e-mail:azizbek02081999@mail.com
Num.998931106656

Annotatsiya. Maqolada kichik va o'rta korxonalar faoliyatida tashkil etish va ularda marketingni rivojlanishi bo'yicha dunyoning yetakchi davlatlarining tajribasi ko'rib chiqiladi uni takomillashtirish bo'yicha xulosalar berilagan.
Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, biznes reja, marketing faoliyati, eksport, import, raqamli iqtisodiyot, soliq, elektron tijorat.
Аннотация . В диссертации рассмотрен опыт ведущих стран мира по организации деятельности малых и средних предприятий и развитию маркетинга в них, а также сделаны выводы по его совершенствованию.
Ключевые слова: свободные экономические зоны, малые промышленные зоны, бизнес-план, маркетинговая деятельность, экспорт, импорт, цифровая экономика, налог, электронная коммерция.
Abstract. The article examines the experience of the world's leading countries in the development of marketing in the activities of small and medium-sized enterprises, and offers suggestions for its improvement.
Keywords: free economic zones, small industrial zones, business plan, marketing activity, export, import, digital economy, tax, e-commerce.

Introduction

In the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 13, 2022, No. PF-153, *"On Additional Measures to Increase the Efficiency of Special Economic, Small Industrial, Youth Industrial and Entrepreneurship Zones"*, specific tasks were defined to simplify the system of coordination and management of these zones, to improve conditions for attracting investments, to ensure the rapid implementation of investment projects, and thereby to create new jobs and increase the income of the population.

In addition, the Presidential Decree No. PF-60 dated January 28, 2022, *"On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026"*, sets out tasks such as the

establishment of 200 new industrial zones and the development of a business incubator system in the regions.

Among the economists who have conducted theoretical research on the establishment and development of small and medium-sized enterprises (SMEs) and the organization of marketing activities in such enterprises are prominent scholars

such as I. Ansoff, B. Berman, G. L. Bagiev, P. S. Zavyalov, A. N. Romanov, V. Evans, J. J. Lamben, Ye. P. Golubkov, and F. Kotler. These figures have played a significant role in shaping modern marketing theory.

In Uzbekistan as well, the development of marketing science has been studied by scholars such as A. Soliyev, Sh. J. Ergashev, H. P. Abulqosimov, A. Bekmurodov, N. Q. Yuldashev, J. Jalolov, M. Qosimova, M. Yusupov, and many others.

Based on the objectives set out in the above-mentioned decrees of our President, the main methodological task today is to study the activities of small and medium-sized enterprises, to analyze international experience in developing marketing in these enterprises, to review scientific research conducted by economists, and to form necessary methodological recommendations suitable for the conditions of Uzbekistan.

Analysis

It is well known that the foundation of small industrial zones is composed mainly of small and medium-sized enterprises (SMEs). As of today, there are **21 special economic zones (SEZs)**, **296 small industrial zones (SIZs)**, **23 technoparks**, and **494 clusters** in the Republic of Uzbekistan. The number of enterprises operating within them amounts to **689** in SEZs, **2,508** in SIZs, **1,178** in technoparks, and **499** in clusters.

Small and medium-sized enterprises (SMEs) — are companies that maintain their revenues, assets, or number of employees below a certain threshold. Compared to large corporations, SMEs are smaller organizations that create the majority of jobs in the global economy. Each country has its own specific definition of what constitutes a small or medium-sized enterprise. In addition to meeting size criteria, the sector of operation is also considered.

SMEs play a **crucial role** in the economy. They employ far more people than large firms and are generally more **entrepreneurial in nature**, helping to stimulate

innovation and flexibility in production and services. SMEs can exist in nearly every industry, though they are more likely to thrive in sectors requiring smaller initial investments and fewer employees. The most common types of SMEs worldwide include **manufacturing enterprises**, **service companies**, **law firms**, **dental offices**, **restaurants**, and **bars**.

SMEs in the United States

In the United States, the **Small Business Administration (SBA)** classifies small businesses according to ownership structure, number of employees, revenue, and industry. For instance, in manufacturing, an SME is defined as a company with **500 or fewer employees**. In contrast, mining companies engaged in copper or nickel extraction may have up to **1,500 employees** and still be considered SMEs. Similar to the European Union, the United States also classifies companies with **fewer than 10 employees** as **Small Office/Home Office (SOHO)** businesses.

When it comes to taxation, the **Internal Revenue Service (IRS)** does not explicitly distinguish between small and medium enterprises. Instead, it groups **small businesses and sole proprietors** separately from medium and large corporations. According to the IRS, a small business is one with **assets of $10 million or less**, while a large enterprise has **more than $10 million in assets**.

Based on recent data from the **SBA Office of Advocacy**, there are nearly **33.2 million small businesses** in the United States, 82% of which have **no employees**. Small businesses account for **99.9% of all firms**, **99.7% of payroll-employing firms**, and **97.3% of exporters** in the U.S. economy.

However, SME ownership remains **disproportionately dominated by white males**, highlighting inequalities in access to financial and entrepreneurial resources. As of March 2023, only **19.6% of employer firms** were minority-owned, and **21.7%** were owned by women.

SMEs in Canada

The Government of Canada defines each business type based on the number of employees, according to Canadian industrial statistics:

- **Micro-enterprises:** 1–4 employees

- **Small enterprises:** 5–99 employees
- **Medium enterprises:** 100–499 employees
- **Large enterprises:** 500 or more employees

In 2022, **small enterprises accounted for 98%** of all employer businesses in Canada. These small businesses provided employment for **10.3 million people**, which is nearly three times the number of people employed in medium-sized businesses.

SMEs in the European Union

The **European Union (EU)** also provides detailed definitions of what constitutes small and medium-sized enterprises. According to the EU standard:

- **Small enterprises** employ fewer than 50 people,
- **Medium-sized enterprises** employ fewer than 250 people,
- And there are also **micro-enterprises** employing up to 10 people.

As in many other countries, SMEs make up **99% of all businesses** in the European Union. They employ approximately **100 million people** and produce **more than half of the EU's Gross Domestic Product (GDP)**.

SMEs in China

The classification of enterprise size in China is quite complex. Generally, companies are categorized based on their **operating revenue, number of employees, or total assets**.

For example:

- **Retail enterprises** in China are considered small if they employ **10–49 workers** and have **annual revenue of at least USD 1 million**.
- **Real estate developers** are classified as small if they have **annual revenue between USD 1–10 million** and **total assets between USD 20–50 million**.
- **Agricultural enterprises** are small if their **annual operating revenue ranges from USD 0.5–5 million**.

Between **2021 and 2025**, China is expected to make large investments in supporting SMEs. According to the **Ministry of Industry and Information Technology**, there

are currently **over 1 million SMEs** in China, and it is projected that **another 100,000 innovative SMEs** will be established during this period.

Main Findings

Small and medium-sized enterprises (SMEs) are businesses whose **revenue, assets, or number of employees** remain below a certain threshold. Each country has its own definition of SMEs and may also apply different criteria depending on the sector of activity. SMEs play a **vital role** in the economy by creating employment opportunities and driving innovation.

Governments around the world regularly provide **support measures** for SMEs, including **preferential tax regimes**, **financial incentives**, and **improved access to credit**. These policies aim to strengthen the competitiveness and sustainability of small and medium-sized businesses as key drivers of economic growth.

References

1. **Decree of the President of the Republic of Uzbekistan** dated January 28, 2022, No. PF-60 — *"On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026."*
[Available at: https://lex.uz/docs/5841063]
2. **Decree of the President of the Republic of Uzbekistan** dated June 21, 2019, No. PF-4363 —
"On Additional Measures to Improve the Effectiveness of Special Economic and Industrial Zones."
[Available at: https://lex.uz/docs/4384718]
3. **Web resources:**
   - Official website of *Lex.uz*
   - *stat.uz*
   - *namstat.uz*
4. **Statistical Source:**
[https://www.statista.com/statistics/1350873/smes-making-b2b-and-b2g-e-commerce-sales-via-a-website-eu/]
5. **OECD Library Resource:**
[https://www.oecd-ilibrary.org/sites/1386638a-en/index.html?itemId=/content/component/1386638a-en#section-d1e18850]

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

QUYOSH SUVNI CHUCHUKLASHTIRISH QURILAMALARINING RIVOJLANISHI BO‘YICHA NASHR QILINGAN ILMIY ISHLAR TAHLILI

Akmaljon.A. Kuchkarov
Shoxrux.O‘.Qosimov

Farg‘ona davlat texnika universiteti, 86-uy, Farg‘ona ko‘chasi. 150107, Farg‘ona, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada 2014–2024 yillar oralig‘ida quyosh energiyasi asosida suvni chuchuklashtirish texnologiyalarining rivojlanish holati xalqaro ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi. Tahlil jarayonida Scopus xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi tanlab olindi, chunki u yuqori impakt faktorli jurnallarni qamrab olgan va global ilmiy faoliyatni kuzatish imkonini beradi. Maqolaga oid ilmiy ishlarni izlashda "solar" AND "water" AND "desalination" kalit so‘zlaridan foydalanildi. Ushbu kalit so‘zlar asosida Scopus bazasidan olingan ma’lumotlar orqali belgilangan davrda nashr qilingan maqolalar soni, mavzu bo‘yicha yetakchi mamlakatlar, eng faol mualliflar, yuqori reytingga ega ilmiy jurnallar hamda texnologiyaning qo‘llanilayotgan asosiy sohalari (masalan, qishloq xo‘jaligi, ichimlik suvi ta’minoti, sanoat) aniqlandi. Tadqiqot natijalari quyosh suvni chuchuklashtirish qurilmalariga bo‘lgan global ilmiy qiziqish ortib borayotganini, ushbu sohada yetakchi davlatlar va nufuzli ilmiy muassasalar faol tadqiqotlar olib borayotganini ko‘rsatdi. Ushbu tahlil kelgusida ilmiy izlanishlar yo‘nalishini aniqlash, mavjud bo‘shliqlarni topish hamda yangi texnologik yechimlar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kaliz sozlar: Quyosh energiyasi**,** tuzsizlantirish texnologiyalari, suv tozalash, qayta tiklanadigan energiya.

1 Kirish

Quyosh energiyasi ekologik toza va hozirgi kunda eng ko‘p o‘rganilayotgan va rivojlanayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining turi hisoblanadi. Tahlillarga ko‘ra, 2025-yilga kelib qayta tiklanadigan yoki noan’anaviy energiya manbalaridan foydalanish hisobiga 2.8 milliard tonna shartli yoqilg‘ini tejash mumkin bo‘ladi. Bu yo‘nalishdagi asosiy rivojlanishlar quyidagilardan iborat: bug‘ turbinali quyosh elektrostansiyalarini ishlab chiqarish va foydalanishga topshirish, quyosh kollektorlarini qo‘llab turar joylar va davlat binolarini energiya bilan ta’minlash, avtonom fotoelektr qurilmalarni loyihalash va ishlab chiqarish, quyosh nuri yordamida sho‘r suvni toza ichimlik suviga aylantirish, shuningdek, quyosh energiyasidan

foydalanib qishda isitish va yozda sovitish tizimlarini yaratish. Ichimlik suvi inson salomatligi va hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan eng muhim resurslardan biridir. Bugungi kunda jahonda aholi sonining tez o‘sishi va global iqlim o‘zgarishlari tufayli toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortmoqda. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining 40 foizdan ortig‘i ichimlik suvi tanqisligidan aziyat chekmoqda. Suv tanqisligi faqat iqlim o‘zgarishlari bilan emas, balki inson faoliyatining salbiy oqibatlari, urbanizatsiya, chuchuk suv ekotizimlarining ifloslanishi va yer resurslaridan foydalanishdagi o‘zgarishlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir [1],[2]. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jahonda har besh kishidan biri ichimlik suvi juda cheklangan hududda yashaydi. Bundan tashqari, aholining 25 foizi zarur infratuzilma yetishmovchiligi tufayli mavjud suv resurslaridan foydalana olmayapti.

Jahon amaliyotida quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari turli konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularning issiqlik texnikaviy, ekologik va iqtisodiy ko‘rstagichlarini hisobiy va tajribaviy tadqiq etish borasida jahon olimlar tomonidan muhim natijalarga erishilgan bo‘lib, ular orasida Kabeel, A.E., Sathyamurty, R., Sharshir, S.W., Omara, Z.M., Zheng, H., Dincer, I., Abdullah, A.S., Essa, F.A., Abdelgaied, M., Wang, X lar tomonidan amalga oshirilgan ishlar etirofga loyiq. O‘zbekistonda quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari borasida bir qancha nazariy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, jumladan R.R. Avezov, J.S.Akhatov, B.M. Achilov, A.B. Vardiyashvili, T.D. Jurayev, Sh.I. Klichev va A. Ismanjanovlarning ishlarini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir.

2 Materiallar va usullar

Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiya Quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari samaradorligini oshirish bo‘yicha nashr etilgan ilmiy tadqiqotlarni tizimli tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu tahlil uchun ma’lumotlar Scopus ma’lumotlar bazasidan olindi va 2014-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oldi. Tadqiqotda muhim kalit so‘zlar – ‘‘Quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari”, – asosida tegishli tadqiqotlarni aniqlash, ma’lumotlarni tashkil qilish va tendensiyalarni tahlil qilish orqali sohaga oid rivojlanishlarga tushuncha hosil qilish uchun tuzilgan yondashuv qo‘llanildi.

Quyida metodologiyaning asosiy tarkibiy qismlari keltirilgan:

2.1. Ko‘lamni belgilash:

Tahlil ko‘lami aynan quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni qamrab olishga yo‘naltirilgan. Quyidagi

parametrlar asosida mos tadqiqotlar tanlab olindi:
Kalit so‘zlar: “Quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari” so‘zlari turli kombinatsiyalarda qo‘llanilib, Boolean operatorlari yordamida aniqroq natijalar olindi.
Nashrlar davri: 2014–2024 yillarda chop etilgan maqolalar tahlil qilindi.
Tadqiqot yo‘nalishi: Quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari qaratilgan ishlar kiritildi.

2.2. Ma’lumotlarni yig‘ish:

Scopus ma’lumotlar bazasi oldindan aniqlangan kalit so‘zlar asosida so‘rovlarga yuborildi. Quyidagi mezonlar asosida natijalar filtrlandi:
Ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari: Faqat Scopus’da indekslangan yuqori sifatli jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar va konferensiya materiallari hisobga olindi.
Fan yo‘nalishi: Qayta tiklanuvchi energiya va elektr muhandisligi sohalaridagi tadqiqotlar qamrab olindi.
Qo‘shilish mezonlari: Quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari, quvvat ishlab chiqarish yoki quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalarini energiya samaradorligi, quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalarini aylantirish tizimlarining loyihasi, modellashtirish yoki eksperimental tahliliga oid tadqiqotlar tanlab olindi.

2.3. Ma’lumotlarni saralash va tashkil etish:

Ko‘rib chiqilayotgan tadqiqotlarning sifati va dolzarbligini ta’minlash uchun quyidagi bosqichlar bajarildi:
Dastlabki saralash: Maqola sarlavhalari va annotatsiyalari ko‘zdan kechirilib, mavzuga aloqadorligi baholandi.
To‘liq matn tahlili: Dastlabki saralashdan o‘tgan maqolalar to‘liq o‘qilib, modellashtirish texnikalari, tizim loyihasi, energiya tahlili va ishlash ko‘rsatkichlariga oid batafsil ma’lumotlar ajratib olindi.
Istisno mezonlari: Mavzuga bevosita aloqador bo‘lmagan yoki ingliz tilidan boshqa tillarda yozilgan maqolalar chiqarib tashlandi.

2.4. Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish:

Tanlab olingan tadqiqotlar sifat va miqdoriy tahlil usullari yordamida tahlil qilindi:
Miqdoriy tahlil: 2014–2024 yillar oralig‘ida chop etilgan maqolalar soni bo‘yicha tendensiyalar aniqlanib, quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalarini samaradorligini oshirishga bo‘lgan ilmiy qiziqishdagi o‘sish kuzatildi.
Mavzuli tahlil: Maqolalar samaradorlikni oshirish usullari, quvvat ishlab chiqarish va ishlash natijalari kabi umumiy mavzular bo‘yicha tasniflandi. Bu orqali tadqiqot yo‘nalishlarining rivojlanish tendensiyalari aniqlandi.

Ishlash ko‘rsatkichlari: Tadqiqotlarda keltirilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari, quvvat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, hamda quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalarini turli muhit sharoitlari va ish rejimlaridagi barqarorlik va sifat baholandi.

2.5. Ma’lumotlarni umumlashtirish va taqdim etish:

Topilmalarni samarali tarzda taqdim etish uchun ma’lumotlar umumlashtirildi va vizual vositalar yordamida ifodalandi:

Grafik ko‘rinish: Maqolalar sonining yillarga nisbatan o‘zgarishi, tadqiqot mavzularining taqsimoti va turli modellashtirish yondashuvlarining samaradorligi grafiklar va diagrammalar yordamida ko‘rsatildi.

Texnikalar taqqoslanishi: Quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalarini samaradorligini oshirishga oid turli usullar kuchli va zaif tomonlari bo‘yicha solishtirildi.

2.6. Tadqiqot sifatini ta’minlash:

Tadqiqot ishonchliligi va yaxlitligini ta’minlash uchun quyidagi choralar ko‘rildi:

Ma’lumotlarni tekshirish: Scopus’dan olingan barcha ma’lumotlar bir nechta manbalar orqali tekshirilib, aniqligi va muvofiqligi tasdiqlandi.

Tanqidiy baholash: Har bir maqola metodologiyasi, modellashtirish yondashuvi va mavzuga dolzarbligi bo‘yicha tanqidiy tahlil qilindi.

Tadqiqotdagi bo‘shliqlarni aniqlash: Mavjud adabiyotlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar aniqlanib, quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalarini samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarurligi ta’kidlandi.

3 Natija va muhokama

Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida indekslangan maqolalar sonini aniqlash uchun taqqoslosh tahlili o‘tkazildi. Ushbu tahlil uchun dastlab ‘‘ScienceDirect.com’’ xalqaro ilmiy malumotlar bazasi tanlab olindi. Chunki ushbu xalqaro baza ilmiy maqolalar, kitoblar, konferensiya materiallari va boshqa ilmiy nashrlarga boy hisoblanadi. Keyingi bosqichda ilmiy ish mavzuyimizga oid kalit so‘zlar ‘‘solar AND water AND desalination‘‘ atamalari tanlab olindi. Ushbu kalit so‘zlar yordamida bazadagi 2014-yilda 2024-yilgacha oraliqda mavjud ilmiy nashrlar soni, soha bo‘yicha yetakchi mamlakatlar, mualliflar, ilmiy jurnallar va quyosh suvni tuzsizlantirish qurilmasi foydalanilayotgan asosiy sohalar aniqlandi.



1-rasm. 2014-2024 yillar oralig‘ida nashr qilingan ilmiy ishlar soni va yetakchi mamlakatlar

1-rasmdan ko‘rishimiz mumkunki quyosh suvni tuzsizlantirish qurilmasiga doir ilmiy ishlarning soni ushbu keltirilgan yillar davomida sezilarli darajada o‘shishni ko‘rsatgan. Ilmiy nashrlarning soni ortishi va 2024 yilda 1400 taga yetganligi, quyosh yordamida suvni tuzsizlantirishga katta e’tibor qaratilayotganligi va katta qiziqish uyg‘otganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari ushbu rasmda, turli mamlakatlarning ushbu sohaga qo‘shgan hissalari keltirilgan. Yetakchi o‘rinlarda Xitoy xalq respublikasi, Hindiston, Misr, AQSH, Saudiya Arabistoni va boshqa mamlakatlarning qo‘shgan hissalarini ko‘rishimiz mumkun. Osiyo davlatlarining ham quyosh suvni tuzsizlantirish qurilmalarining rivojlanishidagi o‘rnini ham takidlab o‘tish maqsadga muofiq.



2-rasm. Xalqaro jurnallar kesimida 2014-2024 yillar oralig‘ida nashr qilingan ilmiy

ishlar soni.

Xalqaro jurnallar kesimida yillar davomidagi maqolalar sonining tahlili 2-rasmda keltirilgan. Eng yuqori ko‘rsatkich „Desalination‘‘ jurnaliga tegishli bo‘lib, ilmiy nashrlar soni 600 tani tashkil qiladi. Ikkinchi o‘rinda „ Desalination And Water Treatment‘‘ jurnali 60 ta, uchinchi o‘rinda „Chemical Engineering Journal‘‘ jurnali 220 ta, to‘rtinchi o‘rinda „Energy Conservation And Management‘‘ jurnali 200 ta va keying o‘rinda „Solar Energy‘‘ jurnali 160 ta ilmiy nashrlar bilan yetakchi o‘rinlarni egallagan. Qo‘lgan jurnallarning ham nashr etgan ilmiy ishlarining salmog‘i ham e’tiborga loyiq. Ushbu rasmda maqolalar, konferensiya tezislari, kitoblar va boshqa ilmiy nashrlarning ham foiz ko‘rsatkichlari keltirilgan. Maqolalarning foiz ko‘rsatkichi eng katta miqdorni 75.9%, konferensiya materiallari 10.8%, tahlilil maqolalar 9%, kitoblar esa 3% tashkil qiladi.



3-rasm. Turli mualliflar tomonidan 2014-2024 yillar davomida nashr qilingan ilmiy ishlar soni

Jahon amaliyotida quyosh suvni tuzsizlantirish texnologiyalari rivojlanishida Kabeel, A.E., Sathyamurty, R., Sharshir, S.W., Omara, Z.M., Zheng, H., Dincer, I., Abdullah, A.S., Essa, F.A., Abdelgaied, M., Wang, X kabi jahon olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan. Ushbu olimlar tomonidan nashr qilingan ilmish ishlar sonini 3-rasmdan ko‘rishimiz mumkun.



4-rasm. Universitetlar, institutlar va boshqa ilmiy tashkilotlar tomonidan nashr qilingan ilmiy ishlarning soni

Universitetlar, institutlar va boshqa ilmiy tashkilotlar tomonidan nashr qilingan ilmiy ishlarning soni 4-rasmda tasvirlangan. Ushbu yo‘nlaish bo‘yicha yetakchi tashkilot Xitoy xalq Respublikasining ta’lim vazirligi hisoblanadi, ularning umumiy ko‘rsatkichi 450 tadan ziyod ilmish nashrlar soniga to‘g‘ri keladi. Tanta Universiteti va Energiya fakultetlarining 250 ta atrofida ilmish narshrlarga ega.



5-rasm. Ilmiy nashrlarning sohalarga bog‘liqlik grafiki

Quyosh suvni tuzsizlantirish qurilmasiga doir ilmiy ishlarning ilm-fan texnika va boshqa sohalarga bog‘liqlik grafigi 5-rasmda berilgan. Quyosh suvni tuzsizlantirish qurilmasidan foydalanilgan eng yirik soha bu “Muhandislik” sohasiga to‘g‘ri keladi.

Ikkinchi eng yirik sohalar “Energiya va Atrof muhit” ham deyarli bir biriga yaqin ko‘rsatkichga ega. “Materialshunoslik”, “Kimyoviy muhandisligi” va “Kimo sohalari” ham quyosh suvni tuzsizlantirish qurilmalarining rivojlanishidagi eng katta yo‘nalishlar sifatida etirof etilgan.

4 Xulosa

Quyosh suvni chuchuklashtirish texnologiyalari bo‘yicha Scopus.com xalqaro malumotlar bazasida nashr qilingan ilmiy maqolalar soni davlatlar, mualliflar, jurnallar, tashkilotlar, foydalanalilayotgan sohalar miqyosida tahlil amalga oshirildi. Ushbu tahlillar asosida quyosh suvni tuzsizlantirish qurilmalari bo‘yicha ilg‘or texnologiylarni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha yillar kesimida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilayotganini ko‘rishimiz mumkun. Bundan tashqari ushbu tadqiqot yo‘nalishining hozirgi kunda dolzab masalaga aylanib borayotgani ushbu sohaga bo‘lgan katta e’tibordan bilib olish mumkun.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. S. Mirzayev. M. M. Ramazonova, “KICHIK ISSIQLIK INERSIYALI QUYOSH SUV CHUCHITGICHLARINING SAMARADOR KONSTRUKSIYALARINI TAYORLASH VA ULARDA TAJRIBAVIY TADQIQOTLAR O`TKAZISH,” Scientific progress, vol. VOLUME 4, no. ISSUE 4.
2. H. Manchanda and M. Kumar, “Study of water desalination techniques and a review on active solar distillation methods,” Env Prog and Sustain Energy, vol. 37, no. 1, pp. 444–464, Jan. 2018, doi: 10.1002/ep.12657.
3. Axatov J.S., Ichimlik suvi ta’minoti tizimlarida sho’rlangan suvlarni quyosh energiyali issiqlik va fotoelektrik o‘zgartirgichlar yordamida chuchuklashtirish. Avtoreferat. Toshkent-2021.
4. Akhatov J.S. Desalination of saline water with the use of RES: demand, current situation, development trends, forecasts for the future (Review) // Applied Solar Energy, (Allerton Press Inc./New York).2019.Vol.55. №2. 133-148pp. (№3, CiteScore, IF=1.5) “Kelajak samarali energetıkası: muammolar va yechımlar” mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. 14-15 dekabr 2023-yil. Farg‘ona 239
5. Yusupov A, Otaqulov O, Ergashev S, Kuchkarov A.A. Automated Stand for Measuring Thermal and Energy Characteristics of Solar Parabolic Trough Concentrators Applied Solar Energy 2021, 57, 216-222.
6. Tiwari, G.N.; Sahota, L. Review on the energy and economic efficiencies of passive and active solar distillation systems. Desalination 2017, 401, 151–179.

7. R. Dev, H.N. Singh, G.N. Tiwari, Characteristic equation of double slope passive solar still, Desalination 267 (2011) 261–266.
8. Akhatov J.S. Energy and Exergy analysis of solar PV powered reverse osmosis desalination. // Applied Solar Energy, (Allerton Press Inc./New York). 2016.Vol.52. №4. 265-270pp. (№3, CiteScore, IF=0.8),
9. A.Kuchkarov, O. Mamatov, N. Juraboev, Z. Obidjonov, N.Muzaffarova va Sh. Qosimov. “Modelling solar water desalination system using natural convection”. E3S Web of Conferences , 02004 (2024) GreenEnergy 2023.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda innovatsion yondashuv: raqamli platfomalar, sun’iy intellekt va tahliliy boshqaruvning o‘rni

Xalikova Maxfuza Faxritdinovna,
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi bitiruvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda raqamli platformalar, sun’iy intellekt va tahliliy boshqaruvning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan, yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash, g‘oya va tashabbuslarini hayotga tatbiq etishlari uchun ularga yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Аннотация: в тезисе анализируется рол и значение цифровых платформ, искуственного интеллекта и аналитического управления, приводятся предложения по дальнейшей поддержке, созданию больше возможностей для реализации молодежю их идей и инициатив.

Abstract: the article analyzes the role and significance of digital platforms, artificial intelligence, and analytical governance, and provides proposals for further support and the creation of more opportunities for youth to realize their ideas and initiatives.

Kalitli so‘zlar: raqamli platformalar, sun’iy intellekt, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, startap loyihalar, integratsiya.

Ключевые слова: цифровые платформы, искуственный интеллект, современные образовательные технологии, стартап проекты, интеграция.

Keywords: digital platforms, artificial intelligence, modern educational technologies, startup projects, integration.

Taraqqiyotning hozirgi rivojlanish jarayonida informatsion va raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga keng kirib bormoqda.

O‘zbekistonda ham ijtimoiy hayotning turli sohalarida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish orqali yoshlar uchun shaxsiy rivojlanish, xorijiy tillarni, zamonaviy kasblarni o‘rganish, sog‘lom turmush tarzi olib borish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, yoshlarning bandligini ta’minlash, zamonaviy usul va vositalar yordamida ta’lim olishlari uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Jumladan, Yoshlar ishlari agentligining xorijiy tillarni o‘rgatishga qaratilgan loyihasi doirasida yaratilgan “Ibrat academy” platformasi orqali O‘zbekistonda birinchilardan

bo’lib xorijliklar uchun o’zbek tili va grammatikasini onlayn o’rgatishni yo’lga qo’ygan, shuningdek, 22 ta xorijiy til, savodxonlik darslari, imo-ishora tili, bolalar uchun ingliz tilini o‘rganish imkoniyati yaratilgan.

Shuninglek, kitobxonlik yo‘nalishidagi “Mutolaa” platformasida 3000 dan ortiq kitoblar, badiiy asar, hikoya, ertak va ilmiy ommabop asarlarning audio va elektron variantlari tayyorlanib, joylashtirildi.

Davlat organlari va takishlotlari tomonidan ko‘rsatib kelinayotgan davlat xizmatlarida shaffoflikni ta’minlash maqsadida ularning bosqichma-bosqich Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatilishiga o‘tilishi natijasida hozirgi kunda 600 dan ko‘p davlat xizmati ushbu portal orqali ko‘rsatilmoqda.

Shu bilan birga, sohalarni rivojlantirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga e’tibor berilmoqda.

A.Chebotaryov qayd etganidek, sun’iy intellekt texnologiyasi kompyuterlarni inson kabi fikrlashga o‘rgatish texnologiyasi bo‘lib, ma’lumotlarni turli manbalardan oladi (informatika, matematika, lingvistika, psixologiya, biologiya, mashinasozlik) va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida qarorlar qabul qiladi.

Ushbu yo‘nalishda mutaxassislarni tayyorlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-yanvardagi PQ–14-son qaroriga muvofiq, Raqamli texnologiyalar vazirligining “Cyber university” davlat universiteti tashkil etilgan.

Ushbu universitetning asosiy vazifalaridan biri etib o‘quv jarayonini ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish hamda ochiq axborot-ta’lim muhitining rivojlanishiga ko‘maklashish belgilangan.

Shuningdek, yoshlarning innovatsion va startap loyihalarini hayotga tatbiq etish maqsadida Sun’iy intellekt markazi, Kosmos va kelajak texnologiyalari markazlarini o‘zi ichiga olgan “IT-Park” loyihasining ikkinchi bosqichi qurilishi boshlandi.

Umuman olganda yoshlar bilan ishlash tizimini raqamlashtirish ishlari boshlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-sentyabrdagi PF–163-son Farmoniga asosan, Yoshlar ishlari agentligiga 2026-yil 1-fevralga qadar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lgan “Yoshlar yagona elektron platformasi” axborot tizimini yaratish vazifasi yuklatildi:

yoshlarning demografik va ijtimoiy holati, bandligi, ta’lim olishiga oid ma’lumotlar asosida “Yoshlar balansi”ni shakllantirish;

yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini baholash va uning natijalarini aniqlash;

yoshlarning qiziqishlarini aniqlash bo‘yicha sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, uning natijalarini avtomatik tahlil qilish;

yoshlarga oid mavjud imtiyozlar, preferensiyalar va imkoniyatlar to‘g‘risida ma’lumot berish;

shaxsga doir ma’lumotlar bo‘yicha amalga oshirilgan so‘rovlarning raqamli izlarini saqlash.

O‘z navbatida, Farmonda vazirlik va idoralarning 81 ta elektron axborot tizimlarini ushbu platformaga integratsiya qilish belgilandi.

Mazkur platformaning ishga tushirilishi yoshlarning ijtimoiy holati, qiziqishi, ehtiyojlari va ularning hayotiga ta’sir qiluvchi boshqa omillarni aniqlash va o‘rganishda sun’iy intellekt xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratadi.

Bunday faoliyat natijasida olingan tahliliy ma’lumotlar kelgusida turli ijtimoiy holatdagi, turli imkoniyatga ega yoshlarni individual yondashuv asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun tegishli chora-tadbirlarni belgilab, amalga oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida qayd etish lozimki, raqamli platformalar va sun’iy intellekt imkonyatlaridan keng foydalanish yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini oshiradi, tashabbuskor yoshlarning ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida yuqori natijalarga erishishiga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, bunday sharoitda yoshlarning hamma qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, barcha uchun o‘z qobiliyatini namoyon qilishini rag‘batlantirishga qaratilgan tizim yaratish aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga erishish uchun muhim omillardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://president.uz/oz/lists/view/8580.
2. https://lex.uz/docs/7332592.
3. Чеботарев А. Цифровые технологии настоящего и будущего //Авиапанорама. – 2018. – №4 (130). – С.4 – 11.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

Innovative Methods in Teaching English to High School Students

Aziza Safaralieva
Master's degree from Uzbek State World Languages University

Annotation. This article explores innovative methods used in teaching English to high school students in the context of modern education. It emphasizes that innovation in teaching not only involves technology but also pedagogical creativity, learner-centered approaches, and motivational strategies. The paper discusses techniques such as communicative language teaching, task-based learning, blended learning, gamification, and project-based instruction as key tools for developing language proficiency and motivation among students.
Keywords: innovation, English teaching, communicative approach, blended learning, gamification, motivation, high school.

Introduction. The 21st century has brought dramatic changes in education, requiring teachers to rethink traditional methods of instruction. The rapid development of technology, globalization, and the increasing importance of English as an international language have made innovation an essential component of effective teaching. In high school contexts, students are at a critical stage of cognitive, emotional, and linguistic development. Therefore, teachers must apply modern, student-centered approaches that foster creativity, autonomy, and motivation. Innovation in education refers to the introduction of new ideas, tools, or methods that improve teaching efficiency and learning outcomes. In the field of English language teaching (ELT), innovation goes beyond the use of technology; it includes new pedagogical models, teacher–student interaction styles, and classroom management techniques that enhance communication and collaboration.

One of the most influential innovative methods in ELT is Communicative Language Teaching (CLT). This approach focuses on interaction as both the means and the goal of learning a language. Rather than concentrating solely on grammar accuracy, CLT emphasizes fluency and the ability to express meaning in real-life contexts.

Project-Based Learning (PBL) provides students with the opportunity to use English creatively while working on long-term projects. It integrates various skills — reading, writing, speaking, and listening — in meaningful ways. For example, teachers can use online platforms like Kahoot! or Quizizz to make grammar or vocabulary quizzes more exciting. Students compete in a friendly way, which helps them remember information

better. Teachers can also organize role-playing games where students pretend to be in real-life situations, such as at a restaurant or airport. Games help students overcome the fear of making mistakes because they focus on fun rather than performance. They also promote cooperation, as many games require teamwork and communication in English. Research shows that gamified lessons increase motivation, concentration, and participation among high school students.

Gamification works best when it is balanced with learning goals. Teachers should make sure that students not only enjoy the games but also learn something meaningful from them. Digital storytelling combines traditional storytelling with modern technology. Students create short stories using images, videos, voice recordings, and music. This method allows them to use language creatively and connect it to their personal experiences. For example, students can write and record a story about their favorite childhood memory or an interesting event in their school life. They can then add pictures or background music and present it to the class. Through this activity, students practice writing, speaking, and pronunciation.

Digital storytelling also helps students develop digital literacy skills, which are essential in today's world. It encourages self-expression and builds confidence, especially for students who may be shy to speak in front of others. Teachers can use free tools like Canva, Powtoon, or Storybird to help students create their stories. This method connects emotional learning with language development. When students tell their own stories, they become more engaged and motivated to learn new vocabulary and grammar to express themselves better.

Blended learning is a method that combines traditional classroom teaching with online learning. In this model, students attend lessons in person but also study online through videos, quizzes, and discussion forums. This approach allows flexibility. Students can learn at their own pace and review materials whenever they need to. For example, a teacher might use an online platform such as Google Classroom to share assignments and videos. Students can watch them at home and then discuss them in class. Blended learning is especially useful for high school students because it encourages independence and self-discipline. It also helps teachers track each student's progress more easily through online tools. Another advantage of blended learning is that it helps prepare students for future education, where digital learning is becoming increasingly common. However, teachers need proper training to design effective blended lessons, and schools must ensure that all students have access to technology. Communicative Language Teaching (CLT) and Task-Based Learning (TBL) are not new, but they are still among the most effective and innovative ways to teach English.

The main idea of these methods is that students learn a language best when they use it to communicate real messages. In a communicative classroom, students do not simply memorize grammar rules—they use English to complete tasks such as planning a trip, interviewing a classmate, or debating a topic. In this way, they learn grammar and vocabulary naturally while practicing speaking and listening. Task-based learning gives students a goal to achieve using the target language. For example, the teacher may ask them to write a group report on "The most interesting places to visit in our country." Students research, write, and present their findings in English. Such tasks make learning meaningful and develop critical thinking.

While innovative methods bring numerous advantages, their implementation also presents challenges. Some teachers lack training in using technology or innovative techniques, while others face time constraints or large class sizes. Moreover, some schools may not have sufficient resources for blended or project-based learning.

Conclusion. Innovation in English language teaching is not limited to digital tools but encompasses a shift in pedagogical philosophy — from teacher-centered to learner-centered education. Innovative methods in teaching English are essential for preparing high school students for the modern world. Approaches such as the flipped classroom, project-based learning, gamification, digital storytelling, blended learning, and communicative tasks make lessons more interactive, enjoyable, and effective. They help students develop not only language skills but also creativity, collaboration, and digital competence. The role of the teacher is crucial in this process. Teachers must be open-minded, creative, and ready to learn new things. They should guide students in using technology responsibly and ensure that all learners have equal opportunities to participate.

References

1. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. The Autodesk Foundation.
4. Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching. Longman.
5. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.
6. Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House, 83(2), 39–43.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

INGLIZCHA OTLI FRAZEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI

Abduraxmonov Umbar
umbarabdurahmonov@gmail.com
+998975340733
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada frazeologik birliklarning til tizimidagi o‘rni, ularning turlari, semantik va kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Ingliz tilidagi frazal fe’llar, idiomalar va kollokatsiyalar misolida frazeologik birliklarning ma’no hosil qiluvchi mexanizmlari izohlanadi. Ot turkumiga oid frazemalarning semantik tahlili orqali nominalizatsiya jarayoni ham yoritiladi. Maqolada, shuningdek, frazemalarning madaniy va figurativ xususiyatlari, ularning kognitiv asoslari hamda semantik tasnifi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, idiom, frazal fe’l, kollokatsiya, semantika, kognitiv lingvistika, madaniy kontekst.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются фразеологические единицы как важная часть языковой системы, их семантические, когнитивные и культурные особенности. На примере английских фразовых глаголов, идиом и коллокаций анализируются механизмы формирования значения. Особое внимание уделяется номинализации фразовых глаголов и семантической классификации именных фразем. Подчеркивается роль фразеологизмов в отражении культурных и когнитивных аспектов языка.*

Ключевые слова: *фразеологическая единица, идиома, фразовый глагол, коллокация, семантика, когнитивная лингвистика, культурный контекст.*

Annotation : *This article explores phraseological units as a crucial component of the linguistic system, focusing on their semantic, cognitive, and cultural characteristics. Using examples from English phrasal verbs, idioms, and collocations, it analyzes how meaning is constructed within phraseological expressions. Special attention is given to the nominalization of phrasal verbs and the semantic classification of noun-based idioms. The study highlights the role of phraseological units in reflecting the cognitive and cultural dimensions of language.*

Keywords:*phraseological unit, idiom, phrasal verb, collocation, semantics, cognitive linguistics, cultural context.*

Ingliz tilidagi **frazeologik birliklar,** odatda, **frazal fe'llar**, **idiomalar** va **kollokatsiyalar** sifatida tasniflanadi. Ushbu atamalar jumlada yagona ma'no birligi sifatida ishlaydigan so'zlar guruhi sifatida ishlatiladi, lekin ularning tasnifi sintaktik va semantik xususiyatlariga qarab farqlanadi. Quyida ingliz tilidagi frazal birliklarning asosiy turlari haqida umumiy ma'lumot:

– **Frazal fe'llar** bu fe'l bilan predlog yoki ravish (ba'zan ikkisi ham) birlashib, ko'pincha alohida so'zlarning ma'nosidan farq qiladigan yangi ma'no hosil qiladigan ifodalardir va ular ham o'z navbatida uch turga bo'linadi:

a) Intransitiv frazal fe'llar: Fe'l obyektni talab qilmaydi.

Wake up – uyg'onmoq.

Misol: I wake up early every day. (Men har kuni erta uyg'onaman)

Give up – taslim bo'lish, umidni kesmoq.

Misol: She gave up after the first attempt. (U birinchi urinishdan keyin taslim bo'ldi)

Bu kabi frazal fe'llar obyektni talab qilmaydi va to'g'ridan-to'g'ri predlog yoki qo'shimchalar bilan ishlatiladi.

b) Transitiv frazal fe'llar: Fe'l bevosita obyektni talab qiladi:

Pick up – olib ketmoq, ko'tarib olmoq

Misol: I need to pick up some groceries. (Men oziq-ovqat sotib olishim kerak)

Turn off – o'chirmoq.

Misol: Please turn off the lights when you leave. (Iltimos, chiqib ketganda chiroqlarni o'chiring)

Tilshunoslar, masalan, **Maykl Lyuis** (til o'rganish sohasidagi taniqli olim): "frazal fe'llar non-native speakerlar uchun qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, chunki ularning ma'nolari **idiomatik** yoki **kontekstga bog'liq** bo'lishi mumkin"[1], – deb ta'kidlaydi. Yana bir olim **Jon Sinclair:** "frazal fe'llar **norasmiy kommunikatsiyada** markaziy rol o'ynaydi va ular **suhbatlashish tabiati**ni aks ettiradi deb ta'kidlaydi. Ular gapirishda foydalanuvchilarga g'oyalarni samarali va dinamik tarzda ifodalash uchun imkon beradi. Frazal fe'llar odatda kundalik suhbatda bir so'zli ekvivalentlardan ko'ra afzalroq bo'ladi, chunki ular yanada ifodali va jonli"[2].

Idiomalar – bu so'zlarning ma'nosi ularning alohida ma'nolaridan tushunib bo'lmaydigan, figurativ ma'no shakllariga ega bo'lgan so'zlar guruhi. Quyida ularga bir qancha misollar keltiramiz:

Burn the midnight oil – Tun bo'yi ishlash

[1] Michael L. The English Verb: An Exploration of Structure and Meaning. Language Teaching Publications Series. 1986. – P. 98-109.
[2] John McHardy Sinclair. How to use Corpora in Language Teaching. John Benjamins Publishing. 2004.– P. 65-75.

Misol: “She had to burn the midnight oil to finish the project” (U loyihani tugatish uchun tun bo‘yi ishlashiga to‘g‘ri keldi)

A blessing in disguise – Yaxshi ko‘rinmagan yaxshilik

Misol: “Losing the job was a blessing in disguise; I found a better one” (Ishdan ayrilish yomon bo‘lib ko‘ringan yaxshilik edi; yaxshiroq ish topdim)

Hit the nail on the head – To‘g‘ri aytish

Misol: “You hit the nail on the head with your comments” (Siz izohlaringiz bilan to‘g‘ri aytdingiz)

Michael Lyuis til o‘rganishda **kollokatsiyalar**ning ahamiyatini ta’kidlaydi va til o‘rganuvchilariga so‘zlarni alohida-alohida emas, balki **til bo‘laklarini** o‘rganishga urg‘u beradi. Uning fikriga ko‘ra: “kollokatsiyalar birgalikda tez-tez ishlatiladigan so‘z birikmalari – tilning tabiiy ishlatishiga muhim ahamiyatga ega”[3]. Masalan, ona tili so‘zlovchilari “**make a decision**” (qaror qabul qilish) yoki “**strong coffee**” (o‘tkir kofe) kabi iboralarni tez-tez ishlatadilar, chunki bu so‘z juftliklari tilda ko‘pincha birgalikda uchraydi. Lyuis bu umumiy kombinatsiyalarni tushunish va ishlatish tabiiy muloqot uchun zarur deb hisoblaydi. Yana bir olim Norbert Schmit til o‘rganuvchilarining **kollokatsiyalarni o‘rganish orqali** leksik va til ko‘nikmalarini oshirishiga e’tibor qaratgan. U kollokatsiyalarni kuchli **leksik resurs**ni yaratishning asosiy vositasi sifatida ko‘radi, chunki ular o‘rganuvchilarga nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki semantik jihatdan tabiiy so‘zlarni ishlatishga yordam beradi. Schmitning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki: “o‘rganuvchilar faqat so‘zlarning alohida ma’nolariga emas, balki so‘zlar qanday birgalikda ishlatilishiga ham e’tibor qaratishlari kerak”[4]. Uning fikriga ko‘ra, bu, samarali muloqot va tilni o‘zlashtirish uchun juda muhim. Frazeologik birliklar tabiiy tillarda juda kata qismni tashkil etishi bois, ularning barchasini bitta tadqiqiotda qamrab olish va mukammal baza shakillantirish imkonsiz ish. Ammo xorijda shu vaqtga qadar frazeologik birliklar ustida qilingan ishlar yetarlicha bo‘lib, katta bazaga ega bo‘lgan bir qancha platformalar ishga tushirilgan, masalan, **Sket Engine** dasturi. **Sketch Engine** – bu matnlarni tahlil qilish va korpuslarni yaratish uchun ishlatiladigan kuchli lingvistik vositadir.

[3] Michael L. The English Verb: An Exploration of Structure and Meaning. Language Teaching. Publications Series. – 1986. – P. 98-109

[4] Schmitt N. Vocabulary in language teaching. – New York: Cambridge University Press. 2000. – P. 101-105.



Ot so‘z turkumidagi frazeologik birliklarning semantik tahlilida, ushbu birikmalarning ma’nosi qanday shakllanishi va tushunilishi haqida o‘rganamiz. Bunday birliklar ko‘pincha, **frazeologik fe’llardan** (fe’l + ko‘makchi qism, masalan, predlog yoki so‘z) hosil bo‘ladi va ularning ma’nosi odatda asl fe’lning ma’nosidan farq qiladi. Bunday birikmalarning ma’nosi odatda harakat yoki holatni emas, balki hodisa, narsa yoki tushuncha bilan bog‘liq bo‘ladi. Amerikalik olim **Ronald Langakker** frazal fe’llar va ularning nominalizatsiyasi (frazal ot shaklida o‘zgarishi)ni aqliy **tuzilmalar** nuqtayi nazaridan tushuntirishni taklif qilgan. Uning fikricha: “frazal fe’llar (va ularning otli shakllari) inson ongida **abstrakt tushunchalar** sifatida shakllanadi va ularni tushunish uchun, avvalo, **tasavvuriy tuzilmalar**ni hisobga olish kerak”[5]. Langackerning fikriga ko‘ra, **“pick up”** frazal fe’li jismoniy narsani ko‘tarishni anglatadi, lekin uni otli shaklga aylantirganda (masalan, “pickup”) bu **narsani ko‘tarish jarayoni** yoki **ko‘tarish xususiyati**ni ifodalaydi (masalan, “pickup

[5] **Ronald L.** Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. – New York, 1991. – P. 65-73.

truck” – yuk mashinasi, bunda, “pickup” so‘zi yuk ko‘tarish bilan bog‘liq). Boshqa olimlar **Noam Chomskiy** va **Maurice Gross** frazal fe’llar va frazal otlar tuzilmasiga sintaktik yondashuvni qo‘llaydilar. Ular frazal fe’llarni **fe’l + predlog** qurilmalari sifatida ko‘rib chiqadilar va bu qurilmalar nominalizatsiya qilinib, frazal otlar hosil bo‘ladi. Ularning fikricha: “frazal fe’llar nominalizatsiya qilinganda, ular **morfologik transformatsiyalarga** uchraydi, lekin ular hali ham o‘zlarining fe’l + predlog qurilmalaridan sintaktik xususiyatlarni saqlab qoladilar”[6]. **Masalan: “Breakdown”** (fe’l “break down”dan olingan) ot so‘z turkumidagi frazeologik birlik bo‘lib, quyida kontekstga bog‘liq holda bir qancha manolarini ko‘rib chiqamiz.

a) Mexanik nosozlik.

Breakdown – bu mexanizm, transport vositasi yoki tizimning ishlamaganligi yoki nosozligi.

Masalan, *The car had a breakdown on the way to the airport, and we missed our flight.* (Bizning mashinamiz aeroport yo‘lida buzilib qoldi va biz reysimizga kech qoldik).

b) Hissiy yoki ruhan charchash.

Breakdown — bu odamning emotsional yoki ruhiy holatining buzilishi, u bosim yoki stress bilan kurasha olmaydi.

Masalan, *After weeks of working overtime, she had a mental breakdown and needed to take a few days off*. (Bir necha haftalik ortiqcha ishlagandan so‘ng, u ruhiy tushkunlikka tushdi va bir necha kun dam olishga majbur bo‘ldi)

d) Qismlarga ajratib tushuntirish.

Breakdown – bu murakkab mavzu yoki narsani oddiy qismlarga ajratib tahlil qilish.

Masalan, *The manager gave a breakdown of the sales figures during the meeting to explain where improvements were needed*. (Yig‘ilishda menejer qaysi sohalarda yangilanish qilish kerakligini ko‘rsatish uchun savdo ko‘rsatakichlarini mayda qismlarigacha tushuntirdi). Bundan tashqari **“breakdown”** frazemasining jarayon yoki hodisaning amalga oshmasligi hamda qurilish inshootlarining buzilishi kabi ma’nolari ham mavjud.

Frazeologik birliklarning yana bir turi bu idiomalar bo‘lib, unda so‘zlar o‘rtasidagi ma’no yuzaki talqinidan farq qiladi. Boshqa frazeologik ifodalarga o‘xshab, **idiomalar figurativ ma’no**ni o‘z ichiga oladi, bu esa iboraning tarkibidagi so‘zlarning alohida-alohida ma’nolaridan ko‘ra boshqa ma’noni anglatadi. Bu idiomlar kundalik nutqda va

[6] **Noam Chomsky** and **Maurice Gross.** From The Concept Of Transformation In Harris And Chomsky To The Lexique-Grammaire Of Maurice Gross. – Sankt peterburg, 2011. – P. 78–81.

yozuvda, fikrlarni yanada ijodiy yoki qisqacha ifodalash uchun tez-tez qo‘llaniladi. Odatda, bunday iboralar quyidagicha tuzilishga ega bo‘ladi;

– **Noun + Preposition (Ot + Predlog).**

Masalan, a dead end – oxiri yo‘qligi.

– **Noun + Noun** (Ot + Ot).

Masalan, **a double-edged sword** – ikki tomonlama foyda va zarar.

– **Noun + Adjective** (Ot + Sifat).

Masalan, **a golden opportunity** – oltin imkoniyat.

– **Noun + Verb (Ot + Fe’l).**

Masalan, a takeoff – ko‘tarilish.

– **Noun + Adverb** (Ot + Ravish).

Masalan, **a breakthrough –** kata muvaffaqqiyat.

Gibbs va Nunhig kabi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha: “otli idiomalar kompozitsion emas, chunki ular alohida so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosini emas, balki ko‘chma ma’noni o‘z ichiga oladi”[7]. Til o‘rganuvchilar uchun bu qiyin, chunki ular butun idiomani so‘zma-so‘z talqin qilishdan ko‘ra, uni qat’iy ifoda sifatida o‘rganishlari kerak. Odatda, otli idiomalar **metaforik asosga** ega, ya’ni so‘zlarning **yuzaki ma’nosini** emas, figurativ (ko‘chma) ma’nosini olib keladi. Masalan, “**a bitter pill”** (achchiq dori) idiomasi, achchiqlikni, odatda, noxush yoki qabul qilish qiyin bo‘lgan narsa yoki holatni anglatadi. Iboralarning yana bir muhim xususiyati, ularning **o‘zgarmas tuzilmasidir**. Bir marta shakllanganidan so‘ng, frazal ifodalarning tarkibiy qismlari odatda belgilangan tartibda qoladi va ularni o‘zgartirishni yoki almashtirishni amalga oshirish qiyin bo‘ladi. Masalan, **“a wild goose chase”** (behuda izlanish) idiomasi ma’lum bir tartibda ishlatiladi va **“a chase of wild goose”** (yovvoyi o‘rdakni quvish) deb o‘zgartirilsa, bu grammatik jihatdan noto‘g‘ri bo‘ladi. Quyida bir qancha ingliz tilida ot so‘z turkumiga kiruvchi iboralarning yuzaki hamda ko‘chma ma’nosini ko‘rib chiqamiz.

– **A change of heart.**

Yuzaki ma’nosi: Yurakdagi o‘zgarish (emotsional yoki jismoniy holatni ifodalaydi).

Ko‘chma ma’nosi: Biror narsaga yoki odamga bo‘lgan fikr yoki munosabatning o‘zgarishi.

– **A dark horse.**

Yuzaki ma’nosi: Qora rangdagi ot.

[7] Raymond W.Gibbs. Cognitive Linguistic Studies of Language Cognition in Cultural Contexts. – Benjamins, 2024. – P. 67-71.

Ko‘chma ma’nosi: Tanish bo‘lmagan yoki e’tibor bermagan odam yoki raqib, lekin kutilgan natijaga erishadigan yoki g‘alaba qozonadigan.

– **A chip off the old block.**

Yuzaki ma’nosi: Eski toshning kichik parchasi, kattasiga o‘xshash shaklda.

Ko‘chma ma’nosi: Ota-onasiga juda o‘xshash bo‘lgan odam, ayniqsa tashqi ko‘rinish yoki xulq-atvor jihatidan.

Gibbs ta’kidlaganidek: “odamlar frazeologik ifodalarni **yuzaki va figurativ** tarzda qayta ishlashadi. Otli brikmalarning tuzilishi miyada kognitiv qarama-qarshilik keltirib chiqarishi mumkin, chunki dastlabki shakliy talqin figural ma’no bilan ziddiyatga keladi. Vaqt o‘tishi bilan, iboraga bo‘lgan tanishlik miyada **kognitiv yukni kamaytiradi**, bu esa frazal birliklarni tezroq va avtomatik tarzda qo‘llash imkonini beradi”[8]. Frazemalarni o‘rganish tilshunoslikda juda muhim, chunki ular tilning tabiiy rivojlanishini, madaniyatni va odamlarning fikrlash usullarini aks ettiradi. Kovecses, Kassiari va Glukksberg kabi tadqiqotchilar idiomalar madaniy kontekstda chuqur singdirilganligini ta’kidlaydilar. “Iboralarining tuzilishi bevosita tarjima qilib bo‘lmaydigan madaniy metafora va qadriyatlarni aks ettirishi mumkin”[9]. Idiomalarning madaniy nisbiyligi sotsiolingvistlar uchun qiziqish sohasi bo‘lib, ular ba’zi idiomalar ma’lum bir madaniy kontekstdan tashqari so‘zlovchilar uchun hech qanday ma’noga ega emasligini ta’kidlaydilar. Bu ma’noda, frazemalarni semantik tasniflash tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biridir, chunki u frazemalarning ichki ma’nolarini, ularning kontekstda qanday ishlatilishini va semantik jihatdan qanday toifalarga bo‘linishini o‘rganadi. Semantik tasniflash frazemalarni turli kategoriyalarga ajratishni, ularning ma’nosini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday tasniflash tilshunoslarga frazemalarning ma’no strukturasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda frazemalarning asl ma’nolari, ularning o‘zgaruvchan kontekstlari va ularning ko‘plab ma’nolarini aniqlash ko‘zda tutiladi. Frazemalarni semantik tasniflashda ularning ishlatilish nuqtayi nazaridan farqlanishi kerak bo‘lgan bir nechta kategoriya mavjud, masalan, frazemalar figurativ yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noda ishlatilishi mumkin. Semantik tasniflash frazemalarning tildagi o‘rnini va ularning kommunikativ funksiyasini aniq belgilashga imkon beradi. Misol uchun, ba’zi frazemalar ko‘proq emotsional ta’sir ko‘rsatish uchun ishlatiladi, boshqalari esa ma’lum bir fikrni ifodalash uchun o‘ziga xos uslubda ishlatiladi. Frazemalarning semantik tasniflanishi bu yo‘nalishlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ham aniqlaydi, chunki

[8] Raymond W.Gibbs. Cognitive Linguistic Studies of Language Cognition in Cultural Contexts. – Benjamins, 2024. – P. 95-110.
[9] Kövecses Z. Metaphor in culture: Universality and variation. – Cambridge University Press, 2005.

frazemalar nafaqat so‘zning ma’nosini, balki uning ijtimoiy kontekstdagi rolini ham o‘rganadi. Shu bois, frazemalarni semantik tasniflash tilshunoslikdagi muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u tilning boyligini, uning ijtimoiy va madaniy o‘zgaruvchanligini o‘zida aks ettiradi. Bu jarayon frazemalarning turli semantik kategoriyalarga bo‘linishini aniqlashda yordam beradi va tilni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Abduraxmonova N.** *Mashina tarjimasi: lingvistik asoslar*. – T.: Akademnashr, 2012. – 160 b.
2. **John McHardy Sinclair.** *How to use Corpora in Language Teaching*. – John Benjamins Publishing, 2004. – 182 p.
3. **Кунин А.В.** *Фразеология современного английского языка*. – М.: Международные Отношения, 1972. – 288 с.
4. Schmitt, N. Vocabulary in language teaching. – New York: Cambridge University Press. 2000. – 148 p.
5. **Ronald L.** Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. – New York, 1991. – P. 65-73.
6. **Noam Chomsky** and **Maurice Gross.** From The Concept Of Transformation In Harris And Chomsky To The Lexique-Grammaire Of Maurice Gross. – Sankt peterburg, 2011. – P. 78–81.
7. https://www.sketchengine.eu/

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

«Сравнение оптимальных вариантов разрезов при френулоэктомии коротких уздечек верхней и нижней губы у детей»

Зокирова Ш.Ё.
Магистр Ташкентского Государственного Стоматологического Института.
zokirova.shokhsanam1@gmail.com

Анотация. В данной статье рассмотрено сравнение оптимальных вариантов разрезов при френулоэктомии коротких уздечек верхней и нижней губы у детей.

Актуальность исследования. На сегодняшний день аномальные уздечки губ и языка возникают в результате нарушения процесса эмбрионального формирования и развития ДНК структур мягких тканей плода. Вероятно, дефект развития может быть связан с наследственностью (наличие короткой уздечки у одного из родителей), нарушениями эмбрионального развития в следствие хронического стресса. А также вирусных заболеваний, приема некоторых лекарственных препаратов, негативного воздействия профессиональных факторов, и не исключен факт сильного токсикоза во время беременности. Стоит отметить, что уздечка верхней губ более выражена по величине, плотности, форме и протяжности чем уздечка нижней губы. Укороченная верхняя и нижняя связка губ может приводить к образованию диастем, повышенной кровоточивости десны из-за частого травмирования, пародонтит, нарушению дикции и к психологическому дискомфорту из-за неэстетической улыбки.

Ключевые слова: уздечки губ, эмбриональные нарушения, диастема, преддверие полости рта, психология и эстетика улыбки, речь.

Цели и задачи исследования. Эластичные поперечно-полосатые мышечные волокна прикрепленные между губами и деснами а также десной и языком называются уздечками полости рта. Уздечки расположены в верхней, нижней, боковых сторонах рта и под языком. Основной задачей уздечек является обеспечение правильного функционирования движений составляющих элементов полости рта, а также, участие в правильном и четком произношение речи.

Материалы и методы. Аномальные уздечки верхней губы систематизируются

с рядом авторов как А. Н. Ненашев, С. С. Куликов которые рассматривали морфологические состояния уздечек с учетом их прикрепления; по данным Ф.Я.Хорошилкиной частота аномалий верхней губы составиляет 15.5% - 20.9% , при этом низко прикрепленная сочетанная уздечка верхней губы с диастемой у 49% детей; Г. Ю. Пакалнс выделял различия в прикреплении уздечек, разделяя их на «сильные», «средние», «слабые»; М. Ю. Образцов и С. Н. Ларионов отмечали три признака плотности уздечек.

Результаты исследования. Клинические исследования и большое количество систематизаций уздечек верхней и нижней губы показывают высокую значимость проблемы в детской хирургической стоматологии. Таким образом, выработка алгоритма а также усовершенствование существующих методов опираясь на современной тенденции хирургического лечения является актуальной темой сегодняшнего дня. Следовательно устранение или предупреждение перечисленных функциональных нарушений является важным показанием к медицинской реабилитации больных с аномалиями и деформациями зубочелюстной системы.

Выводы. Таким образом хирургические методы направленные на устранение факторов способствующих и усугубляющих зубочелюстные деформации являются первоочередными задачами как врача ортодонта так и хирурга стоматолога. Техника оперативных вмешательств при перечисленной патологии не сложна проводится обычно врачом на амбулаторном хирургическом приеме. Однако разнообразие методик оперативных вмешательств затрудняет их выбор при той или иной патологии уздечек или преддверия полости рта. Чаще всего хирург стоматолог не определяя степень патологии применяет стандартные виды оперативных вмешательств без выбора показаний. Например по Хорошилкиной при аномалии уздечек показано рассечение уздечки или иссечение ее у места прикрепления и ушивание раны.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1.Варганова Н. В., Семенихина А. И., Протопопова С. Н. и др. Опыт хирургического лечения коротких уздечек губ и языка. / Актуальные проблемы современной стоматологии. — Материалы научн.-практ. конф., посвящ. 25-летию стомат. ф-та Ижевской медакадемии. — Ижевск, 2005. — С. 105-107.

2.Персин Л.С., Елизарова В.М., Дьякова С.В. Стоматология детского возраста. - М.: Медицина, 2003. – 639 с.
3.Телебаева Г.Т. Профилактика и лечение сагиттальных аномалий прикуса у детей // Автореф… канд. мед. наук (140021-стоматология). -
Алма-Ата: 1976. - 23 с.
4. Хорошилкина Ф.Я. Этиология, клиника и лечение диастемы // Стоматология.- 1972. - №2. - С.77-81.
5. Хорошилкина Ф.Я. Руководство по ортодонтии. - М.: Медицина, 1999. -798с.
6. Ненашев А.П., Куликов С.С. Классификация аномалий уздечек верхней губы и их лечение// Стоматология. - 1968. - №1.- С.77-81.

INNOVATIVE PUBLICATION
Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation
Vol.3 №10 (2025). October
innovativepublication.uz

BURUN BO‘SHLIG‘I KASALLIGILARIDA DIAGNOSTIKA USULLARI VA ZAMONAVIY DAVOLASH YONDASHUVINI BAXOLASH

Xoshimov Ilxomjon Xasan o‘g‘li
Matxoshimov Nodirjon Soibjonovich
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Jo‘rayev G‘anijon G‘ulomovich
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada frontal sinus yallig‘lanishi – frontit kasalligining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, diagnostika usullari hamda zamonaviy davolash yondashuvlari tahlil qilinadi. Kasallikning erta aniqlanishi va kompleks davolash usullarini qo‘llash bemorlarning sog‘ayish darajasini oshirishi ta’kidlanadi.
Kalit so‘zlar: frontit, sinusit, burun bo‘shlig‘i, LOR kasalliklari, antibiotikoterapiya, endoskopik sinus jarrohligi.
Аннотация. В данной статье рассматриваются этиология, патогенез, клинические проявления, методы диагностики и современные подходы к лечению воспаления лобной пазухи — фронтита. Подчеркивается, что своевременная диагностика и применение комплексных методов терапии повышают уровень выздоровления пациентов.
Ключевые слова: фронтит, синусит, полость носа, ЛОР-заболевания, антибиотикотерапия, эндоскопическая хирургия пазух.
Abstract. This article analyzes the etiology, pathogenesis, clinical symptoms, diagnostic methods, and modern treatment approaches of frontal sinus inflammation—frontitis. It emphasizes that early diagnosis and the use of complex therapeutic methods significantly improve patients’ recovery rates.
Keywords: frontitis, sinusitis, nasal cavity, ENT diseases, antibiotic therapy, endoscopic sinus surgery.

Odamning burun bo‘shlig‘i va uning atrofidagi yondosh sinuslari (gaymor, frontal, etmoid va sfenoid) yuqori nafas yo‘llarining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning yallig‘lanishi ko‘plab LOR kasalliklariga sabab bo‘ladi. Shulardan biri — frontit, ya’ni peshona (frontal) sinusining shilliq qavati yallig‘lanishidir. Frontit ko‘pincha o‘tkir respirator virusli infeksiyalar, rinit, gripp yoki allergik kasalliklarning asorati sifatida rivojlanadi.

Kasallik ko‘p hollarda og‘ir kechadi, kuchli peshona og‘rigi, isitma, umumiy holsizlik va burundan yiringli ajralmalar bilan namoyon bo‘ladi. Davo kechiktirilgan hollarda frontit surunkali shaklga o‘tadi va bu esa intrakranial (miya pardasi yallig‘lanishi, abstsesslar) yoki orbital (ko‘z sohasidagi) asoratlarga olib kelishi mumkin. Shu bois frontitni o‘z vaqtida aniqlash, to‘g‘ri tashxis qo‘yish va zamonaviy davolash usullarini qo‘llash muhim hisoblanadi.

Frontit bugungi kunda LOR kasalliklari orasida eng ko‘p uchraydigan sinusit turlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tkir rinosinusit bilan kasallangan bemorlarning 10–15 foizida frontal sinuslar yallig‘lanishi kuzatiladi. Ayniqsa, sovuq iqlim sharoitida yashovchi aholida, allergik rinit yoki immunitet pasayishi fonida kasallikning tarqalish ko‘rsatkichi yuqori. Zamonaviy tibbiyotda frontitni erta diagnostika qilish uchun kompyuter tomografiya (KT), endoskopik tekshiruv, mikrobiologik tahlil kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Davolashda esa antibiotikoterapiya, burun bo‘shlig‘ini drenajlash, va endoskopik sinus jarrohligi samarali natijalar bermoqda. Shu nuqtai nazardan, frontit kasalligini chuqur o‘rganish, uning etiologiyasi, patogenezi, klinik kechishini tahlil qilish hamda diagnostika va davolashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish tibbiyot amaliyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Maqola frontitning oldini olish, kasallikni erta bosqichda aniqlash va samarali davolash yondashuvlarini tizimli ravishda o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu LOR (laringologiya va otorinolaringologiya) amaliyotida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari frontit bilan bog‘liq klinik belgilar, diagnostika usullari va davolash strategiyalarini chuqur tahlil qilganligi sababli, u bemorlarni vaqtida tashxislash va to‘g‘ri muolaja qilish bo‘yicha aniq klinik ko‘rsatmalar sifatida foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, maqola surunkali frontitning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash, profilaktik choralarni belgilash va bemorlarning hayot sifatini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jihatlari bilan maqola nafaqat ilmiy, balki amaliy LOR amaliyotida qo‘llaniladigan manba sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Maqsadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — frontit kasalligining etiologiyasi, patogenezi, klinik kechishi, diagnostika usullari va zamonaviy davolash yondashuvlarini tahlil qilish hamda ushbu kasallikka qarshi samarali profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishdir.

Vazifalari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Frontitning etiologik omillarini aniqlash – kasallikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar, infeksion agentlar va xavf omillarini tahlil qilish.

Patogenezini o‘rganish – yallig‘lanish jarayonining rivojlanish mexanizmini hamda sinus drenaj tizimidagi o‘zgarishlarni ilmiy asosda tahlil etish.

Klinik belgilari va kechish shakllarini tavsiflash – o‘tkir va surunkali frontitning klinik farqlarini aniqlash.

Diagnostika usullarini tahlil qilish – zamonaviy instrumental va laborator tekshiruvlarning ahamiyatini baholash (rinoskopiya, rentgen, KT, endoskopiya va b.).

Metodlar. Rinoskopiya — burun bo‘shlig‘i va frontal sinuslarning holatini vizual baholash imkonini beradi.

Rentgen — frontal sinusning anatomik tuzilishi va yallig‘lanish belgilari haqida ma’lumot beradi.

Komp’yuter tomografiya (KT) — sinuslar va atrof to‘qimalarni batafsil ko‘rsatadi, surunkali yoki murakkab holatlarni aniqlashda yuqori diagnostik aniqlik beradi.

Endoskopik tekshiruv — burun va sinuslarning ichki strukturasi, yallig‘lanish va patologik o‘zgarishlarni aniqlashda qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kuzatilgan 68 nafar bemorning 52 foizida frontit o‘tkir, 48 foizida esa surunkali shaklda kechgan. O‘tkir frontit bilan og‘rigan bemorlarning aksariyati (65%) kuz-qish mavsumida murojaat qilgan, bu esa sovuq havo va yuqori nafas yo‘llari infeksiyalarining kuchayishi bilan bog‘liq.

